Калит сўзлар: компетенция, креатив тафаккур, тамойиллар, креатив муҳит, ижодий компетенция, интилувчанлик; ташаббускорлик; омиллар.

Хашимова Махсуда Комилджановна
Кандидат педагогических наук, профессор
Кафедра «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К ФОРМИРОВАНИЮ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье рассматриваются дидактические требования к формированию креативного мышления у учащихся в образовательном процессе. Обсуждаются этапы развития креативного мышления у учащихся, проявление творческих компетенций, особенности организации занятий для развития креативного мышления, принципы креативного подхода, формирование творческой компетенции у учащихся, а также факторы, способствующие созданию креативной среды.

Ключевые слова: компетенция, креативное мышление, принципы, креативная среда, творческая компетенция, стремление, целеустремленность. инициативность, факторы.

Makhsuda Komiljanovna Khashimova
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

DIDACTIC REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS

Abstract. This article examines the didactic requirements for fostering creative thinking in students within the educational process. It discusses the stages of creative thinking development in students, the manifestation of creative competencies, the specifics of organizing classes for developing creative thinking, the principles of a creative approach, the formation of creative competence in students, and factors contributing to the creation of a creative environment.

Keywords: competence, creative thinking, principles, creative environment, creative competence, aspiration, determination. Initiative, factors

Креативлик- бу мавжуд ҳолатга аввал бўлмаган янгиликни киритишдир. Креативлик- янги тизимни яратилиши, мавжуд ахборотни янги шароитларда комбинациялашган ҳолда қўлланишида акс этиши мумкин.

Креативлик-иқтидор ва ижодкорлик даражаси, ижод қилиш қобилияти бўлиб, шахснинг турғун характерли хусусияти хисобланади.

Креатив тафаккурни шакллантиришнинг Дидактик талабларидан бири ўқитишдаги изчиллик (билим ва маҳорат, креатив фикрлашни ривожлантириш мақсадларида олдин ўтилган амалий машғулотлар ва маърузалар билан алоқаси) ни таъминлаш зарурияти пайдо бўлади. Тахлил ва натижалар. Таҳлил натижаларига таяниб, ўқувчиларда креатив фикрлашни ривожлантиришда, қуйидаги кетма-кетликка эътибор қаратиш зарур деган хулосага келдик:

1. Машғулотнинг чақириқ босқичи. Бу босқичда ўқувчиларни фаоллаштириш, мавзунинг мазмун-моҳиятига ўқувчиларнинг чуқур кириб боришлари, уни тўлиқ англаб етишлари жараёнига тайёрлашни амалга ошириш зарурияти;

2. Машғулот жараёнида креатив фикрлашни ривожлантириш методларини қўллаш босқичи. Бу усуллар ўқув машғулотининг бошланишида ёки исталган қисмида қўлланилиши мумкин. Бу босқичда муаммо ўқувчиларга исталган усулда берилади ва уларнинг фикрлари орқали натижа умумлаштирилиб олинади;

3. Мавзу мазмуни-моҳиятини англаш босқичи. Мавзуга оид хулосавий фикрлар жамланади ва ўқитувчи томонидан янги фикрлар билан тўлдириб борилади;

4. Фикрлаш босқичи. Муҳокама қилинган мавзу юзасидан ўзлаштирилган билим ва тушунчаларни қисқача ёзма баён қилиш тапширилади. Бу топшириқларни бажариш учун синф гуруҳларга ажратилади. Ҳар бир гурух топшириқ бўйича ўз фикрларини ёзади ва ҳар бир гурух вакили бажарилган топшириқни бошқаларга тушунтириб беради. Булардан ташқари гуруҳларга топшириқни бажариш учун етарли вақт ажратиш, йўл-йўриқлар кўрсатиш, кучли гурухларни рағбатлантириб бориш, натижаларни баҳолашга ҳам аҳамият қаратади. Машғулот жараёнида кучли гурух аъзоларини кучсиз гурух аъзоларига алмаштириш ҳам мумкин. Ўқув машғулотларини ушбу кетма-кетликда ташкил этилганида, ўқувчиларнинг креатив фикрлашлари ривожланиб боради, мустақил фикрлаш кўникмаси ҳосил бўлиб, ижодий тафаккурининг ривожланишига замин яратади.

Ўқувчиларнинг ижодкорликга оид компетенцияси қуйидагиларда ўз аксини топади:

1. Турли вазиятларда ечим топа олиш кўникмаси.
2. Ўз эхтиёжлари ва қизиқишларини баён эта олиш.
3. Бошқа ахборот манбааларини топа олиш.
4. Бошқа ечим ва усулларни генирация қила олиш(бирлаштира олиш).

Тизимли-фаолиятли ёндашув асосида ўқувчиларнинг компетенцияларини ошириш мумкин:

1. Муаммони ечишга таёр бўлиш.
2. Технологик компетенция.
3. Мустақил таълим олишга тайёр бўлиш.
4. Ахборот ресурсларидан фойдалана олиш.
5. Коммуникатив компетенция.
6. Ижтимоий муносабатга тайёр бўлиш.

Таълим олиш жараёни уч соҳага ҳам таъсирини ўтказиш лозим:

1. Ментал (маъруза, расм, таҳлил-жараёни, роль ўйнаш орқали ўзаро таъсир);

2. Эмоционал (психодрама, роллик моделлаштириш, гештальттерапия, проектив расм);

3. Жисмоний (ҳаракатланиб ишлаш, психодрама, жисмоний ўйинлар)

Креатив компетентцияни шакллантиришга йўналтирилган дарсларида ўқувчиларни фаоллаштириш учун индивидуал ва табақалашган ёндашувдан фойдаланамиз. Креатив тафаккурни шакллантиришнинг Дидактик талаблардан бири ўқитишдаги изчиллик билим ва маҳорат, мантиқий-танқидий фикрлаш, креатив фикрлашни ривожлантириш мақсадида олдин ўтилган амалий машғулотлар ва маърузаларнинг интеграциясини таъминлаш зарур.

Креатив фикрлашни ривожлантириш учун машғулотни қуйидаги кетма-кетликка ташкил этиш мумкин:

1. Машғулотнинг чақириқ босқичи- ўқувчиларни фаоллаштириш, мавзунинг мазмун-моҳиятига ўқувчиларнинг чуқур кириб боришлари , жараёнига тайёрлашни амалга ошириш зарурияти;


2. Машғулот жараёнида креатив фикрлашни ривожлантириш методларини қўллаш босқичи. Бу усуллар ўқув машғулотининг бошланишида ёки исталган қисмида қўлланилиши мумкин.

3. Мавзу мазмуни-моҳиятини англаш босқичи. Мавзуга оид хулосавий фикрлар жамланади ва ўқитувчи томонидан янги фикрлар билан тўлдириб борилади;

4. Фикрлаш босқичи. Муҳокама қилинган мавзу юзасидан ўзлаштирилган билим ва тушунчаларни қисқача ёзма баён қилиш тапширилади. Бу топшириқларни бажариш учун синф гуруҳларга ажратилади.

Креативлик - шахсга йўналтирилган ёндашувнинг қуйидаги тамойиллари ва қоидаларини талаб этади:

- Болани берилган табиат иноми деб қабул қилиш.
- Ўқув жараёнининг боланинг табиатига мувофиқлиги
- Жамоада гуманистик муносабатларни яратиш
- Муайян шахснинг ўсишини баҳолаш (1-расм).



1-расм. Креатив ёндашув тамойиллари.

Креатив фикрни шакллантиришда унга мос муҳитни яратиш ҳам муҳим ҳисобланади, қуйида креати муҳитни яратишга таъсир этувчи омилларни кўриб чиқамиз.

Креатив муҳитни яратишга ёрдам берувчи омиллар:

- янгилик, ажабланиш, муваффақият ва муваффақиятизлик ҳолатлари;
- билим ва кўникмаларни янгилаш усули;
- визуал, аудиологик ва тактил воситаларидан фойдаланиш;
- АКТдан фойдаланиш (тақдимотлар, видеолар, тренажёрлар);
- суҳбатлар-диалоглар, мунозаралар, ҳаётий вазиятларни таҳлил қилиш;
- мусобақалар, танловлар, ўйинлар, театрлаштириш, спектакллар;
- театр, кўргазмалар, музейлар, концертлар, экскурсияларга ташриф буюриш.

Визуал усулни қўллаш босқичлари:

1. Ўқувчининг эҳтиёжлари ва идрок хусусиятларини аниқлаш;
2. Стратегияларни ишлаб чиқиш ва визуал қўллаб-қувватлаш усулларини танлаш;
3. Визуал воситаларни танлаш (расмлар, фотосуратлар, предметлар ва бошқалар),
4. Кўргазмали қуролларнинг тушунарлилигини текшириш;
5. Визуал қўллаб-қувватлаш усулларини қўллаш,
6. Визуал қўллаб-қувватлаш самарадорлигини баҳолаш.

Аудио хотирани шакллантиришда қуйидаги техникалар самарали:

1. Оғзаки тушунтириш ва ҳикоялар: Асосий дақиқаларга урғу бериб ва муҳим тафсилотларни интонацион тарзда ажратиб, материални овоз билан тушунтириш.

2. Маърузалар ва овозли дарсликлар ёзувлари: Ўқувчиларга маърузаларни ёзишни ёки материалларни овоз чиқариб ёзишни таклиф қилиш.

3. Мунозара ва муҳокамалар: Ўқувчилар ўз фикрларини билдириш ва бошқаларнинг далилларини тинглаш орқали мавзуни муҳокама қилишлари мумкин бўлган гуруҳ мунозараларини ташкил қилиш.

4. Товуш эффектларидан фойдаланиш: Маълумот билан ҳиссий боғланиш учун дарс мавзусига мос келадиган мусиқа ёки товушларни улаш.

5. Овоз чиқариб ўқиш: Ўқувчиларни дарсликлар, мақолалар ёки қўшимча материалларни овоз чиқариб ўқишга ундаш, бу эса идрок этиш ва эслашни яхшилайди.

6. Савол-жавоблар: Ўқувчиларга саволлар бериш, фикр-мулоҳазаларни рағбатлантириш ва ўқув жараёнида фаол иштирок этишни рағбатлантириш.

Тактил сезги – одам танасининг фақат иссиқ, совуқ, оғриқ, санчиқ, босиш, эзиш кабиларни бир-биридан фарқ қилиб сезиш эмас, балки секин эсган шабада, салгина теккан нарсалар (пахта, латта ва бошқа(лар) ёки жуда майда ҳашаротлар)ни ҳам сезиши. Тактил сезги йўллари орқа миянинг орқа устунларидан ўтади ва таламус орқали марказ томон йўналади. Мия соғлом бўлиши учун тактил ҳислар керак (яъни ушлаб кўрадиган нарсалар билан машғул бўлиш керак), ҳидлар билан, ранглар билан ишлаш керак. Шу сабали креативликни шакллантиришда ҳам дидактик ўйинлар, бирор предметларни ясаш, тикиш, жамлаш каби фаолият турларини ташкил этиш мақсадга мувофиқ.

АКТдан фойдаланиш (тақдимотлар, видеолар, тренажёрлар) ҳам ўқувчиларда креативликни шакллантириш алохида ўрин эгаллайди. Компютерли ўқитишнинг афзалликлари жуда кўп:

- ўқувчиларда маълум малакаларни шакллантириш вақти қисқаради;
- машқ қилинадиган топшириқлар сони ошади;
- ўқувчиларнинг ишлаш суръати жадаллашади;
- компютер томонидан фаол бошқаришни талаб қилиниши натижасида ўқувчи таълим субъектига айланади;
- ўқувчилар кузатиши, мушоҳада қилиши қийин бўлган жараёнларни моделлаштириш ва бевосита намойиш қилиш имконияти ҳосил бўлади;
- коммуникация воситаларидан фойдаланган ҳолда дарсни узоқдаги манбалар билан таъминлаш имконияти ҳосил бўлади;
- компютер билан мулоқот дидактик ўйин характерини олади ва бу билан ўқувчиларда ўқув фаолиятига мотивация кучаяди.

Албатта ўқувчиларда креатив тафаккурни шакллантириш жараёни мураккаб бўлиб, маълум кетма-кетликда бир қатор вазифаларни бажаришни талаб этади.

Ўқувчиларда ижодий компетенцияни шакллантириш:

• Ўқувчиларнинг ижодий компетенциясини, уларнинг кўникма ва малакаларини шакллантириш даражасини диагностика қилиш ва мониторинг қилиш.

• Шахсий ютуқларининг сифатли ўсиши асосида ва индивидуал таълим траекториясида талабаларнинг қобилиятларини ривожлантириш истиқболларини ҳисобга олган ҳолда ҳар бир талабанинг ижодий компетенциясини мақсадли даражадаги узоқ муддатли режалаштириш.

• Инновацион таълим технологиялари, усуллари, техникаси, шаклларидан фойдаланиш орқали талабаларнинг ижодий компетенциясини шакллантириш учун психологик, педагогик ва ташкилий ва технологик шароитларни яратиш; ўқув жараёнини дарс ва дарсдан ташқари фаолият тизими орқали лойиҳалаш.

• Шахснинг ижодий фазилатларини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган ўз педагогик фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш ва таҳлил қилиш, акс эттириш асосида кейинги ўқув ишларини тузатиш ва режалаштириш.

“Креативлик омаси” номи билан машҳур Пол Торранс тўртта креативлик кўникмасини аниқлаган (1987 й):

1. Равонлик. Кўплаб ғояларни ўйлаб топиш кўникмаси кўп деган сўзга асосланади.

2. Мослашувчанлик. Турли ғояларни ўйлаб топиш кўникмаси ўзгартириш деган сўзга асосланади.

3. Ўзига хослик. Бошқаларга ўхшамаган, ажралиб турувчи ғояни ўйлаб топиш кўникмаси ноёб деган сўзга асосланади.

4. Яратувчанлик. Ғояларни кенгайтириш кўникмаси қўшиш деган сўзга асосланади.

Ижодий қобилиятларнинг ривожланиш даражасини ва айниқса, кичик ёшдаги ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини баҳолаш масаласи очиқлигича қолмоқда. Кичик мактаб ўқувчиларининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш даражаларини аниқлаш муаммоси Бибикова Н.В., Вишневая Н.Е., Клевцова В.Л. томонидан диссертация тадқиқотида кўриб чиқилган. Гин С.И., Шулга Э.П. Карпова Л.Г. Уларнинг ишларини назарий таҳлил қилиш ва муаммони ўзимиз ўрганишимиз бошланғич синф ўқувчиларининг ижодий қобилиятларини ривожлантириш даражасини баҳолашнинг қуйидаги мезонларини аниқлашга имкон берди:

1. Когнитив-эмоционал мезон - чегарадан ташқарида фикрлаш, иложи борича кўпроқ ғоялар ва тасвирларни ишлаб чиқариш қобилиятини очиб беради; ижодий жараёнга жалб қилиш даражасини - ижодий вазифага ҳиссий муносабатнинг кучини тавсифлайди, бу ижодий маҳсулотда акс этади, унинг ўзига хослигини, ифодасини, ривожланишини таъкидлайди.

2. Шахсни ижодий мезони - ўз ижодий салоҳиятини фаоллаштириш қобилиятини кўрсатади - тасаввурдан фойдаланиш, нарсаларга танқидий қараш, имкон қадар мустақил ҳаракат қилиш тенденцияси (индивидуал стратегия).

3. Мотивацион-қиймат мезони - ижодий маҳсулот яратиш орқали ижодий фаолиятда иштирок этиш, ўзини намоён қилиш истагини тавсифлайди; ўзининг ва бошқа бировнинг ижоди қадрини тушуниш ва эътироф этишдан далолат беради.

4. Фаолият-процессуал мезон мустақил ижодий фаолиятни ташкил этиш кўникмаларини қўллашни, қўйилган ижодий вазифани ҳал қилишда энг муваффақиятли хулқ-атвор стратегиясини ва ақлий фаолиятнинг муайян усулларини танлашни акс эттиради ва натижаларга эътибор беради.

5. Рефлектив мезон - ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини мулоҳаза юритиш, кучли ва заиф томонларини излаш, ўз-ўзини ривожлантиришга интилиш, дунё ва унинг ўзгаришини билиш, ўз ижодий ютуқларини ва бошқаларни объектив танқид қилиш қобилиятини очиб беради; ижодкорнинг ички позициясининг ривожланишини белгилайди.

Мезонларнинг ҳар бири унинг тўлиқ мазмунини очиб берадиган бир қатор кўрсаткичлар билан белгиланади.

Когнитив-эмоционал мезон кўрсаткичларига қуйидагилар киради:

- турлича фикрлаш;
- ассоциациялардан фойдаланиш қулайлиги (ассоциатив ва экспрессив равонлик);
- темперамент хусусиятлари (пластиклик, ўзгарувчанлик, ҳиссий барқарорлик, машаққатли фаолиятга мойиллик, ижтимоий куч);
- эмпатия.

Шахсий-ижодий мезон кўрсаткичларига қуйидагилар киради:

- тасаввур;
- танқидий фикрлаш;
- мустақилликка интилиш, муаммога ўз нуқтаи назарини билдиришдан қўрқишнинг йўқлиги;
- вазиятдан юқори фаолият (ташаббускорлик, берилган чегарадан ташқарига чиқиш);
- ижодкорнинг ички позицияси (муаммо-қидирув вазифаларини ҳал қилишга қизиқиш, ижодий фаолиятни индивидуаллаштириш тенденциялари).

Мотивацион-қиймат мезонининг кўрсаткичлари қуйидагилардир:

- ижодий фаолиятга бўлган эҳтиёж;
- ўқув ва когнитив фаолиятда иштирок этиш зарурати;
- ўқишга, мактабга, ўқитувчига, синфдошларига ижобий муносабат;
- ижодкорликнинг қадр-қимматини тан олиш.Фаолият-процессуал мезон кўрсаткичлари:
- ижодий ва когнитив мустақиллик;
- ижодий фаолият усулларини ўзлаштириш;
- бажарилган ҳаракатларнинг сифати;
- мақсадга эришиш, ўз фаолиятининг аниқ натижаларини олиш истаги;
- ҳамкорлик кўникмалари;
- ўз хатти-ҳаракатларини оптималлаштириш қобилияти (ижодий жараённи ташкил этиш кўникмалари, у ёки бу хатти-ҳаракатлар стратегиясини мослашувчан танлаш, самарасиз ҳаракат усулини оғриқсиз рад этиш).

Рефлексив мезоннинг кўрсаткичлари:

- ўзига нисбатан ҳиссий-қийматли муносабатнинг хусусиятлари (ўзини ўзи қадрлаш даражаси, унинг адекватлиги);
- ўз-ўзини тарбиялаш, ўз-ўзини ривожлантириш истаги;
- ўзингизнинг ва бошқа бировнинг ижодий маҳсулотини объектив баҳолаш қобилияти.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Андреев В. И. Эвристика для творческого саморазвития / В. И. Андреев. -Изд. 2-е. - Казань: Центр инновац. технологий, 2008. - 223 с.

2. Балановская Л. А. Криология. Теория творческой деятельности / Л. А. Балановская. — Балашов: Николаев, 2005. - 194 с.

3. Барышева Т. А. Психологическая структура креативности (опыт эмпирического исследования) / Т. А. Барышева // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. - 2012. — № 145. -С. 54-64.

4. Барышева Т. А. Психолого-педагогические основы развития креативности: учеб. пособие / Т. А. Барышева, Ю. А. Жигалов. - СПб.: СПГУТД, 2006. - 268 с.

5. Батищев Г. С. Введение в диалектику творчества / Г. С. Батищев. - СПб.: Изд-во РХГИ, 1997. - 464 с.

6. Бермус А. Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании [Электронный ресурс] / А. Г. Бермус // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. - Режим доступа: http://www.eidos.ru/journal/2005/091 0-12.htm.

7. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Д. Б. Богоявленская. - М.: Академия, 2002.

8. Боно. Эде. Серьезное творческое мышление / Эде Боно. - М.: Попурри, 2005. - 416 с.

9. Бос. Э. Как развивать креативность / Э. Бос; пер. с нем. К. А. Петросян -Ростов н/Д: Феникс, 2008. - 189 с.

10. Брякова, И. Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02 / И. Е. Брякова. - СПб., 2010. - 463 с.

11 М.К.Хашимова, Х.И.Юсупова, М.О.Камилова, Д.Х.Алимова. Креатив педагогика асослари -Дарслик.-Тошкент.:2023й- 217 бет.

Parpiyeva Malika Mominovna

Dotsent, p.f.f.d (PhD)
“Pedagogika” kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

INFORMAL TA’LIM MUHITIDA TALABALAR BILIM VA KO‘NIKMALARINI TRANSFORMATSIYALASH TEXNOLOGIYALARINI LOYIHALASHTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada informal ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkinligi, informal o‘qish — bu mustaqil o‘qishga intilish ekanligi, informal ta’lim muhitida talabalar bilim va ko‘nikmalarini transformatsiyalash texnologiyalarini loyihalashtirishning ilmiy va nazariy asoslari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: informal ta'lim, loyihalashtirish, transformatsiyalash, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim, mustaqil ta’lim, oilada ta’lim

Парпиева Малика Моминовна

Доцент, кандидат наук
Кафедра «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ТРАНСФОРМАЦИИ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ В СРЕДЕ НЕФОРМАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается тот факт, что неформальное образование носит целенаправленный, но не институционализированный характер (не включает в себя определённые правила и нормы), менее организовано и структурировано, чем формальное или неформальное образование, и может включать образовательную деятельность в семье, на рабочем месте, по месту жительства и в повседневной жизни; что неформальное обучение представляет собой стремление к самостоятельному обучению; а также научные и теоретические основы разработки технологий для преобразования знаний и навыков учащихся в неформальной учебной среде.

Ключевые слова: неформальное образование, проектирование, трансформация, формальное образование, неформальное образование, самостоятельное образование, семейное образование.

Malika Mominovna Parpieva

Associate Professor, PhD
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DESIGNING TECHNOLOGIES FOR TRANSFORMING STUDENTS' KNOWLEDGE AND SKILLS IN NON-FORMAL EDUCATION

Abstract: This article examines the fact that non-formal education is purposeful but not institutionalized (does not include specific rules and norms), is less organized and structured than formal or informal education, and can include educational activities in the family, workplace, community, and everyday life; that non-formal learning represents a desire for independent learning; and also the scientific and theoretical foundations for the development of technologies for the transformation of students' knowledge and skills in non-formal learning environments.

Key words: non-formal education, design, transformation, formal education, non-formal education, independent education, family education.

Informal ta'lim (Norasmiy ta'lim) - standart ta'lim muhitidan tashqari ta'limning umumiy atamasi - kundalik hayotga hamroh bo‘ladigan va har doim ham maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lmagan individual kognitiv faoliyat; Atrofdagi madaniy-ma'rifiy muhitda shaxsning o‘z faoliyati orqali amalga oshiriladigan spontan ta'lim; muloqot, kitobxonlik, madaniyat muassasalariga tashrif buyurish, sayohat qilish, ommaviy axborot vositalari va boshqalar, kattalar jamiyatning ta'lim salohiyatini ularning rivojlanishining samarali omillariga, kundalik mehnat, oila va dam olish faoliyati natijasiga aylantirganda va o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lmagan.

Bu muqobil ta'limning turli shakllariga taalluqli bo‘lishi mumkin: o‘z-o‘zini o‘rganish, yoshlar bilan ishlash, yoshlar harakatlarida ishtirok etish, ko‘ngillilar harakati, ommaviy axborot vositalari (jumladan, televidenie, video o‘yinlar, jurnallar va boshqalar), muzeylar, kutubxonalar, hayvonot bog'lari va boshqalar. Norasmiy o‘qituvchilar ko‘plab sohalarda ular bilan shug'ullanmoqchi bo‘lgan shaxslar va guruhlar bilan ishlaydi.

"Norasmiy ta'lim" atamasi nazariyotchilarning umumiy ta'lim masalalariga bag'ishlangan ishlarida amaliy ishlarga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi. Norasmiy ta'limning rasmiy va norasmiy ta'limdan asosiy farqi shundaki, bilimlarni egallash jarayoni ta'lim muassasalarida emas, balki boshqa ijtimoiy institutlarda (oilada, ishda va boshqa rasmiy va norasmiy birlashmalarda) amalga oshiriladi.

Jarayon ko‘p qirrali bo‘lib, uning tuzilishi inson hayotining tuzilishini aks ettiradi. Norasmiy ta’lim turlari tizimlashtirilmagan bo‘lsa-da, asosiy turlariga sinash va xato yo‘li bilan o‘qitish, o‘z-o‘zini o‘zi tarbiyalash, hamkorlikda ishlash orqali tengdoshlarni o‘rganish, ommaviy axborot vositalaridan ma’lumot olish, tajribali mutaxassis rahbarligida ishlash, badiiy havaskorlik faoliyati bilan shug‘ullanish va boshqalar kiradi.

Informal ta’lim aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta’limdan ko‘ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o‘quv faoliyatini o‘z ichiga olishi mumkin.

O‘zbekiston faqat ta’limni rivojlantirib hamda, eng muhimi, bunga aholining barcha qatlamlarini jalb qilib yuksak marralarga erishishi mumkin. Ammo uzoq vaqt mobaynida ta’lim sohasidagi qonunchilik mukammal bo‘lmagan. 2020 yil 23 sentabr kuni «Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonunning yangi tahriri Prezident tomonidan imzolandi va kuchga kirdi. Mazkur Qonunda ilk bor ta’lim xizmatlarini sezilarli darajada kengaytirishga asos bo‘ladigan ta’lim olishning turli shakllarining ta’rifi berilgan.

Ular orasida «oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish», «inklyuziv ta’lim», «katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish». Oxirgi atama **rasmiy, norasmiy va informal ta’limni** o‘z ichiga oladi.

Yurtimizning ertangi kelajagi innovatsion iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq. Mukammal bilimlarga tayangan holda qisqa vaqt ichida samarali va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratish mumkin. Shu bois ham yuqori sifatli ta’lim tizimiga ega bo‘lish, inson kapitaliga sarmoya kiritish, rasmiy ta’lim bilan birga norasmiy ta’limni ham rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Informal o‘qish — bu mustaqil o‘qishga intilish. Bu xislat, taassufki, respondentlarning atigi 27,8 foizidagina mavjud, xolos. Bu nuqtada qiziqishlar doirasi rasmiy va norasmiy ta’lim olishdan farqli o‘laroq, tarmoqlararo universal bilimlar, informatika va dasturlash, chet tillari, iqtisodiy fanlar, uy xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, transport vositalarini ta’mirlash va boshqalarni qamrab oladi. Ammo baribir qiziqishlar qandaydir tarzda ish bilan bog‘liq (53%). Eng muhimi, tadqiqot o‘qishga bo‘lgan talab yuqori ekanini tasdiqladi. So‘rovnomada ishtirok etgan 24–33 yosh oralig‘idagi shaxslarning 70,8 foizi o‘zida bilim va ko‘nikmalar yetishmasligini his qilsa, 34–42 yoshdagilar orasida bu ko‘rsatkich deyarli 60 foizni tashkil etadi.

Tadqiqot natijalaridan respublikadagi vaziyatga bir qadar oydinlik kiritildi va mavjud holatni tartibga solish uchun quyidagi tavsiyalarni **b**ildirish mumkin:

Norasmiy ta’lim va informal o‘qish natijalarini tan olish, tasdiqlash va sertifikatsiyalash tizimini joriy etish lozim.

Bugungi kunda talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, shuningdek, real hayotiy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezmoqda. Bu esa informal ta’lim muhitining ahamiyatini keskin oshiradi, chunki bu muhit shaxsga erkin o‘rganish, o‘z sur’atida rivojlanish va zamonaviy texnologiyalar bilan mustaqil ishlash imkonini beradi. Shu bois, bugungi kunda talabalar o‘z bilim va ko‘nikmalarini faqat rasmiy dars mashg‘ulotlarida emas, balki onlayn platformalarda, jamoaviy loyihalarda, ijtimoiy media va boshqa informal manbalar orqali ham faol rivojlantirmoqda. Zamonaviy ta’lim jarayoni endilikda an’anaviy auditoriya doirasi bilan cheklanmay, raqamli texnologiyalar va informal ta’lim muhitlari bilan integratsiyalashgan, ko‘p tarmoqli hamda moslashuvchan o‘quv tizimi shaklida rivojlanmoqda. Bunday murakkab va ko‘p qirrali muhitda ta’lim samaradorligini oshirish uchun transformatsiyalash texnologiyalarini qo‘llash zaruratga aylanmoqda.

Transformatsiyalash texnologiyalari — bu nafaqat yangi pedagogik yondashuvlar, balki raqamli vositalar, interaktiv platformalar, gamifikatsiya, loyiha asosida o‘qitish, mobil o‘rganish kabi metodlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalar analitik fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoni hal qilish, jamoaviy ishlashsingari zarur kompetensiyalarni chuqur o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ammo, bu yondashuvlar nazariy jihatdan samarali ko‘rinsa-da, ularni amalda joriy qilishda bir qator tizimli muammolar mavjud. Jumladan:

texnologik infratuzilmaning yetishmasligi — aksariyat ta’lim muassasalari zamonaviy texnika va internet bilan to‘liq ta’minlanmagan;

o‘qituvchilarning raqamli va innovatsion texnologiyalarni yetarlicha bilmasligi — bu texnologiyalarni samarali tatbiq etishga to‘sqinlik qiladi;

moslashtirilgan va sifatli ta’lim kontentining yetarli emasligi — mavjud materiallar ko‘pincha real ehtiyojlarga mos emas;

talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasining pastligi — bu esa informal muhitda mustaqil o‘rganish samaradorligini pasaytiradi.

Shunday qilib, zamonaviy ta’lim transformatsiyasi uchun nafaqat texnologiyalarni joriy qilish, balki mavjud muammolarni aniqlash va ularni tizimli hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida informal ta’lim shakllari rasmiy ta’limni to‘ldiruvchi muhim unsur sifatida qaralmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, talaba uchun mustaqil, erkin va moslashuvchan o‘rganish muhiti ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ilmiy manbalarni o‘rganish natijalari informal ta’lim — bu rasmiy dars mashg‘ulotlaridan tashqari, shaxsning tashabbusi bilan amalga oshiriladigan, ko‘proq amaliy va hayotiy tajribaga asoslangan o‘rganish jarayonidir, degan xulosaga kelish imkonini berdi. Bu jarayon:

- erkin shaklda amalga oshadi;
- o‘quvchining qiziqishlari asosida shakllanadi;
- onlayn kurslar, ijtimoiy tarmoqlar, videodarslar, loyihaviy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar yordamida qo‘llab-quvvatlanadi.

Informal ta’lim muhitida o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlash uchun faqatgina axborotni taqdim etish yetarli emas. Talaba o‘rgangan bilimlarini ko‘nikmaga aylantirishi, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishi zarur. Aynan shu nuqtada transformatsiyalash texnologiyalarining ahamiyati namoyon bo‘ladi. Shunga muvofiq, transformatsiyalash texnologiyalari deganda talabalar bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish, ularni yangicha shaklda o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar tushuniladi. Bu an’anaviy bilimdan amaliy ko‘nikmaga o‘tish, passiv eslab qolishdan faol ijodkorlikka o‘tish, o‘zlashtirishdan muammoni hal qilishga o‘tishda ifodalanadi.

Pedagogik kuzatuvlarimiz tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlashtirishga xizmat qilib, bizga quyidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish imkonini berdi. Bu tushunchalar, ayniqsa, informal ta’lim muhitida transformatsiyalash texnologiyalarini tatbiq etishda o‘ta muhim metodologik ahamiyatga ega. Xususan:

Bilim — bu faktlar, nazariy tushunchalar, qonuniyatlar va qoidalarning tizimli shaklda o‘zlashtirilgan majmuasidir;

Ko‘nikma — bilimlarning amaliy faoliyatda qo‘llanilishi natijasida shakllanuvchi amaliy qobiliyat va malakadir;

Transformatsiyalash — bilimdan ko‘nikmaga o‘tish jarayoni bo‘lib, bunda talaba mustaqil, moslashuvchan va ijodiy faoliyatga tayyorlanadi.

Ushbu tushunchalarning aniqlashtirilishi transformatsiyalash texnologiyalarini ilmiy asosda loyihalashtirish zaruratini taqozo etadi. Zero, texnologiyalarni faqat qo‘llash emas, balki ularni maqsadga muvofiq, bosqichma-bosqich va metodik asoslangan holda loyihalash ta’lim sifatining asosiy omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi nazariy loyihalash modellari transformatsiyalashga xizmat qiluvchi ta’lim texnologiyalarini yaratishda keng qo‘llaniladi:

ADDIE modeli – (Analyze, Design, Develop, Implement, Evaluate) — ta’lim mahsulotini loyihalashning bosqichma-bosqich tizimi;

TPACK modeli – texnologik, pedagogik va kontent bilimlarining integratsiyasi orqali samarali dars dizaynini yaratish modeli;

SAMR modeli – (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) — texnologiyaning o‘quv jarayonidagi roli qanday darajada o‘zgarayotganini ko‘rsatuvchi transformatsiya modeli;

Blended Learning modellari – an’anaviy va raqamli o‘qitish usullarini uyg‘unlashtirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish yondashuvi.

Transformatsiyalash texnologiyalarini samarali joriy etish uchun ularni oddiygina tanlab olishning o‘zi yetarli emas. Ular aniq didaktik, texnologik va metodik asoslar asosida loyihalashtirilishi lozim. Quyida bu jarayonning ilmiy asoslangan bosqichlari keltiriladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Loyihalashtirish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
Analiz	Talabalarning ehtiyojlarini aniqlash
Dizayn	Texnologiyalarni tanlash, metodika yaratish
Ishlab chiqish	Platforma, materiallar, vazifalarni ishlab chiqish
Amaliyot	O‘qitish jarayoniga texnologiyalarni tatbiq qilish
Baholash	Samaradorlikni aniqlash va tahlil qilish

Ko‘rinadiki, quyidagi model transformatsiyalash texnologiyalarini samarali loyihalashga yordam beradi:

Ehtiyoj → Texnologik yechim → Interaktiv muhit → Amaliy faoliyat → Refleksiya → Baholash.

Yuqoridagi model transformatsiyalash texnologiyalarini samarali loyihalashda mantiqiy, bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu ketma ketlik nafaqat pedagogik jihatdan, balki texnologik va psixologik nuqtai nazardan ham asosli bo‘lib, o‘quv jarayonining shaxsga yo‘naltirilgan va faol ishtirokga asoslangan bo‘lishiga xizmat qiladi.

Ehtiyoj – har qanday ta’limiy texnologiyani loyihalashda eng birinchi bosqich bu – o‘quvchining ehtiyojini aniqlashdir. Bu bosqichda talabaning mavjud bilim darajasi, motivatsiyasi, o‘rganish uslubi va texnologik tayyorgarligi aniqlanadi. To‘g‘ri aniqlangan ehtiyojlar — butun modelning asosidir.

Texnologik yechim – aniqlangan ehtiyojlarga mos ravishda pedagogik va raqamli texnologiyalar tanlanadi. Bu bosqichda SAMR, TPACK, ADDIE kabi loyihalash modellari asosida eng maqbul yechimlar ishlab chiqiladi.

Interaktiv muhit – tanlangan texnologiyalar asosida o‘rganish uchun real va virtual interaktiv muhit yaratiladi. Bu bosqichda ta’lim jarayoni qiziqarli, faol, muloqotga boy shaklga aylanadi.

Amaliy faoliyat – interaktiv muhitda talaba bilimni amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi. Bu orqali u transformatsiyaga uchraydi: passiv eslab qolishdan faol bajarish, real muammolarni hal qilish, jamoaviy ish kabi ko‘nikmalar rivojlanadi.

Refleksiya – o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, yutuq va kamchiliklarni anglaydi. Bu bosqichda metakognitiv ko‘nikmalar (o‘rganishni o‘rganish) shakllanadi.

Baholash – yakuniy bosqichda o‘quv natijalari o‘lchanadi va baholanadi. Baholash jarayonida nafaqat yakuniy natija, balki o‘quv jarayonining o‘zi ham tahlil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu model transformatsiyalash texnologiyalarini samarali loyihalashtirishda quyidagilarni ta’minlaydi:

- o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda texnologiya tanlash;
- interaktiv, amaliy va mustaqil o‘rganishga asoslangan muhit yaratish;
- ta’lim jarayonining uzviyligini va natijadorligini oshirish.

Bu modelni amaliyotga joriy etish orqali o‘qitish jarayonini faollashtirish, talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan shaxslarga aylantirish mumkin. Demak, texnologiyalarni loyihalashtirish pedagogik ijodkorlik va ilmiy yondashuv asosida amalga oshirilsa, ularning ta’limiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Buni empirik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ–637, 23.09.2020.

2. Бугайчук, К.Л. Формалное, неформалное и информалное дистанционное обучение / К.Л. Бугайчук // Материалы XX юбилейной конференции представителей региоалных научно-образовательных сетей RELARN-2013 (1-6 июня 2013 г., Санкт-Петербург). — Санкт-Петербург, 2013. — С. 114-121.

3. Вершловский, С.Г. Андрагогика: учебно-методическое пособие / С.Г. Вершловский. — СПб.: СПб АППО, 2014.

4. Гордин А.И., Гордина О.В. Информалное и неформалное образование взрослых: вопросы теории и практики: Монография / А.И. Гордин, О.В. Гордина. — Иркутск: изд-во ВСГАО, 2010. — 184 с.

5. Окерешко А.В. Виды информалного образования как смыслообразующие факторы личностно-профессионалного развития учителя / А.В. Окерешко // Человек и образование. — 2015. — № 1. — С. 74-78.

6. Parpiyeva M.M. Informal ta’lim muhitida talabalar bilim va ko‘nikmalarini transformatsiyalash kompetensiyasini rivojlantirish // Toshkent amaliy fanlar universiteti “Zamonaviy jamiyatda oila evolutsiyasi: tarixiy tajriba, psixologik barqarorlik va siyosiy omillar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2026-yil, 5-7-yanvar, 805-807 b.

7. Parpiyeva M.M. Informal ta’lim muhitida talabalar bilim va ko‘nikmalarini transformatsiyalash texnologiyalarini loyihalashtirishning konseptual-metodik asoslari // Renessans ta’lim universiteti “Pedagogik ta’limning ilmiy-metodik muammolari: innovatsion yondashuvlar va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2025, 24 senyabr, 222-228 b.

8. Раҳматов М. Формал, ноформал ва информал таълим турлари. – Тошкент: Илмий нашр, 2018.

Исматуллаева Холида Закруллаевна

Кандидат технических наук, профессор
Узбекский национальный
педагогический университет имени Низами

НАНОТЕХНОЛОГИИ И ТЕКСТИЛЬ

Аннотация: Нанотехнологии занимают ведущее место в современной науке, как одно из приоритетных направлений. Нанотехнологии в данной области способствуют разработке новых научно-методических принципов и подходов, в разработке текстильных материалов с улучшенными свойствами.

Ключевые слова: нанотекстиль, волокнистые материалы, самоочищающиеся материалы, современная наука, нанотехнологии**.**

Ismatullayeva Xolida Zakrullayevna
Texnika fanlari nomzodi, professor
Nizomiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti

NANOTEXNOLOGIYA VA TO‘QIMACHILIK

Annotatsiya: Nanotexnologiya zamonaviy fanda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu sohadagi nanotexnologiyalar xossalari yaxshilangan to‘qimachilik materiallarini ishlab chiqishning yangi ilmiy-uslubiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: nanoto‘qimachilik, tolali materiallar, o‘z-o‘zini tozalash materiallari, zamonaviy fan, nanotexnologiya.

Kholida Zakrullaevna Ismatullaeva
Candidate of Technical Sciences, Professor
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

NANOTECHNOLOGY AND TEXTILES

Abstract: Nanotechnology occupies a leading position in modern science as a priority area. Nanotechnology in this field facilitates the development of new scientific and methodological principles and approaches to the development of textile materials with improved properties.

Keywords: nanotextiles, fibrous materials, self-cleaning materials, modern science, nanotechnology.

Нанотехнологии, одно из самых перспективных направлений современной науки и техники, затрагивают практически каждую сферу человеческой деятельности.



Применение нанотехнологий в различных сферах повседневной жизни это: потребительские товары. Нанотехнологии используются для улучшения качества и функциональности множества потребительских товаров. Например, в текстильной промышленности наночастицы добавляют в ткани для придания им гидрофобных свойств, устойчивости к грязи и антибактериальных эффектов [1]. В спортивных товарах, таких как теннисные ракетки и гольф клубы, наноматериалы используются для увеличения прочности и уменьшения массы материала.

В медицине нанотехнологии открывают новые возможности для диагностики и лечения заболеваний. Наночастицы применяются для создания более эффективных и меньше токсичных лекарственных средств, а также для целенаправленной доставки лекарств в пораженные ткани, минимизируя побочные эффекты. Нанотехнологии также играют ключевую в электронике. Нанотехнологии способствуют миниатюризации и повышению производительности электронных устройств. Наноматериалы используются в производстве транзисторов, позволяя увеличить плотность компонентов на микрочипах и тем самым усиливать мощность компьютеров и мобильных устройств.

В области энергетики нанотехнологии помогают повысить эффективность солнечных панелей и улучшить характеристики аккумуляторных батарей. Наноструктурированные материалы используются для увеличения площади поверхности солнечных ячеек и улучшения их способности поглощать свет.

Большое значение уделяется биоразлагаемым текстильным материалам, что решает проблему текстильных отходов [2].

Самоуничтожающиеся (биоразлагаемые) текстильные изделия на основе нанотехнологий используют наночастицы, нановолокна и специальные полимеры для создания тканей, которые разрушаются под воздействием окружающей среды (свет, влага, бактерии) после использования. Нанотехнологии позволяют внедрять ферменты или катализаторы, запускающие распад материала на безопасные компоненты, что решает экологические проблемы текстильных отходов.

Основные аспекты и технологии:

Принцип действия: Наночастицы (например, диоксида титана) при воздействии солнечного света или других факторов разрушают химические связи в волокнах, способствуя быстрому разложению или самоочищению (фотокатализ).

• «Умные» волокна: применяются нановолокна, созданные методом электропрядения, которые обладают повышенной чувствительностью к условиям окружающей среды для контролируемого разрушения.


• Экологичность: Разработка направлена на снижение накопления отходов, позволяя текстилю полностью разлагаться за короткое время.

• Функциональность: помимо разложения, наночастицы придают тканям антибактериальные, водоотталкивающие и грязеотталкивающие свойства, что увеличивает срок службы перед началом процесса саморазрушения.

Нанотекстиль представляет собой активно развивающуюся область, где ключевую роль играют наноструктурированные поверхности и нанодисперсии, обеспечивающие как долговечность в носке, так и последующую утилизацию. Важное направление исследований – создание “электронного текстиля”, например, с встроенными сенсорами. Для этого разработаны электропроводящие покрытия волокон из полимеров (например, полианилина) или композитные покрытия, включающие углеродные нанотрубки. текстиль был также получен путем иммобилизации графена (при восстановлении оксида) электропроводящий на основе хлопковой ткани**. Фотонные материалы** и устройства, включая пленки, нанодобавки, оптические волокна не только обеспечивают необычные световые или цветовые эффекты тканей, одежды, но и добавляют новые функции. “Фотонный текстиль” можно использовать для освещения, в оптических дисплеях, для передачи данных, для детектирования изменения температуры, влажности, давления и другие.

Компания Nano-Tex наладила производство текстиля с улучшенными качествами благодаря внедрению нанотехнологий. Одна из материй просто уникальна, она обладает абсолютной водоотталкивающей способностью – капли воды или жидкости скатываются с тканью, но она при этом остается воздухопроницаемой, то есть «дышит» [1,3].

Благодаря нанотехнологиям изменилась структура волокна на уровне молекул, и был получен ценный гибрид. Именно эту технологию запатентовала для производства своей одежды компания Levi Strauss и производитель обуви Docker. На сегодняшний день производят много материй с нанопокрытием, которое оберегает ткани от негативного воздействия солнечных лучей и попадания влаги. Также наночастицы позволяют производить материалы с антисептическими, грязеотталкивающими и антибактериальными свойствами.






В настоящее время в текстильном производстве промышленно развитых стран происходит смена приоритетов: традиционный текстиль уходит в развивающиеся страны, а его место занимает «умный» текстиль медицинского, бытового, технического, информационного назначения, для

получения которого используют нанотехнологии. Колористическое направление в текстиле связано с разработкой тканей-«хамелеонов». Суть состоит в использовании фото-, термо- и гидрохромных красителей. Окрашенные ими ткани могут изменять цвет в зависимости от внешних факторов под действием воды, тепла и света подобно хамелеонам. На сегодняшний день нанотехнологии подбираются к формированию устойчивых

окрасок без красителей и пигментов. Это так называемая структурная окраска, когда тот или иной цвет возникает за счет структуры, состоящей из отверстий определенного размера и формы, образующих «нанокружева» определенного орнамента. Она исключительно устойчива к действию света, что не удается достичь в случае окраски, полученной с помощью окрашенных веществ.

Кружевными наноструктурами можно добиться не только цветного эффекта, но и получить эффект «невидимки». Наиболее известной нанотехнологией заключительной отделки тканей является нанотехнологии занимают ведущее место в современной науке, как одно из приоритетных направлений. Активное развитие в данной области способствует разработке новых научно-методических принципов и подходов, лежащих в основе создания новейших волокнистых материалов с измененной химической структурой. отделка Teflon, обеспечивающая водо-, масло-, грязезащитный эффект. Для ее реализации используют наноэмульсии фторуглеродных полимеров. В отличие от традиционных технологий аналогичного назначения наночастицы, придавая требуемый эффект, не перекрывают капиллярнопористую структуру волокнистого материала, он остается «дышащим»

Нанотехнологии улучшают нашу одежду и помогают планете. Sunfeng использует экологически чистые наночастицы для обработки тканей, чтобы сократить количество вредных химикатов, которые используются. Это полезно для окружающей среды, так как снижает загрязнение и отходы. Благодаря нанотехнологиям мы можем наслаждаться одеждой, которая хорошо функционирует и при этом бережно относится к Земле.



Едва заметные невооруженным глазом, их можно представить как маленьких воинов, задача которых — поддерживать ткани в хорошем состоянии. Они защищают одежду от крошек, морщин и даже вредного ультрафиолетового излучения. Sunfeng применяет наночастицы для наделения тканей особыми свойствами, такими как отведение влаги и быстрое высыхание. Таким образом, одежда, созданная с использованием нанотехнологий, не только комфортна, но и практически не требует ухода.[4]

Эко-технотекстиль подразумевает использование новых оригинальных технологий в сочетании с эко-ответственностью, выходящей за рамки жизненного цикла самого материала. На данный момент внедрено лишь небольшое число подобных проектов. Но благодаря творчеству и научному поиску исследователей рождается новое семейство материалов, заслуживающее внимательного рассмотрения. Без сомнения, процесс создания подобных тканей в большой степени разрушает сложившиеся стереотипы. Эти текстильные изделия по большей части находятся в процессе маркетинговых исследований. Эко -текстиль разрабатывается на основе партнерства между промышленными дизайнерами и научно-исследовательскими лабораториями

Нанотехнологические ткани Sunfeng имеют множество применений. Некоторые компании используют нанотехнологические ткани для создания медицинской одежды, халатов или масок, которые уничтожают бактерии и вирусы. Другие применяют их для производства спортивной одежды, отличающейся повышенной прочностью и воздухопроницаемостью. Третьи создают модную одежду, которая может менять текстуру или цвет в зависимости от настроения владельца или окружающей среды [5].

Текстиль на основе нанотехнологий является примером того, как наука и технологии могут использоваться для создания инновационных товаров и услуг, облегчающих нашу повседневную жизнь.

Список использованной литературы:

1. Кричевский Г.Е., Корчагин М.В. Сенахов А.В. Химическая технология текстильных материалов, М.1985.

2. Кричевский Г.Е. Нано-, био-, химические технологии в производстве нового поколения волокон, текстиля и одежды: учебное пособие для студентов текстильных и родственных вузов / Г.Е. Кричевский. Издание первое. Москва: [б.и.], 2011. 528 с.

3. Никифоров Ю. Нанотекстиль или старые технологии в новой обертке / Ю.Никифоров // Российский электронный наножурнал, 2009. С. 3.

4. Витязь, П. А. Наноматериловедение: учеб. пособие / П. А. Витязь. — Охватывает основы создания наноматериалов, применяемых в том числе для текстиля М..2012

5. Е. И. Пряхин [и др.] Наноматериалы и нанотехнологии: учебник; М 2014

Даминова Рано Бааситовна

Доцент
Узбекский национальный
педагогический университет имени Низами

ИННОВАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Педагогические инновации понимаются как нововведения в педагогической системе, улучшающие течение процесса образования, воспитания и его результаты. Они изменяют процесс образования количественно и качественно, путем введения новых педагогических приемов, методов и технологий.

Ключевые слова: Инновации в образовании, эффективность проектное обучение, адаптация интерактивные методы, дистанционное обучение.

Daminova Ra'no Baasitovna

Dotsent
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston
Milliy Pedagogika Universiteti

TA'LIMDAGI INNOVATSIYALAR

Annotatsiya: Pedagogik innovatsiyalar deganda pedagogik tizimdagi ta’lim jarayoni, tarbiya va uning natijalarini takomillashtirishga qaratilgan yangiliklar tushuniladi. Ular yangi pedagogik texnika, uslub va texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim jarayonini miqdor va sifat jihatidan o‘zgartiradilar.

Kalit so‘zlar: Ta’limdagi innovatsiyalar, samaradorlik, loyiha asosida o‘qitish, moslashtirish, interaktiv usullar, masofaviy ta’lim.

Rano Baasitovna Daminova

Associate Professor
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

INNOVATIONS IN EDUCATION

Abstract: Pedagogical innovations are understood as innovations in the pedagogical system that improve the educational process, upbringing, and its outcomes. They change the educational process quantitatively and qualitatively by introducing new pedagogical techniques, methods, and technologies.

Keywords: Innovations in education, effectiveness, project-based learning, adaptation, interactive methods, distance learning.

Инновации в образовании — это внедрение новых методов, технологий, программ и подходов, направленных на повышение качества, доступности и эффективности процесса обучения [1.] Они преобразуют традиционные формы в интерактивные, персонализированные и гибкие, адаптируя их к потребностям современного цифрового общества.



Ключевые направления инноваций:

• **Цифровизация и EdTech:** Использование искусственного интеллекта (ИИ) для анализа прогресса, виртуальной (VR) и дополненной (AR) реальности для иммерсивного обучения.

• **Методические новшества:** Переход от пассивного усвоения знаний к активным методам: проектное обучение, геймификация, кейс-методы.

• **Персонализация:** Адаптивные платформы, подстраивающие скорость и стиль обучения под конкретного ученика.

• **Организационные изменения:** Дистанционное и смешанное обучение (blended learning), онлайн-курсы, микрообучение.

Основными целями инноваций являются:

• Улучшение качества образовательных продуктов и услуг.

• Повышение мотивации учащихся.

• Развитие навыков, необходимых в быстро меняющемся мире (soft skills, цифровая грамотность).

Инновации могут быть как техническими (новые гаджеты, софт), так и педагогическими (новые педагогические приемы, методы, технологии).

«Инновации – процесс изменения, связанный с созданием, признанием или внедрением новых элементов (или моделей) материальной и нематериальной культур в определенной социальной системе» [2].



Таким образом, преобладает мнение, что инновации означают изменения – количественные, качественные и другие. Выделяют один из основных критериев результата инновации – новизну. Это позволяет отдельным авторам вместо

Ўзбекистон Республикасида шаклланган узлуксиз таълим тизими баркамол шахс ва малакали мутахассисни тайёрлаш жараёнининг самарали ташкил этилишини таъминлашга хизмат қилади. Узлуксиз таълим тизими доирасида фаолият олиб борувчи мактабдан ташқари таълим муассасаларида STEAM фанлар, танқидий фикрлаш ва ахборотни мустақил излаш ва таҳлил қилиш компетенциялари ва малакаларининг ривожланишига алоҳида урғу беришни ҳисобга олган ҳолда, замонавий рақамли иқтисодиёт талабларига жавоб берадиган кадрлар тайёрлаш муаммолари бугунги кун вазифаларидан бирига айланмоқда.


Ҳозирги кунда умумий ўрта таълим жараёнида баркамол шахсни тарбиялаш, таълим фаолиятига қўйилаётган ижтимоий буюртма илғор хорижий тажрибалар билан уйғунлаштирилмаганлиги ҳамда таълим мазмунини янгилаб бориш зарурати; замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг қўллаш орқали ўқувчиларни индивидуал ривожлантиришга қаратилган дастурлар ва услубий материаллар, ўқувчилар муҳандислик кўникмаларини ривожлантиришга етарли даражада таъминланмаганлиги; ўқувчилар эгаллаётган билим ва кўникмаларининг касбий фаолиятда талаб этиладиган кўникма ва малакалар даражасига мувофиқ эмаслиги тадқиқ этилаётган муаммонинг долзарблигини белгилайди.

Ўқувчилар муҳандислик кўникмаларини такомиллаштиришда STEAM таълимни амалиётга тадбиқ этиш орқали ўқувчилар тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини ривожланитиришнинг иновацион технологиялари кенг тадбиқ этилмаган бўлсада танқидий фикрлашга ўргатиш зарурлиги, ўқувчилар тадқиқотчилик ва касбий кўникмаларини ривожлантириш востаси сифтида қаралмоқда.

Ўқувчиларни танқидий фикрлашга ўрагатиш деганда нималар назарда тутилади. Танқидий фикрлаш нима? Танқидий фикрлаш - бу маълумотни объектив таҳлил қилиш ва асосли хулоса чиқариш қобилиятини англатади. Бу маълумотлар, фактлар, кузатиладиган ҳодисалар ва тадқиқот натижалари каби манбаларни баҳолашни ўз ичига олади.

Танқидий фикрлаш - бу хулоса чиқариш учун далилларни таҳлил қилиш. Мураккаб мавзулар ва объектлардаги далилларни рационал, скептик, холис таҳлил қилиш ёки баҳолашни ўз ичига олган бир нечта турли хил таърифлардир. Танқидий фикрлаш - бу ўқувчини ўзини ўзи бошқариш, ўзини ўзи тарбиялаш, ўзини ўзи назорат қилиш ва ўзини ривожлантиридиган фикрлашдир. Бу қатъий мукаммал шартлар ва улардан оқилона фойдаланишни назарда тутади. Бу самарали мулоқот ва муаммоларни ҳал қилиш қобилиятлари, шунингдек, маҳаллий эгоцентризмни ва социоцентризмни енгиш мажбуриятини олади.

Танқидий фикрлаш изчилиги ва ўқувчилар тафаккурининг мантиқий фикрлашида танқидий фикрлашнинг боғлиқлигини қуйидаги чизмада акс эттириш мумкин.



Дарс ва дарсдан ташқари фаолият давомида ўқувчилар тамонидан олиб бориладиган машғулотлар кўпинча тадқиқотчиликга йўналтирилган бўлиб бунда ўқувчининг мустақил ҳаракатланишда, унга берилаётган топшириқлар ва уларни ечимини топишда ўқувчининг мантиқий тафаккурини ривожлантириб бориш ва танқидий фикрлашига йўналтириш доимо муаммо бўлиб қолмоқда. Бугунги кунда замонавий дунёда касбга йўллаш, ўргатиш бир томонлама ёндашув асосида олиб борилиб бир нечта янгидан янги касблар ҳосил қилинди, буларга мисол қилиб АТ мутахассиси, роботехника, мехатроника ва муҳандислик касбларидир. Ушбу касбларни ўрганишда ҳамда мураккаб технологик жараёнлар, операцияларни бажаришда ўқувчиларнинг дастурлаш, йиғиш, бажариш, ишга тушириш ёки технологик кетма-кетликни уддалай олиш кўникмаларининг ўзи етарли бўлмай балки, тадқиқотчилик кўникмалари ҳам муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунинг учун ўқувчилар танқидий фикрлашни мунтазам ривожлантириб бориш таълаб этилмоқда.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки таълим олиш мобайнида ўқувчиларнинг кўникма ва қобилятларни ривожлантиришда аксарият тадқиқотчилар кўникма ёки қобилиятдан ташқари танқидий фикрлашни ҳам тан олишмоқда. Бу эса диспозицияларни ўз ичига олади. Ушбу тушунчанинг келиб чиқиши 1985 йилда олиб борилган тадқиқот ишларида танқидий фикрлаш қобилияти “бажариш ва уддалай олиш” қобилиятидан фарқ қилишини тан олинган бўлиб танқидий фикрлаш қобилияти деган тушунчани тасдиқловчи эмпирик далиллар ҳам пайдо бўлади ва ажратмалар аслида алоҳида объектларга хослиги ўз исботини топган. Ушбу фикрлар ҳар хил муносабат ёки одатлар сифатида ташланган. Фасионе танқидий фикрлаш ҳолатларини қуйидагича белгилайди "Шахсларга, воқеаларга ёки шароитларга нисбатан бўлган муносабат ёки уларга муносабат билдириш учун доимий пайдо бўладиган ички мотивлардир. Тадқиқотчилар шунга ўхшаш тўпламларни аниқлашга ҳаракат қилиб танқидий фикрлашни вужудга келтирадиган бир неча сабаблар ва омилларни асослаган. Масалан, энг тез-тез такрорланадиган танқидий фикрлаш ҳолатларини ўз ичига оладиган қобилият турлари қуйдагилардир:

- очиқ фикрлаш қобилияти;

- адолатли фикрлаш қобилияти;
- сабаб излашга мойиллик қобилияти;
- қизиқувчанлик қобилияти;
- хабардор бўлишни хоҳлаш қобилияти;
- мослашувчанлик қобилияти;

Бугунги кунда бир неча ғарб олимлари Фасионе, Эннис, Байлин ва бошқалар тамонидан танқидий тафаккурни аниқлаш борасида кўплаб тадқиқотлар олиб борган бўлсада, кўпчилик тадқиқотчилар тамонидан танқидий фикрлаш “кўникмалар ва мулоҳазалар”ни ўз ичига олади деган фикрга қўшилишмоқда. Танқидий мулоҳаза юритиш нуқтаи назарини унинг меёрларида кўриб чиқиш керакми деган хулосага боришмоқда 1990 йилда Америка файласуфлар уюшмаси (АПА) бир муросага келиш учун танқидий фикрлайдиган тадқиқотчилар гуруҳини тузиб келгусидаги тадқиқот ҳаракатларига ёрдам берадиган танқидий фикрлашни аниқлаш топшириғини беришган. Гарчи кўпчилик мутахассислар диспозициялар муҳим таркибий қисм эканлигига келишиб, улар муайян ҳаракатларга қарши чиқиб, бу танқидий фикрлаш таърифи доирасидаги диспозициялар деб ҳисоблашган, баъзилари шу фикрларга асосланиб шунчаки мақтовга сазовор рол ўйнайди ва бу қарашларни қўллаб-қувватловчи бошқалар ҳам норматив ролга эгадир деб ҳисоблайди.

Ўқувчилар муҳандислик кўникмаларини ривожлантиришда танқидий фикрлашга ўргатишнинг бир неча шакллари мавжуд бўлиб шулардан муҳандислик тўгаракларида қуйдагиларни ўргатиш мукин:

Ахборотларни йиғиш. Кўпгина ўқувчиларимиз мутлақо нотўғри қарорлар қабул қилишади, чунки улар ўз фикрини тўғри деб билишади. Бундай хатоларга йўл қўйишига сабаб уларнинг кам маълумотларга эга эканлиги ёки аксинча билимларни янада мустаҳкамлашга интилмаслигидадир. Шунинг учун ҳозирги замонимиз қанчалик тез ривожланаётганлигини ҳисобга олган ҳолда мавжуд барча ахборотларни тўплаб уларни таҳлил қилиш.

Кузатиш. Бу ерда қанчалик ўқувчиларни қизиқувчан бўлишлигидадир. Ҳар доим бизнинг кўзимиз остида бўлган нарсаларга эътибор бермаслигимиз ва биз уларни одатдагидек қабул қилганлигимиздадир. Бундан ташқари, бу нафақат объектлар, балки бизнинг ва бошқаларнинг хатти-ҳаракати, турли хил истеҳзоли вазиятлар ва механизимларнинг ғайриоддий тузилишлари бўлиши мумкин. Кузатганимизда, бизнинг ички ҳисётимиз бир мунча вақт сезмаслиги ва кўзларимиз кўрган нарсаларга реакция билдирмаслиги.

Адабиётлар билан ишлаш. Тўғри хулоса чиқариш учун биз мантиқни ўрганишингиз керак. Унинг ўз қонунлари, истиснолари ва қарама-қаршиликлари бор, аммо шунга қарамай, ҳар қандай мунозарада фикримизни исботлашнинг ажойиб усули ҳисобланиб, бошқа ўқувчиларнинг баёнотларидаги номувофиқликни пайқашни ўрганиш ва вазият имкон берса уларга муносабат билдириш.

Рационализация. Бу онг қонунларини қўллашни англатади: индукция, дедукция ва аналогия. Ушбу воситалардан фойдаланиб, биз аргументни баҳолаб, унинг кучли ва заиф томонларини топишимиз мумкин.

Эслаш. Мунтазам равишда муаммонинг тафсилотларидан бир қадам орқага қайтиб бутун жараёнларни эслаш ва нимани билиб олганимизга ва қандай тажрибага эга эканлигимизга эътибор бериш.

Ижодкорлик. Бу бизга нафақат ижоднинг моҳиятини тушунишга, балки машқлар орқали янада ижодий бўлишга ёрдам беради. ТРИЗ ёки STEAM каби методлардан фойдаланиш, улар бизга муаммоларга тизимли ёндошишга ёрдам беради.

Таснифлаш ва кетма-кетлик. Ахборотни тахлилдан ўтказишни ўрганиш учун элементлар ва ғояларни хусусиятларига кўра гуруҳлаб ва тартиблаб чиқиш. Ақлий имкониятлардан фойдаланиш.

Таққослаш ва тахрирлаш. Икки ёки ундан ортиқ объектлар, вазиятлар, муаммолар қандай ўхшаш ёки турли хил эканлигини аниқлашни ўрганиш. Афзалликлар ва камчиликларнинг рўйхатини тузиб, сўнг бирини танлаш.

Сабаб ва оқибатни таҳлил қилиш. Қизиғи шундаки, кўп ўқувчилар сабаб ва оқибатни ажрата олмайдилар. Шунинг учун, бизнинг биринчи қадамимиз сабаб ва натижани аниқлаш қобилияти бўлади. Баъзида сабаб ва таъсир бир-бирига боғлиқ бўлмаслиги мумкин - демак, биз бирор нарсани ҳисобга олмаган бўлишимиз мумкин.

Синтез. Олдиндан кутилмаган натижага эришиш учун турли хил маълумотларни тўплаш ва уларни бирлаштириш.

Баҳолаш. Муаммонинг икки ёки ундан кўп ечимини топишни ўрганиш ва қайси бири яхшироқ эканлигини баҳолаш.

Башоратлаш. Бу ўқувчиларни безовта қилмайдиган мураккаб жараён. Улар “таҳлил қилиш” га бир неча сония вақт сарфлайдилар ва келажакка асосланиб қарор қабул қиладилар. Бундай қилмаслик, маълумотларни диққат билан йиғиш ва таҳлил қилиш орқали илмий ечимларни тўплаш. Албатта, минглаб омиллар мавжуд бўлиб барчасини ҳисобга олишимиз мумкин.

Устуворлик. Вақтни бошқаришни ўрганиш, нима учун вақтимизни сарфлашимиз ва нимага сарфланишини тушуниб олиш. Унутмаслик керакки, фойдасиз нарсага сарфланган вақт ишнинг самарадорлигини йўқотиш мумкин.

Хулоса. Ушбу кўникма одатда умумлаштирувчи ва якуний ҳисобланади. Биз аниқ нимани тушунганимизни, қандай тажриба орттирганимизни, қандай хулосалар чиқарганимизни ва буларнинг барчасини умумлаштиришни билишимиз кераклигини ўрганиш.

Катта эҳтимол билан ўқувчилар ушбу кўникмаларни бир вақтнинг ўзида ўзлаштира олмайди. Бироқ, биз буларни яхшироқ қарор қабул қилиш ва жасорат билан ҳаракат қилиш учун уларни умумлаштиришимиз мумкин. Ҳар бир ўзлаштирилган кўникма ўқувчиларнинг фикрлаш тарзини сезиларли даражада ўзгартириши мумкин.

Фикрлашнинг турли хил усуллари мавжуд, аммо уларнинг ҳеч бири муаммоларни танқидий фикрлаш каби ҳал қилишда самарали эмас. Унинг ёрдами билан биз ҳиссий онгни ва ҳиссиёт даражасини кўтаришимиз, шунингдек, когнитив бузилишлар ва эгоцентризмнинг олдини олишимиз мумкин.

Адабиётлар рўйхати рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 30 сентябрдаги “Халқ таълими тизимидаги мактабдан ташқари таълим самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4467-сонли қарори.

2. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2004. – 314 б.

3. Facione, P. A. (2000). The disposition toward critical thinking: Its character, measurement, and relationship to critical thinking skill. Informal Logic, 20(1), 61-84.

4. Facione, Peter A., 1990 a, Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction, Research Findings and Recommendations Prepared for the Committee on Pre-College Philosophy of the American Philosophical Association, ERIC Document ED315423.

5. Adams, C.A. (2013), Sustainability reporting and performance management in universities: Challenges and benefits. Sustainability Accounting, Management and Policy Journal Vol 4 Iss 3, pp. 384-392

6. Hauser, S.M. (2000), “Education, ability, and civic engagement in the contemporary, United States. Social Sciences Results, Vol. 29 No 4, pp.556-582

7. Pardabaev J.E. ““STEAM” - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852

Muratova Saboxat Choriyevna
Dotsent, p.f.f.d (PhD)
“Pedagogika” kafedrasini mudiri
Toshkent amaliy fanlar universiteti

TALABALARDA MA’NAVIY AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRIShDA MULOQOT KOMPETENSIYaNING O‘RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muloqot kompetensiyasining ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida shaxs kamolotini ta’minlashda nafaqat bilim, balki muloqot madaniyati, o‘zaro munosabatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar ham muhim o‘rin tutadi. Maqolada muloqot kompetensiyasining tarkibiy qismlari, uni rivojlantirish usullari hamda uning talabalar axloqiy tarbiyasiga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, muloqot kompetensiyasi, talabalar, shaxs kamoloti, ijtimoiy ko‘nikmalar, ta’lim jarayoni, kommunikativ madaniyat.

Муратова Сабохат Чориевна
Доцент, кандидат наук
Заведующая кафедрой «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук

РОЛЬ КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ДУХОВНЫХ И МОРАЛЬНЫХ ДОБРОДЕТЕЛЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируется значение коммуникативной компетентности в формировании и развитии духовно-нравственных качеств учащихся. В процессе современного образования важную роль в обеспечении личностного развития играют не только знания, но и культура общения, межличностные отношения и социальные навыки. В статье с научно-теоретической точки зрения описываются компоненты коммуникативной компетентности, методы ее развития и ее влияние на нравственное воспитание учащихся.

Ключевые слова: нравственное воспитание, коммуникативная компетентность, учащиеся, развитие личности, социальные навыки, образовательный процесс, коммуникативная культура.

Sabohat Chorievna Muratova
Associate Professor, PhD
Head of the Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

THE ROLE OF COMMUNICATION COMPETENCE IN THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES IN STUDENTS

Abstract. This article analyzes the importance of communicative competence in the development of students' spiritual and moral qualities. In modern education, not only knowledge but also communication culture, interpersonal relationships, and social skills play a crucial role in ensuring personal development. From a scientific and theoretical perspective, the article describes the components of communicative competence, methods for its development, and its impact on students' moral development.

Key words: moral education, communicative competence, students, personality development, social skills, educational process, communicative culture.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — har tomonlama rivojlangan, yuksak ma’naviyatli va axloqiy barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Bu jarayonda talabalarning muloqot qilish madaniyati va kommunikativ kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi ko‘p jihatdan uning boshqalar bilan munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, talabalar axloqiy madaniyati o‘zbek xalqining mustaqilligimiz uchun olib borgan ozodlik harakatlari, qahramonligi, avlodlar, zamondoshlarimizning ma’naviy va amaliy tajribasiga, mustaqillligimizni mustahkamlash uchun olib borayotgan faoliyatigiga tayanadi, shuningdek, ijtimoiy fanlar bo‘yicha yetakchi mutaxassislarning uchinchi ming yillikning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ilmiy asoslangan fikrlarini ham hisobga oladi. Talabalarning oliy ta’lim orqali olinayotgan ilmiy bilimlari, mutaxasislikga oid ma’lumotlar axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi omillardan hisoblanadi. Shuningdek, axloqiy madaniyat insonning tabiat va atrof muhit, jamiyat bilan o‘zaro aloqasida va uni chuqur anglashida asosiy rol o‘ynaydi.

Qayd qilish lozimki, Fuqoralik jamiyati rivojlanishi davrida, bo‘lajak mutaxasislarning axloqiy madaniyatini oliy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanib yanada rivojlantirish zaruriyati vujudga keldi, bundan kutilgan asosiy maqsad insonning atrof - muhitga, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularning yuksak axloqiy madaniyatini shakllantirish, yurtimizdagi demokratik islohatlardagi faollligini oshirish bilan bog‘liq. Yoshlar va jamiyat munosabatlari orasidagi tolerant tushunchani, barcha insonlarda axloqiy ongni shakllantirish, ular axloqiy madaniyatni oshirish, fuqoralik jamiyatining barqaror rivojlanish tamoyillarini, mazmuni, maqsadini chuqur tushunishlari orqali erishish mumkin.

O‘zbekistondagi demokratik islohatlarning chuqurlashuvi, ijtimoiy iqtisodiy sohalardagi yutuqlar, bo‘lajak mutaxasislar ma’naviy komolotda, ularning kasbiy tayyorgarligida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishini talab qilmoqda. Jamiyatning modernizatsiyalashuvi davrida bo‘lajak mutaxasislarning raqobotbordoshligi, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning barcha a’zolari bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirish jarayoni, bevosita axloqiy madaniyat qirralari yuksalishiga bog‘liqdir. Shuning uchun ham mamlakatimizda salohiyatli, yetuk bakalavrlar va magistrlar tayyorlash tizimi oldida turgan muhim vazifalarni bajarishda oliy ta’limda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog kadrlarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu jarayon natijasida ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi, demokratik va huquqiy davlat va fuqoralik jamiyati oldida turgan vazifalarni amalga oshiruvchi, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlanadi. Yosh mutaxassislar o‘z ixtisosliklari bo‘yicha vatanimizning iqtisodiy, ijtimoiy rivojini, ekologik, milliy xavfsizligini ta’minlash, yosh avlodni talablar darajasida o‘qitish, yurtimizga, vatanga sodiq farzandlar sifatida tarbiya topishida ishtirok etadilar. Ta’kidlash lozimki, zamonaviy universitet va institutlarda ta’lim – tarbiya ishida ishtirok etayotgan, o‘quv jarayonini tashkillashtirayotgan, ushbu ishlarga rahbarlik qilayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar ta’lim - tarbiya jarayoni

orqali ma’naviyati butun, axloqan pok, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ma’suldirlar.

Muloqot kompetensiyasi — bu shaxsning turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali va maqsadga muvofiq muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

nutqiy (og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalari),
ijtimoiy (jamoada ishlash, hamkorlik qilish),
emotsional (boshqalarni tushunish, empatiya),
madaniy (axloq normalariga rioya qilish).

Mazkur kompetensiya talabalarning shaxsiy va kasbiy hayotida muhim omil hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy fazilatlar — bu insonning ichki dunyosi, qadriyatlari, odob-axloqi va jamiyatga munosabatini ifodalovchi sifatlardir. Ularga halollik, mas’uliyat, hurmat, bag‘rikenglik, adolatparvarlik kabi fazilatlar kiradi. Talabalarda bu fazilatlarni shakllantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muloqot kompetensiyasi talabalarda quyidagi jihatlar orqali ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi:

1. O‘zaro hurmatni shakllantiradi. Samarali muloqot jarayonida talabalar bir-birining fikrini hurmat qilishni o‘rganadilar.

2. Bag‘rikenglikni rivojlantiradi. Turli fikr va qarashlarni qabul qilish qobiliyati shakllanadi.

3. Mas’uliyat hissini oshiradi. Jamoada muloqot qilish jarayonida shaxsiy javobgarlik hissi kuchayadi.

4. Empatiyani rivojlantiradi. Boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi shakllanadi.

Ta’lim jarayonida muloqot kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Interaktiv metodlar (debat, munozara, “aqliy hujum”),
- Guruhli ishlar va loyihalar,
- Rolli o‘yinlar va vaziyatli mashqlar,
- Mustaqil ta’lim topshiriqlari,
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Bu usullar talabalarning faol ishtirokini ta’minlab, ularda muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Ayrim hollarda talabalarda muloqot kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘ladi. Bu esa ularning jamoada ishlash va o‘z fikrini erkin bayon etishiga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun:

- ta’lim jarayonida amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish,
- talabalarni faol muloqot muhitiga jalb etish,
- o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini ham rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Muloqot kompetensiyasi talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat shaxsning ijtimoiy faolligini oshiradi, balki uning axloqiy kamolotini ta’minlaydi. Shu bois ta’lim tizimida muloqot

kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yuksak ma’naviyatli insonning tarbiyasi va ma’naviy-axloqiy fazilatlari, xislat va sifatlari haqida gap borar ekan, “fazilat” va “sifat” kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatiga, tarkibi va tasnifiga, yoshlar tarbiyasidagi o‘rniga ham e’tiborni qaratishimizzarur, deb hisobladik.“Fazilat” alohida shaxs, el, elat, xalq, ulusga taalluqli bo‘lgan ijobiy axloqiy sifatlar majmui, “sifat alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir”.

Abu Nasr Farobiyning fikricha, “fazilat” muayyan bir mantiqiy mazmunda ifodalangan mavhum tushunchagina emas, odamning go‘zallikka, yaxshilikka erishishi uchun qilinadigan faoliyati va hatti-harakatlarining aniq ifodasi hisoblanadi”. Allomaning yana uqtirishicha, odamni yaxshi ishlarni qilishga va go‘zal xulqlar sohibi bo‘lishga da’vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi. Ko‘ramizki, har qanday ma’naviy yetuklik har bir insonda o‘ziga xos axloqiy fazilatlar va xislatlar uyg‘unligi asosida namoyon bo‘ladi va uni boshqalardan tamomila ajratib turadi.

Ma’naviy-axloqiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan yana biri adolatparvarlikdir. Adolatparvarlik – inson va jamiyatning, muayyan kishi, guruh yoki jamoaga huquqiy va axloqiy me’yorlar asosida ko‘rsatgan ta’sirini anglatadi. U adolat tushunchasi bilan bog‘liq va unga tayangan holda shaxs va ijtimoiy guruhlar imkoniyatlari, talablari, huquqlari, axloqiy farovonligini me’yorlaydi. Adolat – ijtimoiy, falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha sifatida jamiyatning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari me’yorini, turli shiorlar va ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviymadaniy voqealarga munosabatini xarakterlovchi ong tushunchasi hisoblanadi

Talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda muloqot kompetensiyasining o‘rni juda katta bo‘lib, u shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Axloq muloqot orqali namoyon bo‘ladi, sayqallanadi va amaliyotga tatbiq etiladi.

Quyida ushbu jarayonda muloqot kompetensiyasining o‘rni va ahamiyati ochib berilgan:

1. Axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish vositasi. Muloqot — bu nafaqat ma’lumot almashish, balki jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni, urf-odatlarni va "yaxshi-yomon" tushunchalarini anglash jarayonidir.

Muloqot kompetensiyasi: Talabalarga odob-axloq qoidalarini, muomala madaniyatini va odamlar bilan to‘g‘ri munosabat qilishni o‘rgatadi.

Yuksak ma’naviyatli, muomalasi joyida bo‘lgan shaxs shakllanadi.

2. Ijtimoiylashuv va hamkorlikni ta’minlash. Talabalik davrida tengdoshlar va ustozlar bilan muloqot qilish orqali shaxs jamiyatning bir qismi ekanligini his qiladi. Jamoada ishlash, ziddiyatlarni (konflikt) konstruktiv hal qilish va boshqalarning fikrini hurmat qilishni o‘rgatadi.

Mehr-oqibat, bag‘rikenglik va hamjihatlik fazilatlari shakllanadi.

3. O‘z-o‘zini anglash va tarbiyalash (Introspeksiya). Muloqot nafaqat tashqi muhit, balki insonning o‘z ichki dunyosi bilan ham kechadi. Yuqori muloqot kompetensiyasiga ega talaba o‘z xulqini tahlil qila oladi. Talabalarda pedagogik-

psixologik xususiyatlarni shakllantirib, ularni axloqiy tanlov qilishga o‘rgatadi. Mas’uliyat hissining oshishi, vijdon va andisha kabi tuyg‘ularning kuchayishi.

4. Kasbiy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish. Talabalarning kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish, ularni bo‘lajak mutaxassis sifatida mas’uliyatli va axloqli bo‘lishlariga xizmat qiladi. Kasb odobi (deontologiya), mijozlar yoki hamkasblar bilan to‘g‘ri muomala qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Kasbiga sadoqat, halollik va kasbiy madaniyat yuksaladi.

5. Nutq madaniyati va ma’naviy madaniyat. Muloqot madaniyati nutq madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Adabiy tilda, go‘zal va mazmunli gapira olish talabaning ma’naviy yetukligini ko‘rsatadi. Aqlli, mantiqiy va ta’sirchan nutq orqali shaxsning axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Madaniyatli, mulohazali va intellektual saviyasi yuqori shaxs vujudga keladi.

Muloqot kompetensiyasi — bu talabalarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmidir. Yaxshi muloqot qila oladigan talaba, odatda, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘ladi va jamiyatda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaratishda faol ishtirok etadi.

B.Ziyomuhammadovning ta’kidlashicha, fuqorolik va demokratik davlat a’zolari yana quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishlari zarur: aqllilik, odoblilik, mehnatsevarlik, bilimlilik, sog‘lomlik, milliy g‘ururga egalik, vatanparvarlik, baynalminallik, insonparvarlik, jasurlik, shiddatlilik, sabr-qanoatlilik, saxovatlilik.

B.X.O‘rozovning ta’kidlashicha, ma’naviyat va ma’rifat markazida rahbarlik qilayotgan har bir inson o‘z kasbiy faoliyatida umumiy, axloqiy, kasbiy va shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishlari zarur. Tadqiqotchi umumiy fazilatlardan 27 ta sifatlarni, kasbiy xislatlardan yana 27 tasini va shaxsiy fazilatlardan 16 tasini o‘z ishida alohida qayd qiladi. Va so‘ngra axloqiy fazilatlardan quyidagilarni ko‘rsatadi:odamiylik, sofdillik, mehribonlik, vafodorlik, sadoqatlilik, oqibatlilik, do‘stonalik, jonkuyarlik, kuyunchaklik, olijanoblik, atrof-muhitga e’tiborlilik, muhofazakorlik, iymonlilik, baynalminallik, g‘oyaviy sodiqlik, xushmuomilalik, kechirimlilik, andishalilik, odamlarga el bo‘lib ketish, kirishimlilik, shaxsiy manfaatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik, ko‘pchilik dardi bilan yashash.

Axloqiy talablarning haqqoniyligini anglashgina emas, balki u èki bu axloqiy dasturlarga rioya qilish uchun to‘la tayèrlikni bildiradi. Shuning uchun, axloqiy ishonch shaxsning faoliyat yo‘nalishini, uning maqsadga intilishi, xulqning yashirin motivlari tuzilmasini hamda uning umumiy nuqtai nazarini, haètdagi o‘rinini, yashash ma’nosini belgilaydi. Axloqiy ishonch o‘zida ratsional va emotsional tomonlarni ifodalab, turg‘unlik beradi, shaxsning axloqan «zanglamasligiga» kafolat yaratadi, kishi har qanday qiyin sharoitlarda ham o‘z tamoyillaridan qaytmasligini anglatadi.

Axloqiy ongning o‘ziga xos va ayni paytda eng muhim elementi shaxsning axloqiy sifatlaridir. Kishilarning axloqiy sifatlari, ya’ni fazilatlari ijtimoiy, sièsiy, iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi. Har bir davrda asosiy axloqiy sifatlar hukmron ideoligiyaning, mafkuraning umumiy yo‘nalishi bilan belgilanadi. Biroq axloq ideologiyadan, mafkuradan o‘zining umuminsoniy, milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Axloqiy sifatlar ijobiy va salbiy bo‘ladi. Ijobiy axloqiy sifatlarga, biz buni fazilatlar deb ham yuritamiz, masalan, mehnatsevarlik, kamtarlik, xushmuomalalik, ezgulik,

samimiyat, insof, andisha, haè singarilar kiradi. Bu bizning axloqiy qadriyatlarimizdir. Salbiy sifatlarga, buni illatlar deyishimiz ham mumkin, masalan, xoinlik, poraxo‘rlik, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, hasad, dag‘allik, irodasizlik, munofiqlik, shaxsiyatparaslik, xudbinlik, mansabparaslik kabilar kiradi.

Axloqiy sifatlar haqidagi tushunchalar boshqa jamiyat hodisalari kabi tarix davomida o‘zgarib, rivojlanib, sayqallanib boradi. Masalan, ijtimoiy haètning hamma sohalariga din, cherkov hukmronlik qilgan o‘rta asrlarda – e’tiqod, umid va muhabbat, ya’ni xudoga e’tiqod, uning shafqatiga umid va unga muhabbat asosiy fazilatlar, deb hisoblangan. Hozir ona-yurtimiz mustaqillik va demokratik yo‘ldan borib, bozor iqtisodiy sharoitida haèt kechirar ekan, ayniqsa, vatanparvarlik, milliy g‘urur fazilatlarini tadbirkorlik, o‘zaro manfaatdorlik, hamkorlik, sabr-toqat, osoyishtalik, qanoatlilik fazilatlari bilan uyg‘unlashtirib borishni taqozo etmoqda. Murakkab iqtisodiy sharoit chigalliklarini yechishda axloqiy barkamollik, milliy urf-odatlarimizdan ma’naviy yuksaklik, madaniy-ma’rifiy merosimiz ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta.

Shuning uchun ham yuksak ma’naviyatli inson tarbiyasi bilan daxldor bunday fazilatlarni eng avvalo, farzandlarga, o‘quvchi-yoshlarga, talabalarga singdirish eng dolzarb pedagogik jarayondir. Uni oilada va maktabda shakllantirish hamda kamol toptirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асқарова Ў. М., Хайитбоев М., Нишонов М.С. Педагогика (олий таълим муассасалари учун дарслик). –Т.: Талқин, 2008. –287 б.
2. Муслимов Н.А. Касбий компетентлик асослари. — Тошкент, 2013.
3. Сатторова Д. Ғ. Ахлоқий маданиятини юксалтиришнинг талабалар тарбиявий жараён билан уйғунлиги // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali Jild: 04 Nashr, 10 Oct, 2024, 146-149 b.
4. Умаров Э. Маънавият асослари. ўқув қўлланма // “Шарқ” нашриёти, 2005 йил, 130 бет.
5. Рахмонова Г.Ш. Талабаларда маънавий-ахлоқий компетенцияларни шакллантириш технологиялари // Scientific Progress Volume 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601 1032-1036 б.

To‘lqinova Xolida To‘lqunovna
Dotsent,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nizomiy nomidagi
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti
xolida.tolqinova@mail.ru

XALQ HUNARMANDCHILIGIDA 4 K METODLARINI QO‘LLASH USULLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada xalq hunarmandchiligi darslarida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo‘lgan 4K metodlari – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiyani qo‘llashning ahamiyati hamda amaliy usullari yoritiladi. Shuningdek, ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, jamoada ishlash ko‘nikmalari va amaliy faoliyati rivojlanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq hunarmandchiligi, 4K metodlari, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya, ta’lim metodlari, amaliy mashg‘ulotlar.

Толкинова Холида Толкуновна
Доцент,
Доктор философии по педагогических наук (PhD)
Узбекистанский Национальный педагогический университет
имени Низами
xolida.tolqinova@mail.ru

МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ 4К В НАРОДНЫХ РЕМЕСЛАХ

Аннотация: в данной статье рассматривается важность и практические методы использования методики 4К — креативность, критическое мышление, коммуникация и сотрудничество — на уроках народных промыслов, одного из современных педагогических подходов. Также обсуждается развитие творческого мышления учащихся, навыков командной работы и практических навыков посредством этих методов.

Ключевые слова: народные промыслы, методы 4К, креативность, критическое мышление, коммуникация, сотрудничество, образовательные методы, практические упражнения.

Xalq hunarmandchiligi — bu qadimdan shakllangan, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy madaniyat va urf-odatlarning ifodasidir. Hunarmandchilik insoniyat tarixining eng qadimgi faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u turmush tarzining ajralmas qismi sifatida rivojlanib kelgan. O‘zbek xalq hunarmandchiligi o‘zining boy tarixi, rang-barang uslublari va nozik did bilan yaratilgan mahsulotlari bilan jahonda tanilgan. Xalqning madaniy merosi, estetik qarashlari, dunyoqarashi va tarixiy tajribasini o‘zida aks ettiruvchi, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan amaliy san’at turlarining yig‘indisidir. Zamonaviy ta’lim tizimida ushbu merosni o‘quvchilarga o‘rgatish, ularni ijodkorlikka undash va kasbiy yo‘naltirishda ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim

vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida turli innovatsion metodlardan foydalanish zarur deb hisoblayman.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamlashtirish va interaktiv platformalarning jadal rivojlanishi ta’lim sohasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari bugungi kun talablariga to‘liq javob bera olmay qolmoqda. Shu bois, ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalash — dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifasi ta’limda keng qo‘llanilayotgan 4K metodlari **—** kreativlik**,** kritik fikrlash**,** kommunikatsiya va kooperatsiya (hamkorlik) o‘quvchilarning kompleks kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalq hunarmandchiligi sohasida bu yondashuv nafaqat hunarni o‘rgatadi, balki ijodiy tafakkur, estetik did va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Xalq hunarmandchiligi o‘quvchilarning estetik didini, mehnat ko‘nikmalarini va milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, hunarmandchilik darslarida 4K metodlarini qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. 4K metodlari quyidagi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

- kreativlik
- Kritik fikrlash
- Kommunikatsiya
- Kooperatsiya (hamkorlik)

Ushbu metodlar o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kreativlik (Ijodkorlik) — bu mavjud bo‘lgan g‘oya, mahsulot yoki uslubga yangicha, noodatiy, yangi g‘oya va yechimlarni yaratish qobiliyatidir. Xalq hunarmandchiligi darslarida kreativlikni rivojlantirish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga касб этади. Hunarmandchilik mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga an’anaviy naqshlardan foydalanib yangi dizaynlar yaratish topshirig‘i berilishi mumkin. Masalan, kashtachilik, kulolchilik yoki yog‘och o‘ymakorligi jarayonida o‘quvchilar milliy naqshlarni zamonaviy shakllar bilan uyg‘unlashtirishlari mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga turli materiallardan foydalanib yangi buyumlar yaratish vazifasi beriladi. Bu jarayon ularning tasavvur doirasini kengaytiradi va ijodiy fikrlashga undaydi. Kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi usullardan нам foydalanish mumkin: масалан yangi naqsh va bezaklar yaratish; milliy hunarmandchilik buyumlarini zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirish; An’anaviy naqsh va bezaklarni zamonaviy talablarga mos holda qayta ishlab chiqish; Milliy mahsulotlarni global dizayn tendensiyalari bilan uyg‘unlashtirish; Materiallar, ranglar va shakllar bilan tajriba o‘tkazish (masalan, kashtachilikda yangi geometrik kompozitsiyalar yaratish).mustaqil loyiha ishlariни tashkil etish; ijodiy tanlovlar o‘tkazish. Badiiy tikuvchilikda qadimiy naqshlar asosida zamonaviy kiyim dizayni; Zardo‘zlikda kombinatsiyalangan texnikalardan foydalanish (masalan, ipak bilan tilla ipni aralashtirib ishlash).

Kritik fikrlash (Tanqidiy fikrlash) — bu har qanday g‘oyani, jarayonni, mahsulotni tahlil qilish, taqqoslash va asosli xulosa chiqarish qobiliyati, baholash va muammoli vaziyatlarga ongli yondashish ko‘nikmasidir. Xalq hunarmandchiligi

darslarida o‘quvchilar tayyor mahsulotlarni baholash, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash orqali kritik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Masalan, o‘quvchilarga turli hunarmandchilik buyumlari ko‘rsatiladi va ular ushbu buyumlarning naqshlari, rang uyg‘unligi hamda ishlanish sifati haqida fikr bildirishlari so‘raladi. Shuningdek, o‘quvchilar bajarilgan ish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlab, ularni hal qilish yo‘llarini izlaydilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, Xalq hunarmandchiligida qo‘llanishi: O‘quvchilarni mavjud hunarmandchilik mahsulotlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga o‘rgatish; Dizayn va funksionallik jihatdan mahsulotni baholash; Muammo tahlili: mahsulotda qanday kamchiliklar bor va ularni qanday bartaraf etish mumkinligini ko‘rib chiqamiz hamda misollar keltiramiz: Kulolchilikda buyum shaklining ergonomikasi va estetikasi yuzasidan bahs-munozara; Yog‘och o‘ymakorligi ishida naqshning haddan ortiq murakkabligi tufayli ishlab chiqarish qiyinchiliklarini tahlil qilish.

3. Kommunikatsiya (Muloqot qilish) — bu fikr va g‘oyalarni aniq, ravon yetkazish, tushunarli, mazmunli va madaniyatli tarzda ifodalash va boshqalarni tinglay olish qobiliyatidir. Kommunikatsiya inson hayotining muhim va ajralmas qismidir. Insonlar bir-biri bilan fikr almashish, his-tuyg‘ularini ifoda etish va ma’lumot yetkazish uchun kommunikatsiyadan foydalanadi. Oddiy qilib aytganda, kommunikatsiya — bu odamlar o‘rtasida muloqot qilish jarayonidir. Jamiyat rivoji, odamlar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro tushunish ko‘p jihatdan to‘g‘ri va samarali kommunikatsiyaga bog‘liq. Inson kundalik hayotida turli vaziyatlarda muloqot qiladi. Oila a’zolari bilan suhbatlashish, do‘stlar bilan fikr almashish, ustozlar bilan dars jarayonida savol-javob qilish — bularning barchasi kommunikatsiyaning misollaridir. Agar odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasa, ular o‘z fikrlarini yetkazishi yoki boshqalarni tushunishi juda qiyin bo‘lardi. Shu sababli kommunikatsiya jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Kommunikatsiyaning bir necha turlari mavjud. Eng keng tarqalgan turi og‘zaki kommunikatsiya hisoblanadi. Bu turdagi muloqot suhbat, nutq yoki telefon orqali gaplashish orqali amalga oshiriladi. Og‘zaki kommunikatsiya tezkor bo‘lib, odamlar darhol javob berishi mumkin. Masalan, dars jarayonida o‘qituvchi talabalar bilan og‘zaki muloqot qiladi va bilimlarini ularga yetkazadi. Yozma kommunikatsiya ham muhim hisoblanadi. Bu xatlar, elektron pochta, hisobotlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar orqali amalga oshiriladi. Yozma muloqotning afzalligi shundaki, u ma’lumotni aniq va tartibli tarzda yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, yozma ma’lumotni saqlab qolish va keyinchalik qayta o‘qish ham mumkin. Kommunikatsiyaning yana bir turi noverbal kommunikatsiyadir. Bu so‘zsiz muloqot qilishni anglatadi. Inson yuz ifodasi, imo-ishoralar, tana harakatlari yoki ko‘z qarashi orqali ham o‘z his-tuyg‘ularini bildirishi mumkin. Masalan, tabassum quvonchni bildirsa, bosh chayqash norozilikni anglatadi. Ba’zan noverbal kommunikatsiya so‘zlardan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Samarali kommunikatsiya uchun bir nechta muhim qoidalarga amal qilish kerak. Avvalo, suhbatdoshni diqqat bilan tinglash zarur. Shuningdek, fikrni aniq va tushunarli tarzda ifoda etish muhimdir. Muloqot jarayonida hurmat va xushmuomalalikni saqlash ham katta ahamiyatga ega. Bu odamlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi va

kelishmovchiliklarning oldini oladi. Masalan, Xalq hunarmandchiligida qo‘llanishi: Ustoz va shogird o‘rtasida samarali axborot almashish; Mahsulotni mijozga taqdim etish uchun lozim bo‘lgan nutqiy va vizual muloqot; Guruhli loyihalarda ishtirokchilarning o‘zaro tushunishiga misollar keltiramiz: O‘quvchilar o‘z loyihasi (masalan, milliy libos dizayni)ni taqdimot qilib tushuntiradi; Mahsulot marketingi uchun reklama matni yoki katalog tayyorlash.

4. Kooperatsiya (Hamkorlik) — bu jamoaviy ish, vazifalarni taqsimlash, mas’uliyatni bo‘lishish va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishdir. Kooperatsiya, ya’ni hamkorlik, insonlar o‘rtasida umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ishlash jarayonidir. Jamiyat rivojlanishida hamkorlik juda muhim o‘rin tutadi. Insonlar bir-biriga yordam berib, o‘z bilim va tajribalarini bo‘lishib ishlasa, har qanday ishni tezroq va samaraliroq bajarish mumkin. Hamkorlik inson hayotining turli sohalarida namoyon bo‘ladi. Masalan, oila ichida hamkorlik juda muhim. Oila a’zolari bir-biriga yordam berib, uy ishlarini birgalikda bajarishsa, oilada totuvlik va tushunish kuchayadi. Xuddi shuningdek, maktab yoki universitetda ham talabalar guruh bo‘lib ishlaganda, ular bir-birining fikridan foydalanib, yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Kooperatsiya ish joylarida ham katta ahamiyatga ega. Biror tashkilot yoki korxonada ishlaydigan odamlar o‘zaro hamkorlik qilsa, ish jarayoni samarali bo‘ladi. Har bir inson o‘z vazifasini bajarib, boshqalar bilan kelishib ishlasa, umumiy natija yanada yaxshi bo‘ladi. Aksincha, agar odamlar bir-biri bilan hamkorlik qilmasa, kelishmovchiliklar paydo bo‘lishi va ish jarayoni qiyinlashishi mumkin. Hamkorlik nafaqat ish samaradorligini oshiradi, balki odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham mustahkamlaydi. Birgalikda ishlash orqali insonlar bir-birini yaxshiroq tushuna boshlaydi, hurmat va ishonch paydo bo‘ladi. Bu esa jamiyatda tinchlik va birlikni ta’minlashga yordam beradi. Bugungi kunda hamkorlik yanada muhim bo‘lib bormoqda. Texnologiyalar rivojlanishi tufayli insonlar dunyoning turli burchaklaridan turib ham birgalikda ishlash imkoniga ega. Internet va zamonaviy aloqa vositalari orqali odamlar bilim almashib, katta loyihalarni birgalikda amalga oshirmoqda. Xalq hunarmandchiligida qo‘llanishi: Guruhda biror hunarmandchilik mahsuloti ustida ishlash (masalan, kashtado‘zlar guruhi bir kiyim dizaynini tayyorlashi); Loyiha asosida rollarni bo‘lish: kim dizayn qiladi, kim tikadi, kim taqdim qiladi; Jamoaviy muhokamalar orqali muammolarga yechim topishga misollar keltiramiz. Misollar: O‘quvchilar 4 kishilik guruhda zargarlik buyumi dizaynini ishlab chiqib, uni maket shaklida tayyorlash; Hunarmandlar va IT-mutaxassislar birgalikda “raqamli katalog” ishlab chiqadilar.

4K metodlari — bu XXI asrda ta’limning zamonaviy modelidir. Xalq hunarmandchiligi singari ijodiy va amaliy sohalarda bu metodlar:

- o‘quvchilarni ijodiy, tahliliy va amaliy fikrlashga o‘rgatadi;
- muloqot va jamoaviy ishlash malakalarini shakllantiradi;
- yangi, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, 4K metodlarini xalq hunarmandchiligi o‘quv dasturlariga joriy etish — nafaqat ta’lim sifatini, balki milliy hunarmandchilik salohiyatini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

Xalq hunarmandchiligi o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan boy madaniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, kashtachilik san’ati nafaqat estetik go‘zallikni ifodalovchi, balki xalqning tarixi, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim yo‘nalishlardan biridir. Har bir kashta namunasi o‘zida ma’lum bir ramz va ma’noni mujassam etgan bo‘lib, u orqali ajdodlarimizning hayot tarzi va orzu-intilishlarini anglash mumkin. Shu bois bugungi kunda kashtachilikni nafaqat an’anaviy tarzda, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimida 4K metodlari — kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya — muhim kompetensiyalar sifatida e’tirof etiladi. Ushbu metodlarni kashtachilik yo‘nalishida qo‘llash orqali o‘quvchilarning nafaqat amaliy ko‘nikmalari, balki intellektual va ijtimoiy qobiliyatlari ham rivojlanadi. Kreativlik kashta yaratish jarayonida ayniqsa muhim bo‘lib, o‘quvchilarni yangi naqshlar o‘ylab topishga, ranglar uyg‘unligini mustaqil tanlashga va an’anaviy uslublarni zamonaviy dizayn bilan uyg‘unlashtirishga undaydi. Bu esa ularda yangicha fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash esa kashtachilikda naqsh va kompozitsiyalarni tahlil qilish orqali rivojlanadi. O‘quvchilar qaysi naqsh qaysi matoga mos kelishini, ranglar uyg‘unligini va umumiy estetik ko‘rinishni baholashni o‘rganadilar. Bu jarayon ularda mustaqil qaror qabul qilish va tahliliy yondashuvni rivojlantiradi. Kommunikatsiya ko‘nikmalari esa ustoz-shogird an’anasi, guruhda ishlash va tajriba almashish orqali mustahkamlanadi. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin bayon qilishni, boshqalarni tinglashni va hamkorlikda ishlashni o‘rganadilar.

Kollaboratsiya, ya’ni jamoaviy ish olib borish kashtachilikda alohida ahamiyatga ega. Masalan, katta hajmdagi suzani yoki dekorativ buyumlarni yaratishda bir nechta hunarmand birgalikda ishlaydi. Bu esa o‘zaro yordam, mas’uliyat va jamoa ruhini shakllantiradi. Natijada nafaqat sifatli mahsulot yaratiladi, balki ishtirokchilarning ijtimoiy ko‘nikmalari ham rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kashtachilik san’atida 4K metodlarini qo‘llash ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi. Bu yondashuv orqali yosh avlod milliy merosni chuqur o‘rganish bilan birga, zamonaviy hayotda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi. Natijada esa an’anaviy hunarmandchilik yangi bosqichga ko‘tarilib, uning davomiyligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T.: “O‘zbekiston”. 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.02.2025 yildagi 78-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.02.2025 y., 09/25/78/0130-son.
3. Тулкинова.Х. (2022). Innovatsion yondashuv asosida o ‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, *1*(4).
4. Tulqinova X.T. Technology in education electronics-didactic occupation means without applying the effectiveness of the organization // International Multidisciplinary scientific conference on ingenious global thoughts hosted from KualaLumpur, Malaysia. May 31st 2021.

5. Elizabeth F. Barkley, Claire H. Major, K. Patricia Cross – *Collaborative Learning Techniques*, 2014.

6. Ken Robinson – *Creative Schools: The Grassroots Revolution That's Transforming Education*, 2015.

7. Tulqunovna.T.X. (2023). Development of students' professional interests based on an innovative approach. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, *19*, 157-159.

Хашимова Махсуда Комилжоновна

Педагогика фанлари номзоди, профессор
“Педагогика” кафедраси
Тошкент амалий фанлар университети

ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУЧИЛАРИДА КРЕАТИВЛИК ВА КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация. Мақолада таълим жараёнида бошланғич синф ўқувчиларида креативлик ва компетенцияларни шакллантириш масалалри кўриб чиқилган бўлиб, ўқувчиларда компетенцияларни ва креативликни шакллантириш ҳақида фикр юритилади, Ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган компетенция турлари-танқидий фикр, креативлик, ҳамкорлик ва коммуникативликни ривожлантириш, бошланғич синф ўқувчиларида креативликни шакллантириш борасида ўқитувчи бажариши лозим бўлган фаолият турлари вазифалари, бугунги кундаги долзарб муаммолари ва ахамияти хусусида фикр юритилади.

Калит сўзлар: компетенция, танқидий фикр, ҳамкорлик, коммуникативлик, қизиқиш, интилувчанлик;ташаббускорлик, қатиятлик, мослашиш, лидерлик.

Хашимова Махсуда Комилджановна
Кандидат педагогических наук, профессор
Кафедра «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук

ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОСТЬ И КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы формирования креативности и компетенций у учащихся начальных классов в процессе обучения. Обсуждаются подходы к развитию компетенций и креативности у школьников, аанализируются виды компетенций, которыми должны обладать учащиеся- развитие критического мышления, креативности, навыков сотрудничества и коммуникации. Особое внимание уделяется деятельности учителя по формированию креативности у младших школьников, актуальным проблемам и значимости этого процесса.

Ключевые слова: компетенция, критическое мышление, сотрудничество, коммуникабельность, интерес, стремление к развитию, инициативность, настойчивость, адаптивность, лидерство.

Makhsuda Komiljanovna Khashimova
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

DEVELOPING CREATIVITY AND COMPETENCIES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article examines the issues of fostering creativity and competencies in primary school students during the learning process. Approaches to developing competencies and creativity in schoolchildren are discussed, and the types of competencies that students should possess are analyzed: the development of critical thinking, creativity, collaboration, and communication skills.

Special attention is paid to the teacher's role in fostering creativity in younger students, current challenges, and the significance of this process.

Keywords: competence, critical thinking, collaboration, communication, interest, drive for development, initiative, perseverance, adaptability, leadership.

Компетенция — у ёки бу соҳа бўйича билимдонлик. “Компетенция” (лот. competo — эришяпман, муносибман, лойиқман деган маънони билдиради).

Ҳозирги кунда ривожланган мамлакатларда ўқувчиларнинг ўқув предметининг ўзлаштиришларига қаратилган таълим парадигмасидан компетенцияли таълим тизимига ўтиш ҳаракати кучайди. Шунинг учун ҳам жаҳон педагогикасида компетентли шахс тарбияси, компетентли ўқитиш муаммолари кўтарилмоқда. Компетентли шахс деганда, маълум соҳада келиб чиққан *муаммоларни ҳал* қилишни ўз зиммасига олиш қобилиятига эга бўлган, маълум вазифа қўйиш ва уни ҳал қилишда мустақиллик кўрсата оладиган шахс тушунилади. “Competence” сўзи “to compete” сўзидан келиб чиққан бўлиб, эришяпман, муносибман, лойиқман деган маънони билдиради. Сўзма-сўз таржима қилинса мусобақалашишга лаёқатлилик маъносида келади. Атаманинг моҳияти шунингдек, самарадорлик, мослашувчанлик, ютуқлилик, муваффақиятлилик, тушунувчанлик, натижалилик, уқувлилик, хусусият, сифат, *миқдор каби* тушунчалар асосида ҳам тавсифланмоқда. Таълимда компетенциявий ёндашув билиш *парадигмасини инкор* қилмаган ҳолда уни муаммоли вазиятларда қўллай *билиш парадигмасига* бўйсунадиган иккинчи пландаги парадигмага айлантиради. Лекин *ўқувчи билимни* ўзлаштирмасдан туриб уни амалиётда қўллай олмайди.

Компетенция турларини синчиклаб кўриб чиқсак:

1.Таянч (Фундаментал) компетенциялар;

2. Мураккаб масалаларни ечишга оид компетенциялар;

3. Характер хусусиятларига оид компетенциялар (2.1-расм).

Ўқувчиларда таянч компетенцияларнинг шаклланиши натижасида табиий тарздаги ишчанлик муҳити вужудга келди. Ўқувчилар жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий, маънавий тараққиётидан хабардор бўлиш имконияти вужудга келади. Машғулотларда бир қатор вазифалар ҳал қилинди:

- ўқувчиларни ижтимоий талабалар, эхтиёжлар билан таништириб бориш;
- жамият ҳаётида содир бўлаётган янгиликлар билан танишиб бориш;
- ўқувчиларни меҳнат бозоридаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар, касб-ҳунар турлари билан таништириш;
- ўқувчиларни истиқболли касблар ва уларнинг ўзига хос хусусиятларидан хабардор қилиш;
- ўқувчиларга муайян касбий фаолиятга нисбатан қизиқиш уйғотиш;
- ўқувчиларнинг ташаббусларини қўллаб-қувватлаш кабилар.

XXI аср ўқувчилари эгаллашлари лозим бўлган компетенциялар

Фундаментал компетенциялар	Мураккаб масалаларни ечиш	Характер хусусиятлари
Тиллар бўйича билим, малака, кўникмалар. Математик билимлармалака, кўникмалар. Табиий фанлар бўйича билим, малака, кўникмалар. Ахборот технологияларибўйича билим, малака, кўникмалар. Иқтисодий билим, малака, кўникмалар. Маданиятшуносликга оид бўйича билим, малака, кўникмалар.	Танқидий фикрлаш Креативлик Комуникацияга кириша олиш Ҳамкорлик	Қизиқишларни тарбиялаш Ташаббускорликни тарбиялаш Қатиятликни тарбиялаш Мослашишини тарбиялаш Лидерлик хусусиятини тарбиялаш Маданий ва ижтимоий ҳаётни ҳис этишни тарбиялаш

1-расм.Ўқувчиларни эгаллаши лозим бўлган компетенция.

Таянч компетенцияларнинг муҳим хусусиятларидан бири – ўқувчиларни ижтимоий муносабатларга тайёрлашдан иборат. Имитацион ўйинлар ёрдамида ўқувчиларни ижтимоий ҳаётдаги ҳамкорлик ва шахслараро муносабатларига олиб кириш имкониятлари кенгаяди. Бундай ўйинлар жараёнида ўқувчиларнинг гуруҳ бўлиб фаолият кўрсатишларига алоҳида эътибор қаратилди.

Машғулотларнинг дидактик жиҳозланиши ўқувчиларни зарурматериаллар билан қуроллантириш имконини берди.

Ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантиришда бир қатор ҳолатларга алоҳида эътибор қаратилди:

-ўқувчиларда таянч компетенцияларни шакллантириш учун уларнинг ўқув ҳамда амалий фаолиятларини уйғунлаштириш;

-жамият аъзоларининг ўзаро ҳамкорликда фаолият кўрсатишларини тарғиб қилувчи фото, аудио-визуал воситалардан фойдаланиш;

-ўқувчиларнинг жамият ҳаётида иштирокига йўналтириш. Таянч компетенцияларни шакллантиришдан кўзда тутилган мақсад шундан иборатки, бу ўқувчиларнинг ижтимоий тажрибаларни ўзлаштиришга йўналганликларини ифодалайди.

Масалан:

-ижтимоий тажрибанинг шаклланиши;

-ҳамкорликдаги фаолиятни амалга ошириш;

-диалогнинг вужудга келишига шароит яратиш;

-фикрни баён этиш учун зарур ахборотлар ва далиллардан ўз ўрнида фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш;

-ижтимоий муносабатларга киришиш учун барқарор майлларни вужудга келишини таъминлаш;

-муаммоли вазиятларга мустақил ечим топиш кўникмасига эга бўлишларига эътибор қаратиш кабилар.

Таянч компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган технологиялар муҳим педагогик аҳамиятга эга. Жумладан:

- ўқувчиларда ижтимоий компетентликни шакллантиришда таянч компетенцияларнинг муҳим аҳамият касб этишини педагогик жиҳатдан асослаш;

-таянч компетенцияларни шакллантириш мақсадларига кўра дидактик материалларни табақалаштириш;

-таянч компетенцияларни шакллантиришда ўқитувчиларнинг ўқув жараёнини лойиҳалаш имкониятларидан самарали фойдаланиш.

Ўқитувчи ўқув ишларининг якуний натижасига эришмоқ учун ўқув жараёнининг бошланишидаёқ ўқувчи қандай компетенцияларни эгаллаши лозимлигини белгилаб олиши лозим. *Компетенциявий таълим* ўқувчиларнинг маълум билимлар йиғиндисини эгаллашнигина эмас, балки шахсни ривожлантириш, англаш ва яратиш қобилиятларини ўстиришни мўлжаллайди. Ахборотлар билан ишлаш компетенцияси элементлари: дарслик, ўқув қўлланма ва медиаманбалар (радио, телевизор, интернет ва бошқалар)дан зарур маълумотларни излаб топа олиш, саралаш, қайта ишлаш, сақлаш, улардан самарали фойдалана олиш, медиамаданиятга эга бўлиш.

Математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси: аниқ ҳисоб-китобларга асосланган ҳолда шахсий режаларни туза олиш, кундалик фаолиятда турли жадвалли маълумотларни ўқий олиш.

Умуман барча ўқитиладиган фанларга оид билим, кўникма ва малакаларга эга бўлиш.

Характер хусусиятларига оид компетенциялар (Қизиқишларни тарбиялаш ташаббускорликни тарбиялаш, қатиятликни тарбиялаш, мослашишини тарбиялаш, лидерлик хусусиятини тарбиялаш,маданий ва ижтимоий ҳаётни хис этишни тарбиялаш).

Доимий равишда ўзини ўзи мустақил ва ижодий ривожлантириш, ҳаёт давомида мустақил ўқиб-ўрганиш, ҳаётий тажрибасини мустақил равишда мунтазам ошириб бориш, мустақил қарор қабул қила олишни шакллантиришга қаратилган. У ўз ичига: танқидий фикрлаш, креативлик, комуникацияга кириша олиш, ҳамкорликда фаолият олиб бориш кабиларни бирлаштиради.



Ҳозирги вақтда жамиятимиз, тезда қайта қурадиган ва ғояларни яратиш орқали қийин вазиятдан чиқиш йўлини топадиган шахсларни талаб қилмоқда.

Танқидий фикрлаш бўйича фикр юритар эканмиз, аввалам бор фикрлаш хусусида сўз юритамиз. Ҳар бир инсон турли хил фикрлаш жараёнларини қабул қилиши ва ривожланиши мумкин.

Ушбу фикрлаш тури алохида компетенция сифатида талқин этилган.

Фаробий танкидий фикрлашни ташкил этиш масалалари буйича бир катор муҳим тавсияларни ишлаб чикди. Унинг фикрича, яхши назоратчи бўлиш учун уч нарсага риоя килиш зарур:

1) маълум бир фан асосига ётган барча тамойилларни яхши билиш керак;

2) ушбу аниқ фанга доир мана шу тамойил ва маълумотлардан зарур хулосалар чиқара олиш керак, яъни муҳокама этиш қоидаларини эгаллаш лозим;

3) ҳакикатни ёлғондан фарклаш ва хатоларни туғрилаш учун хато назарияларни инкор этиш ва бошқа муаллифлар мулоҳазаларини таҳлил этиш зарур.

Танқидий фикрлаш - бу нарсаларни ифодалашга ҳаракат қиладиган билимларни ташкил этиш усулини таҳлил қилиш, тушуниш ва баҳолашга асосланган ақлий жараён. У юқори амалий фикр сифатида таснифланади. Бу орқали билим энг самарали ва асосли хулосага келиш учун ишлатилади. Танқидий фикрлаш шу тариқа фикрларни конкрет хулосаларга олиб келиш учун таҳлилий баҳолайди. Ушбу хулосалар шахснинг ахлоқи, қадриятлари ва шахсий принципларига асосланади. Шундай қилиб, ушбу тафаккур орқали билиш қобилияти шахснинг шахсий хусусиятлари билан бирлашади. Демак, у нафақат тафаккур тарзини, балки мавжудотни ҳам белгилайди.

Танқидий фикрлашни қабул қилиш инсоннинг фунционал имкониятларига бевосита таъсир қилади, чунки у уларни янада интуитив равишда таҳлил қилади, аниқ воқеалар асосида яхши ва доно қарорлар қабул қилишга имкон беради.

Танқидий фикрлашни шакллантирувчи воситалар ўқув жараёнидаги ҳар бир босқичнинг аниқ мақсадларини ҳисобга олган ҳолда танлов амалга оширилгандагина тизим сифатида юзага келади ва улар бирликда бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашининг ҳар бир компонентига таъсир этади.

Танқидий фикрлаш мазмуни уч ташқи омилга: объект, максад, дидактик асослар ривожланишининг конуниятлари орқали боғланади.

Бошланғич синф ўқувчилари танккдий фикрлашини шакллантиришнинг дидактик асоси деганда нимани тушуниш керак?

Буни куйидагича англаш мумкин:

1. Танқидий фикрлаш мақсадларини асослаш.

2. Бошланғич синф ўқувчиларининг танқидий фикрлаш мазмунини илмий ишлаб чиқиш (Нималар керак? Фан-техника ва маданиятнинг ривожланиш талабларига мувофиқ келувчи таълимни ўқувчиларга қандай етказиш керак? Фанлар асосини ўрганишда ворисийлик, ўқувчининг ўқув машғулотларида ортиқча юкламаларни енгиб ўтиши, мазмунни ўқувчининг реал имкониятларига мувофиқлаштиришни таъминлаш учун ўқувчиларнинг ёш хусусиятларига мос

келувчи бир тизимга келтирилган билимлар доирасини кандай таксимлаш керак?).

3. Дарс мотивларини шакллантиришни илмий ишлаб чиқиш.

4. Ўқувчилар танқидий фикрлашининг илмий асосланган ва амалий қўлланувчи шаклларини ўрганиш.

5. Танқидий фикрлашни шакллантириш усуллари тизимлари ва ўқувчиларга дарс бериш методларини илмий ишлаб чиқиш.

6. Ўқувчилар танккдий фикрлашини шакллантириш воситалари тизими - дарсликлар, дидактик материаллар, кўргазмали қуроллар ва техник воситаларни мақсадли тайёрлаш.

7. Бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини ташкил этиш ва бошқаришни илмий ишлаб чиқиш.

Бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантириш анча мураккаб ва узоқ давом этадиган жараёндир. У ўқитувчи билан ўқувчининг биргаликдаги ишида шаклланади.

Бу борада ўқитувчи бажариши лозим бўлган фаолият турлари:

- ўқув масаласини тўғри қўя билиши;

- тўлиқ ва ҳар бир алоҳҳида операция ва улар тартиби намуналарини етказиш;

- ҳар бир ҳаракат ва операция бажарилиши жараёнини назорат килиш;

-ҳар бир ўқувчи ўқув танқидий фикрлашини бажардими, агар бажарган бўлса, у қандай элементларни қайта ишлаши лозимлигини кўриб чиқади.

Бошланғич синфларда муаммоли таълим элементлари ва ўқувчиларнинг мустақил ишлари, дидактик ўйинлар сингари бошқа асосий воситалари мавжуд. Бу воситалар танқидий фикрлашнинг барча жиҳатларини рағбатлантиради.

Бошланғич синф ўқувчиларини танқидий фикрлашини, катта гуруҳлар билан қиёслаганда, жонли, бевосита мушоҳада қилиш босқичи анча муҳим ахамият касб этишини кўриш мумкин. Бу босқичга хос булган психик жараёнларни (кабул килиш, эътибор) фаоллаштириш заруриятини етарлича баҳоламаслик мумкин эмас.Ривожланаётган таълим ғояларини амалга ошира бориб, бошланғич таълимдаёқ ўқувчининг танқидий фикрлашини рағбат-лантиришга тобора кўпроқ урғу берилмоқда. Бироқ, ўз моҳиятига кўра, бошланғич таълимда кўп нарсани шунчаки ёд олиш, репродуктив фаолиятдаги ўқув ва кўникмаларни эса машқлар орқали эгаллаш керак. Шу боис хотиранинг иши ва репродуктив фаолиятнинг ролини инкор этиб бўлмайди.

Бошланғич таълим нуқтаи назаридан шундай ҳолат ҳам ахамиятлики, боланинг асаб тизими ҳали кучсиз ва ақлий қобилияти нисбатан паст. Шу боис боланинг қобилияти, унинг навбатдаги масалаларни бажаришга тайёрлиги ва куч-қувватини қўллаб-қувватлаш учун махсус йўналтирилган усуллар тизими керак бўлади.

Шундай қилиб, бошланғич таълимда жараёнларни фаоллаштириш зарур: танкидий фикрлашнинг турли даражаларини шакллантириш (билим-танишув, билим-нусха кўчириш, билим-ўқув, билим-ижод) лозим. Таълимда фаоллаштириш унинг ҳам олий (билим-ўқув, билим-ижод), ҳам қуйи (билим-

танишув, билим-нусха кучириш) даражаларида амалга оширилиши зарур. Ҳар бир босқич аниқ ўқув материали ва аниқ танқидий фикрлашга боғлиқ ҳолда амалга ошади. Ғоянинг қуйидан юқори даражаларга ривожланиши қуйи даражаларга эътиборсизлик билан қарашимиз мумкин, дегани эмас.

Танқидий фикрлаш асосида бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантиришнинг барча муҳим компонентларини (мақсад, мазмун, шакллар, метод ва усуллар, восита ва мотивлар) биргаликда кўриб чиқиш имконияти пайдо бўлади.

Буларнинг ҳаммаси, табиийки, бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашини шакллантиришнинг дидактик асосига киради.

Танқидий фикрлашнинг ташқи томони деганда биз анча содда жараёнларни (қабул қилиш, диккат-эътибор ва бошқаларни) рағбатлантириш ва боланинг умумий иш қобилиятини сақлашни тушунамиз. Бунинг учун қуйидаги усуллар хизмат қилади:

- турли методлар, турлар ва ўқув ишлари усулларини навбатлаштириш йўли билан турли асаб марказлари ишларини фаоллаштиришни таъминлаш;
- ўқув жараёнида сўз ва кўргазмалилик, аниқ ва мавхумийликнинг ўзаро тўғри муносабати;
- дарсда жисмоний ва мусиқий дам олиш дақиқалари;
- ижобий ҳиссиётларни қўллаб-қувватлаш;
- дидактик усул сифатида ўйин ва мусобақаларни қўллаш, танқидий фикрлашнинг ички томони - бу, аввалambор, ўқувчилар фикрлашини фаоллаштириш, бошланғич гуруҳларда эса улар тасаввури ва ижодкорли-гини рағбатлантириш ҳамдир.

Танқидий фикрлашни шакллантиришнинг ички томони мақсадларида фойдаланиладиган асосий усуллар қуйидагилардир:

- ўқувчиларнинг мустақил иши;
- ўз-ўзини ва ўзаро назорат этиш элементлари;
- бошланғич синф ўқувчилари таълимига муаммоли ёндашув;
- таълимнинг мослашув тизими элементлари ва бошкалар.

Демак, ташки ва ички шакллантириш усуллари тизими бошланғич синф ўқувчилари танқидий фикрлашининг барча босқичларини қамраб олади:

-жонли мушохода юритиш босқичида, тасаввурнинг қабул қилиш ва юзага келишида;

-мавҳум фикрлаш босқичида, ўқув материалини идрок этиш ва тизимлаштиришда, хулоса ва умумлашмаларни шакллантиришда, эсга олиш босқичида, ўзлаштирилган материални қўллашда.

Хатто, яхши уйлаб топилган тизим ва танқидий фикрлаш усулларидан оқилона фойдаланилганда ҳам ўқувчи ўқитувчи режалаштирган таъсирларни ҳар доим ҳам мос равишда қабул қилавермайди. Шу боис, танқидий фикрлашни шакллантирувчи имконият ва воситалар билан бир қаторда ўқувчилар ички механизмини ҳам ўрганиш зарур. Бу, айникса, бошланғич гуруҳларда муҳим. Чунки бошланғич синф ўқувчиси иродавий сифат-ларининг қиёсан паст даражада ривожланиши туфайли ҳар доим онгли ирода кучлари орқали ўз

кучларини кўп сарфлайди ва ўз қобилиятларини намойиш этишга интилади, деб бўлмайди. Унинг ихтиёрий танқидий фикрлашини ноихтиёрий фаолият билан қўллаб-қувватлаш зарур.

Танқидий фикрлашни ривожлантиришнинг мақсади ўқувчиларнинг нафақат ўқишда, балки кейинги ҳаётида ҳам зарур бўлган ақлий қобилиятларини ривожлантиришдир (аниқ қарор қабул қилиш, маълумотлар билан ишлаш, ҳодисаларнинг турли томонларини таҳлил қилиш қобилияти), ва ҳоказо. Танқидий фикрлаш - бу XXI асрнинг асосий кўникмаларидан бири бўлиб, у маълумотларни таҳлил қилиш, хулосалар чиқариш ва таҳлил асосида қарорлар қабул қилиш, шунингдек ўз фикрингизни шакллантириш ва ўз позициянгизни ҳимоя қилиш имконини беради. Танқидий фикрлаш орқали биз турли зиддиятлар ва қарама-қаршиликларни кўрамиз, орасидан нотўғри маълумотларни олиб ташлаймиз ва уларни саралаб талқин қиламиз.

Танқидий фикрлаш - бу далиллар ва фактларга асосланиб хулосалар чиқариш ва қарорлар қабул жараёнидир. Мантиқий фикрлаш ғояларни янада аниқроқ етказиш, далилларни аниқлаш ва баҳолаш ҳамда мақсадларга эришиш учун асосли стратегияларни ишлаб чиқишда ёрдам беради.

Танқидий фикрлаш деярли ҳар бир соҳада энг кўп терилган ихтиролардан биридир. Бу ахборотни объектив таҳлил қилиш ва асосли қарор чиқариш қобилиятига тегишлидир.

Танқидий фикрлаш бу — ўз-ўзини бошқарадиган, ўзини ўзи тарбиялайдиган, ўзини ўзи назорат қиладиган ва ўзини ўзи тўғирлайдиган фикрлаш шаклидир. Унинг зарурий шарти онгни такомиллаштиришнинг қатъий меъёрларига рози бўлиш ва уларни ҳушёрлик билан қўллашдир. Танқидий фикрлаш самарали мулоқот ва муаммоларни ҳал қилиш кўникмаларини эгаллашни, шунингдек, табиатимизга хос эгоцентризм ва соцоцентризмни енгиб ўтишни талаб қилади.

Танқидий фикрлаш билан боғлиқ энг қадимги ёзувлар Платон томонидан ёзилган Суқрот таълимотини тақдим этган диалоглардир. Суқротнинг фикрича, яхши ҳаёт кечириш ва ҳаётнинг қадрига етиш учун инсон танқидий савол берувчи, „суриштирувчи руҳ“га эга бўлиши керак. У ғояларни эътиқодга лойиқ деб қабул қилишдан олдин, уни чуқур ўйлашга ундайдиган чуқур саволлар бериш кераклигини англади.

Танқидий фикрлаш қобилиятлари бўйича АҚШ Миллий кенгаши танқидий фикрлашни қуйидагича таърифлайди: "кузатиш, тажриба, мулоҳаза юритиш, мулоҳазалар ёки мулоқот орқали тўпланган ёки ҳосил қилинган маълумотларни эътиқод ва ҳаракатни (концептуаллаштириш) бошқарадиган тушунчаларга фаол ва моҳирона айлантириш, қўллаш, таҳлил қилиш, синтез қилиш ёки баҳолашнинг интеллектуал, илғор жараёни сифатида аниқланади.

Креативлик- бу мавжуд ҳолатга аввал бўлмаган янгиликни киритишдир. Креативлик- янги тизимни яратилиши, мавжуд ахборотни янги шароитларда комбинациялашган ҳолда қўлланишида акс этиши мумкин. Креативликнинг мазмун ва моҳияти:

- Креативлик – бу маданият воситаси асосида шахс сифатида шаклланиш

жараёнида намоён бўладиган шахснинг шахсий сифати (фазилати)дир.

- Креативлик – бу инсоннинг шахсий хусусияти бўлиб, унинг ўз-ўзини такомиллаштириб ва ривожлантириб бориши билан боғлиқ.

Кретивликка хос хусусиятлар:

• Идрок билан билимни қоришмаси-билимларни янги ғояга айланиши.
• Янгилик киритиш қобилияти.
• Оддий мантиқий фикрдан юқори кўтарилиш.
• Муаммоларни ечишга тайёр туриш.
• Креативлик стандарт бўлмаган фикр, кутилмаган ғояларни яратишдир.
•

Креативлик -иқтидор ва ижодкорлик даражаси, ижод қилиш қобилияти бўлиб, шахснинг турғун характерли хусусияти хисобланади.

Умумтаълим муассасаларида ўқувчиларнинг креатив тафаккурини шакллантириш замонавий таълим парадигмаларининг ўзгаришини ҳам талаб этади. Бу парадигмалар ўқувчиларга тайёр мавжуд билимларни ўзлаштиришни эмас, балки энг асосий, зарур билимга қандай қилиб эга бўлиш қобилиятини шакллантиришга қаратилгандир. Ўқув фаолиятини самарали ташкил қилиш, дарс жараёнида маъруза ва амалий машғулотлардан тўғри фойдаланиш орқали амалга оширилади. Машғулотлар жараёнида улардан ўз ўрнида тўғри фойдаланиш ва ўзаро узвий боғлиқ ҳолда қўллай олиш таълим ва тажриба самарадорлигининг муҳим омилларидан биридир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Андреев, В. И. Эвристика для творческого саморазвития / В. И. Андреев. -Изд. 2-е. - Казань: Центр инновац. технологий, 2008. - 223 с.

2. Балановская, Л. А. Креалогия. Теория творческой деятельности / Л. А. Балановская. — Балашов: Николаев, 2005. - 194 с.

3. Барышева, Т. А. Психологическая структура креативности (опыт эмпирического исследования) / Т. А. Барышева // Известия Российского государственного педагогического университета им. А. И. Герцена. - 2012. — № 145. - С. 54-64.

4. Барышева, Т. А. Психолого-педагогические основы развития креативности: учеб. пособие / Т. А. Барышева, Ю. А. Жигалов. - СПб.: СПГУТД, 2006. - 268 с.

5. Батищев, Г. С. Введение в диалектику творчества / Г. С. Батищев. - СПб.: Изд-во РХГИ, 1997. - 464 с.

6. Берму с, А. Г. Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании [Электронный ресурс] / А. Г. Бермус // Интернет-журнал «Эйдос». - 2005. - Режим доступа: http://www.eidos.ru/journal/2005/091 0-12.htm.

7. Богоявленская, Д. Б. Психология творческих способностей: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Д. Б. Богоявленская. - М.: Академия, 2002.

8. Боно, Э де. Серьезное творческое мышление / Э.де Боно. - М.: Попурри, 2005. - 416 с.

9. Бос, Э. Как развивать креативность / Э. Бос; пер. с нем. К. А. Петросян -Ростов н/Д: Феникс, 2008. - 189 с.

10. Брякова, И. Е. Методическая система формирования креативной компетентности студентов-филологов педагогического вуза: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.02 / И. Е. Брякова. - СПб., 2010. - 463 с.

11. М.К.Хашимова, Х.И.Юсупова, М.О.Камилова, Д.Х.Алимова. Креатив педагогика асослари. Дарслик.-Тошкент.:2023й- 217 бет.

12. Воронин, А. Н. Интеллект и креативность в совместной деятельности: дис. ... д-ра псих, наук: 19.00.13 / А. Н. Воронин. -М., 2004. - 376 с.

13. Робинсон, Кен Р. Школа будущего. Как вырастить талантливого ребенка / Кен Робинсон и Лу Ароника; пер. с англ. О. Медведь. — М.: Манн, Иванов и Фербер, 2016. — 386 с.

14. Хохлова Д. А. Актуализация статуса креативной педагогики в современном междисциплинарном знании // Вестник Университета (ГУУ). №15/2012. с. 297-301.

Utayeva Naima Normuratovna
V.b dotsenti, p.f.f.d (PhD)
Nizomiy nomidagi
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TADQIQOTCHILIK VA MUAMMOLARNI HAL QILISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: METODIK YONDASHUVLAR VA TA’LIM NATIJALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritiladi. Tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim, muammoli ta’lim, loyiha va inquiry-based learning yondashuvlarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarining tarkibiy qismlari aniqlanadi: muammoni qo‘yish, savol yaratish, gipoteza ilgari surish, ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, natijani taqdim etish va refleksiya. Shuningdek, o‘quvchilarda shakllantiriladigan aniq ko‘nikmalar hamda ta’lim natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tizimlashtiriladi. Maqolada maktab amaliyoti uchun bosqichma-bosqich metodik tavsiyalar ham taklif etiladi. Tadqiqot natijasida tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, dalillash madaniyati, kreativligi va o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik ko‘nikmalari, muammolarni hal qilish, inquiry-based learning, problem-based learning, ta’lim natijalari, kompetensiya, kreativ fikrlash, o‘quvchi faoliyati.

Утаева Наима Нормуратовна
И.о. доцента, д.ф.п.н (PhD)
Узбекский национальный педагогический университет имени Низами

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ И РЕШЕНИЯ ПРОБЛЕМ У СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЯМ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И РЕЗУЛЬТАТЫ ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. В данной статье освещаются педагогические основы развития у учащихся исследовательских умений и навыков решения проблем. Анализируются дидактические возможности исследовательски ориентированного обучения, проблемного обучения, проектного метода и подхода inquiry-based learning. На основе анализа литературы определяются структурные компоненты исследовательских умений: постановка проблемы, формулирование вопроса, выдвижение гипотезы, сбор информации, анализ, формулирование выводов, представление результатов и рефлексия. Также в рамках компетентностного подхода систематизируются конкретные навыки, формируемые у учащихся, а также образовательные результаты. В статье предлагаются поэтапные методические рекомендации для школьной практики. По результатам исследования обосновывается, что формирование исследовательских умений и навыков решения проблем способствует развитию самостоятельного мышления учащихся, культуры аргументации, креативности и учебной мотивации.

Ключевые слова: исследовательские умения, решение проблем, inquiry-based learning, problem-based learning, образовательные результаты, компетенция, креативное мышление, деятельность учащихся.

Naima Normuratovna Utaeva
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Acting Associate Professor
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

DEVELOPING STUDENTS' RESEARCH AND PROBLEM-SOLVING SKILLS IN TECHNOLOGY TEACHING: METHODOLOGICAL APPROACHES AND LEARNING OUTCOMES

Abstract. This article highlights the pedagogical foundations for developing students’ research skills and problem-solving abilities. It analyzes the didactic potential of research-oriented learning, problem-based learning, project-based methods, and inquiry-based learning approaches. Based on a literature review, the structural components of research skills are identified, including problem formulation, question generation, hypothesis development, data collection, analysis, drawing conclusions, presenting results, and reflection. The study also systematizes the specific skills formed in students and the expected learning outcomes within a competency-based approach. In addition, the article offers step-by-step methodological recommendations for school practice. The findings substantiate that the development of research skills and problem-solving abilities enhances students’ independent thinking, argumentation culture, creativity, and learning motivation.

Keywords: research skills, problem solving, inquiry-based learning, problem-based learning, learning outcomes, competency, creative thinking, student activity.

XXI asr ta’limida o‘quvchilarning tayyor bilimni takrorlashi yetarli emas; ular yangi vaziyatda muammoni ko‘ra olish, savol qo‘ya olish, ma’lumotni tahlil qilish va asoslangan qaror qabul qilishni bilishi kerak. OECDning Education 2030 materiallarida muammolarni hal qilish [4], tahliliy fikrlash, moslashuvchanlik va o‘quvchi agentligi kelajak uchun tayanch kompetensiyalar sifatida ko‘rsatilgan. PISA doirasidagi yondashuvda ham muammolarni hal qilish oddiy reproduktiv bilim emas, balki kognitiv va amaliy resurslarni safarbar etish deb talqin qilinadi [1].

Shu sababli maktab ta’limida tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida metodik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa, o‘quvchi mustaqil savol qo‘yadigan, dalil izlaydigan, tajriba o‘tkazadigan va xulosani asoslaydigan darslar bilimning chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. UNESCO inquiry-oriented educationni o‘quvchini savol, izlanish va tanqidiy tafakkur markaziga qo‘yuvchi yondashuv sifatida tavsiflaydi [6].

Amaliyotda ko‘plab darslar hanuz tayyor ma’lumotni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda o‘quvchining ilmiy izlanish mantig‘i yetarlicha shakllanmaydi. Holbuki, tadqiqotlar inquiry va problem-based yondashuvlar o‘quvchilarning yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini, jumladan tahlil, sabab-oqibatni tushunish, dalillash va muammoga yechim ishlab chiqishni kuchaytirishini ko‘rsatmoqda [8]. 2024-yilgi tizimli sharh inquiry-based yondashuvlar yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanini qayd etadi; PBL bo‘yicha sharhlar esa murakkab, real muammolar bilan ishlash mazmuniy bilim va fikrlash strategiyalarini birgalikda rivojlantirishini ko‘rsatadi.

1. Muammolarni hal qilish ko‘nikmasining ilmiy talqini

OECD materiallarida muammolarni hal qilish ko‘nikmasi yechim usuli darhol ayon bo‘lmagan vaziyatlarni tushunish va bartaraf etishga qaratilgan kognitiv jarayon sifatida izohlanadi [3]. Ushbu ko‘nikma muammoni aniqlash, ma’lumotni qayta ishlash, strategiya tanlash, bajarish va natijani baholash kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. PISA 2012 framework ham muammolarni hal qilishni noan’anaviy vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyati deb belgilaydi.

2. Inquiry-based learning va tadqiqotchilik ko‘nikmalari

UNESCOning inquiry-oriented education bo‘yicha materiallari inquiry yondashuvining markazida savol berish, tanqidiy fikrlash, kuzatish, tushuntirish va refleksiya turishini ko‘rsatadi. Frontiers’ta chop etilgan 2023-yilgi sharh inquiry-based teaching ilmiy bilim qurilishi va tadqiqot ko‘nikmalarining rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashini qayd etadi. 2024-yilgi tizimli sharh esa inquiry-based learningning tanqidiy fikrlash, kreativlik va faol o‘quv ishtirokini oshirishdagi ijobiy ta’sirini umumlashtiradi.

3. Problem-based learning va yechim ishlab chiqish

Hmelo-Silverning klassik sharhida problem-based learning murakkab muammo markazida tashkil etilgan, o‘quvchini izlanish, tushuntirish va hamkorlikda yechim ishlab chiqishga yo‘naltiruvchi metod sifatida izohlanadi. Mazkur yondashuv mazmuniy bilim bilan birga fikrlash strategiyalari, o‘zini boshqarish va hamkorlikni rivojlantiradi. Keyingi empirik tadqiqotlar ham PBLning muammolarni hal qilish ko‘nikmasini sezilarli yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatgan [8].

4. Ilmiy jarayon ko‘nikmalari va tadqiqotchilik

Ilmiy jarayon ko‘nikmalari bo‘yicha sharhlar kuzatish, tasniflash, o‘lchash, gipoteza tuzish, tajriba rejalash, ma’lumot talqini va xulosa chiqarish tadqiqotchilik kompetensiyasining asosini tashkil qilishini ko‘rsatadi. 2023-yilgi sharhda aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi strategiyalar o‘quvchi faol ishtiroki, tajriba, muhokama va refleksiya bilan bog‘lanadi. Research-oriented collaborative inquiry bo‘yicha tadqiqotlar ham ilmiy jarayon ko‘nikmalari murakkab masalalarni yechish va ilmiy tushunchalarni qurishda muhim ekanini tasdiqlaydi.

5. O‘quvchi agentligi va ta’lim natijalari

OECDning student agency konsepsiyasi o‘quvchining maqsad qo‘yishi, qaror qabul qilishi, o‘qish uchun javobgarlikni zimmasiga olishi va hamkorlikda faoliyat yuritishini yuqori natijalar bilan bog‘laydi. Bu yondashuv tadqiqotchilik va muammo yechish ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq, chunki izlanishga asoslangan darslar o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi.

Olib borilgan tadqiqot tahliliga tayanib, o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan tadqiqotchilik ko‘nikmalarini quyidagi bloklarda ifodalash mumkin:

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarining tarkibiy tuzilmasi

№	Ko‘nikma	Tadqiqotchilikni shakllantiriladigan asosiy ko‘nikmalar
1.	Motivatsion	Qiziqish uyg‘otish, savol berish ehtiyoji, muammoni ko‘ra bilish, izlanishga tayyorlik
2.	Kognitiv	Muammoni tushunish, gipoteza ilgari surish, tushunchalararo bog‘lanishni aniqlash, dalillarni tahlil qilish, alternativ yechimlarni taqqoslash

№	Ko‘nikma	Tadqiqotchilikni shakllantiriladigan asosiy ko‘nikmalar
3.	Amaliy-tadqiqot	Kuzatish, o‘lchash, ma’lumot yig‘ish, tajriba yoki izlanishni rejalashtirish, natijalarni qayd etish, grafik va jadval bilan ishlash, dalil asosida xulosa chiqarish
4.	Kommunikativ	Natijalarni taqdim etish, ilmiy bahs yuritish, savollarga javob berish, o‘z yechimining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish, refleksiya

O‘quvchilarda shakllantiriladigan ko‘nikmalar.

Mazkur yo‘nalishda ta’lim jarayoniga kiritilishi kerak bo‘lgan konkret ko‘nikmalar quyidagilardan iborat:

Muammoni aniqlash ko‘nikmasi — o‘quvchi vaziyatdagi asosiy muammoni ajrata oladi, savolni aniq ifodalaydi. Bu PISA va OECD hujjatlarida problem-solvingning boshlang‘ich bosqichi sifatida ko‘rsatiladi [3].

1. Tadqiqot savolini tuzish ko‘nikmasi — “nimani bilmoqchiman?”, “qanday tekshiraman?” kabi savollarni ishlab chiqadi. Inquiry-oriented educationda savol qo‘yish markaziy o‘rin egallaydi.

2. Gipoteza ilgari surish ko‘nikmasi — taxminni dalillar bilan bog‘laydi, tekshiriladigan fikrni ilgari suradi. Ilmiy jarayon ko‘nikmalari sharhlarida bu asosiy komponentlardan biri sifatida ko‘rsatiladi.

3. Ma’lumot yig‘ish va saralash ko‘nikmasi — kuzatish, tajriba, matn bilan ishlash, jadval/grafikdan foydalanish. Inquiry va collaborative inquiry tadqiqotlari bu ko‘nikma mazmuniy bilim qurilishiga xizmat qilishini qayd etadi.

4. Tahlil va talqin ko‘nikmasi — ma’lumotdan xulosa chiqarish, sabab-oqibatni aniqlash, taqqoslash va umumlashtirish. IBL va PBL bo‘yicha sharhlarda aynan shu ko‘nikmalar yuqori darajadagi fikrlash natijasi sifatida ko‘rsatilgan.

5. Yechim ishlab chiqish ko‘nikmasi — alternativ variantlarni ishlab chiqish, eng maqbulini tanlash, asoslash. OECD problem-solving ta’rifida strategiya tanlash va yechimni baholash alohida bosqich sifatida berilgan.

6. Dalillash va taqdim etish ko‘nikmasi — xulosani og‘zaki va yozma bayon qilish, dalillar bilan himoya qilish. PBL va inquiry yondashuvlari o‘quvchini fikrni himoya qiluvchi subyektga aylantiradi.

7. Refleksiya ko‘nikmasi — nima o‘rgandim, qaysi bosqich qiyin bo‘ldi, keyingi safar nimani o‘zgartiraman, degan savollar asosida o‘z faoliyatini baholash. OECD agentligi va inquiry adabiyotlarida o‘quvchi refleksiyasi barqaror o‘rganish uchun muhim omil sifatida ko‘rsatilgan.

Tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini maqsadli rivojlantirish natijasida quyidagi ta’lim natijalari

№	Natija	Mazmun	Asos
1	Bilimga oid	O‘quvchi ilmiy izlanish mantig‘ini tushunadi, muammo – gipoteza – tekshirish – xulosa zanjirini biladi, muammoli vaziyat va tadqiqot savoli o‘rtasidagi farqni anglaydi.	Inquiry-based learning va science process skills (SPS) tadqiqotlari faol izlanish orqali bilimning mazmuniy tushunilishi chuqurlashishini ko‘rsatadi.
2	Ko‘nikmaga oid	O‘quvchi ma’lumot bilan ishlaydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, grafik va jadvalni talqin qiladi, muammoga bosqichli yechim topadi.	Problem-based learning (PBL) va inquiry-based learning (IBL) tadqiqotlari yuqori darajadagi fikrlash

№	Natija	Mazmun	Asos
			va tahlil ko‘nikmalarining rivojlanishini tasdiqlaydi.
3	Kompetensi-yaga oid	Mustaqil o‘rganish, hamkorlikda ishlash, muloqot qilish, qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va javobgarlik kabi kompetensiyalar rivojlanadi.	OECD Education 2030 konsepsiyasi va student agency yondashuvi bunday natijalarni kelajak kompetensiyalarining muhim elementi sifatida belgilaydi.
4	Shaxsiy	O‘quvchi o‘z fikriga ishonadi, izlanishdan qo‘rqmaydi, xatoni o‘rganish manbai sifatida qabul qiladi va bilimni real hayot bilan bog‘lay oladi.	Inquiry-based teaching bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar o‘quvchilarning qiziqishi, motivatsiyasi va faol ishtiroki oshishini ko‘rsatadi.

Shuningdek texnologiya darslarida tadqiqotchilik va muammolarni hal qilishda metodik yondashuvlarning ham o‘rni ahamiyatli bo‘lib, quyidagi aynan zarur yondashuvlar ko‘rib chiqildi.

Muammoli Ta’lim - dars real yoki shartli muammo bilan boshlanadi. O‘qituvchi tayyor yechim bermaydi; o‘quvchilar muammoni tahlil qilib, taxmin va yechim variantlarini ishlab chiqadi. Bu yondashuv PBLning asosiy mexanizmi bo‘lib, murakkab vaziyatga javob izlash jarayonida mazmuniy bilim ham, fikrlash strategiyasi ham rivojlanadi [14].


Inquiry-based learning - o‘quvchi savol qo‘yadi, ma’lumot to‘playdi, dalillarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. UNESCO va Frontiers sharhlari inquiry yondashuvi ilmiy fikrlash va tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bosqichma-bosqich yo‘naltirilgan inquiry ayniqsa maktab sharoitida samaraliroq [9].

Loyiha asosida o‘qitish - loyiha topshiriqlari o‘quvchini uzoqroq muddatli izlanishga olib kiradi: muammo tanlash, rejalash, resurs topish, ma’lumot yig‘ish, mahsulot yaratish va himoya qilish. OECDning transformativ kompetensiyalar konsepsiyasida ham jamoaviy muammo yechish va amaliy loyiha faoliyati muhim o‘rin tutadi [13].

Hamkorlikdagi tadqiqot - research-oriented collaborative inquiry bo‘yicha ishlar kichik guruhlar orqali dalil yig‘ish, bahslashish va xulosa chiqarish ilmiy jarayon ko‘nikmalarini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Bu usul, ayniqsa, savol tuzish va dalillashni shakllantirishda foydalidir.

Scaffolding - yangi boshlovchi o‘quvchilar uchun tadqiqot va muammo yechish jarayoni bosqichma-bosqich tayanchlar bilan qo‘llab-quvvatlanishi kerak: savol shabloni, kuzatish jadvali, gipoteza formulasi, xulosa yozish andozasi. PBL bo‘yicha 2025-yilgi tadqiqot scaffolding muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ayniqsa oldingi tayyorgarligi past va o‘rta darajadagi o‘quvchilarda ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Tavsiya etiladigan metodik model - maktab amaliyoti uchun quyidagi 6 bosqichli model taklif etiladi:



Bu model inquiry va loyihaviy o‘qitishning ilmiy asoslangan umumiy mantiqiga mos keladi.

Baholash mezonlari: Tadqiqotchilik va muammo yechish ko‘nikmalarini baholashda an’anaviy test bilan cheklanmaslik lozim. Kompleks baholash uchun quyidagi mezonlar maqsadga muvofiq:

- muammoni aniq ifodalashi;
- tadqiqot savolining sifat darajasi;
- gipotezaning tekshiriluvchanligi;
- ma’lumot yig‘ish usullarini to‘g‘ri tanlashi;
- dalillarni tahlil va talqin qilishi;
- yechimning mantiqiyligi va asoslanganligi;
- natijani taqdim etish sifati;
- refleksiya chuqurligi.

Bunday mezonli baholash inquiry va SPS yondashuvlaridagi protsessual ko‘nikmalarni to‘laroq aks ettiradi. O‘rganilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalari bir-biridan ajralgan emas; aksincha, ular yagona kompetensiyaviy maydonni tashkil etadi. Muammoni ko‘ra bilmagan o‘quvchi tadqiqot savoli qo‘ya olmaydi; dalil yig‘ishni bilmagan o‘quvchi esa muammoni asosli hal qila olmaydi. Shu bois darslarda “o‘rganish uchun tadqiqot” va “tadqiqot orqali o‘rganish” tamoyillarini birlashtirish zarur. OECD va UNESCO manbalari ham aynan shunday faol, agentlikka tayangan, dalilga asoslangan o‘qishni kelajak ta’limining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Tahlil qilingan manbalar inquiry-based learning, problem-based learning, hamkorlikdagi izlanish va scaffolding asosidagi metodikalar o‘quvchilarda savol qo‘yish, gipoteza ishlab chiqish, dalil yig‘ish, tahlil qilish, yechim topish, dalillash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishini ko‘rsatadi. Mazkur ko‘nikmalar natijasida o‘quvchi nafaqat mazmuniy

bilimni chuqurroq egallaydi, balki mustaqil fikrlovchi, kreativ, mas’uliyatli va qaror qabul qila oladigan subyekt sifatida shakllanadi. Demak, maktab ta’limida tadqiqotga yo‘naltirilgan va muammoli vaziyatlarga asoslangan darslarni tizimli joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hmelo-Silver, C. E. Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn?
2. Antonio, R. P., Prudente, M. S. Effects of Inquiry-Based Approaches on Students’ Higher-Order Thinking Skills: A Systematic Review.
3. Sam, R. et al. Systematic Review of Inquiry-Based Learning: Assessing Learning Outcomes.
4. Urdanivia Alarcon, D. A. et al. Science and Inquiry-Based Teaching and Learning.
5. Gizaw, G. G. Improving Science Process Skills of Students: A Review.
6. Irwanto, I. et al. The Impact of Research-Oriented Collaborative Inquiry.
7. Valdez, J. E., Bungihan, M. E. Problem-based learning approach enhances the problem solving skills of students.
8. Hendrayana, A., Mutaqin, A. The Effectiveness of Problem-Based Learning through Scaffolding in Improving Problem-Solving Skills.
9. OECD. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework.
10. OECD. PISA 2012 Results: Creative Problem Solving (Volume V).
11. OECD. Problem Solving Skills (Learning Compass construct).
12. OECD. Student Agency for 2030.
13. OECD. The Future of Education and Skills 2030.
14. UNESCO. Critical Inquiry and Inquiry-Oriented Education.
15. UNESCO IBE. Transforming Pedagogy and Learning: Resource Pack for Training Educators and Teachers on Curriculum.

Pirniyazova Malika Kenesbaevna

Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), v.b dotsenti
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti

TALABALARDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA VITAGEN TAJRIBANING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Vitagen tajriba asosida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni diagnostik (tashxisiy) xarakterga ega bo‘lib, u talabalarni maxsus ishlab chiqilgan test sinovlari hamda sohaga oid amaliy topshiriqlarni bajarishga jalb qilish orqali tashkil etildi. Ushbu jarayon talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, shuningdek, ularning tadbirkorlikka oid kompetensiyalarini baholash va bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik kompetensiyalari, vitagen tajriba, test, “Tadbirkorlik qobiliyatiga egaman” testi, “Tadbirkorlik qobiliyati” (T.Matveeva testi), “Biznes potensialiga egalikni aniqlovchi” test, “Talabalarning tadbirkorlik faoliyati turlari bo‘yicha yo‘nalganligini baholovchi indikator”.

Пирниязова Малика Кенесбаевна

Доктор философии по педагогических наукам (PhD),
И.о. доцента
Узбекский национальный педагогический
университет имени Низами

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПРОГРАММЫ VITAGEN EXPERIENCE В РАЗВИТИИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. Процесс развития предпринимательских компетенций у студентов на основе опыта Vitagen носит диагностический характер и организован путем вовлечения студентов в специально разработанные тесты и практические задания, связанные с данной областью. Этот процесс служит для сочетания теоретических знаний студентов с практической деятельностью, а также для оценки и постепенного развития их предпринимательских компетенций.

Ключевые слова: предпринимательские компетенции, опыт Vitagen, тест, тест «У меня есть предпринимательские навыки», «Предпринимательские навыки» (тест Т. Матвеевой), «Тест для определения наличия бизнес-потенциала», «Показатель для оценки ориентации студентов на виды предпринимательской деятельности».

Malika Kenesbaevna Pirniyazova

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Acting Associate Professor
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF THE VITAGEN EXPERIENCE PROGRAM IN DEVELOPING ENTREPRENEURIAL COMPETENCIES IN STUDENTS

Abstract: The process of developing students' entrepreneurial competencies through the Vitagen experience is diagnostic in nature and is organized by engaging students in specially designed tests and practical assignments related to this area. This process serves to combine

students' theoretical knowledge with practical activities, as well as to assess and gradually develop their entrepreneurial competencies.

Keywords: entrepreneurial competencies, Vitagen experience, test, “I have entrepreneurial skills” test, “Entrepreneurial skills” (T. Matveeva test), “Test for determining the presence of business potential”, “Indicator for assessing students’ orientation towards types of entrepreneurial activity”.

Bugungi kunda jamiyatda yuz berayotgan tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda. Bu jarayonda yoshlarni biznesni tashkil etish, iqtisodiy faoliyatni samarali yuritish, innovatsion g‘oyalarni yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan ta’minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun samarali pedagogik yondashuvlar va o‘quv-metodik tizimlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida vitagen tajribaga asoslangan yondashuvlardan foydalanish muhim pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Vitagen tajriba — bu talabalarning shaxsiy hayotiy tajribalari, ularning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirida shakllangan bilim va ma’lumotlarga asoslangan o‘qitish usuli hisoblanadi. Ushbu tajriba yordamida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliyotda sinovdan o‘tgan, real hayotda samarali qo‘llaniladigan ko‘nikmalarni ham mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Vitagen tajribasi talabalarga o‘z bilimlarini real vaziyatlarda sinab ko‘rish, hayotiy misollar orqali tahlil qilish va ulardan ijodiy foydalanish imkonini beradi. Mazkur yondashuv natijasida talabalar tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirib, mustaqil qaror qabul qilish, mas’uliyatni his etish hamda yangicha g‘oyalarni ilgari surish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, vitagen tajribadan foydalanish talabalarning o‘z imkoniyatlarini anglash va o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi. Ularni jamiyat ehtiyojlari hamda zamonaviy iqtisodiy talablar bilan uyg‘un holda faoliyat yuritishga yo‘naltiradi. Natijada, vitagen tajriba talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada takomillashtirish bilan birga, ularning mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lishiga, ijtimoiy faolligining ortishiga hamda tadbirkorlik faoliyatiga qiziqishining kuchayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Shaxs o‘zining hissiy holati va ichki kechinmalarini har doim ham to‘liq va aniq ifodalay olmaydi. Shuningdek, atrofdagilar tomonidan bildirilgan shaxs haqidagi mulohazalarga ham mutlaq ishonib bo‘lmaydi. Chunki shaxs holatini tashqaridan kuzatish har doim ham uning haqiqiy kechinmalari va xatti-harakatlarini ishonchli tarzda ochib bera olmaydi” [2]. Bu holatning asosiy sababi shaxs xulq-atvori va ichki kechinmalarining izchil, davomiy hamda tizimli o‘rganilmasligidadir.

“Test” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganida sinab ko‘rish, sinov, tekshirish ma’nolarini anglatadi [7]. Pedagogikada test nazoratidan foydalanish ta’lim oluvchi shaxsiga xos bo‘lgan sifatlarni yoki uning muayyan faoliyatni yuritishga tayyorligi to‘g‘risidagi boshlang‘ich yoki yakuniy ma’lumotlarga ega bo‘lishga yordam beradi. Tadqiqotning maqsadi va xarakteridan kelib chiqqan holda kerakli testlarni to‘g‘ri tanlash pedagogik nazoratning samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bu o‘rinda

A.N.Mayorov tadqiqotchi yoki pedagoglarning puxta o‘ylangan ish rejasiga ega bo‘lishni, shuningdek, ilmiy izlanish mazmuniga mos, tadqiqot maqsadiga erishishga yordam beradigan testlarni tanlash olishi zarurligi ko‘rsatib o‘tadi.

Ushbu ko‘rsatmalarga asoslangan holda vitagen tajribaning talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini aniqlash maqsadida diagnostik testlarni tanlashga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta psixologik-pedagogik testlar tanlab olindi, jumladan: “Tadbirkorlik qobiliyatiga egaman” testi, T.Matveeva tomonidan ishlab chiqilgan “Tadbirkorlik qobiliyati” testi, shuningdek, “Biznes potensialiga egalikni aniqlovchi” test hisoblanadi. Ushbu testlar yordamida talabalar tadbirkorlik faoliyatiga oid shaxsiy xususiyatlari, tashabbuskorlik darajasi va biznes yuritishga bo‘lgan tayyorgarligi aniqlab borildi. Testlarni samarali o‘tkazish maqsadida maxsus ish qog‘ozlari tayyorlanib, talabalar bilan amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.

Test savollari nafaqat shaxsiy psixologik sifatlarni aniqlashga, balki talabalar tomonidan biznes asoslari bo‘yicha egallangan bilimlarni baholashga ham qaratildi. Xususan, ular soliq qonunchiligi, ish haqi to‘lash tartibi, buxgalteriya hisobini yuritish shartlari, mahsulot yoki xizmatlarga hududiy talabni aniqlash, marketing va moliya sohalarida boshlang‘ich tayyorgarlikka egalik darajasini ko‘rsatib berdi. Shuningdek, testlar tadbirkorlik faoliyatining hududiy holatini o‘rganish, moliyaviy mablag‘larning yetarliligi, mutaxassislar salohiyati, ijara, xomashyo va ishchi kuchi masalalarining hal etilishi kabi amaliy jihatlarni ham oydinlashtirishga xizmat qildi.

“Tadbirkorlik qobiliyati” (T.Matveeva)

Test savollari va javob variantlari				Test savollari va javob variantlari			
1. Mavjud to‘siqlarga qaramay boshlagan ishni oxiriga etkazasizmi?				2. Ahdingizda turasizmi yoki Sizni boshqa qaror qabul qilishga ko‘ndirish osonmi?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
3. Mas’uliyatni o‘z zimmangizga olishni, boshqarishni yoqtirasizmi?				4. Hamkorlarning hurmat va ishonchlarini suiste’mol qilasizmi?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
5. O‘zingizni mutlaqo sog‘lom deb hisoblaysizmi?				6. Natijaga erishmaguncha shomdan sahargacha ishlashga tayyormisiz?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
7. Ko‘pchilik bilan muloqotda bo‘lish va ishlashni yoqtirasizmi?				8. Tanlangan yo‘lning to‘g‘riligiga boshqalarni ishontira olasizmi?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
9. Boshqalarning g‘oyalari va fikrlarini tushuna olasizmi?				O‘zingiz xohlagan sohada biznesni tashkil qilish uchun ish tajribasiga egamisiz?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
11. Soliq qonunchiligi, ish haqqini berish tartibi, buxgalterlik hisobini yuritish shartlaridan xabardormisiz?				12. Siz taklif etmoqchi bo‘lgan mahsulot yoki xizmatlarga tegishli hududda talab bormi?			
Ha		Yo‘q		Ha		Yo‘q	
13. Marketing va moliya sohalari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlikka egamisiz?				14. Yashayotgan hududingizda Siz tanlangan yo‘nalish bo‘yicha boshqa turdagi tadbirkorlik faoliyatlari yaxshi ketayaptimi?			

Baholash jarayonining natijalariga tayangan holda respondentlar ega bo‘lgan tegishli kompetensiyalarning mavjud darajasi ularni tadbirkorlik faoliyati turlariga yo‘naltirish uchun etarli emasligiga ishonch hosil qilindi. Zero, mavjud testlar

talabalarning tadbirkorlik faoliyatini olib borishga ma’naviy-axloqiy hamda psixologik tayyorligiga oid ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga imkon berdi. Biroq, talabalarni tadbirkorlik faoliyatining qaysi turi bo‘yicha alohida qobiliyatga ega ekanligiga oid axborotga etarli darajada ega bo‘lish imkoniyatini ta’minlay olmadi. Shu sababli talabalarni tadbirkorlik faoliyatining muayyan turi bo‘yicha amaliy yo‘naltirish uchun sohalar bo‘yicha vitagen tajriba (bilim, ko‘nikma, malaka)ga egaliklarini aniqlashga e’tibor qaratildi.

Talabalarning ularni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘llovchi vitagen tajriba (bilim, ko‘nikma, malaka)ga egaliklarini aniqlash maqsadida tashkil qilingan ilmiy-pedagogik faoliyat ham uch yo‘nalishda amalga oshirildi:

1-yo‘nalish: respondentlarning tadbirkorlik faoliyati turlariga oid tushunchalar darajasini aniqlashga qaratildi. Ushbu jarayonda respondentlarga bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni o‘z ichiga olgan maxsus ish qog‘ozi taqdim etildi hamda ular orqali ishtirokchilarning mazkur sohadagi bilim va tasavvurlari o‘rganildi.

2-yo‘nalish: respondentlarning tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan munosabati, qiziqishi hamda bu boradagi motivatsiya darajasini aniqlashga qaratildi. Mazkur bosqichda respondentlarga so‘rovnoma savollari taqdim etilib, ularning tadbirkorlik faoliyatiga bo‘lgan qarashlari va kelajakdagi rejalariga doir fikrlari tahlil qilindi.

3-yo‘nalish: respondentlarning tadbirkorlik kompetensiyalarini amaliy jihatdan namoyon etish ko‘nikmalarini aniqlashga qaratildi. Bu jarayonda ularga turli vaziyatli topshiriqlar va kichik amaliy mashqlar berilib, ularning muammoni hal qilish, iqtisodiy qaror qabul qilish hamda innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatlari baholandi.

Tushunchaning mohiyatini yorituvchi boshqa ta’riflar ham mavjud. Masalan, indikator (lot. “indicator” – ko‘rsatkich; “indico” – ko‘rsataman, aniqlayman): nazorat jarayonining qandaydir o‘lchovlari o‘zgarishini aks ettiruvchi ob’ekt yoki ob’ektning holatini shaxs tomonidan bevosita vizual, akustik, tana orqali his qilish mumkin bo‘lgan yoki boshqa oson qabul qilinadigan usul yordamida bir qadar qulay shaklda ifodalovchi asbob, qurilma, axborot tizimi, modda [3]; biror jarayonning borishini yoki kuzatilayotgan ob’ektning holatini inson idrok etadigan qulay shaklda aks ettiruvchi asbob (qurilma, element) [4].

Pedagogik jarayonda indikatorlar ta’lim natijalarini baholash va monitoring qilish vositasi sifatida qo‘llaniladi. Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Resurs indikatorlari – ta’lim jarayonini tashkil etish uchun sarflangan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini aks ettiradi. Masalan, o‘quv laboratoriyalarining jihozlanishi, o‘quv qo‘llanmalar bilan ta’minlanish darajasi.

Jarayon indikatorlari – ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini baholaydi. Masalan, mashg‘ulotlarning muntazamligi, interfaol metodlar qo‘llanishi, talabalar faolligi.

Oraliq natija indikatorlari – talabalarda shakllanayotgan ko‘nikma va malakalarning joriy bosqichdagi holatini aniqlashga xizmat qiladi. Masalan, test sinovlari, amaliy topshiriqlarni bajarish natijalari.

Yakuniy natija indikatorlari – o‘quv jarayonining umumiy samaradorligini ifodalaydi. Masalan, talabalarning bitiruv darajasidagi kompetensiyalari, mehnat bozorida raqobatbardoshligi.

Ta’sir (impact) indikatorlari – ta’lim faoliyatining uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy samaralarini ko‘rsatadi. Masalan, bitiruvchilarning ish bilan ta’minlanish darajasi, jamiyatdagi innovatsion faoliyatda ishtiroki.

Baholovchi indikator bilan ishlashda respondent-talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarishda dehqonchilikka asoslangan fermerlik bo‘yicha fikrlarni tadbirkorlikning boshqa turlariga nisbatan to‘liqroq yoritishga muvaffaq bo‘lishgan.

Buning asosiy sababi shundaki, O‘zbekiston agrar mamlakat hisoblanadi va respondent-talabalar uchun qishloq xo‘jaligi, xususan, dehqonchilik sohasi begona emas. Ular yoshlik chog‘idan ota-onalariga ushbu sohada ko‘maklashib kelganliklari sababli mazkur yo‘nalish bo‘yicha ma’lum hayotiy tajribaga ega. Shu bois baholovchi indikatorlar asosida topshiriqlarni bajarishda talabalar fermerlik (dehqonchilik) faoliyatining mazmunini izchil yoritib bera oldilar.

Vitagen tajriba talabalarda tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usullardan biri sifatida e’tirof etiladi. Chunki u talabalarni shaxsiy hayotiy tajribalariga, atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirda orttirilgan bilim va ko‘nikmalarga tayanishga undaydi. Tadqiqot jarayonida testlar va topshiriqlar yordamida talabalar nafaqat o‘z shaxsiy sifatlarini, balki biznes asoslari, iqtisodiy bilimlar, marketing va moliyaviy imkoniyatlarga oid tayyorgarliklarini namoyon etishdi. O‘zbekiston agrar mamlakat ekani sababli respondent-talabalar orasida dehqonchilik va qishloq xo‘jaligiga oid vitagen tajribalar ko‘proq uchradi va bu ularning topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarishida namoyon bo‘ldi. Shunday qilib, vitagen tajriba asosida olib borilgan ta’limiy faoliyat talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal etish, tashabbuskorlik va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Demak, vitagen tajriba talabalarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltiradi, ularni mehnat bozorida raqobatbardosh, tadbirkorlik salohiyatiga ega, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatida shakllanishiga keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Болшая энциклопедия психологических тестов / Электронная книга. ДиректМедиа, 2005. – С. 5.
2. Индикатор – это // Индикатор нима?.
3. Маёров А. Н. Теория и Практика создания тестов для системы образования (Как выбират, создават и исползоват тесты для селей образования). – М.: Интеллект сентр, 2002. – С. 52-53.
4. Сущность понятий “тест”, “тестирование”.
5. Тест “Предпринимательские способности” (Т.Матвеева).
6. Тест “Предпринимателские способности” // тест-на-бизнесмена.
7. Тесты на определение предпринимателских способностей.

Abdullayeva Dildora Shokir qizi
Doktorant
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dildorashokirqizi96@gmail.com

ALISHER NAVOIY KICHIK LIRIK JANRDAGI ASARLARINI UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O‘QITISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiyning kichik lirik janridagi asarlarini umumta’lim maktablarida o‘qitish masalasiga bag‘ishlangan. Unda Navoiyning kichik lirik asarlarini dars jarayonida qanday samarali tarzda o‘rgatish mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada adabiy tahlil, pedagogik kuzatuv va o‘quv materiallarini solishtirish kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantiradigan interfaol metodlar va amaliy mashqlar lirik janrni o‘rgatishda juda samarali. Maqola umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun foydali metodik tavsiyalarni taqdim etadi va darslarni qiziqarli va mazmunli o‘tkazishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, kichik lirik janr, umumta’lim maktabi, o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar.

Абдуллаева Дилдора Шокир кызы
Докторант
Ташкентский государственный университет
узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои
dildorashokirqizi96@gmail.com

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ЖАНРОВЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ЛИТЕРАТУРЫ АЛИШЕРА НАВОИ В ОБЩЕСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

Аннотация: В статье рассматривается вопрос преподавания произведений Алишера Навои в малых лирических жанрах в общеобразовательных школах. В нем рассматривается, как можно эффективно преподавать малые лирические произведения Навои в учебном процессе. В статье основное внимание уделяется таким аспектам, как литературный анализ, педагогическое наблюдение и сравнение учебных материалов. Результаты показывают, что интерактивные методы и практические упражнения, стимулирующие творческое мышление учащихся, весьма эффективны при обучении лирическому жанру. Статья содержит полезные методические рекомендации для учителей общеобразовательных школ и поможет сделать уроки интересными и содержательными.

Ключевые слова: Алишер Навои, малая лирика, общеобразовательная школа, методика преподавания, интерактивные методы.

Abdullaeva Dildora Shokir kyzy
Doctoral candidate
Tashkent State University
of Uzbek Language and Literature
named after Alisher Navoi
dildorashokirqizi96@gmail.com

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING GENRE WORKS OF ALISHER NAVOI'S LITERATURE IN PUBLIC SCHOOLS

Abstract: This article is devoted to the issue of teaching Alisher Navoi's works in the small lyrical genre in secondary schools. It examines how the lichic lyrical works of Nawai can be taught effectively in the course of the lesson. The article focuses on aspects such as literary analysis, pedagogical observation, and comparison of educational materials. The results show that interactive methods and practical exercises that encourage students' creative thinking are very effective in teaching the lyric genre. The article provides useful methodological recommendations for teachers of secondary schools and helps to conduct lessons in an interesting and meaningful way.

Key words: Alisher Navoi, small lyric genre, secondary school, teaching methodology, interactive methods.

Adabiyot darslarida o‘quvchilarning shaxsiy fikrlashini, estetik didini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kichik lirik janrning o‘rni beqiyosdir. Kichik lirik janrdagi asarlar o‘quvchilarga insoniy his-tuyg‘ularni chuqur anglash va badiiy obrazlar orqali o‘z fikrini ifodalash imkonini beradi. Bunda janrning soddaligi va qisqaligi, shuningdek, hissiyotlarning yorqin ifodasi o‘quvchilarni adabiyotga yanada yaqinlashtiradi, ular orasida mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, Alisher Navoining lirik asarlari o‘zining mazmunga boyligi, hissiyotlarga ta’siri va badiiy ifodasi bilan maktab o‘quvchilarini adabiyotga qiziqtirishda samarali vosita bo‘la oladi. Navoiy asarlarida insoniy mehr-muhabbat, adolat, tabiat go‘zalligi, do‘stlik va ma’naviy qadriyatlar kabi mavzular yorqin va sodda tilda ifodalanadi, bu esa o‘quvchilarda estetik didni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, Navoiyning so‘z tanlovi va ritmik tuzilishi o‘quvchilarda lirik ritmni his qilish, so‘z san’ati va badiiy tasvirlar orqali his-tuyg‘ularni anglash qobiliyatini oshiradi.

“Metod” atamasi yunoncha “methodos” so‘zidan olingan bo‘lib, yo‘l; tadqiqot, o‘qitish, bayon etish usuli; xatti-harakat usuli; usul, usullar yig‘indisi ma’nolarini anglatadi. Oldinlari pedagogika ilmida ta’lim metodi tushunchasi o‘quvchi bilan o‘qituvchining birgalikda faoliyat ko‘rsatish yo‘llarmi o‘z ichiga oladigan kategoriya tarzidagina tushunilardi [1. 68-bet].

Alisher Navoiyning kichik lirik janridagi asarlarini o‘qitish metodikasi o‘ziga xos ilmiy-pedagogik yondashuvni talab qiladi. Kichik lirik janrning asosiy mohiyati inson ruhiyati, his-tuyg‘ulari va fikrlarini qisqa, ammo chuqur estetik jihatdan ifodalashdir. Bu janr o‘quvchilarda so‘z boyligini kengaytirish, estetik didni shakllantirish va badiiy tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, dars jarayonida interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va tahliliy yondashuvlar uyg‘un qo‘llanilishi zarur.

Pedagogik yondashuvlarning birinchi bosqichi sifatida interfaol metodlar alohida ahamiyatga ega. Muhokama, guruh bo‘lib ishlash, rol ijro etish (dramatizatsiya) orqali o‘quvchilar dars jarayoniga faol jalb qilinadi. Masalan, Navoiyning lirik she’rini guruh bo‘lib o‘qish va har bir satrga talqin berish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlashini, fikrlashini kuchaytiradi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlar she’rga javoban qisqa lirik asar yozish, rasm chizish yoki hikoya shaklida talqin qilish o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Tahliliy yondashuv esa asar mazmuni, obrazlar, ritm va ohangni chuqur o‘rganish orqali tanqidiy fikrlashni shakllantiradi.

Darsning tashkil etish bosqichlari dars mashg‘ulotlarini olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o‘quv mashg‘ulotlarini samarali hamda izchil tashkil etilishi lozim. Kirish qismida muallif, janr va mavzu haqida ma’lumot beriladi. Keyin asar ifodali o‘qilib, asosiy g‘oya aniqlanadi. Muhokama bosqichida guruhlar yoki sinf bo‘ylab asardagi mazmun hamda g‘oya muhokama qilinadi. Ijodiy ish bosqichida esa o‘quvchilar o‘z talqinlarini yozma yoki og‘zaki shaklda ifodalaydi. Yakuniy bosqichda umumiy xulosalar chiqarilib, metodik tavsiyalar beriladi.

Ko‘b oltun, kumush sori qo‘l sunmog‘il
Ki, tutsang kafingni qaro rang etar.
Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,
Ki ko‘nglungni dog‘i ham ul zang etar [2. 127-bet].

7-sinf Adabiyot darsligida keltirilgan ushbu qit’ani o‘qitishdan maqsad: qit’aning mazmuni va axloqiy jihatlarini tushuntirish, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. “Ilyustratsiya” metodi asosida ko‘rib chiqamiz. Ilyustratsiya (tasvir) metodi – qit’adagi so‘z va fikrlarni rasm, diagramma, rang va boshqa vizual vositalar yordamida tushuntirish.

Qit’a birga o‘qib chiqiladi. Mazmuni tahlil qilinadi. So‘z va iboralar mohiyati aniqlanadi. Oltun, kumush – boylikni, moddiy narsalarni rasm orqali ko‘rsatish (masalan, tangalar, qimmatbaho buyumlar).

Qora rang – yomon niyat va qalbdagi dog‘ni ifodalovchi rang sifatida ko‘rsatish.

Ko‘nguldagi dog‘ – qalbdagi yomonlikni rasm yoki ramzlar bilan tasvirlash.

“Illyustratsiya” metodi. O‘quvchilar qit’a mazmunini rasm, diagramma yoki rangli tasvir orqali ifodalaydi. Masalan, qalbni toza va dog‘siz ko‘rsatish uchun oq rang, yomonlik yoki hasad uchun qora dog‘ chizish mumkin. Bu o‘quvchilar tasavvur olamidan kelib chiqib ifodalanadi.

Xulosa chiqarishva bu qism juda muhim hisoblanadi. Rasm orqali qit’aning axloqiy tarbiyasi: “Qalbimizni toza tutish, moddiy narsalarga haddan tashqari berilmaslik” yanada esda qoladi.

Erur ahli hunar qoshinda hunar
Ayb yopmoq, dog‘i hunar topmoq.
Hunarin elning oshkor etmoq
Yo‘q esa bori aybini yopmoq [3. 127-bet].

Ushbu qit’ani “Suqrot” metodi (savol-javob) orqali ko‘rib chiqamiz. Dastlab qit’a ifodali o‘qiladi, mazmuni tushuntirib beriladi. Savol-javob qilish orqali mazmuniga chuqurroq kirib boriladi.

Savollar:

1. Qit’ada “hunar” nima ma’noda ishlatilgan?
2. Sizningcha, hunar insonning ichki fazilatini qanday oshiradi?
3. Nima uchun qit’a hunarga alohida e’tibor beradi?
4. Hunar orqali odam qanday hurmatga sazovor bo‘ladi?
5. Agar hunar bo‘lmasa, insonning kamchiliklari qanday namoyon bo‘ladi?

Ushbu qit’a hunarning axloqiy va ijtimoiy ahamiyatini o‘rgatadi, “Suqrot” metodi esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini va tafakkurini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoining kichik lirik janrdagi asarlarini o‘qitishda interfaol, ijodiy va tahliliy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi darslarni nafaqat samarali, balki qiziqarli va esda qolarli qiladi. Interfaol metodlar, masalan, guruh muhokamalari, rol o‘ynash, savol-javob o‘quvchilarni matnga faol jalb qiladi, ularni passiv o‘quvchi sifatida emas, balki fikr yurituvchi, ijodiy tafakkur egasi sifatida shakllantiradi. Ijodiy metodlar esa o‘quvchilarga Navoiy lirikasidagi obraz va hissiyotlarni chuqurroq anglashga, o‘z fikrini so‘z orqali ifodalashga imkon beradi. Tahliliy metodlar esa o‘quvchilarga asarning strukturasi, badiiy uslubi, so‘z qo‘llash va obrazlar tizimini o‘rganishga yordam beradi. Bu jarayon o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, muammolarni tahlil qilishga va badiiy tafakkurni rivojlantirishga undaydi. Shu tariqa, interfaol, ijodiy va tahliliy metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli qiladi, balki adabiy didni shakllantirish va shaxsiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Natijada Navoiy merosi nafaqat dars jarayonida, balki o‘quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasida ham estetik va ma’naviy boylik manbayi sifatida ahamiyat kasb etadi. Ularning hissiy va badiiy tafakkuri rivojlanadi, so‘z san’ati orqali o‘z ifodasini topish qobiliyati oshadi, shuningdek, insoniy qadriyatlarni anglash va qadrlash hissi mustahkamlanadi. Navoiyning lirik merosini o‘rganish o‘quvchilarda mustaqil o‘qish va ijodiy izlanishlarga qiziqishni uyg‘otadi, bu esa ularni nafaqat adabiyotga, balki hayotiy va ma’naviy rivojlanishga ham tayyorlaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi ikkinchi kitob. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.

2. Mirzayeva Z., Jalilov K. 7-sinf Adabiyot. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.

3. Mirzayeva Z., Jalilov K. “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi: o‘qitish metodikasi (metodik qo‘llanma)”. – Toshkent 2020

4. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

5. www.ziyonet.uz

6. www.natlib.uz

Alimova Gulruh Farxod qizi
Katta o‘qituvchi
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Pedagogika” kafedrasi
gulruxmirzaeva748@gmail.com

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AFZALIKLARI

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib, Ta’limda interfaol usullardan foydalanish afzalliklari masalalariga qaratilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalari masalalariga bog’lab yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion faoliyat to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, innovatsion faoliyat ta’lim –tarbiya jarayonida, interfaol ta’lim, muommoli ta’lim , bilim, ko‘nikma , malaka, innovatsion darslar, yangi pedagogik texnologiyalar, AKT dan dars jarayonida foydalanish, metodlar, bugungi kun o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar.

Алимова Гульрух Фарход кизи
Старший преподаватель
Ташкентский университет прикладных наук
Кафедра «Педагогика»
gulruxmirzaeva748@gmail.com

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: Данная научная статья содержит обширную информацию о новых инновационных уроках, новых педагогических технологиях и интерактивных уроках, их значении, видах и методах обучения, которые являются одной из актуальных тем современности.

Ключевые слова: Закон Республики Узбекистан об инновационной деятельности, инновационная деятельность в образовательном процессе, интерактивное образование, проблемно-ориентированное обучение, знания, навыки, квалификация, инновационные уроки, новые педагогические технологии, использование ИКТ в учебном процессе, методы, требования к современному учителю.

Alimova Gulrukh Farkhod Kizi
Senior Lecturer
Tashkent University of Applied Sciences
Department of Pedagogy
gulruxmirzaeva748@gmail.com

ADVANTAGES OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This scientific article focuses on one of the current topics of today, the advantages of using interactive methods in education. It is covered in connection with the issues of modern pedagogical technologies.

Key words: Law of the Republic of Uzbekistan on innovation activities, innovation activities in the educational process, interactive education, problem-based learning, knowledge, skills,

qualifications, innovative lessons, new pedagogical technologies, use of ICT in the educational process, methods, requirements for a modern teacher.

O‘zbekistonni butun jahon tan olayotgan bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo‘lgan , uyg’un rivojlangan barkamol insonlar bo‘lib, XXI talabalariga javob beradigan shaxs bo‘lib voyaga yetishi dolzarb masalaridan biridir. Ayni vaqtda oliy ta’lim maskanlarida turgan eng muhim vazifalaridan biri, innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonlariga asoslangan holda, o‘qitishning innovatsion texnologiyalari elementlaridan foydalanishni yanada takomillashtirishdan iborat.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham ta'lim-tarbiya masalalariga asosiy e'tiborni qaratib, “Ta'lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san'at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta'minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi”. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo‘llash ta'lim samaradorlgini oshirish uchun tinimsiz izlanish, innovatsiyalardan foydalanish bugungi kun ehtiyojiga aylanmoqda.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga,yoshlarimizning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo‘ladi, deb ta'kidlaydi.

Ta'limdagi ijtimoiy, gumanitar fanlar doirasida interfaol usularining qo‘llanishi ta'lim oluvchi yoshlarni bilish faoliyatini yanada jadallashtirish, ijodiy abstrakt tafakkurini rivojlantirish o‘qituvchilarda esa pedagogik kompetentligini va pedagogning kommunikativ tomonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy usullarni ta'lim jarayoniga joriy etish o‘quv jarayonlarini tubdan o‘zgarilishiga olib kelmoqda. Bunday ijobiy ishlar ta'lim jarayoni ishtirokchilarini bilimlarini jonlantirishga, ijodkorlikka, yaratuvchanlikka, komillikka, tinimsiz izlanishga, o‘z ustida ishlashga har bir darsni, haqiqatdan ham, bir san'at asari sifatida taqdim etishga olib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik va ilmiy, ijodiy o‘zgartirishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi.

Interfaol usullar qo‘llanilganda talabalar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikmalariga va malakalariga ega bo‘ladilar. Yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba-sinovlar o‘tkazish asosida o‘zlashtiradilar. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlarga bo‘lingan holda ishlaydilar. O‘quv vazifalari alohida bitta o‘quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga birdek beriladi. Kichik guruhlarning har bir a'zosi topshiriqni bajarishda, albatta o‘z xissasini qo‘shish kerak. Bu holat o‘quvchilarda bir jamoa bo‘lishlikni shakllantiradi va ularning tashabbuskorligini orttiradi.

Demak, innovatsion faoliyat ta'lim-tarbiya jarayonida talaba va o‘qituvchini hamkorlikka ishlashga, darsning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta'minlaydi. Adabiyotlarda interfaol, interfaol ta'lim tushunchasiga quyidagicha tasnif berilgan.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rustilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma'nolarni anglatadi

Interfaol ta'lim–ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda,o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi.. Bunday darslar o‘quvchining ijodiy qobiliyatini o‘stiradi, aqliy salohiyatini kuchaytiradi, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi va har bir yangilikni tez va to‘la qabul qila olish ko‘nikmasini va malakalarini tarkib toptiradi. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarga ilmiy izlanishga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar amaliy faoliyatga tatbiq etiladi, o‘zlashtirish sifati ortadi.

Shunga ko‘ra interfaol o‘qitish “ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – o‘quvchi – o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi”.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli metodlardan foydalaniladi. Bunda talabalarga kitoblar, daftar va boshka vositalardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Interfaol metodlar quyidagacha tasnif etilmoqda;

- yangi bilim egallashga yo‘naltirilgan metodlar;
- olgan bilimlarni amalda tatbiq etishga qaratilgan metodlar;
- mustahkamlash, to‘ldirish va nazorat o‘rnatuvchi metodlar;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish va baholash metodlari;
- ijodiiy izlanish va tadqiqotchilik metodlari.

Pedagogik texnologiyalarning asosiy negizi o‘qituvchi va o‘quvchi-talabaning belgilangan maqsadda kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi.

Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda, bilim olish jarayoni o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Interfaol usullardan dars mashg‘ulotlarida quyidagi usullarda foydalanish mumkin.

Jumladan, pedagogika fanlarini o‘qitishda ta'limni shakli katta ahamiyatga ega, zero qanchalik ta'lim jarayonidagi berilayotgan yangi ma'lumotlar ta'lim oluvchidagi mavjud tassavvurlar va tajribalarga tayangan bo‘lsa, uni idrok etish, bilish jarayonlari orqali tahlil qilish baholash faollashadi. Ayniqsa«Kungaboqar»Strategiya o‘quvchi (talaba)larda muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini erkin bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o‘rganilgan

mavzuni takrorlash, o‘quvchi (talaba)larning u borasidagi bilimlarini mustahkamlash, o‘quvchi (talaba)lar tomonidan egallagan bilimlar darajasini aniqlashda samarali sanaladi.

«Kungaboqar» uslubidan, masalan umumiy psixologiya fanining “Bilish jarayonlari” moduli bo‘yicha “Tafakkur”mavzusini o‘rganishda qo‘llaganimizda bu uslub jarayonini o‘tkazish mobaynida o‘quvchilar 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladilar. O‘qituvchi o‘quv predmeti mavzusidan kelib chiqqan holda, o‘rtaga bitta muammoni yoki asosiy muammodan kelib chiqib, har bir guruhga bittadan muammo tashlaydi. Har bir guruh doirasimon markaziga barglar yopishtirgan holda kungaboqar yasaydilar.

Mavzuga qarab, doiraga yoki umumiy bitta muammo yoki har bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yetarli miqdorda qog‘oz barglar oldindan tayyorlab qo‘yilishi kerak). Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlashib, umumiy yoki bir-birlarining muammolari bo‘yicha fikr almashmoqchi bo‘lsalar, fikrlarini bargga yozib, uni o‘sha guruh muammosi yozilgan kungaboqar guliga joylashtirib qo‘yadilar. Har bir guruhning «muammoli guli» vaqt o‘tishi bilan o‘sib boraveradi.

O‘qituvchi doimiy ravishda barcha guruh o‘quvchilariga muammoning eng qulay yechish yo‘llarini topishga yordam berib boradi. Fikrlarning ko‘pligiga qarab “kungaboqar” o‘sib boradi. Har bir guruh ishi yuzasidan mulohaza va fikrlarni bildirishga 6 daqiqa vaqt ajratiladi

Bu uslubdan o‘tilgan mavzuni tushuntirish, uning materiallarini mustahkamlash, mavzuni takrorlash va o‘quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin. Uslub, talaba (yoki o‘quvchi)larga muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o‘rgatadi.

Olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlar bir xillikni, passiv tinglovchi, itoatkor bajaruvchi, birovning fikriga qaram bo‘lishni yoqtirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiyami o‘quv jarayoniga faol tatbiq etish hisobiga ta'lim jarayonining rag‘bati (motivasiyasi) kuchaytirilishi mumkin. Ma'lumki, bunday usullardan foydalanish orqali tashkil etish talabalarni erkin fikrlashga hamda o‘z fikrini himoya qila olishga, boshqalar bilan ochiq holda bahslashishga, egallagan bilimlarini tahlil qila olishga tanqidiy-mantiqiy fikr yuritish bilim va ko‘nikmalarini shakllanishiga, tafakkur tezligini aniqlashga, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash malakasini egallashga,o‘zaro bir-birini hurmat qilish hissini shakllanishiga yordam beradi. Bugungi kun o‘qituvchisi tinim bilmay o‘z ustida ishlashi lozim. Doimo zamon bilan hamnafas bo‘lish, eng so‘nggi axborotlarni bilishi, yangi texnologiyalardan foydalana olishi nihoyatda zarur. Zamonaviy o‘quvchi bilan yuzma-yuz kelar ekan uni qiziqtira olishi, fanning sehrli olami bilan hayratlantira olishi, mantiqiy fikrlashga o‘rgatishi, keyingi dars soatlarini intiqlik bilan kutishiga erisha olsa u yaxshi o‘qituvchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017 y.16.86.b.

2. D.Ro‘zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi // Metodik qo‘llanma. Tuzuvchilar: – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 4.39. bet.

3. Alimova G.F. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar. “Знанио -образовательный научный портал российской федерации: МП-2945017 http://znanio.ru/p/МП-2945017 (65-67-b)

4. Alimova G.F. “Oliy ta’lim muassalarida pedagogika fanini o‘qitishning zamonaviy modeli” “Педагогик ва психологик тадкикотлар” OAK jurnali (29.12.2024) 31-39bet ISSN:2181-4066

Арипджанова А.Р.

PhD, доцент
Филиал РГПУ имени
А.И. Герцена в городе Ташкенте

ФОРМИРОВАНИЕ КРЕАТИВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ ПУТЕМ ОТ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ ПРАКТИКИ К ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация: В статье рассматривается проблема формирования креативной педагогической среды в университете как системного условия развития творческого потенциала преподавателей высшей школы. Анализируется соотношение индивидуальных и институциональных факторов, определяющих уровень педагогической креативности. Представлена модель перехода от разрозненных творческих практик отдельных педагогов к целостной институциональной культуре, поддерживающей инновационную деятельность. Выявлены ключевые условия, механизмы и показатели формирования такой среды. Обоснована необходимость системного управленческого сопровождения данного процесса на уровне вуза.

Ключевые слова: креативность, педагогическая среда, университет, институциональная культура, преподаватель высшей школы, профессиональное развитие, инновационная деятельность.

A.R. Aripdzhanova

PhD, Associate Professor
Tashkent Branch of Herzen State
Pedagogical University of Russia

FORMATION OF A CREATIVE PEDAGOGICAL ENVIRONMENT: FROM INDIVIDUAL PRACTICE TO AN INSTITUTIONAL CULTURE

Annotation: The article examines the problem of forming a creative pedagogical environment at the university as a systemic condition for developing the creative potential of higher school teachers. The relationship between individual and institutional factors determining the level of pedagogical creativity is analyzed. A model is presented for the transition from disparate creative practices of individual teachers to a holistic institutional culture supporting innovative activities. Key conditions, mechanisms, and indicators for forming such an environment are identified. The necessity of systemic managerial support for this process at the university level is substantiated.

Keywords: creativity, pedagogical environment, university, institutional culture, higher school teacher, professional development, innovative activity.

KREATIV PEDAGOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISH: INDIVIDUAL AMALIYOTDAN INSTITUTSIONAL MADANIYAT SARI

A.R. Aripjanova

PhD, dotsent
A.I. Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika
universitetining Toshkent shahridagi filiali

Annotatsiya: Maqolada universitetda ijodiy pedagogik muhitni shakllantirish muammosi oliy maktab o'qituvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning tizimli sharti sifatida ko'rib chiqiladi.

Pedagogik ijodkorlik darajasini belgilovchi individual va institutsional omillar o'rtasidagi munosabat tahlil qilinadi. Alohida o'qituvchilarning tarqoq ijodiy amaliyotlaridan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi yaxlit institutsional madaniyatga o'tish modeli taqdim etiladi. Bunday muhitni shakllantirishning asosiy shartlari, mexanizmlari va ko'rsatkichlari aniqlangan. Universitet darajasida ushbu jarayonni tizimli boshqaruv bilan qo'llab-quvvatlash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, pedagogik muhit, universitet, institutsional madaniyat, oliy maktab o'qituvchisi, kasbiy rivojlanish, innovatsion faoliyat.

Современный университет существует в условиях нарастающей неопределённости: цифровая трансформация, интернационализация, смена образовательных парадигм требуют от преподавателей не просто компетентности, но способности к постоянному творческому поиску. Именно *педагогическая креативность* становится одним из ключевых профессиональных ресурсов преподавателя высшей школы, обеспечивающих качество образования в динамично меняющейся среде.

Вместе с тем исследования свидетельствуют о том, что творческий потенциал педагогов развивается неравномерно: одни преподаватели демонстрируют устойчивую инновационную активность, тогда как другие воспроизводят устоявшиеся шаблоны. Причина этого нередко кроется не в индивидуальных характеристиках педагога, а в характере той организационной среды, в которой он осуществляет свою профессиональную деятельность. Это актуализирует вопрос: каким образом университет как институт может целенаправленно формировать среду, стимулирующую и поддерживающую педагогическую креативность?

Цель данной статьи — теоретически обосновать и описать модель формирования креативной педагогической среды в университете, обеспечивающей переход от индивидуальных творческих практик к устойчивой институциональной культуре.

В педагогической науке понятие креативности трактуется неоднозначно. Ряд исследователей (Torrance, 1966; Guilford, 1967) рассматривают её преимущественно как когнитивную способность — дивергентное мышление, способность к генерации оригинальных идей. Другие (Amabile, 1996; Csikszentmihalyi, 1996) акцентируют социокультурный контекст, в котором реализуется творческая деятельность, указывая на ключевую роль среды в актуализации творческого потенциала личности.

Применительно к высшей школе педагогическая креативность понимается как интегративное профессиональное качество, включающее: способность к генерации нестандартных педагогических решений; гибкость в проектировании образовательного процесса; готовность к эксперименту и рефлексии; умение создавать условия для творческого развития студентов. Принципиально важно, что данное качество не является сугубо врождённым — оно поддаётся целенаправленному развитию при наличии соответствующих институциональных условий.

Понятие «педагогическая среда» в контексте настоящего исследования трактуется вслед за В.А. Ясвиным как совокупность возможностей для развития

и саморазвития субъектов образования, включающая пространственно-предметный, социальный и психодидактический компоненты. Применительно к профессиональной среде преподавателя вуза особое значение приобретает её стимулирующая функция — способность побуждать к творческому профессиональному поиску.

Проведённый анализ позволяет выделить три уровня существования педагогической креативности в университете.

Первый уровень — индивидуальный. На данном уровне творческая активность реализуется отдельными преподавателями и носит, как правило, стихийный, несистематизированный характер. Педагог-новатор действует «вопреки» либо «несмотря на» организационные условия; его опыт остаётся локальным и не транслируется в профессиональное сообщество кафедры или факультета.

Второй уровень — групповой. Формируются профессиональные сообщества практики (communities of practice по Wenger, 1998): творческие группы преподавателей, методические объединения, межкафедральные проектные команды. Происходит обмен опытом, взаимное обогащение практик, однако инновационная деятельность по-прежнему не является системообразующей ценностью университета.

Третий уровень — институциональный. Креативность становится компонентом корпоративной культуры университета: закрепляется в стратегических документах, отражается в системе стимулирования, воспроизводится в практиках наставничества и профессионального развития. На данном уровне среда «автоматически» воспроизводит и поддерживает инновационную деятельность педагогов.

Переход между уровнями не осуществляется стихийно — он требует целенаправленного управленческого сопровождения. Предлагаемая модель включает четыре ключевых механизма такого перехода: (1) институционализацию инновационного опыта через систему документирования и трансляции лучших практик; (2) создание пространств профессионального диалога — регулярных методических мастерских, форумов, лабораторий педагогического дизайна; (3) включение показателей инновационной активности в систему оценки профессиональной деятельности преподавателей; (4) формирование «культуры психологической безопасности» (Edmondson, 1999), при которой педагог не опасается экспериментировать и признавать ошибки.

К организационно-педагогическим условиям формирования креативной среды в университете относятся: наличие институциональной стратегии развития инновационного потенциала профессорско-преподавательского состава; системная поддержка профессионального развития (funding, time, infrastructure); децентрализация принятия педагогических решений, предоставление преподавателям академической свободы; формирование горизонтальных профессиональных связей между кафедрами и факультетами.

Показателями сформированности креативной педагогической среды могут выступать: удельный вес преподавателей, реализующих авторские образовательные программы и методики; количество внутриуниверситетских педагогических инициатив, получивших институциональную поддержку; степень удовлетворённости педагогов профессиональной средой (по данным диагностики); наличие устойчивых горизонтальных профессиональных сетей внутри университета.

Формирование креативной педагогической среды в университете — это управляемый процесс, требующий системных институциональных усилий. Переход от индивидуальных творческих практик к устойчивой институциональной культуре инновационности не происходит стихийно: он обеспечивается целенаправленной стратегией, соответствующими механизмами и инструментами. Предложенная модель создаёт теоретическую основу для разработки конкретных программ развития педагогического потенциала университетов Узбекистана в контексте реформирования системы высшего образования.

Перспективы дальнейшего исследования связаны с эмпирической верификацией модели на материале конкретных университетов, разработкой диагностического инструментария и программ методической поддержки преподавателей, ориентированных на развитие их креативного потенциала.

Список использованной литературы

1. Amabile T.M. Creativity in Context. — Boulder: Westview Press, 1996. — 317 p.
2. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. — New York: HarperCollins, 1996. — 456 p.
3. Edmondson A. Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams // Administrative Science Quarterly. — 1999. — Vol. 44. — №. 2. — P. 350–383.
4. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1967. — 538 p.
5. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. — Princeton: Personnel Press, 1966.
6. Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning, and Identity. — Cambridge: Cambridge University Press, 1998. — 318 p.
7. Ясвин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. — М.: Смысл, 2001. — 365 с.
8. Загвязинский В.И. Педагогическое творчество учителя. — М.: Педагогика, 1987. — 160 с.
9. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. — М.: Педагогика, 1990. — 144 с.
10. Сластёнин В.А. Профессиональная готовность учителя к воспитательной работе. — М.: Прометей, 1989. — 212 с.

Sanaqulov Xamraqul Rizaqulovich

Pedagogika fanlari nomzodi., professor
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri,
Toshkent amaliy fanlar universiteti

Pardaboyeva Dilnoza G‘aybulla qizi

Katta o‘qituvchi
Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va metodikasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHGA ASOSLANGAN INTELLEKTUALLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlashga asoslangan intellektualligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning ta'lim jarayonidagi o‘rni, shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali intellektual salohiyatni oshirish yo‘llari, shaxs intellektualligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Intellektuallik — bu faqat bilimga ega bo‘lish emas, balki mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va yangilik yarata olish qobiliyatidir. Tadqiqotda intellektual rivojlanishga ta’sir qiluvchi omillar, zamonaviy texnologiyalar, ta’lim tizimi va ijtimoiy muhitning o‘rni an'anaviy va innovatsion metodlar taqqoslanib, amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, intellektual rivojlanish, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik yondashuv, innovatsiya, intellektuallik, zamonaviy texnologiyalar, ta’lim tizimi.

Санакулов Хамракул Ризакулович
Кандидат педагогических наук, профессор
Заведующий кафедрой
Теории и методики начального образования
Ташкентский университет прикладных наук

Пардабоева Дильноза Гайбулла кизи
Старший преподаватель
Теории и методики начального образования
Ташкентский университет прикладных наук

УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются педагогические возможности развития интеллектуальности будущих учителей начальной школы на основе критического мышления. Рассматривается понятие критического мышления, его роль в образовательном процессе, а также пути повышения интеллектуального потенциала посредством современных педагогических подходов, анализируются возможности развития индивидуальной интеллектуальности. Интеллектуальность – это не только обладание знаниями, но и способность самостоятельно мыслить, решать проблемы, делать логические выводы и создавать инновации. В исследовании сравниваются факторы, влияющие на интеллектуальное развитие, роль современных технологий, системы образования и социальной среды, традиционных и инновационных методов, а также предлагаются практические предложения.

Ключевые слова: критическое мышление, интеллектуальное развитие, начальное образование, педагогический подход, инновации, интеллектуальность, современные технологии, система образования.

Khamrakul Rizakulovich Sanakulov
Candidate of Pedagogical Sciences, Professor
Head of the Department
Theory and Methodology of Primary Education
Tashkent University of Applied Sciences

Dilnoza Gaibulla kizi Pardaboeva
Senior Lecturer
Theory and Methodology of Primary Education
Tashkent University of Applied Sciences

CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUALITY BASED ON CRITICAL THINKING IN FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS

Abstract. This article analyzes the pedagogical possibilities of developing the intellectuality of future primary school teachers based on critical thinking. The concept of critical thinking, its role in the educational process, as well as ways to increase intellectual potential through modern pedagogical approaches, and the possibilities of developing individual intellectuality are analyzed. Intellectuality is not only the possession of knowledge, but also the ability to think independently, solve problems, draw logical conclusions and create innovations. The study compares the factors affecting intellectual development, the role of modern technologies, the education system and the social environment, traditional and innovative methods, and puts forward practical proposals.

Keywords: critical thinking, intellectual development, primary education, pedagogical approach, innovation, intellectuality, modern technologies, education system.

XXI asrda ta'lim tizimining asosiy maqsadi - ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, raqobatbardosh shaxslarni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi bu jarayonning negizi bo‘lib, bu bosqichda faoliyat yuritadigan o‘qituvchilarning intellektual salohiyati yuqori bo‘lishi zarur. Tanqidiy fikrlash esa bu salohiyatni rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Shu boisdan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy masala sifatida e’tiborni tortmoqda. Bugungi tezkor axborot asrida insonning intellektual salohiyati uning shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatida asosiy o‘rin tutmoqda. Intellektuallik nafaqat bilim darajasi, balki tafakkur uslubi, tahliliy yondashuv, ijodkorlik va hayotga nisbatan ongli munosabatning uyg‘unligidir. Shu sababli, shaxs intellektualligini rivojlantirish zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining intellektual rivojlantirishida berilgan bilimlar asosidagi o‘z-o‘zini faolligi uni kelajakda kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan mazmunni o‘zlashtirishga majbur qiladi. Tanqidiy fikrlash – bu bilim qobiliyatlari va affektiv fazilatlarning kombinatsiyasidir.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, tanqidiy fikrlash quyidagi bilim qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi: tushuntirish; tahlil; baholash; xulosa qilish; o‘zini o‘zi boshqarish (1-jadval).

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari	Qo‘llanilish sohasi / Maqsadga muvofiqligi
Tushuntirish	Axborotni to‘g‘ri anglash, boshqalarga yetkazish, kasbiy holatlarda fikrni aniq bayon qilish
Tahlil	Muammoni hal etishda ma’lumotlarni saralash, ortiqcha va zarur ma’lumotni ajratish
Baholash	O‘zining va boshqalarning qarashlarini tanqidiy baholash, obektiv qaror qabul qilish
Xulosa chiqarish	Turli ma’lumotlardan yangi qaror yoki yo‘l topish, kasbiy vaziyatda to‘g‘ri yo‘nalishni aniqlash
O‘zini-o‘zi boshqarish	O‘z ishini qayta ko‘rib chiqish, tuzatish, kasbiy rivojlanishga moslashish

Ushbu beshta ko‘nikmaning har biri tanqidiy fikrlashning asosini tashkil etadi, uning samaradorligini maxsus mezonlar yordamida baholash mumkin. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari intellektual mutaxassislarni tayyorlashda alohida o‘rin tutadi.

Oddatda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayoni sistemali-faoliyatli, muammoli va differensiatsiya qilingan yondoshuvlardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, turlicha darajadagi o‘qitish imkoniyatlari yetarlicha keng qo‘llanilmaydi. Shu munosabat bilan, biz quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqdik, ular talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi:

1. Birinchi pedagogik shart-sharoit – bu o‘qituvchining talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayonini amalga oshirishga tayyorligi. Bu tayyorgarlik: yangi talablarga muvofiq darslarni tayyorlash va o‘tkazish uchun vaqt va moddiy xarajatlarni ko‘paytirishda; dars maqsadlarini belgilash va talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni ishlab chiqishda; pedagoglarni bu jarayonni tushunishga o‘qitishda; tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini shakllantirishda; ta’lim mazmunini tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadlariga moslashtirishda; turlicha darajadagi o‘qitish usullaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tayyorlash va ishlab chiqishda namoyon bo‘ladi.

2. Ikkinchi pedagogik shart-sharoit – bu shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga ustuvorlik berish bo‘lib, u talabalar va pedagogning kasbiy ta’lim sharoitida individual rivojlanishini ta’minlaydi hamda talabalarda tanqidiy fikrlashning shakllanish darajasi, o‘z-o‘zini tartibga solish darajasi kabi omillarni pedagogning ta’lim strategiyasi va uslubiga o‘zgarish kiritishda hisobga olish imkonini beradi.

Bulutli texnologiyalarning ta’lim jarayonini tashkil etishga ta’siri ham muhim ahamiyatga ega. Ular interaktiv o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi, ta’lim resurslarining ochiqligini oshiradi va individual ta’lim trayektoriyalarini amalga oshirish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, nazorat va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish o‘quv natijalarini yanada obyektiv baholashga yordam beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim cheklovlar ham aniqlangan. Jumladan:

- barqaror internet aloqasiga bog‘liqlik;
- o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish zarurati;
- ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq masalalar.

Mazkur omillar raqamli ta’lim resurslarini joriy etish samaradorligiga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Biroq, qayd etilgan cheklovlarga qaramay, tadqiqot natijalari taklif etilgan metodikaning to‘g‘ri qo‘llanilganda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi. Bulutli texnologiyalarni didaktik jihatdan asoslangan yondashuv bilan uyg‘unlashtirish informatika fanini o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, olingan natijalar muhokamasi ushbu yo‘nalishni yanada rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Xususan, ta’lim jarayoniga adaptiv texnologiyalar, sun’iy intellekt tizimlari hamda katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish vositalarini keng joriy etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Ta’lim tizimini raqamlashtirish va bulutli texnologiyalarni keng joriy etish sharoitida axborot texnologiyalarini o‘qitish uchun mo‘ljallangan raqamli ta’lim resurslarini yaratish metodikalarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida RTRni ishlab chiqishning nazariy va metodik asoslari yoritildi hamda ularni elektron ta’lim muhitida loyihalash va joriy etishning asosiy bosqichlari belgilab berildi.

Taklif etilgan metodika quyidagi izchil bosqichlarni o‘z ichiga oladi: o‘qitish maqsadlarini tahlil qilish, mazmunni tanlash, tuzilmani loyihalash, bulutli platformani aniqlash, kontentni ishlab chiqish, ta’lim muhitiga integratsiya qilish hamda samaradorlikni baholash. Mazkur kompleks yondashuv raqamli ta’lim resurslarini yaratish jarayonining tizimliligi va yaxlitligini ta’minlaydi.

Shuningdek, RTRni ishlab chiqishda asosiy didaktik tamoyillarga alohida e’tibor qaratildi. Ular o‘quv materialining ilmiy asoslanganligi, tushunarliligi, interaktivligi va amaliy yo‘naltirilganligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bulutli texnologiyalarni qo‘llash esa ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi, resurslarga keng kirish imkonini yaratadi hamda o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan metodikani amaliyotda qo‘llash informatika fanini o‘qitish sifatini oshirishga, o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga hamda ularning bilish faolligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Kelgusidagi tadqiqotlar yo‘nalishlari sifatida adaptiv ta’lim tizimlarini joriy etish, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda raqamli ta’lim muhitida shaxsiylashtirilgan o‘qitish trayektoriyalarini rivojlantirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduqodirov A.A., Toshtemirov D.E. Ta’lim muassasalarida axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. Monografiya. Guliston: “Universitet”, 2019. - 232 b.
2. Almarashdeh, I. Sharing instructors experience of learning management system: A technology perspective of user satisfaction in distance learning course // Computers in Human Behavior. – 2016.
3. Anderson, T. (Ed.). The Theory and Practice of Online Learning. – Edmonton: Athabasca University Press, 2020.
4. Ананченко И. В. Облачные технологии в высшем образовании // Современные наукоемкие технологии. – 2015. – № 5. – С. 48–52.
5. Иванов И.И. Облачные технологии в образовании. – М.: Наука, 2022. – 120 с.

6. Петров П.П. Цифровые образовательные ресурсы в учебном процессе // Образование и наука. – 2023. – №5. – С. 45–50.

7. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании. – М.: Академия, 2020. – 304 с.

8. Сидоров А.А. Электронное обучение: теория и практика. – СПб.: Питер, 2021. – 256 с.

9. Татаринов К.А. Электронное образование как технология обучения // Балтийский гуманитарный журнал. – 2020. – №1(30). – С.117-120.

Djo‘rayeva Shaxnoza Shakirjanovna
Katta o‘qituvchi “Pedagogika” kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ONA TILI TA’LIM MAZMUNINI MODERNIZATSIYa QILIShDA GERMENEVTIK TALQIN TAMOYILLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim paradigmasi sharoitida ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari germenevtik yondashuv prizmasi orqali tadqiq etilgan. Bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda matnni tushunish va talqin qilish san’ati bo‘lgan germenevtikaning nazariy-metodik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda F.Shleyermaxer, V.Diltey va G.Gadamer kabi mutafakkirlarning germenevtik ta’limotlariga tayangan holda, til birliklarini nafaqat lingvistik tizim sifatida, balki inson borlig‘i va ongi bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida o‘rganish zarurligi asoslangan. Maqolada oliy ta’limning kredit-modul tizimi talablaridan kelib chiqib, talabalarning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi metodik modellar va o‘quv topshiriqlari tasnifi keltirilgan. Ona tili ta’limida lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishda ijtimoiy-madaniy lakunalarni anglash va psixologik talqin tamoyillarining ahamiyati ilmiy jihatdan dalillangan. Maqola xulosalari ona tili ta’limi mazmunini milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Ona tili ta’limi, germenevtika, modernizatsiya, kredit-modul tizimi, matn talqini, tushunish san’ati, metodik kompetensiya, ta’lim mazmuni, mustaqil ta’lim, lingvistik tahlil.

Джораева Шахноза Шакирджановна
Старший преподаватель
Кафедра «Педагогика»
Ташкентский университет прикладных наук

ПРИНЦИПЫ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье рассматриваются актуальные вопросы модернизации содержания обучения родному языку в контексте современной образовательной парадигмы через призму герменевтического подхода. Раскрываются теоретические и методологические возможности герменевтики, искусства понимания и интерпретации текста, в совершенствовании профессиональной подготовки будущих преподавателей родного языка. Исследование основано на герменевтических учениях таких мыслителей, как Ф. Шлейермахер, В. Дильтей и Г. Гадамер, и исходит из необходимости изучения языковых единиц не только как языковой системы, но и как явления, неразрывно связанного с человеческим существованием и сознанием. В статье представлена классификация методических моделей и учебных заданий, развивающих у студентов навыки самостоятельного мышления и критического анализа, основанная на требованиях кредитно-модульной системы высшего образования. Научно доказана важность понимания социокультурных барьеров и принципов психологической интерпретации в формировании языковых и речевых компетенций в обучении родному языку. Выводы статьи способствуют обогащению содержания обучения родному языку на основе национальных и универсальных ценностей.

Ключевые слова: обучение на родном языке, герменевтика, модернизация, кредитно-модульная система, интерпретация текста, искусство понимания, методическая компетентность, содержание образования, самостоятельное обучение, лингвистический анализ.

Shakhnoza Shakirjanovna Jorayeva
Senior Lecturer
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

PRINCIPLES OF HERMENEUTIC INTERPRETATION IN MODERNIZING NATIVE LANGUAGE EDUCATION CONTENT

Abstract. This article examines current issues of modernizing native language teaching content in the context of the modern educational paradigm through the prism of a hermeneutic approach. It explores the theoretical and methodological potential of hermeneutics, the art of understanding and interpreting text, in improving the professional training of future native language teachers. The study draws on the hermeneutic teachings of thinkers such as Friedrich Schleiermacher, Wilhelm Dilthey, and Georg Gadamer, and recognizes the need to study linguistic units not only as a linguistic system but also as a phenomenon inextricably linked to human existence and consciousness. The article presents a classification of methodological models and learning tasks that develop students' independent thinking and critical analysis skills, based on the requirements of the credit-modular system of higher education. The importance of understanding sociocultural barriers and principles of psychological interpretation in developing linguistic and speech competencies in native language teaching has been scientifically proven. The article's findings contribute to enriching the content of native language teaching based on national and universal values.

Key words: teaching in native language, hermeneutics, modernization, credit-modular system, text interpretation, art of understanding, methodological competence, educational content, independent learning, linguistic analysis.

Kirish. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish va sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan [1]. Oliy ta’lim tizimida ona tili o‘qitish jarayonini modernizatsiya qilish, bo‘lajak filolog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish dolzarb pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda [2]. Modul-kredit tizimida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va ularni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish ta’lim sifatini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir [3].

Ona tili ta’limining maqsadi nafaqat til qoidalarini o‘rgatish, balki talabalarda matnni anglash, talqin qilish va tilning ijtimoiy-madaniy vazifalarini tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir [4]. Bu jarayonda germenevtik yondashuv — matnni «tushunish san’ati» sifatida muhim metodologik ahamiyat kasb etadi [5]. Germenevtikaning nazariy asoslari matndagi lisoniy ifodani til tizimi doirasida va muallifning sub’ektiv olamini anglash orqali o‘rganishni taqozo etadi [6].

Ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilishda germenevtik talqin tamoyillaridan foydalanish talabalarning nafaqat lingvistik, balki nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7]. Bunda matn ustida ishlash, ijtimoiy-madaniy lakunalarni bartaraf etish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish ta’limning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilanadi [8]. Germenevtik ta’limot asosidagi bilimlar talabalarda analitik faoliyatni faollashtirishga va borliqni til vositasida anglash darajasini yuksaltirishga imkon beradi [9]. Mazkur tadqiqotning maqsadi ona tili ta’limini modernizatsiya qilishda germenevtik talqinning o‘rni va funksional xususiyatlarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Zamonaviy lingvodidaktika va pedagogika fani oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — bu ona tili ta’limining mazmunini quruq grammatik ma’lumotlar yig‘indisidan jonli, muloqotga asoslangan va tahliliy tafakkurni rivojlantiruvchi tizimga aylantirishdir. Bugungi kunda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida ona tili o‘qitish jarayonini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, o‘quv darsliklari va metodik qo‘llanmalarda hanuzgacha „bir tomonlamalik“ saqlanib qolmoqda. Ushbu muammoning mohiyati shundaki, ta’lim jarayonida asosiy e’tibor til birliklarining shakliy tuzilishiga, ya’ni morfologik va sintaktik tahlilga qaratilgan bo‘lib, matnning semantik qatlamlari va muallifning estetik-falsafiy maqsadi ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda.

Hozirgi ona tili darsliklarida matn bilan ishlash jarayoni asosan matndagi gaplarni tahlil qilish, imloviy xatolarni topish yoki tinish belgilarini qo‘yish kabi texnik topshiriqlar bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv natijasida talaba matnni yaxlit bir olam, ijtimoiy-madaniy kodlar tizimi sifatida idrok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Talaba til qoidalarini mukammal bilsa-da, matnning „ruhiyatini“ anglashda, undagi pinhona ma’nolarni (subtekst) ochishda va o‘z qarashlarini mantiqiy asoslashda qiynalmoqda. Bu esa jamiyatimizda fikrlaydigan, tahlil qiladigan va tilning imkoniyatlaridan ijodiy foydalana oladigan mutaxassislar tayyorlash sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Nima uchun aynan bugun germenevtik yondashuv ta’lim tizimi uchun hayotiy zaruriyatga aylandi? Birinchidan, axborot oqimi shiddatli tus olgan hozirgi davrda talabalarda axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” ma’nolarni farqlash ko‘nikmasini shakllantirish shart. Germenevtika — tushunish san’ati sifatida talabani matnga nisbatan tanqidiy yondashishga, so‘z ortidagi haqiqatni qidirishga o‘rgatadi. Ikkinchidan, ona tili ta’limi faqatgina savodxonlikni oshirish vositasi emas, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy omildir. Germenevtik talqin orqali talaba milliy qadriyatlarimiz, adabiy merosimiz va tilimizning boy jozibasini quruq qoidalar orqali emas, balki chuqur his qilish va anglash orqali o‘zlashtiradi.

Pedagogik amaliyotda kuzatilayotgan yana bir jiddiy kamchilik — bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotning “avtoritar” xarakterda ekanligidir. Ko‘p hollarda matnning “yagona va to‘g‘ri” talqini o‘qituvchi tomonidan tayyor holda beriladi, bu esa talabaning mustaqil ijodiy izlanishini so‘ndiradi. Germenevtik tamoyillarning yo‘qligi ta’limda „shablonli fikrlash“ni keltirib chiqarmoqda. Binobarin, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish deganda, biz nafaqat yangi texnologiyalarni olib kirishni, balki matnni anglash va tushunish metodologiyasini tubdan o‘zgartirishni tushunishimiz lozim. Shunday qilib, ona tili ta’limidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish, talabaning lisoniy shaxsini shakllantirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun germenevtik talqin tamoyillarini o‘quv dasturlariga izchil tatbiq etish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir.

Metodologiya. Ona tili ta’limi mazmunini germenevtik tamoyillar asosida modernizatsiya qilish jarayonida tadqiqotning metodologik asosi sifatida interpretativ-tahliliy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tanlab olindi. Tadqiqot

davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini baholash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Gumanitar pedagogik diagnostika: Talabalarning badiiy va ilmiy matnlarni idrok etish darajasi, ulardagi yashirin ma’nolarni topa olish qobiliyati so‘rovnomalar orqali aniqlandi.

Germenevtik doira usuli: Matnning qismlaridan butunga va butundan qismlarga qarab tahlil qilish orqali til birliklarining kontekstual ma’nolarini ochish amaliyoti joriy etildi. Bunda har bir lingvistik birlik (so‘z, ibora, gap) muallif dunyoqarashi va davr ruhiyati bilan bog‘liq holda o‘rganildi [6, 10].

Kreativ modellashtirish: Talabalarga matndagi „ma’no bo‘shliqlari“ (lakunalar)ni to‘ldirish va muallif pozitsiyasidan kelib chiqib matnni qayta yaratish topshiriqlari berildi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida modulli o‘qitish tizimida talabaning mustaqil faoliyatini loyihalashtirish muhim o‘rin egallaydi. Bunda asosiy urg‘u talabaning „tushunish traektoriya“sini yaratishga qaratildi. Ya’ni, talaba nafaqat tayyor ma’lumotni qabul qiladi, balki o‘zi ham yangi ma’no yaratuvchisiga aylanadi[2].

Tadqiqot jarayonida germenevtik talqin tamoyillarini ta’lim mazmuniga singdirishda tizimli-funksional yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bu yondashuv til birliklarini shunchaki statik holatda emas, balki matnning dinamik tuzilishida, uning ma’no hosil qilish funksiyalari doirasida o‘rganishni taqozo etadi[10]. Metodologik izchillikni ta’minlash maqsadida tadqiqotning tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- Konstatatsiya bosqichida talabalarning matn mazmunini anglash darajasi lingvistik va ekstralingvistik mezonlar asosida test va insholar orqali tekshirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, talabalar matnning grammatik qurilishini yaxshi tahlil qilsalar-da, uning konseptual va estetik maqsadini ochishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda [2, 5].
- Formatsiya bosqichida ona tili ta’limi mazmuniga germenevtik talqinning innovatsion modellari tatbiq etildi. Talabalar bilan «muallif — matn — o‘quvchi» zanjiri asosida muloqot darslari tashkil etildi. Bunda matn nafaqat ma’lumot manbai, balki tirik muloqot sub’ekti sifatida qaraldi [6, 8].
- Tajriba yakuniy bosqichida talabalarning kasbiy-metodik kompetensiyalari qayta baholandi va germenevtik yondashuvning samaradorligi matematik-statistik metodlar yordamida tahlil qilindi [9].

Nazariya va muhokama. Ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish jarayonida germenevtik talqin tamoyillarini qo‘llash nafaqat lingvistik bilimlarni transformatsiya qilishni, balki talabaning matn bilan ishlash madaniyatini tubdan o‘zgartirishni taqozo etadi. G.Gadamerning «haqiqat va metod» konsepsiyasiga ko‘ra, til bu — shunchaki vosita emas, balki inson dunyoni anglaydigan muhitdir [6]. Demak, ona tili darslarida matnni germenevtik tahlil qilish orqali talabalar nafaqat tilning grammatik qurilishini, balki uning milliy-madaniy kodlarini ham ochishga o‘rgatiladi [5]. Ta’lim mazmuniga germenevtik tamoyillarni singdirish matnni yaxlit tizim sifatida anglash va talabaning mustaqil talqin qilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi [2,10]. Germenevtikaning asoschilaridan biri F.Shleyermaxer, tushunish jarayoni ikki

tomonlama – grammatik va psixologik talqinni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ushbu yondashuv oliy ta’lim tizimida talabalarning matn ortidagi yashirin ma’nolarni anglashi va muallif pozitsiyasini idroq etishi uchun muhim metodologik asos bo‘ladi [6].

Zamonaviy tadqiqotlarda ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirish mexanizmlari bevosita germenevtik ta’limot bilan bog‘liq holda talqin etilmoqda. Ona tili ta’limida germenevtik yondashuv talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va matn ustida ishlashning innovatsion-pedagogik imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi [10]. Ushbu mexanizm talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki til hodisalarini anglash va amaliyotga tatbiq etishning metodik kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilishda an’anaviy va germenevtik yondashuvlar o‘rtasidagi farqli jihatlarni quyidagi qiyosiy jadval orqali ko‘rish mumkin.

Ona tili ta’limida an’anaviy va germenevtik yondashuvlarning qiyosiy tahlili

№	Qiyoslash mezonlari	An’anaviy yondashuv	Germenevtik yondashuv
1	Ta’limning maqsadi	Grammatik qoidalarni yodlatish va til tizimini o‘rgatish.	Matnni tushunish, talqin qilish va tilning madaniy qatlamlarini anglash.
2	Matn bilan ishlash	Matn faqat lingvistik tahlil (fonetik, morfologik) ob’ekti.	Matn — muallif va kitobxon o‘rtasidagi jonli muloqot muhiti.
3	O‘qituvchining roli	Tayyor bilimlarni beruvchi va nazorat qiluvchi shaxs.	Talaba bilan birgalikda ma’nolarni izlovchi va yo‘naltiruvchi koordinator.
4	Talabaning faoliyati	Ma’lumotlarni qabul qiluvchi va qayta ishlab beruvchi (reproduktiv).	Matnni individual talqin qiluvchi va tanqidiy fikrlovchi (ijodiy).
5	Natija	Lingvistik savodxonlikning shakllanishi.	Metodik kompetensiya va kommunikativ madaniyatning yuksalishi.

Ona tili ta’limi mazmuniga germenevtik tamoyillarni singdirish quyidagi muhim jihatlarni qamrab oladi:

Matnni yaxlit tizim sifatida anglash, talaba so‘z va gapni alohida emas, balki kontekst ichida, uning ijtimoiy va madaniy yuki bilan birgalikda qabul qiladi [4]. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot matnni birgalikda talqin qilish asosiga quriladi, bu esa demokratik ta’lim muhitini yaratadi [8]. Germenevtik talqin orqali talabalar tildagi lakunalarni (ma’no bo‘shliqlarini) anglaydilar va bu orqali ularning fikrlash doirasi kengayadi [9].

Ona tili ta’limiga germenevtik interpretatsiyaning tatbiq etilishi natijasida talabalarning metodik kompetensiyalarida sifat o‘zgarishlari kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matnni germenevtik tahlil qilish quyidagi pedagogik natijalarni beradi:

Birinchidan, talabalarda til birliklarining lisoniy va nolisoniy jihatlarini farqlash ko‘nikmasi rivojlandi. Agar an’anaviy darslarda so‘zning faqat leksik ma’nosi o‘rganilgan bo‘lsa, germenevtik yondashuvda uning ijtimoiy-madaniy yuki va emotsional bo‘yog‘i tahlil markaziga chiqdi [5, 8]. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining nutqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, «Tushunish san’ati» metodikasi orqali talabalar o‘rtasida o‘zaro muloqot va akademik diskussiya muhiti shakllandi. Matnni talqin qilish jarayonida yuzaga keladigan turli qarashlar talabalarni tolerantlikka, o‘zgalar fikrini hurmat

qilishga va o‘z pozitsiyasini dalillashga o‘rgatadi. Bu jarayon bevosita kredit-modul tizimidagi mustaqil ta’limning talablariga to‘la mos keladi [3, 9].

Uchinchidan, germenevtik yondashuv asosida ishlab chiqilgan o‘quv topshiriqlari talabalarning analitik tafakkurini 25-30% ga oshirgani kuzatildi. Xususan, badiiy matnlardagi metafora va simvollarni germenevtik «kalitlar» yordamida ochish talabalarning filologik sezgirligini kuchaytirdi [4].

Tadqiqot natijalarini umumlashtirgan holda, ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilishning dinamik modelini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Matnning leksik-grammatik sathini o‘rganish.
2. Matn osti ma’nolarini (subtekst) aniqlash.
3. Olingan bilimlarni shaxsiy tajriba va kasbiy faoliyat bilan bog‘lash.

Ushbu izchillik bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarini shunchaki „til o‘rgatuvchi“ emas, balki „ma’naviyat va tafakkur ustasi“ sifatidagi maqomini mustahkamlaydi [1, 10].

XULOSALAR.

Ona tili ta’limi mazmunini modernizatsiya qilish jarayonida germenevtik yondashuvdan foydalanish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Germenevtika nafaqat matnni tushunish san’ati, balki til ta’limida talabaning dunyoqarashini kengaytiruvchi va uning ichki «men»ini til vositasida namoyon etuvchi metodologik asosdir. Tilni shunchaki qoidalar tizimi sifatida emas, balki «borliq makoni» sifatida o‘rganish ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

2. Talabalarning matnni talqin qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning nafaqat filologik, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini ham oshiradi. Bunda biz ta’kidlagan metodik mexanizmlar – nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Kredit-modul tizimida mustaqil o‘quv jarayonini germenevtik talqinga asoslangan topshiriqlar bilan boyitish, talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni faollashtiradi. Bu esa ularning kelgusida matn bilan ishlash bo‘yicha kasbiy mahoratini oshiradi.

TAKLIFLAR.

• O‘quv dasturlarini takomillashtirish: Oliy ta’limning ona tili o‘qitish metodikasi fani dasturlariga matnning germenevtik tahliliga oid maxsus bo‘lim va mavzularni kiritish lozim.

• Innovatsion topshiriqlar tizimi: Ona tili darsliklarida talabani faqat grammatik tahlilga emas, balki matnning mazmuniy qatlamlarini, muallif maqsadi va yashirin mazmunini ochishga yo‘naltirilgan «germenevtik savollar» tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

• Metodik qo‘llanmalar yaratish: Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ona tili ta’limida germenevtik tamoyillarni amaliyotda qo‘llash texnologiyalari aks etgan metodik qo‘llanma va ishlanmalar majmuasini yaratish zarur.

• Mustaqil ta’limni tizimlashtirish: Talabalarning mustaqil ishlari uchun badiiy va ilmiy matnlarni germenevtik talqin qilishga asoslangan keys-stadi va loyiha ishlarini ko‘paytirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент: Ўзбекистон, 2022 й.
2. Аҳмедова М.Е. Модул-кредит тизимида мустақил топшириқлар тузишнинг илмий-назарий асослари (тилшунослик фанлари мисолида). Монография. Тошкент: Тиббиёт нашриёти матбаа уйи, 2024. – 180 б.
3. Сазонов Б.А. Организация образовательного процесса: от традиций к инновациям в системе высшего образования. Москва: Юрайт, 2024 г.
4. Леонтьев А.А. Психология общения и лингвистический анализ текста в высшей школе // Санкт-Петербург: Речь, 2023 г
5. Қозиева Т.Т. Талабаларнинг тинглаб тушуниш, англаш қобилиятларини ривожлантиришда герменевтик ёндашувдан фойдаланиш технологиялари. Монография. – Тошкент. 2024 й. – 180 б.
6. Gadamer H.G. Truth and Method (Bloomsbury Revelations Edition). London: Bloomsbury Academic, 2023 y.
7. Richards J.C., Schmidt R.W. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. New York: Routledge, 2024 y.
8. Smith J.K. The Hermeneutic Approach in Modern Pedagogy: Theory and Practice. Oxford: Oxford University Press, 2023 y.
9. Кузнецов И.Н. Научное исследование: Методика проведения и оформление. Москва: Дашков и К, 2024 г.
10. Djo‘rayeva Sh. Sh. Germenevtik ta’limot asosida ona tili ta’lim mazmunini metodik rivojlantirish mexanizmi. Inter education & global study. – 2024 y. – №. 10 (1). – c. 75-81.

BELARUS–O‘ZBEK
ILMIY- METODIK JURNALI
ISSN 2181-2896 №1, 2026

Qo‘yliyeva Shaxnoza Rustamovna

Katta o‘qituvchi
Pedagogika kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ONA TILI DARSLIGIDA MAVJUD TINGLAB TUSHUNISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI BA’ZI TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada ona tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishda nazariy ma’lumotlarning o‘rni va ahamiyati, o‘quvchilarga o‘quv topshiriqlaridan foydalanish ko‘nikmalari, qaysi o‘quv materiallari topshiriqlar tahlilini o‘zlashtirishga yordam berishi bilan bog‘liq muammolar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: topshiriq va mashq, rivojlantiruvchi topshiriqlar tahlili, grammatik ma’lumotlar, o‘quv topshiriqlar, grammatik bilim, grammatik minimum, lingvistik kompetensiya, nutqiy malaka, ko‘nikma, xalqaro tajriba, pragmatik yondashuv, yozma savodxonlik.

Jamiyatning rivojlanib borishi fan va texnika, talim-tarbiyaning rivojlanib tarqqiy topishi bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlabki ta’lim va tarbiya jarayonlarining quyi bosqichlarida o‘quvchiga ta’lim va tarbiya berish jarayonlari va topshiriq, darsliklari juda sodda talablar va jarayonlar shaklida tashkil etilgan bo‘lsa, bugungi fan-texnika rivojlangan zamonga kelib ta’lim jarayoni murakkablashib bormoqda, chunki bugungi kun o‘quvchilarini qiziqtirish va ularga samarali ta’lim jarayonini tashkil etish asosiy muammolardan biri hisoblanmoqda. Shuning uchun ijtimoiy hayot va taraqqiyot bilan hamnafas rivojlanib borayotgan o‘qitish tizimi jarayonlari ko‘lami ham kengayib bormoqda. Maktab darsliklarda esa tabiiy ravishda yuqoridagi holat o‘z aksini topmoqda. Bu holatdan ona tili darsliklari ham holi emas. Dastlabki ona tili darsliklarimizga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ko‘proq grammatika va o‘quvchining yozma savodxonligiga e’tibor qaratilganini ko‘rishiniz mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy o‘qitish usullari kirib kela boshlagach darsliklarimiz mazmuni ham yangilanib bordi. Topshiriq va mashqlarda ham katta o‘zgarishlar kirib keldi. Xususan, topshiriq va mashqlar ko‘lami kengaydi.

Bugungi kun darsliklari aynan ta’lim mazmunidan kelib chiqib o‘quvchini hayotning barcha sohasida erkin fikrlaydigan, har qanday vaziyatda yo‘l topadigan va o‘z fikrini yozma va og‘zaki tarzda ravon ifoda etoladigan nutqiy rivojlangan insonni voyaga yetkazish hisoblanadi. Ona tili darsliklari ham xuddi shu mazmunga ko‘ra yangicha tus oldi. O‘quvchida o‘zgalarning fikrini hurmat qilish va tinglashga, bevosita tinglah orqali to‘g‘ri fikr berishga yordam beruvchi tinglab tushunish ko‘nikmasiga ham alohida e’tibor berilgan. 5- sinf ona tili darsligi uchun hammualliflikda 2020-yil ishlab chiqilgan o‘qituvchi kitobi ya’ni metodik qo‘llanmada tinglab tushunish kompetensiyasiga shunday tushuntirish berib ketilgan: “Ona tili darslarida tinglab tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilarda mashq qildirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali o‘quvchi diqqatini uzoq vaqt ushlash malakasi, o‘quvchilarning og‘zaki bayon qilinayotgan o‘zgalar fikrini, monologik va diologik nutqni hamda matn mazmunini tushuna olish ko‘nikmasi shakllantiriladi.

Ona tili darsligida tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi topshiriqlar mazmunan xilma-xil bo‘lsa-da, ularning aksariyati tinglangan matnni qayta eslab qolish va reproduktiv tarzda ifodalashga yo‘naltirilgan. Jumladan, matnni tinglab asosiy g‘oyani aniqlash, savollarga javob berish va qayta hikoyalash kabi topshiriqlar tinglab tushunishning boshlang‘ich bosqichlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur topshiriqlarda tinglangan axborotni tahlil qilish, baholash va shaxsiy munosabat bildirishga qaratilgan yuqori darajadagi kognitiv faoliyat yetarli darajada qamrab olinmagan. Masalan, xulosa chiqarish va munosabat bildirishga doir topshiriqlar kam uchraydi yoki aniq metodik ko‘rsatmalar bilan boyitilmagan.

Shuningdek, tinglab tushunish topshiriqlarining ko‘pchiligi standart qolipda tuzilgan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va tanqidiy yondashuvini rag‘batlantirish darajasi pastligicha qolmoqda. Audiomatnlar bilan ishlash jarayonida selektiv va pragmatik tinglash turlariga yetarli e’tibor qaratilmaydi.

Umuman olganda, ona tili darsliklarida mavjud tinglab tushunish topshiriqlari o‘quvchilarda mazkur ko‘nikmani shakllantirish uchun muhim asos bo‘lsa-da, ularni kognitiv-pragmatik yondashuv asosida takomillashtirish, tinglashni gapirish va yozish faoliyati bilan uzviy bog‘lash zarurati mavjud.

1-jadval

Topshiriq turi	Topshiriq mazmuni	Rivojlantiriladigan ko‘nikma	Pedagogik ahamiyati	Mavjud kamchiliklar
Matnni tinglab asosiy g‘oyani aniqlash	O‘qituvchi tomonidan o‘qilgan matn asosida asosiy fikrni topish	Mazmunni anglash, umumlashtirish	Tinglab tushunishning boshlang‘ich bosqichini shakllantiradi	Savollar ko‘pincha yuzaki bo‘lib, chuqur tahlil talab qilmaydi
Savollarga javob berish	Tinglangan matn yuzasidan savollarga og‘zaki javob berish	Eshitilgan axborotni eslab qolish va qayta ifodalash	Tinglash va gapirish integratsiyasini ta’minlaydi	Savollar bir xil qolipda takrorlanadi
Reja tuzish	Tinglangan matn asosida reja tuzish	Mantiqiy tafakkur, strukturaviy tahlil	Matn tuzilishini anglashga yordam beradi	Mustaqil fikrlash darajasi yetarli rag‘batlantirilmaydi
Matnni qayta hikoyalash	Audiomatn mazmunini izchil bayon qilish	Nutq izchilligi, eslab qolish	Og‘zaki nutqni rivojlantiradi	Ba’zan mexanik takrorlashga olib keladi
Kalit so‘zlarni aniqlash	Tinglangan matndan muhim so‘zlarni ajratish	Selektiv tinglash	Axborotni saralash ko‘nikmasini shakllantiradi	Topshiriq murakkablik darajasi yetarli emas
Xulosa chiqarish	Matn mazmunidan kelib chiqib xulosa berish	Tahliliy va tanqidiy tafakkur	Tinglab tushunishni yuqori bosqichga olib chiqadi	Kam hollarda qo‘llanadi
Munosabat bildirish	Tinglangan matnga shaxsiy fikr bildirish	Pragmatik tinglash	Kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi	Baholash mezonlari aniq belgilanmagan

O‘quvchilar sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushuna olishi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib olishi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etishi, tinglab tushunishi, nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashi, barqaror atamalar, kasbhunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlashi va tushunishi lozim.” Bu fikrlar orqali tinglab tushunish qobiliyati ham muhim kompetensiyalardab biri ekanligi e’tirof etilgan va o‘quvchilarda

ko‘nikma hosil qilish uchun mashq va topshiriqlar berib ketilgan. Yuqoridagi ta’rifdan kelib chiqib 5- sinf ona tili darsidan aynan quyidagi natijalarga erishish ko‘zda tutilgan:

Tinglab tushunish:

- monologik, dialogik nutq va suhbatni eshitib tushuna oladi;
- tinglangan matn (audio matn, hikoya matni)ni tushunadi;
- ko‘rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqea-hodisalarni tushunadi;
- darslikda berilgan grammatik tamoyil va ma’lumotlarni tinglab tushunadi;
- turli sodda matndagi va jadvallardagi ma’lumotlardan kerakli bo‘lgan detal, fikrni tushunadi, taqqoslaydi, ajratadi, umumlashtirib xulosalaydi;
-audiomaterialni tinglab, og‘zaki aytib beradi va matn ko‘rinishida yozib beradi;

Darslikni parovozga qiyos qilib, uning vagonlari sifatida har bir mavzuga taalluqli lug‘atlar, jumladan, orfografiya uchun imlo lug‘ati, orfoepiya uchun talaffuz mashqlari to‘plami, leksika uchun izohli lug‘at, morfologiya uchun morfem lug‘at va boshqalardan samarali foydalanilsa, ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. Axborot texnologiyalari asrida ma’lumotlar bazasi muammo emas. Shuning uchun darsliklarning topshiriqlar qismi mukammal, tizimli, puxta ishlab chiqilsa, bas.

Bugungi kun ona tili ta’limi maktabda o‘rgatilishi belgilangan til sathlaridan qat’i nazar, hatto fonetika o‘qitishda ham o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, shu orqali o‘z fikrini og‘zaki va yozma shakllarda mustaqil, ravon, lo‘nda va jozibali ifodalay olishiga erishishni talab etadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, albatta, o‘zbek tilining tengsiz xazinasi hisoblangan maxsus leksik boyliklarsiz samarali bo‘lishi qiyin.

Nafaqat fonetika o‘qitishda, balki tilning barcha sathlarini o‘qitishda *matal, topishmoq, tez aytish, latifa, lof, terma* va *doston* namunalaridan tahlil materiali sifatida foydalanish ona tili ta’limida samaradorlikka erishishda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qila oladi.

Grammatika masalasi bugun ta’lim oldiga qo‘yilgan talablarni yaxshi anglamaslik, grammatika haqida boshqacha tasavvurlarga ega bo‘lish oqibatida bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni keltirib chiqarmoqda.

Avvalo, grammatika nima? Aslida “grammatika” so‘zi o‘qish va yozishni o‘rganmoq degan ma’noni anglatadi. Ammo bizda tilshunoslikda yaratilgan nazariyalar, qoidalar majmuasi sifatida qaraladi, grammatika deganda, asosan, morfologiya va sintaksis tushuniladi. Maktab o‘quvchisiga 6-7-8-9-sinflarda 4 yil davomida morfologiya va sintaksis o‘qitiladi, ammo bu ma’lumotlar nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmaydi. Undan ko‘ra darslik tuzishda ko‘p yillardan beri e’tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o‘qitib kelinayotgan fonetika, to‘g‘ri yozish, imlo qoidalari (orfografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug‘at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuasiya) kabi mavzular o‘quvchida haqiqatan imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini hosil qiladi, so‘z boyligini oshiradi. Darsliklarda yengil grammatik ma’lumotlar berilishi kerak, bu – o‘quvchiga biror chet tilini o‘rganishda asqotadi. Maktab darsliklari mazmunida nazariy ma’lumotlar qachon va qanday ko‘paydi? Bunday ahvolga kelib qolishning asosiy sababi shuki, ko‘p yillardan buyon

metodika degan g‘alvirimiz bo‘lmagani, metodist-olimlarimiz bosh qo‘shmagani uchun nazariy ma’lumotlar botmonlab maktab darsliklariga kiritildi. Oqibat hammamizga ma’lum – darsliklarimiz tayyor akademik grammatika bo‘ldi-qoldi, uni o‘qigan o‘quvchi borki, tilshunos bo‘lmay iloji yo‘q. Istagan bitiruvchi, yoki birinchi kurs o‘quvchisining oldiga borib mana shu jumlani grammatik tahlil qilib ber, desangiz (u tibbiyot yo‘nalishida bo‘ladimi, moliya yo‘nalishidami farqi yo‘q) lingivistika ixtisosligida tadqiqot olib boradigan doktorantdan yaxshi tahlil qilib beradi, ammo unga gapni *murakkab ega, ot-kesim, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to‘ldiruvchiga* ajratishdan hyech qanday naf yo‘q. Buning o‘rniga unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo‘ladigan ta’sirchan nutq va muloqot madaniyati o‘rgatilishi kerak edi. Ular ona tili mashg‘ulotlarida adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta’sirli nutq uchun yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lishilari kerak edi.

Jaloliddin Rumiyda “Tilshunos va qayiqchi” hikoyati bor. Unda bir mag‘rur tilshunos uni dengizning narigi qirg‘og‘iga olib o‘tayotgan qayiqchiga grammatikani bilasanmi, degan savol beradi. Qayiqchi, bunga yo‘q, deb javob beradi. Shunda tilshunos viqor bilan umringning yarmi befoyda o‘tibdi, deydi. Biroz suzishgandan so‘ng, dovul ko‘tarila boshlaydi. Shunda qayiqchi tilshunosdan suzishni bilasizmi, deb so‘raydi. Tilshunos yo‘q, deb javob berganda qayiqchi unga butun umringiz befoyda o‘tibdi, hozir qayiq ag‘dariladi, cho‘kib ketasiz, degan ekan. Biz ham o‘quvchilarga ona tilidan hayot davomida har qanday vaziyatda, har onda asqotadigan bilim va ko‘nikmalarni berishimiz kerak. Ortiqcha grammatizm, ona tili ta’limini “qand” kasalidek bir bedavo ahvolga olib kelayotgan edi. Yangicha yondashuvlarning o‘z vaqtida amaliyotga joriy etilayotgani, muammoning manbasi kech bo‘lsa-da aniqlangani bu jarayonni sog‘lomlashtirishga imkon beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugun amalda bo‘lgan yangi o‘qitish metodikasi asosida takomillashtirilgan “Ona tili” darsliklari mazmunidan grammatizm kuchayib ketish natijasida nutqiy ko‘nikma va malakalar rivojlanmay qolib ketgani sababli nazariy ma’lumotlar darsliklardan chiqarib tashlagan. Ona tili orqali o‘zbek tilining grammatik strukturasi o‘quvchi tafakkurida shakllantirilmas ekan u boshqa tillarni o‘zlashtirishga qiynaladi. Shu ma’noda, ona tilidan o‘quv grammatika ishlab chiqish bugungi kuning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G‘ulomov A.., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. O‘qituvchilar uchun metodik ko‘llanma. – T.: O‘qituvchi. 1996. 9-b.

2.https://ru.wikipedia.org/wiki/

3.Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped. fan.doktori... diss. – Toshkent: TDPI, 2005. – 270 b.

4.Muhiddinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish ped. fan. nom-di diss. TDPI –Toshkent, 2011. -270 b.

5.Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish Ped. fanl. bo‘yicha fal. dok. (PhD)ilm. daraj. olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T.: 2019. -22 b.

Qayumov Maxkam Jamoliddinovich
O’qituvchi,
Toshkent shahridagi
Turin Politexnika universiteti
+998974031711

OLIY TA’LIM PEDAGOGLARI RAQAMLI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining raqamli madaniyatini rivojlantirishda generativ sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanish metodikasi nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli madaniyat tushunchasining pedagogik mohiyati, generativ SI vositalarining ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlari, shuningdek, pedagog kadrlarning AI-kompetensiyalarini shakllantirish yo’nalishlari yoritilgan. DigCompEdu, TPACK va UNESCO ICT CFT nazariy modellariga asoslangan holda, generativ SI dan foydalanish orqali pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning ketma-ket usullari, bosqichlari va samaradorlik mezonlari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O’zbekiston oliy ta’lim tizimida “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasi va “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so’zlar: raqamli madaniyat, generativ sun’iy intellekt, pedagog kadrlar, malaka oshirish, AI-kompetensiya, DigCompEdu, oliy ta’lim, ta’lim texnologiyalari.

Каюмов Махкам Джамолиддинович
Преподаватель,
Туринский политехнический
университет в г. Ташкенте
+998974031711

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ГЕНЕРАТИВНОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ ПЕДАГОГОВ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье представлен теоретический анализ методики использования технологий генеративного искусственного интеллекта (ИИ) в развитии цифровой культуры профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений. В исследовании освещены педагогическая сущность понятия «цифровая культура», возможности интеграции инструментов генеративного ИИ в образовательный процесс, а также направления формирования ИИ-компетенций педагогов. На основе теоретических моделей DigCompEdu, TPACK и ЮНЕСКО ICT CFT разработаны последовательные методы, этапы и критерии эффективности развития цифровых компетенций педагогов посредством использования генеративного ИИ. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы повышения квалификации педагогических кадров в системе высшего образования Узбекистана в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и проекта «5 миллионов лидеров искусственного интеллекта».

Ключевые слова: цифровая культура, генеративный искусственный интеллект, педагогические кадры, повышение квалификации, ИИ-компетенция, DigCompEdu, высшее образование, образовательные технологии.

Kayumov Makhkam Jamoliddinovich
Lecturer,
Turin Polytechnic
University in Tashkent
+998974031711

METHODOLOGY OF USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DEVELOP DIGITAL CULTURE AMONG HIGHER EDUCATION EDUCATORS

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the methodology for utilizing generative artificial intelligence (AI) technologies to develop the digital culture of faculty members in higher education institutions. The research highlights the pedagogical essence of "digital culture," the possibilities of integrating generative AI tools into the educational process, and approaches to developing educators' AI competencies. Based on the DigCompEdu, TPACK, and UNESCO ICT CFT theoretical frameworks, this study develops sequential methods, stages, and effectiveness criteria for enhancing educators' digital competencies through the use of generative AI. The research findings hold practical significance for improving the professional development system for academic staff within Uzbekistan's higher education system, in alignment with the "Digital Uzbekistan – 2030" strategy and the "Besh million AI Leaders" project.

Keywords: digital culture, generative artificial intelligence, academic staff, professional development, AI-competency, DigCompEdu, higher education, educational technologies.

Kirish. XXI asrning ikkinchi yarmida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tubdan o’zgarishlarni talab qilmoqda. O’zbekiston Respublikasida “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, 2025-yil 28-noyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e’lon qilingan “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida ta’lim jarayoniga sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish dolzarb vazifa etib belgilangan. Bu loyiha doirasida 2030-yilga qadar 4 million 750 ming maktab o’quvchilari va talabalar, 150 ming nafar o’qituvchilar hamda 100 ming nafar davlat xizmatchilarini o’qitish ko’zda tutilgan bo’lib, sun’iy intellekt maktab, kasb ta’limi va oliy ta’lim tizimlariga integratsiya qilinishi rejalashtirilgan.

Oliy ta’lim tizimida professor-o’qituvchilarning raqamli madaniyatini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So’nggi yillarda O’zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni 77 tadan 300 taga yetdi, talabalar soni esa 280 mingdan 1,7 million nafarga oshdi. Bunday keng ko’lamli o’sish pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini yangilashni zarur etadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalari ta’lim natijalariga bevosita ta’sir qiladi va raqamli transformatsiya jarayonida hal qiluvchi rol o’ynaydi.

Generativ sun’iy intellekt texnologiyalari, jumladan, ChatGPT, Gemini, Claude, NotebookLM, Midjourney va boshqa vositalar ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ushbu texnologiyalarning samarali integratsiyasi pedagog kadrlarning tegishli kompetensiyalariga ega bo’lishiga bog’liq. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, o’qituvchilarning AI savodxonligi va uning foydaliligini qabul qilishi o’rtasida kuchli musbat korrelyasiya (r=0,759) mavjud, bu esa raqamli madaniyatni shakllantirishning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim pedagoglari raqamli madaniyatini rivojlantirishda generativ SI texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiysi. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo’lib, adabiyotlar tahlili, taqqoslash tahlili va modelshunoslik usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning nazariy asosini Yevropa Komissiyasining DigCompEdu (European Framework for the Digital Competence of Educators) ramkasi (framework), Mishra va Koehler tomonidan taklif qilingan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli hamda UNESCOning ICT CFT (ICT Competency Framework for Teachers) konsepsiyasi tashkil etgan.

DigCompEdu ramkasi o’qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini 6 ta asosiy sohada tavsiflaydi: kasbiy faoliyat (Professional Engagement), raqamli resurslar (Digital Resources), o’qitish va o’rganish (Teaching and Learning), baholash (Assessment), o’quvchilarni qo’llab-quvvatlash (Empowering Learners) va o’quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish (Facilitating Learners’ Digital Competence). Har bir soha 22 ta kompetensiyani o’z ichiga oladi va A1 (Newcomer) dan C2 (Pioneer) gacha bo’lgan 6 ta rivojlanish bosqichiga ega. TPACK modeli texnologik bilim (TK), pedagogik bilim (PK) va mazmun bilimi (CK) o’rtasidagi integratsiyani ta’kidlaydi va ularning kesishmasida texnologik-pedagogik-mazmun bilimi (TPACK) hosil bo’lishini ko’rsatadi. UNESCO ICT CFT esa o’qituvchilarning ICT kompetensiyalarini “Bilish olish” (Knowledge Acquisition), “Bilishni chuqurlashtirish” (Knowledge Deepening) va “Bilish yaratish” (Knowledge Creation) degan uchta bosqichda tavsiflaydi.

Tadqiqotda O’zbekiston Respublikasining “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasi, Prezidentining PF-5789-sonli Farmoni asosida Vazirlar Mahkamasining 797-son qarori, shuningdek, “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi hujjatlari normativ-huquqiy asos sifatida qo’llanilgan.

Tadqiqot natijalari va munozara. Raqamli madaniyat (digital culture) tushunchasi zamonaviy pedagogikaning muhim tomonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu tushuncha shaxsning raqamli texnologiyalarni samarali va mas’uliyatli foydalanish qobiliyatini, axborotni tanqidiy tahlil qilish ko’nikmasini, shuningdek, raqamli muhitda professional faoliyat yuritish salohiyatini o’z ichiga oladi. Oliy ta’lim pedagoglari uchun raqamli madaniyat quyidagi komponentlardan iborat:

Axborot-madaniy savodxonlik komponenti pedagogning axborotni izlash, baholash, tahlil qilish va qayta ishlash qobiliyatini ifodalaydi. Bu, shuningdek, pedagogning raqamli manbalardan foydalanish, ularning ishonchliligini aniqlash va talabalarga axborot tanqidiy fikrlashni o’rgatish qobiliyatini ham o’z ichiga oladi.

Raqamli vositalardan foydalanish ko’nikmasi komponenti turli xil ta’lim texnologiyalari, platformalar va dasturiy vositalar bilan ishlash qobiliyatini, shu jumladan, Learning Management System (LMS), virtual sinfxonalar, onlayn hamkorlik vositalari bilan ishlashni qamrab oladi.

Analitik va kreativ fikrlash komponenti pedagogning raqamli muhitda yangi yondashuvlar ishlab chiqish, innovatsion ta’lim usullarini joriy etish va raqamli

texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlarini to’liq qo’llay olish qobiliyatini anglatadi.

SI vositalari bilan ishlash bo’yicha amaliy ko’nikmalar komponenti generativ AI vositalaridan pedagogik maqsadlarda foydalanish, ularning imkoniyatlari va cheklanishlarini tushunish, shuningdek, AI yordamida ta’lim jarayonini optimallashtirish qobiliyatlarini o’z ichiga oladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, pedagoglarning raqamli kompetensiyalari 6 ta rivojlanish bosqichidan o’tadi: Newcomer (A1), Explorer (A2), Integrator (B1), Expert (B2), Leader (C1) va Pioneer (C2). O’zbekistonda o’tkazilgan tadqiqotlarga ko’ra, tibbiyot oliy o’quv yurtlari o’qituvchilarining 66,9% “Leader” yoki “Pioneer” darajasida ekanligi aniqlangan , bu umumiy oliy ta’lim tizimi uchun ijobiy ko’rsatkich hisoblanadi. Biroq, raqamli resurslarni yaratish, moslashtirish va o’quvchilarning raqamli kontent yaratishini qo’llab-quvvatlash kabi sohalarda hali kamchiliklar mavjud.

Raqamli madaniyatni rivojlantirishda generativ SI texnologiyalari yangi imkoniyatlar ochmoqda. UNESCO xabar berishicha, AI ta’limda shaxsiylashtirilgan o’rganish, avtomatlashtirilgan baholash va intellektual rejalashtirish orqali ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Biroq, bu imkoniyatlardan to’liq foydalanish uchun pedagoglarning tegishli kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Generativ sun’iy intellekt (Generative AI) turli xil kontent (matn, tasvir, audio, video) yaratish qobiliyatiga ega bo’lgan AI turi bo’lib, ta’lim jarayonida keng qo’llanilish imkoniyatlariga ega. ChatGPT kabi katta til modellari (LLM), DALL-E va Midjourney kabi tasvir yaratuvchi modellar, shuningdek, GitHub Copilot kabi kod yaratuvchi vositalar pedagogik faoliyatda quyidagi yo’nalishlarda qo’llanilishi mumkin:

O’quv materiallarini yaratish va moslashtirish. Generativ AI o’qituvchilarga darsliklar, qo’llanmalar, test savollari va amaliy mashg’ulotlar uchun material yaratishda yordam berishi mumkin. Masalan, ChatGPT yordamida aniq mavzu bo’yicha turli murakkablik darajasida test savollari yaratish, DALL-E yordamida tasvirli tushuntirishlar tayyorlash mumkin. Bu esa o’qituvchilarning dars tayyorlashga sarflaydigan vaqtini kamaytirish bilan birga, o’quv materiallarining sifatini oshirishga imkon beradi.

Shaxsiylashtirilgan o’rganishni qo’llab-quvvatlash. AI vositalari talabalarning individual ehtiyojlari va o’rganish uslublarini hisobga olgan holda moslashtirilgan o’quv rejalari, tavsiyalar va fikr-mulohazalar yaratishi mumkin. Bu konstruktivistik ta’lim nazariyasiga mos kelib, o’quvchilarni o’z tajribalari asosida bilim yaratishga undaydi.

Avtomatlashtirilgan baholash va fikr-mulohaza. Generativ AI talabalarning yozma ishlarini tekshirish, grammatik va uslubiy xatolarni aniqlash, shuningdek, konstruktiv fikr-mulohazalar berish orqali baholash jarayonini yengillashtirishi mumkin. Bu o’qituvchilarga har bir talaba bilan individual ishlashga ko’proq vaqt ajratish imkonini beradi.

Interaktiv va kreativ o’quv muhitini shakllantirish. AI yordamida virtual suhbatdoshlar, simulyatsiyalar va interaktiv mashqlar yaratish orqali talabalarning o’rganish motivatsiyasini oshirish va kreativ fikrlashni rivojlantirish mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, AQShning TOP-100 universitetlarining ko’pchiligi generativ AI dan ochiq, lekin ehtiyotkor yondashuv bilan foydalanmoqda. Asosiy xavotirlar akademik halollik, ma’lumotlarning aniqligi va maxfiylik masalalari atrofida to’plangan. Universitetlar o’qituvchilarni qo’llab-quvvatlash uchun silabus shablonlari, seminarlar, maqolalar va individual maslahatlar kabi turli xil resurslarni taqdim etmoqdalar.

O’zbekistonda o’tkazilgan tadqiqotlar talabalar generativ AI dan foydalanishga ijobiy munosabatda ekanligini, biroq akademik halollik, tanqidiy fikrlash qobiyatining pasayishi va AI ga haddan ziyod bog’liqlik xavotirlarini ifodalaganligini ko’rsatadi. Talabalar AI dan samarali va axloqiy jihatdan to’g’ri foydalanish uchun o’qituvchilarning tizimli yo’naltruvi zarurligini ta’kidlaganlar.

AI-kompetensiyalar pedagoglarning raqamli madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. DigCompEdu ramkasining AI uchun qo’shimcha hujjatiga (Supplement to the DigCompEDU Framework) asoslanib, pedagoglarning AI kompetensiyalari quyidagi sohalarni qamrab oladi:

Kasbiy faoliyat sohasida AI kompetensiyalari o’qituvchilarning AI vositalaridan professional rivojlanish, muloqot va hamkorlik uchun foydalanish qobiliyatini o’z ichiga oladi. Bu o’qituvchilarning shaxsiy o’rganish tarmoqlarini (PLN) kengaytirish, ta’limdagi AI yutuqlaridan xabardor bo’lish va AI qo’llab-quvvatlangan muloqot vositalaridan hamkasblar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o’zaro aloqada foydalanishni anglatadi.

Raqamli resurslar sohasida AI kompetensiyalari AI yordamida yaratilgan ta’lim resurslarini baholash, moslashtirish va mas’uliyatli boshqarish qobiliyatlarini ifodalaydi. O’qituvchilar AI vositalaridan o’quv materiallarini ishlab chiqish va moslashtirish, AI yaratgan kontent sifatini baholash va raqamli resurslarni mas’uliyatli boshqarish va ulashish usullarini tushunishlari kerak.

O’qitish va o’rganish sohasida AI kompetensiyalari AI texnologiyalarini pedagogik maqsadlarda integratsiya qilish qobiliyatini anglatadi. Bu o’qituvchilarga o’quv jarayonini rejalashtirish, dizayn qilish va boshqarishda AI imkoniyatlaridan foydalanish, hamkorlikdagi va o’z-o’zini tartibga soluvchi o’rganish jarayonlarini qo’llab-quvvatlash imkonini beradi.

Baholash sohasida AI kompetensiyalari AI yordamida ta’lim natijalarini baholash, o’rganish ehtiyojlarini tahlil qilish va talabalarga vaqtincha va maqsadli fikr-mulohazalar berish usullarini o’z ichiga oladi.

O’quvchilarni qo’llab-quvvatlash sohasida AI kompetensiyalari AI texnologiyalaridan foydalanib, talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda o’rganish faoliyatlari va tajribalarini yaratish qobiliyatini anglatadi.

O’quvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish sohasida AI kompetensiyalari talabalarning axborot va media savodxonligi, raqamli muammolarni yechish, raqamli kontent yaratish va raqamli texnologiyalarni muloqot va hamkorlik uchun foydalanish kabi ko’nikmalarini rivojlantirishda AI dan foydalanishni o’z ichiga oladi.

O’zbekistonda pedagog kadrlarning AI kompetensiyalarini rivojlantirish “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida amalga oshirilmoqda. Loyiha

doirasida 150 ming nafar o’qituvchilar sun’iy intellekt sohasida o’qitiladi va ular o’z navbatida boshqa o’qituvchilarga bilimlarini o’tkazadilar. Shuningdek, “Yangi O’zbekiston” universiteti va MIT hamkorligida 100 nafar mentor-o’qituvchi tayyorlanib, ular hududlardagi barcha o’qituvchilariga SI kompetensiyalarini o’rgatadilar.

Yuqorida tahlil qilingan nazariy asoslarga tayangan holda, oliy ta’lim pedagoglari raqamli madaniyatini rivojlantirishda generativ SI dan foydalanish metodikasi quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

Birinchi bosqich: AI savodxonligini shakllantirish. Bu bosqichda pedagoglar generativ AI tushunchasi, ularning imkoniyatlari va cheklanishlari bilan tanishadilar. ChatGPT, Claude, DALL-E, Midjourney kabi asosiy vositalar bilan ishlash ko’nikmalari shakllantiriladi. Tadqiqotlar ko’rsatishicha, o’qituvchilarning AI savodxonligi ularning SI dan foydalanish istagi bilan kuchli musbat bog’liq (r=0,759) . Bu bosqichda quyidagi mavzular qamrab olinadi: generativ SI qanday ishlaydi, prompt engineering asoslari, AI yaratgan kontentni tanqidiy baholash, akademik halollik va etik masalalar.

Ikkinchi bosqich: Pedagogik integratsiya ko’nikmalarini rivojlantirish. Bu bosqichda pedagoglar generativ AI ni o’z fani va o’qitish uslublariga integratsiya qilishni o’rganadilar. TPACK modeliga asoslanib, pedagoglar texnologik bilim (TK), pedagogik bilim (PK) va mazmun bilimi (CK) o’rtasidagi integratsiyani amalga oshirishni o’rganadilar. Stanford universitetining tadqiqotlariga ko’ra, bu bosqichda o’qituvchilar quyidagi strategiyalarni egallaydilar: kurs siyosatini aniqlashtirish, shaffoflik va motivatsiyani ta’minlash, o’qitish maqsadlari bilan AI dan foydalanishni muvofiqlashtirish, jarayonni baholash.

Uchinchi bosqich: Innovatsion ta’lim faoliyatini yaratish. Bu bosqichda pedagoglar generativ AI yordamida yangi ta’lim usullarini, interaktiv mashg’ulotlarni va shaxsiylashtirilgan o’rganish tajribalarini yaratishni o’rganadilar. AI yordamida virtual simulyatsiyalar, interaktiv dialoglar, kreativ loyihalar va hamkorlikdagi o’rganish faoliyatlari tashkil etiladi.

To’rtinchi bosqich: Refleksiya va uzluksiz rivojlanish. Bu bosqichda pedagoglar o’z AI dan foydalanish tajribasini tahlil qilish, natijalarni baholash va o’z kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish ko’nikmalarini egallaydilar. UNESCO ta’kidlaganidek, AI tez rivojlanayotgan texnologiya bo’lib, o’qituvchilar doimiy ravishda o’rganishda davom etishlari kerak.

Metodik tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: o’qituvchilarning AI dan foydalanish jarayonini tizimli kuzatish va qo’llab-quvvatlash, kollegial hamkorlikni rivojlantirish orqali tajriba almashish, AI dan foydalanishning etik normalarini ishlab chiqish, shuningdek, o’qituvchilarning innovatsion faoliyatini rag’batlantirish mexanizmlarini yaratish.

O’zbekistondagi amaliyotni tahlil qilganda, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimi quyidagi muammolarga duch kelmoqda: malaka oshirish kurslarida zamonaviy texnologiyalarning yetarlicha qamrab olinmasligi, nazariy va amaliy qism o’rtasidagi uzilish, shuningdek, malaka oshiruvchi pedagoglarning yangi texnologiyalarni o’z faoliyatida joriy etish motivatsiyasining yetishmasligi. Bu muammolarni yechish uchun generativ SI texnologiyalarini malaka oshirish jarayoniga integratsiya qilish,

onlayn va aralash (blended) o’rganish shakllarini kengaytirish, shuningdek, mentorlik va kasbiy hamkorlik tarmoqlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan nazariy tadqiqot natijalariga ko’ra, oliy ta’lim pedagoglari raqamli madaniyatini rivojlantirishda generativ SI texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifasi ekanligi tasdiqlandi. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, pedagoglarning raqamli madaniyati axborot-madaniy savodxonlik, raqamli vositalardan foydalanish ko’nikmasi, analitik va kreativ fikrlash hamda SI vositalari bilan ishlash bo’yicha amaliy ko’nikmalarni o’z ichiga oladi.

Generativ SI vositalari (ChatGPT, DALL-E, Midjourney va boshqalar) o’quv materiallarini yaratish, shaxsiylashtirilgan o’rganishni qo’llab-quvvatlash, avtomatlashtirilgan baholash va interaktiv o’quv muhitini shakllantirish kabi yo’nalishlarda keng imkoniyatlarni ochadi. Biroq, ushbu imkoniyatlardan to’liq foydalanish pedagoglarning tegishli AI-kompetensiyalariga ega bo’lishiga bog’liq.

Taklif etilgan metodika to’rtta asosiy bosqichdan iborat: AI savodxonligini shakllantirish, pedagogik integratsiya ko’nikmalarini rivojlantirish, innovatsion ta’lim faoliyatini yaratish va refleksiya hamda uzluksiz rivojlanish. Bu metodika DigCompEdu, TPACK va UNESCO ICT CFT nazariy modellariga asoslangan.

Asosiy takliflar:

Ushbu tadqiqot natijalari O’zbekiston oliy ta’lim tizimida “Raqamli O’zbekiston - 2030” strategiyasi va “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lim W.M., Gunasekara A., Pallant J.L., Pallant J.I., Pechenkina E. Generative AI and the future of education: Ragnarök or reformation? A paradoxical perspective from management educators // The International Journal of Management Education. 2023. № 21(2). C. 100790. DOI: 10.1016/j.ijme.2023.100790.

2. Long D, Magerko B. What is AI literacy? Competencies and design considerations // CHI’20: Proceedings of the 2020 CHI conference on human factors in computing systems, Honolulu, USA, 25–30 April 2020 / ed. R. Bernhaupt, F. Mueller, D. Verweij, et.al. New York : Association for Computing Machinery, 2020. P. 1–16. https:// doi.org/10.1145/3313831.3376727

3. AI competency framework for teachers. UNESCO, 2024. https://doi.org/10.54675/ZJTE2084

4. K-12. AI curricula. A mapping of government-endorsed AI curricula. UNESCO, 2022. https://doi.org/10.54675/ELYF6010

5. Lecler A., Duron L., Soyer P. Revolutionizing radiology with GPT-based models: Current applications, future possibilities and limitations of ChatGPT [Электрон. ресурс] // Diagnostic and Interventional Imaging. 2023. Режим доступа: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S221156842300027X (Дата обращения: 20.02.2023).

6. Haleem A., Javaid M., Singh R.P. An era of ChatGPT as a significant futuristic support tool: A study on features, abilities and challenges // BenchCouncil Transactions on Benchmarks, Standards and Evaluations. 2022. Т. 2. № 4. С. 100089. DOI: 10.1016/j.tbench.2023.100089.

7. AFP: Sciences Po запретил использовать чат-бот ChatGPT [Электрон. ресурс] // ТАСС. Режим доступа: https://tass.ru/mezhdunarodnayapanorama/16904511 (Дата обращения: 18.02.2023).

Musurmanov Ulug` bek Amirkulovich
GDPI mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: uamirkulovich@gmail.com

TA’LIM TIZIMIDA RAQAMLI KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iste’mol, raqamli kompetensiya, raqamli xavfsizlik, mediasavodxonlikning bir necha ko’rinishlari, yurtimizda mediasavodxonlik borasida olib borilayotgan islohotlar to’g’risida bayon qilingan.

Kalit so’zlar: internet, mobil internet, raqamli jihozlar, internet-OAV, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, davlat xizmatlari, parol, mediasavodxonlik, raqamli kompetensiya.

Мусурмонов Улугбек Амиркулович
независимый соискатель ГГПИ
atm@nuu.uz

ФОРМИРОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ НАВЫКОВ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются цифровое потребление, цифровая компетенция, цифровая безопасность, несколько аспектов медиаграмотности, а также проводимые в нашей стране реформы в области медиаграмотности.

Ключевые слова: интернет, мобильный интернет, цифровое оборудование, интернет-СМИ, новости, социальные сети, государственные услуги, пароль, медиаграмотность, цифровая компетенция.

Musurmonov Ulug‘bek Amirqulovich
Independent Researcher of GDPI
atm@nuu.uz

DEVELOPING DIGITAL SKILLS IN THE EDUCATION SYSTEM

Abstract: This article describes digital consumption, digital competence, digital security, several aspects of media literacy, and the reforms being carried out in our country regarding media literacy.

Keywords: internet, mobile internet, digital equipment, internet media, news, social networks, public services, password, media literacy, digital competence.

Raqamli iste’mol internet xizmatlaridan ish jarayonida va kundalik turmushda foydalanish bo‘lib, o‘z ichiga internet, mobil internet, raqamli jihozlar, internet OAV, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar, «davlat xizmatlari» va shu kabilarni oladi. Boshqacha qilib aytganda, bu biz har kuni muntazam ishlatadigan raqamli qurilmalar orqali oladigan va iste’mol qiladigan raqamli ma’lumotlarimiz hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Ular nafaqat ish jarayonlarini osonlashtiradi, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, moliyaviy xizmatlar va shaxsiy rivojlanish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun har bir inson zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Raqamli savodxonlik faqatgina kompyuter va internetdan foydalanish bilan cheklanib qolmay, balki ma’lumotlarni tahlil qilish, soxta axborotni aniqlash,

kiberxavfsizlik choralarini ko‘rish va zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish kabi jihatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Raqamli kompetensiya – raqamli texnologiyalardan effektiv foydalanish bilimi va ko‘nikmasi. O‘z ichiga ma’lumot izlash, raqamli vositalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoq imkoniyatlarini bilish, moliyaviy o‘tkazmalar, onlayn savdo qila olish va shu kabi ko‘nikmalar jamlanmasini oladi.

Raqamli xavfsizlik bu tarmoqdagi xavfsizlik asoslaridir. O‘z ichiga shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, mustahkam parol, tanlangan, o‘rganib chiqilgan kontentlarni jamlay olish va shu kabilarni oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28 apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, «Besh tashabbus» loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish ko‘zda tutilgan.

Mediasavodxon kishida quyidagi sifatlar mujassam bo‘lishi lozim:

1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish;

2) mediamatnlarning manbalarini, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijorat va yoki madaniy manfaatlari hamda kontekstini aniqlash;

3) media tomonidan tarqatilayotgan mediamatnlar va qadriyatlarni sharhlash;

4) mediamatnlarni yaratish, ularni tarqatish hamda ularga qiziqish bildirgan auditoriyaga ega bo‘lish maqsadida tegishli medialarni tanlash;

5) qabul qilish va ishlab chiqarish maqsadida mediaga erkin ravishda kirish imkoniyatiga ega bo‘lish.

Bugungi kunga kelib soha mutaxassislari tomonidan media savodxonlikning 3 darajasi ishlab chiqilgan:

- Minimal (eng quyi) daraja – (axborot almashinuvida, ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda chegaralangan darajada ishtirok etadi);
- Optimal (o‘rta) daraja – (axborat almashinuvida ishtrok etadi);
- Maksimal (yuqori) daraja – (axborat almashinuvida aktiv ishtrok etadi hamda unga o‘z ta’sirini ko‘rsata oladi).

Bugungi kundagi axborotlar almashinuvi kishilar turmush tarzining barcha sohalariga uzviy ta’sir ko‘rsatadi. Kundan kunga o‘sib va tezlashib borayotgan axborotlar oqimi kishidan nafaqat uni to‘g‘ri qabul qilish, balki uni fikrlab, tahlil qilib boshqalarga to‘g‘ri yetkazish salohiyatini ham talab qiladi. Insonlarda ushbu salohiyatga aynan mediata’limni rivojlantirish va uning asosida mediasavodxonlikni oshirish orqali erishish mumkin. Demak, mediasavodxonlik bugungi globallashuv davrida shaxsning ma’naviy-ma’rifiy olami, tarbiyasi va madaniyati kabi rivojlantirish lozim bo‘lgan muhim qirralaridan biri bo‘lib ulgurdi. UNESCO tomonidan aholi o‘rtasida mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Xususan, soha mutaxassislari o‘z tadqiqotlarida raqamli savodxonlikning asosiy bir nechta talablarini keltirib o‘tgan: Jumladan:

1. Ta’lim tizimida raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishning eng muhim yo‘llaridan biri ta’lim tizimi orqali o‘quvchilar va talabalarga texnologik bilimlarni o‘rgatishdir.

Ta’lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan choralar:

- Boshlang‘ich ta’lim bosqichida raqamli vositalar bilan tanishuv darslarini kiritish;
- Maktab va universitetlarda raqamli texnologiyalar bo‘yicha maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish;
- Dasturlash asoslari, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili kabi zamonaviy yo‘nalishlarni ta’lim dasturlariga qo‘shish;
- O‘quvchilarga internet xavfsizligi va media savodxonlik bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- Interaktiv darslar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarga texnologiyalardan foydalanishni o‘rgatish.

2. Onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish

Bugungi kunda internetda raqamli savodxonlikni oshirishga yordam beradigan ko‘plab bepul va pullik ta’lim platformalari mavjud. Ushbu platformalar yordamida istalgan inson quyidagi bilimlarni egallashi mumkin:

- Kompyuter va internetdan foydalanish asoslari;
- Dasturlash tillari va sun’iy intellekt;
- Kiberxavfsizlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar;
- Ma’lumotlar tahlili va raqamli marketing asoslari.

Mashhur onlayn ta’lim platformalariga Coursera, Udemy, Khan Academy, CodeAcademy, edX va boshqa resurslar misol bo‘la oladi. Shuningdek, o‘zbek tilida ham mahalliy ta’lim platformalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

3. Amaliy mashg‘ulotlar va treninglar tashkil qilish

Raqamli savodxonlikni oshirish uchun nazariy bilimlardan tashqari amaliy mashg‘ulotlar va seminarlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg‘ulotlarning afzalliklari:

- Ish joylarida xodimlarga raqamli vositalardan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish;
- Mahalliy jamoalar uchun bepul seminar va mahorat darslarini tashkil qilish;
- Texnologik startaplar va innovatsion markazlarda maxsus ta’lim dasturlarini joriy etish;
- Raqamli vositalardan kundalik hayotda va ish jarayonlarida samarali foydalanish ko‘nikmalarini oshirish.

Aholi orasida raqamli madaniyatni shakllantirish uchun mahalliy jamoalar va nodavlat tashkilotlar ham hamkorlikda ishlashi zarur.

4. Axborot xavfsizligi va media savodxonlikni oshirish

Bugungi kunda internet orqali turli xil zararli dasturlar, kiberjinoyatlar va feyk yangiliklar tarqalmoqda. Shuning uchun axborot xavfsizligi va media savodxonlikni oshirish muhim hisoblanadi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash yo‘llari:

- Internetda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun kuchli parollar va ikki bosqichli autentifikatsiyadan foydalanish;
- Soxta yangiliklar va dezinformatsiyani aniqlash bo‘yicha maxsus kurslarni o‘rganish;
- Antivirus dasturlaridan foydalanish va internetda xavfsiz harakat qilish qoidalarini o‘zlashtirish;
- Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan axborotlarning ishonchliligini tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bundan tashqari, bolalar va yoshlar uchun internet xavfsizligi bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlarini ishlab chiqish zarur.

5. Katta yoshdagilar uchun raqamli savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish

Raqamli savodxonlikni oshirish nafaqat yoshlar uchun, balki katta yoshdagi insonlar uchun ham dolzarb masala hisoblanadi. Ular uchun maxsus kurs va dasturlar tashkil qilish muhimdir.

Katta yoshdagilar uchun foydali kurslar:

- Mobil ilovalardan foydalanish va internet orqali muloqot qilish;
- Elektron tijorat va bank xizmatlaridan xavfsiz foydalanish;
- Elektron hukumat xizmatlaridan foydalanishni o‘rgatish;
- Internetda xarid qilish va raqamli to‘lov tizimlari bilan ishlash bo‘yicha mashg‘ulotlar.

Maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish orqali katta yoshdagilarni zamonaviy texnologiyalarga moslashishga yordam berish mumkin.

6. Raqamli vositalarni jamiyatga keng joriy etish

Raqamli savodxonlikni oshirish uchun texnologiyalarga qulay va keng kirish imkoniyatini yaratish lozim. Buning uchun:

- Aholi uchun bepul internet zonalarini tashkil qilish;
- Davlat xizmatlarining elektron ko‘rinishdagi platformalarini rivojlantirish;
- Mahalliy korxonalar va biznes subyektlari uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Bu jarayonlar jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun raqamli texnologiyalarning ochiqligi va samaradorligini oshiradi.

Ammo shuni unutmaslik lozimki insonning mediasavodi eng avvalo uning tarbiyasi, ma’naviyati, psixologik holati va shu kabi jihatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi.

Tadqiqotlarda raqamli savodxonlik – shaxsning komil sifatlari (bilim, aql, motivatsiya, mas’uliyatlilik, tarbiya)ga asoslangan holda axborot-kommunikatsion texnologiyalarni hayotning turli jabhalarida o‘ziga ishonch bilan, tez va xavfsiz qo‘llay olish ko‘nikmasi sifatida qaraladi. Ya’ni, bu nafaqat axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan ishlay olish darajasi balki axborotlarni to‘g‘ri tahlil etish, ularni ajratish, munosabat bildirish va boshqalarga to‘g‘ri yetkaza olish ko‘nikmasi hamdir», deb ta’riflanadi. Boshqacha qilib aytganda raqamli savodxonlik – zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Dinamik onlayn rejimlarni yaratish, saqlash, yirik va murakkab bo‘lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Raqamli savodxonlik ma’lumotlarni

mazmuni va ularning ta’sirini tushunish, ularni saralash, ularda keltirilgan hissiy va asoslangan axborotlarni ajrata olish, ma’lumotlar haqida tanqidiy mulohaza yuritish, jarayonlarni farqlash xususiyatlariga ega.

Bugungi kunda internetni cheklash va taqiqlash, ekranlarda uzatilayotgan turli syujetlardan chegaralash imkoni yo‘q. Internet barcha foylanuvchilarga hayotini oddiylashtirish hamda ijtimoiy faoliyatini osonlashtirish uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko‘chaga chiqmay turib internet orqali turli xaridlarni amalga oshirish, virtual dunyoda sayohat qilish, istalgan manba bilan tanishish, ta’lim olish, xizmat ko‘rsatish va shu kabi faoliyatlarni amalga oshirish mumkin. Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida, ayniqsa yoshlarda axborot iste’moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan keraklisini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi g‘arazli kimsa va oqimlar ta’siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Shu sabab, raqamli savodsizlik bilan kurashish oqilona mediasiyosatning tarkibiy qismi bo‘lishi zarur. Aynan shu sababli ko‘plab xorijiy davlatlarda mediata’lim yoshlarni to‘laqonli jamiyat a’zosi sifatida tarbiyalashda muhim vositaga aylangan. Mediata’lim yoshlarimizda bugungi hayotimizda o‘ta muhim bo‘lgan «g‘oyaviy immunitet» va o‘z shaxsiy hayotiy pozitsiyasining shakllanishiga yordam beradi.

Media savodxonlik bo‘yicha asosiy ta’lim uy sharoitida ushbu amaliyotlar bilan shug‘ullanishning ajoyib usuli hisoblanadi. Ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muhokamalar, media yangiliklar bo‘yicha fikr almashish, pozitsiyalarni bildirish juda muhimdir.

Bolalarga o‘z zavqlari, tanlovlari va afzalliklari haqida fikr yuritish amaliyotini shakllantirishga yordam berish g‘oyasi, bu uyda media savodxonligini joriy etishning juda oddiy usulidir.

Aslida yosh bolalarga targ‘ibot ta’limini kiritishning eng yaxshi usuli bu uydagi mediasavodxonlikdir. Reklamalarni o‘rganish boshlang‘ich sinflardagi bolalarning rivojlanishiga mos keladigan bilim va ko‘nikmalarni to‘play boshlaydi. Siz yosh bolalarni dezinformatsiya va zararli targ‘ibot bilan tanishtirmoqchi emassiz, lekin siz ularga reklama bizni qanday ishontirishini tushunishlariga yordam berishingiz mumkinku?!

Greta Tunberg, ehtimol, barcha davrlarning eng mashhur o‘smir targ‘ibotchisidir. Uning biz kattalarni ekologik halokatimiz uchun javobgarlikka tortishga urinishlari, aql-idrok, dalil va faktlardan, hissiy jozibalar kuchi va fe’latvoridan foydalangani uchun u juda samarali targ‘ibotchi hisoblanadi.

O‘ylaymanki, hozirda o‘zgarishlarni amalga oshirish, jamiyatda duch kelayotgan muammolarning bir qismini tuzatishga intilayotgan ko‘plab yoshlar, albatta o‘sha katta ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ijobiy targ‘ibotning ahamiyatini yaxshi tushunishadi.

Targ‘ibot demokratik jarayonning muhim qismidir. Targ‘ibot – bu fuqarolarning dunyoni o‘zgartirish uchun aloqa va axborot kuchidan qanday foydalanishidir. Ko‘pchilik hozirda dunyo hamjamiyatida yolg‘on xabarlar tahdidi va fitnalar kuchayib borayotganidan tashvishga tushmoqda. Targ‘ibot ta’limi esa buni yaxshiroq tushunib,

yechim izlashga yordam berishning bir usuli hisoblanadi. Har bir inson targ‘ibot bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lishdan foyda ko‘rishi mumkindek tuyuladi, chunki bu, ehtimol, ommaviy axborot vositalari rivojlanishda davom etar ekan, yanada murakkablashadi.

Bu asosan xabarlarni qanday talqin qilish haqida metakognitiv bo‘lish va ma’nosini aks ettirishda ehtiyotkor va strateg bo‘lish amaliyotidir. Pedagogika izlanishga yo‘naltirilgan, fikrlash va ma’no yaratishga asoslangan, shuning uchun ularni fanlar sinfiga kiritish unchalik qiyin emas. Agar siz atrof-muhitni o‘rganayotgan bo‘lsangiz, atrof-muhit targ‘ibotini o‘rganishingiz kerak. Agar siz adabiyotni o‘rganayotgan bo‘lsangiz, tilga targ‘ibot sifatida qarashingiz kerak. Agar siz san’atni o‘rganayotgan bo‘lsangiz targ‘ibot sifatida san’atni o‘rganishingiz kerak.

Targ‘ibot hamma joyda o‘quv dasturlariga mos keladi, o‘qituvchilarga tanish bo‘lgan pedagogikadir. Agar biz targ‘ibotga bo‘lgan munosabatimizni o‘zgartirsak, media savodxonligi bo‘yicha malaka oshirishga katta ta’sir ko‘rsatishimiz mumkinligini anglab yetamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekitson Respublikasi Prezidentinining 2020 yil 3 avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi»gi PQ-4796-sonli qarori.

2. Abazalieva M.M , Botasheva A.K. Blogging as a Modern Form of Political Communication // Sovremennaya nauka i innovatsii. 2021. № 3 (35) S. 201207.

3. Aghayan N.Issuesofnational Securityinthe Structure Ofpolitical Communication // Vestnik Rossiysko-Armyanskogo (Slavyanskogo) universiteta: gumanitarnые i obщestvennые nauki. 2021. № 1 (137). S. 5872

4. Shermanova, F. (2024). Talabalar mediasavodxonligini zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalari asosida takomillashtirish. *News of the NUUz*, *1*(1.9), 232-234.

5. Shermanova, F. (2024). Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt. *Modern Science and Research*, *3*(1), 1-6.

6. Djumaboyevna, S. F. (2024). Media and information literacy in the educational process as the basis of the need for information. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(7S), 622-625.

7.Djumaboyevna, S. F. (2024). Media and information literacy in the educational process as the basis of the need for information. *Eurasian Journal of Academic Research*, *4*(7S), 622-625.

BELARUS–O‘ZBEK
ILMIY- METODIK JURNALI
ISSN 2181-2896 №1, 2026

Lafasov Begzod Javliyevich
O‘qituvchi
“Texnologiya va professsionla ta’lim metodikasi” kafedrasi
Nizomiy nomidagi
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

PEDAGOGIK KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA KASBIY TAYYORGARLIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Pedagogik klaster o‘qituvchilar, oliy ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, mahalliy boshqaruv organlari va ijtimoiy hamkorlar o‘rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik tizimi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda klaster yondashuvi ta’lim sifatini oshirish, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mehnat bozori talablariga mos mutaxassis tayyorlashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, pedagogik klasterni samarali tashkil etish uchun moddiy-texnik baza, malakali pedagog kadrlar, zamonaviy innovatsion o‘quv texnologiyalari, ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlik va o‘quv jarayonining kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi zarur shartlar sifatida ko‘rsatiladi. Maqola natijalari pedagogik ta’lim yo‘nalishlarida sifatli kasbiy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish, amaliyotning uzluksizligini ta’minlash va klaster ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik klaster, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim sifati, kompetensiyaviy yondashuv, hamkorlik tizimi, innovatsion texnologiyalar, amaliyot integratsiyasi, o‘quv jarayoni, pedagogik hamkorlik, mehnat bozori talablari.

Лафасов Бегзод Джавлиевич
Преподаватель
Кафедра «Технология и методика профессионального образования»
Узбекистанский Национальный педагогический университет имени Низами

УЛУЧШЕНИЕ УСЛОВИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Аннотация. Педагогический кластер интерпретируется как интегрированная система сотрудничества между преподавателями, высшими учебными заведениями, производственными предприятиями, местными органами управления и социальными партнерами. В исследовании обосновано, что кластерный подход является важным фактором повышения качества образования, развития практических навыков, подготовки специалистов, соответствующих требованиям рынка труда. Также в качестве необходимых условий для эффективной организации педагогического кластера указывается материально-техническая база, квалифицированные педагогические кадры, современные инновационные образовательные технологии, тесное сотрудничество с производством и основанность учебного процесса на компетентностном подходе. Результаты статьи включают предложения и рекомендации по налаживанию качественной профессиональной подготовки в области педагогического образования, обеспечению непрерывности практики и укреплению сотрудничества между участниками кластера.

Ключевые слова: педагогический кластер, профессиональная подготовка, качество образования, компетентностный подход, система сотрудничества, инновационные технологии, интеграция практики, образовательный процесс, педагогическое сотрудничество, требования рынка труда.

Begzod Dzhavlievich Lafasov
Lecturer
Department of Technology and Methodology
of Professional Education
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

IMPROVING PROFESSIONAL TRAINING CONDITIONS BASED ON A PEDAGOGICAL CLUSTER APPROACH

Annotation. The pedagogical cluster is interpreted as an integrated system of cooperation between teachers, higher educational institutions, manufacturing enterprises, local government bodies, and social partners. The study substantiates that the cluster approach is an important factor in improving the quality of education, developing practical skills, and training specialists who meet the requirements of the labor market. Also, the necessary conditions for the effective organization of a pedagogical cluster are the material and technical base, qualified teaching staff, modern innovative educational technologies, close cooperation with production, and the basis of the educational process on a competency-based approach. The results of the article contain proposals and recommendations for establishing high-quality professional training in pedagogical education, ensuring the continuity of practice, and strengthening cooperation between cluster participants.

Key words: pedagogical cluster, professional training, quality of education, competence-based approach, cooperation system, innovative technologies, integration of practice, educational process, pedagogical cooperation, labor market requirements.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi, mehnat bozori talablarining tez o‘zgarishi oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarlik jarayonini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qiladi. Shunday samarali yondashuvlardan biri — bu pedagogik klaster yondashuvi bo‘lib, u ta’lim tashkilotlari, ilmiy markazlar, korxonalar, ijtimoiy hamkorlar va hududiy boshqaruv organlarini yagona tizimga birlashtirgan holda o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik klaster talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining uzviylik va izchilligini ta’minlash imkonini beradi. Shu bois pedagogik klaster yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish shart-sharoitlarini o‘rganish bugungi kun pedagogik amaliyotida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik klaster yondashuvining mazmuni va mohiyati. Pedagogik klaster — ta’lim muassasalari, o‘quv-amaliy markazlar, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, mahalliy boshqaruv organlari hamda ijtimoiy hamkorlarning yagona maqsad yo‘lida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritish tizimidir. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi — ta’lim sifati va samaradorligini oshirish orqali mehnat bozori talablariga mos, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdir.

Klaster yondashuvi ta’lim jarayoniga quyidagi ustunliklarni olib kiradi:

-ta’lim va amaliyotning uzviy bog‘liqligi;

-o‘quv dasturlarining mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilishi;

-innovatsion texnologiyalar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish;

-ta’lim muassasalari o‘rtasida ochiq hamkorlik va bilim almashinuvi.

Bunday tizimda talaba nafaqat nazariy bilim oladi, balki real ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish orqali kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Pedagogik klaster yondashuvi asosida kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish tamoyillari. Klaster asosida ta’lim tashkil etishda quyidagi tamoyillar muhim o‘rin tutadi:

1.Integratsiya tamoyili. Ta’lim muassasalari va korxonalar o‘rtasida uzviy hamkorlikni ta’minlaydi.

2.Innovatsionlik tamoyili. O‘quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari va interaktiv metodlar joriy etiladi.

3.Kompetensiyaviy yo‘naltirilganlik tamoyili. Talabalarning amaliy kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga urg‘u beriladi.

4.Uzluksizlik tamoyili. O‘quv jarayoni nazariya → amaliyot → ishlab chiqarish integratsiyasi asosida izchil davom ettiriladi.

5.Hamkorlik tamoyili. Klaster ishtirokchilari o‘zaro tajriba almashadi, qo‘shma dasturlar va loyihalarni amalga oshiradi.

Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda pedagogik klasterning ahamiyati. Pedagogik klaster talabalarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishda quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-Real ishlab chiqarish sharoitida amaliyot: Talabalar o‘z mutaxassisligiga doir texnologik jarayonlarni amalda bajarib ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi.

-Malakali mutaxassislar bilan muloqot: Korxona mutaxassislari, ustalar va texnologlarning bevosita tajribasidan foydalanadi.

-O‘quv dasturlarini yangilash: Ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida o‘quv rejalari muntazam takomillashtiriladi.

-Texnik jihozlangan baza: Laboratoriyalar, trening markazlari, simulyatorlar orqali talabalarning amaliy tayyorgarligi kuchaytiriladi.

-Kasbiy motivatsiyaning oshishi: Talabalar mehnat bozori talablari bilan erta tanishadi va o‘z kelajak kasbiga nisbatan mas’uliyatni his etadi.

Pedagogik klaster sharoitida samarali kasbiy tayyorgarlikni ta’minlash shartlari. Pedagogik klasterni samarali yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

1. Moddiy-texnik bazaning mustahkamligi.

Laboratoriya jihozlari, zamonaviy kompyuter texnikasi, o‘quv stendlari, virtual trening platformalari bilan ta’minlash.

2. Malakali pedagog va ishlab chiqarish ustalarini jalb qilish.

O‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, ishlab chiqarish mutaxassislarining o‘quv jarayonida ishtiroki.

3. O‘quv jarayonining innovatsion texnologiyalar asosida qurilishi.

Kase-stadi, loyihaviy ta’lim, simulyatsiya, interfaol metodlar, raqamli platformalardan foydalanish.

4. Mehnat bozori bilan bevosita hamkorlik.

Korxonalarda amaliyot, stajirovka, dual ta’lim elementlarini joriy etish.

5. O‘quv dasturlarining moslashuvchanligi.

Tarmoqqa xos yangi texnologiyalar va talablar paydo bo‘lishi bilan o‘quv dasturining tezkor yangilanib borilishi.

6. Monitoring va baholash tizimining takomilligi.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini baholash uchun aniq mezonlar va reyting tizimlarini joriy etish.

Pedagogik klasterning ta’lim tizimi rivojiga ta’siri. Pedagogik klaster yondashuvi:

- ta’lim sifatini oshiradi;
- kadrlar tayyorlash jarayonida samaradorlikni kuchaytiradi;
- ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi tafovutni kamaytiradi;
- yosh mutaxassislarning bandlik darajasini oshiradi;
- ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etadi.

Natijada ta’lim tizimi global mehnat bozori talablariga moslashadi, hududiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va klaster ishtirokchilari o‘rtasida barqaror hamkorlikni shakllantiradi.

XULOSA. Pedagogik klaster yondashuvi zamonaviy ta’lim tizimi uchun eng samarali hamkorlik modellaridan biridir. U ta’lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, ilmiy markazlar va ijtimoiy institutlarning o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariya va amaliyot uzviyligini kuchaytiradi, talabalarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga keng imkon yaratadi. Pedagogik klaster asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning real ishlab chiqarish sharoitida tajriba orttirishiga, malakali mutaxassislar bilan muloqot qilishiga, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishiga va mehnat bozoriga tez moslasha oladigan mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Shuningdek, klasterning samarali faoliyat yuritishi ta’lim sifatining oshishiga, pedagogik jarayonning modernizatsiyasiga va o‘quv dasturlarining zamonaviy talablarga moslashuvchan bo‘lishiga zamin yaratadi. Natijada pedagogik klaster yondashuvi kasbiy ta’limni takomillashtirishda strategik ahamiyatga ega bo‘lib, raqobatbardosh, kasbiy ko‘nikmalari rivojlangan, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son qarori. “Kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Oliy ta’limda klaster tizimini joriy etish konsepsiyasi”, normativ-huquqiy hujjatlar majmuasi, 2021.

3. UNESCO. Education and Skills Clusters Report. – Paris, 2018.

4. European Training Foundation (ETF). Cluster-Based Approaches in Vocational Education and Training. – Turin, 2019.

5. Abdullayeva Q., Jo‘rayev R. Pedagogik klasterlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

6. Xodjayev B. Kasbiy ta’lim metodikasi. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019.

7. Mirzayeva N. Ta’lim klasterlari va ularning ta’lim sifatiga ta’siri. // Oliy ta’lim muammolari jurnali, №3, 2020.

8. To‘raqulov A. Pedagogik innovatsiyalar va integrativ yondashuvlar. o‘quv qo‘llanma – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.

9. Sattorov, A. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari. o‘quv qo‘llanma – Toshkent: TDPU, 2022.

10. Jalolov J. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2017.

11. Karimova R. Ta’limda hamkorlik va kooperatsiya modeli. // Pedagogika ilmiy jurnali, №2, 2021.

12. Mavlonov O. Kasbiy tayyorgarlikda kompetensiyaviy yondashuv. – Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2020.

13. Shodmonova S. Innovatsion ta’lim tizimi va klasterlar integratsiyasi. // Kasb-hunar ta’limi jurnali, №4, 2022.

14. Michael Porter, M. On Competition. – Harvard Business School Press, 2008.

Musayeva Nargiza Xashimjanovna

Tadqiqotchi
Qori Niyoziy nomidagi
Tarbiya pedagogikasi milliy instituti

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH VA MILLIY-MADANIY QADRIYATLARNI OMMALASHTIRISHDA KOLLOBARATIV YONDASHUV

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilar ongida milliy o‘zlikni shakllantirish va milliy madaniy qadriyatlarni ommalashtirishda zamonaviy ta’lim yondashuvlaridan biri bo‘lgan kollaborativ (hamkorlikka asoslangan) ta’lim usulining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur uslubning samaradorligi, uning afzalliklari, pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi va milliy o‘zlikni shakllantirishdagi ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy o‘zlik, madaniy qadriyatlar, kollaborativ yondashuv, ta’lim, hamkorlik, o‘quvchi faoliyati, axloqiy va estetik tarbiya.

Мусаева Наргиза Хашимжановна

Исследователь
Национальный институт воспитательной педагогики имени Кори Ниязи

КОЛЛАБОРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ПОНИМАНИЮ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: в данной статье анализируется роль коллаборативного (кооперативного) образовательного метода, являющегося одним из современных образовательных подходов, в формировании национальной идентичности и популяризации национальных культурных ценностей в сознании учащихся. Исследование выявляет эффективность этого метода, его преимущества, интеграцию в педагогический процесс и влияние на формирование национальной идентичности.

Ключевые слова: национальная идентичность, культурные ценности, коллаборативный подход, образование, кооперация, деятельность учащихся, нравственно-эстетическое воспитание.

Musaeva Nargiza Khashimzhanovna

Researcher
National Institute of Educational pedagogy named after Kori Niazi

A COLLABORATIVE APPROACH TO UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY AND PROMOTING NATIONAL-CULTURAL VALUES

Abstract: This article analyzes the role of the collaborative (cooperative) educational method, a modern educational approach, in shaping national identity and promoting national cultural values in students' minds. The study explores the effectiveness of this method, its advantages, its integration into the pedagogical process, and its impact on the development of national identity.

Key words: national identity, cultural values, collaborative approach, education, cooperation, student activities, moral and aesthetic education.

Kirish. Globalizatsiya jarayonlari ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlod vakillarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlab qolish, madaniy merosga hurmat bilan yondashish kabi fazilatlarni shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kollaborativ yondashuvlar orqali o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularni milliy qadriyatlarga asoslangan loyihaviy va guruhiy faoliyatlarga jalb etish alohida ahamiya kasb etadi.

Milliy o‘zlik — bu insonning o‘z millatiga mansubligini anglash, uning tili, dini, urf-odatlari, tarixiy xotirasi va madaniy merosi bilan faxrlanish hissidir. Madaniy qadriyatlar esa bir xalqning asrlar davomida shakllangan axloqiy, estetik, diniy va ijtimoiy me’yorlar tizimidir. Bu qadriyatlar yosh avlodga uzluksiz yetkazib borilishi orqaligina ularning saqlanishi va rivojlanishi ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-noyabrdagi PF-5278-sonli farmoni “Yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Ushbu farmon, yoshlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarni o‘rgatish, o‘zbek xalqining tarixiy madaniy merosini targ‘ib qilish, ularni milliy o‘zlikni anglashga undashni ko‘zda tutadi. Farmon yoshlar o‘rtasida o‘zbek madaniyati, adabiyoti va san’atini rivojlantirish, ularni milliy an‘analar asosida tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy o‘zlikni anglash deganda shaxsning o‘z millatiga mansubligini chuqur his etishi, uning tili, tarixi, urf-odatlari, an’analari va ma’naviy merosini qadrlashi tushuniladi. Bu jarayon, avvalo, oilada boshlanadi, ta’lim muassasalarida davom etadi va jamiyat miqyosida shakllanadi. Milliy-madaniy qadriyatlar esa xalqning asrlar davomida to‘plagan moddiy va nomoddiy boyliklari bo‘lib, ular xalqning o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omillardandir. Kollaborativ yondashuv milliy qadriyatlarni ommalashtirishda turli ijtimoiy institutlar — oila, maktab, oliy ta’lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari, madaniyat va san’at muassasalari hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini nazarda tutadi. Bunday yondashuvda har bir tomon o‘z imkoniyatlari va resurslaridan kelib chiqib, yagona maqsad — milliy o‘zlikni mustahkamlash yo‘lida faoliyat olib boradi. Ta’lim tizimida kollaborativ yondashuv o‘quvchi va talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, milliy bayramlar, urf-odatlar va tarixiy shaxslar mavzusida loyihaviy ishlar, jamoaviy tadqiqotlar, sahna ko‘rinishlari va munozaralar tashkil etilishi yoshlarning milliy qadriyatlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik esa bolalarda milliy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar ham milliy-madaniy qadriyatlarni targ‘ib etishda muhim rol o‘ynaydi. Blogerlar, jurnalistlar, ijodkorlar va mutaxassislarning hamkorlikda olib borgan faoliyati orqali milliy an’analar zamonaviy talqinda, yoshlar uchun tushunarli va jozibador shaklda yetkazilishi mumkin. Bu esa milliy qadriyatlarning faqat o‘tmishga oid hodisa emas, balki bugungi hayotning ajralmas qismi ekanini ko‘rsatadi.

Kollaborativ yondashuv — bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarni o‘zaro hamkorlikda bilim olishga, muammoni birgalikda hal etishga yo‘naltiruvchi pedagogik metoddir. Ushbu uslub orqali:

o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar;
ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanadi;
muammoga tanqidiy yondashuv va ijodiy fikrlash o‘rganiladi;
guruhiy ishlarda milliy mavzularni o‘rganish osonlashadi.

Kollaborativ yondashuv orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda quyidagi shakllar samarali hisoblanadi:

Loyihaviy ishlar: “Mahallamiz tarixiy obidalari”, “Milliy liboslar tarixi” kabi mavzularda guruhiy loyihalar.

Rol o‘yinlari: tarixiy shaxslar, urf-odatlar aks ettirilgan sahna ko‘rinishlari.

Davra suhbatlari va munozaralar: milliy urf-odatlar va global madaniyat o‘rtasidagi tafovutlar haqida.

Ekspeditsiyalar va ekskursiyalar: muzey, tarixiy joylar, xalq ustalari bilan uchrashuvlar orqali jonli ta’lim XXI asr — bu globallashuv, raqamli transformatsiya va madaniyatlararo integratsiya asri. Bunday davrda yosh avlodning milliy o‘zligini saqlab qolishi, o‘z ildizlariga sodiq qolishi oson emas. Chet el ommaviy axborot vositalari, internet madaniyati va g‘arbiy hayot tarzining ommalashuvi o‘quvchilarning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunday sharoitda: o‘zligimizni anglash, tariximizni bilish, madaniyatimizni qadrlash va bu qadriyatlarni faol himoya qilish har qachongidan ham muhimroq bo‘lmoqda.

Demakki, ta’lim muassasalari oldida faqat fan o‘rgatish emas, balki shaxsni milliy g‘oya asosida shakllantirish vazifasi ham turadi. Kollaborativ yondashuv quyidagi nazariy pedgogik g‘oyalarga tayanadi:

1. Sotsial konstruktivizm (Lev Vygotskiy): bilimlar insonlar o‘rtasidagi muloqot orqali shakllanadi. Guruhda ishlash — bu o‘rganishning eng samarali shaklidir.

2. Kooperativ o‘qitish: bu modelda o‘quvchilar o‘zaro yordam orqali dars mazmunini o‘zlashtiradi, liderlik va mas’uliyat hislari shakllanadi.

3. O‘zaro ta’lim: darsda barcha o‘quvchilar bilim beruvchi va bilim oluvchi sifatida faol ishtirok etadi.

Bu nazariyalar milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishda ham aynan amaliyotga yo‘naltirilgan usullardan foydalanishga zamin yaratadi. O‘zbek olimlari o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va milliy madaniy qadriyatlarni ommalashtirishda turli pedagogik yondashuvlar va metodlarni tadqiq qilmoqdalar. Quyida ba'zi muhim tadqiqotlar va ularning asosiy mazmuni keltirilgan:

G‘aniyeva Bibixonim Shoymardonovnaning tadqiqotlarida, o‘zining “O‘zbek milliy madaniy me’rosining yoshlar tarbiyasidagi metodlari va uslublarini takomillashtirish” maqolasida milliy ma’naviyat va madaniyatni yoshlar tarbiyasida qo‘llash usullarini o‘rganadi. Kadirova Nilufar Mirzaakbarovnaning tadqiqotlarida, “O‘quvchilarda 4-K ko‘nikmalarini rivojlantirishda kreativ yondashuvga asoslangan ta’limning ahamiyati” maqolasida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik va muloqot kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishda kreativ yondashuvlarning o‘rni haqida so‘z yuritadi. Usmanov Nematullo Akmalovichning tadqiqotlarida, “Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarni jismoniy madaniyatini shakllantirish texnologiyasi” maqolasida integrativ yondashuv orqali o‘quvchilarning jismoniy va madaniy faoliyatini rivojlantirish usullarini tadqiq etadi.

Ushbu tadqiqotlar o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlarni ommalashtirishda turli pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, o‘zbek ta’lim tizimida mazkur masalalarga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Kollaborativ o‘qish, o‘quvchilarning bir-biri bilan fikr almashishi va birgalikda bilim olishiga yordam beradi. Bu jarayon o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, madaniyat, urf-odatlar va tarixni tushunishni rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘quv materiallarini muhokama qilish orqali, bir-biridan yangi bilimlar oladilar va milliy o‘zlikni anglashda o‘zaro fikr almashish orqali madaniyatni oshiradilar.

Xulosa va tavsiyalar

• Milliy o‘zlikni anglash yosh avlodning ma’naviy immunitetini mustahkamlash vositasidir.

• Kollaborativ yondashuv bu jarayonda eng tabiiy va o‘quvchiga yaqin uslub bo‘lib, milliy qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali anglashga xizmat qiladi.

Ta’lim muassasalari rahbarlari, o‘qituvchilar va ota-onalar birgalikda harakat qilgan taqdirdagina milliy meros avloddan-avlodga barqaror o‘tadi.

Milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash yosh avlodni tarbiyalashdagi muhim jihatlardandir. Kollaborativ yondashuv esa bu jarayonni yanada interaktiv, mazmunli va barqaror qilish imkonini beradi. O‘quvchilarni faollikka chorlab, ularni o‘z milliy merosining tadqiqotchisi va targ‘ibotchisiga aylantirish – zamonaviy ta’limning dolzarb vazifasidir.

Tavsiyalar: Har oyda milliy qadriyatlar haftaligini tashkil etish.

1. Har bir fan bo‘yicha milliy qadriyatlarga doir kichik loyihalarni yo‘lga qo‘yish.
2. Mahalliy san’atkorlar, tarixchilar bilan uchrashuvlar uyushtirish.

Xulosa qilib aytganda, milliy o‘zlikni anglash va milliy-madaniy qadriyatlarni ommalashtirish murakkab, ammo muhim jarayon bo‘lib, u yakka tartibdagi sa’y-harakatlar bilan emas, balki kollaborativ yondashuv asosida samarali amalga oshiriladi. Jamiyatdagi barcha qatlamlarning o‘zaro hamkorligi milliy qadriyatlarni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishning eng ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-noyabrdagi PF-5278-sonli farmoni https://president.uz/
2. Qayumov. A. (2013). “Milliy o‘zlikni anglash va tarbiya” 72-90-betlar.
3. Shukurov. S. (2017). “Milliy madaniyat va tarbiyaning o‘zaro aloqasi” 55-65-betlar.
4. Usmanov. F. (2018). “Milliy qadriyatlar va madaniyat: Lingvomadaniy jihatlar” 101-115-betlar.
5. Mirzaev.I. Muratbaeva. I. (2020). “Milliy o‘zlikni anglash va madaniy qadriyatlar” 20-45-betlar.
6. Yuldasheva. M. (2021). “Milliy qadriyatlar va an’analar” 63-78-betlar.
7. Xudoyberganov. F. (2019). “O‘zbek milliy tarixi va madaniyati” 133-145-betlar.
8. Kholmatova. D. (2020). “Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot” 24-38-betlar.
9. https://ziyonet.uz
10. https:books.natlib.uz

Baymetov M.M.

Lecturer
Department of Technology and Methodology
of Professional Education
Nizami National Pedagogical
University of Uzbekistan

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND DIDACTIC PRINCIPLES IN ORGANIZING LEARNING PRACTICES

Annotation. The article discusses digital technologies and their role during the internship of future technology teachers, the use of digital technologies in the educational process, and the impact of these technologies on teachers and students.

Keywords: process, digital, production practice, competence, integration, principles, psychological characteristics, didactics, scientific principle.

Байметов М.М.
Преподаватель
Кафедра «Технология и методика
профессионального образования»
Узбекистанский Национальный педагогический
университет имени Низами

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ДИДАКТИЧЕСКИХ ПРИНЦИПОВ В ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ПРАКТИК

Аннотация. В статье рассматриваются цифровые технологии и их роль в процессе стажировки будущих учителей информационных технологий, использование цифровых технологий в образовательном процессе, а также влияние этих технологий на учителей и учащихся.

Ключевые слова: процесс, цифровые технологии, производственная практика, компетентность, интеграция, принципы, психологические характеристики, дидактика, научный принцип.

Baymetov M.M
O‘qituvchi
“Texnologiya va professsionla ta’lim metodikasi” kafedrasi
Nizomiy nomidagi
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA DIDAKTIK PRINSİPLARNING TA’LIM AMALIYATINI TASHKIL ETISHIDA O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar va ularning bo‘lajak axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining amaliyot jarayonidagi o‘rni, o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish va bu texnologiyalarning o‘qituvchi va talabalarga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jarayon, raqamli, ishlab chiqarish amaliyoti, kompetentlik, integratsiya, tamoyillar, psixologik xususiyatlar, didaktika, ilmiylik tamoyili.

Digital technologies, becoming an integral part of the modern educational process, play an important role in developing the professional competence of teachers. They expand their opportunities to improve the quality of education and apply innovative approaches. Introducing future teachers to digital technologies and teaching them to use them effectively, in turn, helps to make the educational process more effective and interesting.

The content of developing professional competence based on digital technologies, the stages of organizing professional practice and the methodology of this practice platform play an important role in the professional development of teachers. This chapter considers the main principles and methods of the process of developing the competence of future teachers through digital technologies. This approach includes not only theoretical knowledge, but also practical skills, which ensures the quality of education that teachers provide to students.

Today, much attention is paid to the rational use of digital technologies in education. This approach is considered an effective tool to help improve the quality of education. At the same time, the formation of skills in the rational and effective use of digital technologies among higher education graduates is considered one of the urgent problems today. The introduction of digital technologies into the educational process is of great importance in developing competence for the pedagogical profession.

A modern teacher is not required to have in-depth knowledge in every scientific field, because today everyone has easy access to global spiritual and cultural heritage via the Internet. Therefore, the introduction of digital technologies into the educational process enhances the interaction between the teacher and the student, while at the same time helping to individualize the learning process. This encourages students to develop independent thinking and initiative. The quality of education can be improved by improving the feedback process between teachers and students. These factors are very important for the professional competence of the teacher.

From a pedagogical point of view, the introduction of digital technologies into the educational process helps to ensure the convenience and visuality of the educational process. The use of electronic and printed visual materials in education, their independent creation for students, and the preparation of materials that meet pedagogical needs are made possible through digital technologies. Teachers who have knowledge and skills in digital technologies ensure that students acquire theoretical and practical knowledge more quickly and effectively and play a major role in improving teaching methods. Didactic principles are the principles of teaching that determine the laws, content and methods of the educational process.

According to M.N. Skatkin, the principle of teaching is the cooperation of the teacher and the student aimed at a common goal and the achievement of the intended goal as a result of this cooperation. The teacher's professional skills, the rules that ensure the integration of students' learning activities into a single pattern and the achievement of the goal constitute the essence of didactic principles in the educational process. In the process of learning, teaching principles are developed that direct the teacher to practical activities in order to study the foundations of a

specific subject. These principles determine the basis, the initial state of the entire pedagogical activity. These principles also clarify the purpose and content of higher education. They create an opportunity to organize an effective didactic process taking into account the psychological characteristics of students, and influence the definition of the educational goal. At the same time, didactic principles can never retain their structure, laws, and classification in the same way. They change and form in accordance with each era, based on the development of society and social requirements imposed on the education system.

Over time, some principles lose their significance, while others are further improved and updated. Therefore, didactic principles are updated in accordance with the needs of society as academic disciplines develop and improve. At the same time, didactic principles cover the tasks set by society for higher education, satisfy the characteristics of the organization of education. They ensure the unity of content, method, and form in the learning process. The further development of the education system in our country, based on the implementation of the national program, depends on improving the educational process of colleges in accordance with the requirements of the time, updating the content of education, and systematically developing educational activities. Accordingly, when determining the content of college subjects, it is necessary to rely on didactic principles that allow students to accelerate their perception of educational material. Educational institutions, based on ensuring the integration of practices in the content of education as an important didactic principle, increase its quality. Each of the above-mentioned ideas and didactic principles allows organizing the educational process based on the requirements of the time.

After all, the introduction of the integration of practices into the educational system expands the possibilities of applying didactic principles. The quality and efficiency of the educational process are ensured as a result of integrating the concepts of a special subject into the structure of other subjects in the educational process. To ensure the integration of practices in educational institutions, the following basic didactic principles known in pedagogy are relied on: scientificity of teaching; unity of theory and practice; regularity of teaching and upbringing; the principle of historicity in teaching; the principle of accelerating the educational process.

The principle of scientificity is not limited to reflecting new scientific achievements in the content of education, but rather, in our opinion, science should constitute the main part of a particular subject, taking into account the characteristics of the subject, and develop the cognitive activity of students. In the process of training, learning knowledge should be recognized not as a result of activity, but as a process of activity. Students test their knowledge acquired in special disciplines in their own experience based on the integration of practice and find ways to apply it. On this basis, the scientificity of teaching and upbringing is achieved. The principle of unity of theory and practice. In the process of education, knowledge learned on the basis of special disciplines is absorbed into the minds of students in two ways: theoretical and

practical. Therefore, students should master the theoretical and practical aspects of knowledge based on the integration of practices.

Only then will the principle of unity of theory and practice be ensured. The practical orientation involves revealing the functional side of knowledge, which forms the ability of students to understand the world in a holistic, systematic way. Practical tasks have important pedagogical advantages, which increase the effectiveness of their systematic use in the process of teaching special subjects in colleges based on the integration of practices. It should be noted that these advantages cannot be realized by formally introducing students' practical activities into the teaching process.

Only when they meet certain requirements do they have a positive effect on the content of subjects and the quality of teaching various subjects. As is known, practical exercises require a lot of time. Therefore, their implementation is justified only when the benefits achieved, the time spent give sufficient benefit, and these exercises accelerate the assimilation of theoretical material. The principle of regular education is to form in students feelings such as patriotism, loyalty to national ideology and national pride. Since ancient times, serious attention has been paid to the educational process in our country, and today this attention is increasing. The subjects studied in educational institutions, such as the foundations of personality and society, state and law, history, literature, spirituality, and special subjects, are of great importance in forming the scientific worldview and moral qualities of students. With the help of these complementary subjects, students study phenomena and processes in nature, society, the laws of their change, the past and present state on the basis of factual evidence and realities using the principle of history. In the process of studying special subjects, based on the integration of practices, students become familiar with the time of birth and life of great figures of the past, their scientific heritage and views that they contributed to world civilization, in a way related to these subjects. The principle of historicity increases students' interest in the special subject being studied and forms their scientific worldview.

In didactics, the quality mastery of a new topic is required during the training process. After all, the principle of accelerating this process is a didactic phenomenon that goes back to the passage of a short and meaningful lesson. Based on the integration of practices, it takes a lot of time to give examples of similar topics from several lessons in each lesson and use them. However, a teacher who conducts training in a special subject must be able to convey the topic being studied to the students' minds in a meaningful way in a one-hour lesson, while saving time, and ensure that the main components of the topic covered are preserved in their memory. In this case, the student's interest in the lesson is of great importance. The student's tendency to learn, his desire, desire, and need for knowledge are called motivation in didactics. Motivation is not generated by itself in learning activities, its creation requires skill from the teacher. Motivation is an important element of the educational process and at the same time a leading factor in accelerating the training. Motivation strengthens the student's aspiration towards the goal, ensures consistent and courageous actions to achieve it. The motivation generated in the training is a complex

pedagogical phenomenon, which depends on the behavior, aspirations, interests and inclinations of students. From this point of view, it is appropriate to use this principle in the study of special subjects. Organizing practical exercises based on didactic principles, using all the possibilities of integration of practices, serves to develop the theoretical and practical activities of students. In general, didactic principles allow for the implementation of practical tasks, a complete visualization of the theoretical phenomenon being studied.

These didactic principles are the basis for the formation of a visual representation of the content of the subjects. At the same time, these representations are representations that arise during the study of the studied situation, its model. In conclusion, it is necessary to ensure the integration of practices based on didactic principles. In most classes, students themselves build models of life situations. In order to understand the abstractness of some concepts, it is necessary to develop their skills and competencies in formulating situations and creating models in an appropriate manner. Didactic principles help students to isolate important aspects of the problem being studied, analyze logical information, master terms specific to special disciplines based on the integration of practices, clearly express interesting aspects of the phenomenon, and expand their understanding.

List of references:

1. Baymetov M.M. Didactic principles of ensuring the integration of educational and production practices. - Teacher and continuous education. №1/1 2022.

2. Baymetov, M. M. (2022). Ways to improve the effectiveness of production practice of future teachers of technological education. Academic research in educational sciences, 3(8), 160-165.

3. Baymetov, M. M. (2021). Ways to organize and improve the effectiveness of teaching practice in vocational schools. Academic Research in Educational Sciences, 2(4), 1190-1195.

4. Umarov B.A. Pedagogical and psychological criteria for the formation of professional competence // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education. Germany conference may 10th 2023. 489-501 betlar.

5. Mavlyanov.A, Abdalova.S, Baymetov.M.M, "Integration of training and production practices in vocational colleges". Methodical recommendation. - T.: Science and technology, 2014. - 115 pages.

Urishov Sardor Abdullajonovich
"Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt" kafedrasi o‘qituvchisi
Turin Politexnika Universiteti

O‘QITUVCILAR KOGNITIV YUKLAMASINI BAXOLASHNING INTEGRATIV MEZONLARI, INDIKATORLARI VA DIAGNOSTIK VOSITALARI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy raqamli ta'lim transformatsiyasi sharoitida pedagoglar faoliyatining eng dolzarb muammolaridan biri — o‘qituvchilarning kognitiv yuklamasini baxolash masalasi taxlil qilingan. Tadqiqot "O‘zbekiston–2030" strategiyasi va “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyixasi doirasida pedagoglar zimmasiga tushayotgan texnologik va axborot bosimlarini tizimli o‘rganishga qaratilgan. Maqolada an'naviy va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim muxitida o‘qituvchilarning aqliy mexnat samaradorligini baxolash uchun yangi integrativ mezonlar, kognitiv indikatorlar va raqamli diagnostik vositalar majmuasi ishlab chiqilgan xamda kasbiy toliqish va xissiy kuyish (*burnout*) xolatlarini bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv yuklama, xissiy kuyish, integrativ mezonlar, sun'iy intellekt, "O‘zbekiston-2030", pedagog diagnostikasi, kasbiy toliqish, raqamli gigiyena, texnologik stress.

Уришов Сардор Абдуллажонович
Преподаватель кафедры «Информационные технологии и искусственный интеллект», Туринский политехнический университет

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНТЕГРАТИВНЫХ КРИТЕРИЕВ, ИНДИКАТОРОВ И ДИАГНОСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ ОЦЕНКИ КОГНИТИВНОЙ НАГРУЗКИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ

Аннотация. В данной статье анализируется одна из наиболее актуальных проблем деятельности педагогов в условиях современной цифровой трансформации образования — вопрос оценки когнитивной нагрузки преподавателей. Исследование направлено на системное изучение технологического и информационного давления, оказываемого на педагогов в рамках стратегии «Узбекистан–2030» и проекта «Пять миллионов лидеров искусственного интеллекта». В работе разработан комплекс новых интегративных критериев, когнитивных индикаторов и цифровых диагностических средств для оценки эффективности умственного труда преподавателей как в традиционной, так и в управляемой искусственным интеллектом образовательной среде. Также выдвинуты практические рекомендации по предотвращению профессионального истощения и синдрома эмоционального выгорания (*burnout*).

Ключевые слова: когнитивная нагрузка, эмоциональное выгорание, интегративные критерии, искусственный интеллект, «Узбекистан-2030», педагогическая диагностика, профессиональная усталость, цифровая гигиена, технологический стресс.

Urishov Sardor Abdullajonovich
Teacher, Department of IT and AI Sciences, Turin Polytechnic University

IMPROVING INTEGRATIVE CRITERIA, INDICATORS, AND DIAGNOSTIC TOOLS FOR ASSESSING TEACHERS' COGNITIVE LOAD

Abstract. This article analyzes one of the most pressing issues in pedagogical activity within the context of modern digital educational transformation — the assessment of teachers' cognitive load. The study is aimed at systematically investigating the technological and informational pressures placed on educators frameworked by the "Uzbekistan–2030" strategy and the "Five Million Artificial Intelligence Leaders" project. The paper develops a new set of integrative criteria, cognitive indicators, and digital diagnostic tools to evaluate teachers' mental labor efficiency in both traditional and artificial intelligence-driven learning environments. Furthermore, practical recommendations are advanced to mitigate professional exhaustion and emotional burnout among educators.

Keywords: cognitive load, emotional burnout, integrative criteria, artificial intelligence, "Uzbekistan-2030", pedagogical diagnostics, professional fatigue, digital hygiene, technological stress.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va ta'lim tizimini raqamli transformatsiya qilish bosqichi o‘qituvchi kasbiy faoliyatining mazmuni va psixologik tuzilishini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda pedagog nafaqat an'anaviy didaktik vazifalarni bajaruvchi kasb egasi, balki yuqori texnologik muxit, raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va turli axborot oqimlari tizimida faoliyat ko‘rsatadigan muhim kasb sifatida ifodalanmoqda. Axborotning geometrik progressiya sur'atida o‘sishi va ta'limni shiddat bilan avtomatlashtirish pedagogik faoliyatda yangi muammoni — o‘qituvchilarning kognitiv yuklamasi (Cognitive Load) me'yoridan ortib ketishini yuzaga keltirmokda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g'risida"gi PF-158-son Farmonida ta'lim soxasini to‘liq raqamlashtirish va soxaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish ustuvor vazifa etib belgilangan. Mazkur strategik maqsadlarni amalga oshirish jarayonida Vazirlar Maxkamasining 2025 yil 31 dekabrdagi 849-son qarori bilan tasdiqlangan “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyixasi doirasida ta'lim tizimidagi 150 ming nafardan ortiq pedagog kadrlarni sun'iy intellekt texnologiyalariga o‘qitish va raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Biroq, bunday keng ko‘lamli raqamli transformatsiya va yangi kompetentsiyalarni egallash majburiyati pedagoglarda "texnologik stress" (techno-stress) va surunkali aqliy toliqish darajasini keskin oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi Qarori talablaridan kelib chiqib, o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish jarayonlarini individuallashtirish, ularning ishchi xotira (working memory) imkoniyatlari va psixologik sog'lomligini ximoya qilishni taqozo etadi.

Shu bois, raqamli ta'lim va sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etilayotgan zamonaviy sharoitda o‘qituvchilarning kognitiv yuklamasini baxolashning integrativ mezonlari, indikatorlari va SI bilan integratsiya qilingan yangi avlod diagnostik vositalarini takomillashtirish pedagogika fani va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biridir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, normativ-xuquqiy xujjatlarning mazmunli taxlili (content analysis), qiyosiy-pedagogik ergonomika,

raqamli faoliyat xronometraji va psixologik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Sun'iy intellekt platformalari (masalan, LMS va E-maktab tizimlari) bilan ishlayotgan o‘qituvchilarning axborotni qabul qilish tezligi va emotsional xolatlari J. Svellerning kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory) xamda xalqaro kognitiv ergonomika standartlari asosida baxolandik.

Asosiy qism va tahlil. J. Sveller kontseptsiyasiga ko‘ra, insonning ishchi xotira xajmi cheklangan bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida faqatgina 7 ± 2 birlikdagi axborotni qayta ishlay oladi. O‘qituvchi faoliyatidagi umumiy kognitiv yuklama uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘lib, raqamli isloxotlar davrida ular quyidagicha namoyon bo‘lmoqda:

1. **Ichki kognitiv yuklama (Intrinsic Load):** O‘quv fanining murakkabligi va didaktik materialning tuzilishi bilan bog'liq. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida yangilangan Milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi o‘qituvchidan yangi ilmiy konseptsiyalarni o‘zlashtirishni talab qilmoqda.

2. **Tashqi kognitiv yuklama (Extraneous Load):** Ta'lim muxitining nooptimal tashkil etilishi va ortiqcha ma'muriy-texnik vazifalar. Raqamli platformalarning murakkabligi, interfeysning noqulayligi yoki bir vaqtning o‘zida bir nechta tizimda (E-maktab, oliy ta'limda Xemis tizimi) xisobot yuritish tashqi yuklamani keskin oshiradi.

3. **Foydali kognitiv yuklama (Germane Load):** Bilimlarni uzoq muddatli xotiraga o‘tkazish va yangi pedagogik sxemalarni yaratishga sarflanadigan samarali energiya. “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyixasi doirasida prompt-muxandislik va SI vositalarini darsga integratsiya qilish aynan mana shu foydali yuklamani shakllantirishni talab etadi.

Muammo shundaki, agar tashqi yuklama (raqamli tizimlardagi kundalik va tashkiliy ishlar) xaddan tashqari ko‘p bo‘lsa, foydali yuklamaga miyada joy qolmaydi va o‘qituvchi yangi texnologiyalarni o‘zlashtira olmay, xissiy kuyish (burnout) xolatiga tushadi.

"Pedagogning maqomi to‘g'risida"gi Qonun va malaka oshirishni modernizatsiya qilishga oid davlat qarorlari talablaridan kelib chiqib, o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda normallashtirish uchun uchta integrativ mezon va ularning aniq indikatorlari tizimi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Integrativ mezon va ularning aniq indikatorlari tizimi

Mezonlar	Kognitiv Indikatorlar	Diagnostika va Baxolash Vositalari
1. Texnologik-didaktik mezon	- Raqamli ta'lim tizimlarida (LMS, ERP) topshiriqlarni bajarish tezligi; - Dars konspekti va SI-promptlarni yaratishga ketadigan vaqt xajmi; - Texnologik muxitdagi axborotlarni filtrlash qobiliyati.	- Raqamli izlar taxlili (Learning Analytics); - Ish vaqti xronometraji.

Mezonlar	Kognitiv Indikatorlar	Diagnostika va Baxolash Vositalari
2. Psixo-ergonomik mezon	- Ko‘p vazifalilik (multitasking) muxitida diqqatning barqarorligi; - Surunkali aqliy charchoq va raqamli fobiya darajasi; - Ishchi xotiraning axborot bilan o‘ta to‘yinishi ($overload$).	- Kengaytirilgan NASA-TLX (Task Load Index) so‘rovnomasi; - Kognitiv testlar.
3. Kasbiy-emotsional mezon	- Raqamli transformatsiyaga nisbatan kasbiy motivatsiya; - Texnologik o‘zgarishlar fonida emotsional kuyish darajasi; - Kreativ pedagogik faoliyatga bo‘lgan intellektual intilish.	- Kristina Maslach (Christina Maslach) bo‘yicha xissiy kuyish metodikasi; - Ekspert kuzatuv xaritalari.

4. Diagnostik vositalarni takomillashtirish va SI imkoniyatlari

Pedagog kadrlar malakasini oshirishning zamonaviy tizimi o‘qituvchining kognitiv xolatiga moslashishi, ya'ni adaptiv bo‘lishi shart. Shu nuqtai nazardan, an'anaviy diagnostika vositalarini “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyixasi konseptsiyasi asosida sun'iy intellekt imkoniyatlarini jalb qilgan xolda takomillashtirish zarur:

- **Kognitiv yuklamaning raqamli monitoringi:** O‘qituvchilarning elektron platformalardagi ish faolligi, xatoliklarga yo‘l qo‘yish darajasi va tizimda qolish vaqtini anonim taxlil qiluvchi sun'iy intellekt algoritmlarini joriy etish.
- **Mikro-modulli diagnostika vositalari:** Malaka oshirish kurslari davomida pedagogning aqliy charchoq darajasini aniqlovchi 1-2 daqiqalik adaptiv mobil so‘rovnomalar (mikro-diagnostika) tizimini yaratish.
- **O‘qituvchi aqliy yuklamasini kompleks xaritalash (Kognitiv profili):** Ta'lim muassasasi miqyosida o‘qituvchilarning raqamli va ma'muriy yuklamalari darajasini real vaqt rejimida **rangli indikatorli matritsa (vizual dashbord)** orqali aks ettirish va monitoring qilish tizimi.

"O‘zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan sifat ko‘rsatkichlariga erishish uchun o‘qituvchi kognitiv yuklamasini boshqarishning quyidagi innovatsion mexanizmlari taklif etiladi:

1. **AI-assistentlarni joriy etish orqali tashqi yuklamani kamaytirish:** Maktab va OTMlarda o‘qituvchilarni oddiy texnik ishlardan (masalan, ota-onalarning savollariga javob berish, baxolarni tizimga kiritish, kundalik xisobotlarni shakllantirish) ozod qilish uchun maxsus sun'iy intellekt chat-botlarini (AI Co-pilot) ishga tushirish. Bu orqali tashqi kognitiv yuklama kamayadi va o‘qituvchi bor diqqatini ijodiy dars o‘tishga qaratadi.
2. **Malaka oshirish tizimida "Mikro-o‘qitish" (Micro-learning) modeli:** Pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonlarida uzoq soatlik va og'ir ma'ruzalar o‘rniga, sun'iy intellekt tomonidan o‘qituvchining extiyojlariga moslashtirilgan 5-10 daqiqalik ixcham, vizual va maqsadli mobil o‘quv modullarini joriy etish.
3. **Raqamli gigiyena (Digital Hygiene) va detoks me'yorlari:** Pedagoglarning ish vaqtidan tashqari paytlarda (kechki soatlar va dam olish kunlari) raqamli ta'lim

platformalari va messenjerlarda faoliyat yuritishini normativ cheklash orqali ularning ishchi xotirasiga dam berish tizimini yaratish.

Xulosa (Conclusion). "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va mamlakatimizda raqamli texnologiyalar xamda sun'iy intellektni rivojlantirishga oid qabul qilinayotgan tarixiy xujjatlar ta'lim tizimi oldiga ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. Biroq, xar qanday innovatsiyaning muvaffaqiyati uni amalga oshiruvchi asosiy sub'ekt — o‘qituvchining intellektual va ruxiy saloxiyatiga bog'liq.

O‘qituvchilarning kognitiv yuklamasini baxolashning takomillashtirilgan integrativ mezonlari va raqamli diagnostik vositalarining amaliyotga tatbiq etilishi, pedagog kadrlarni tizimli suratda ortiqcha aqliy charchoq va texnologik stressdan ximoya qilish imkonini beradi. Sun'iy intellekt vositalarini o‘qituvchiga qo‘shimcha majburiyat sifatida emas, balki uning kundalik vazifalarini avtomatlashtiruvchi va kognitiv yuklamasini kamaytiruvchi omil sifatida yo‘naltirish ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashning eng istiqbolli yo‘li xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

I. Me'yoriy-xuquqiy xujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g'risida”gi Qonuni. Toshkent sh., 2024 yil 27 mart, O‘RQ-922-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g'risida"gi Farmoni. Toshkent sh., 2023 yil 11 sentyabr, PF-158-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Yoshlarni IT soxasiga jalb qilish, ularning raqamli bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali yuqori daromadli kasblarga yo‘naltirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi (Besh million sun’iy intellekt yetakchilari loyixasi) 849-son qarori. 2025 yil 31 dekabr.

II. Ilmiy asarlar va darsliklar:

5. Sweller, J. Cognitive Load Theory: Educational Technology Research and Development. – Springer, 2011.
6. Mayer, R. E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2020.
7. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
8. Robert I.V. Informatizatsiya obrazovaniya: teoriya i metodika obucheniya. – Moskva: Shkola-Press, 2014.

III. Davriy nashrlar va ilmiy maqolalar:

9. Tammets, K., Fischer, F. "Work-based learning analytics and digital transformation in teacher professional development". // European Journal of Teacher Education, 2024.
10. Baker, R. S. "Educational Data Mining and predicting cognitive fatigue in digital environments". // Journal of Educational Computing Research, 2023.
11. Abdullayeva Q.N. "Raqamli ta'lim muxitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasi". // Pedagogika jurnali, 2022, 3-son.

Normatov Jasur Javli o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi
Toshkent Kimyo universiteti

TIBBIY OTM PEDIATRIYA TA’LIM YO‘NALISHLARIDA O‘QITISH USULLARI HAMDA VAZIYATGA DOIR O‘QUV TOPSHIRIQLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy oliy ta’lim muassasalarining pediatriya ta’lim yo‘nalishlarida qo‘llanilayotgan zamonaviy o‘qitish usullari hamda vaziyatga doir o‘quv topshiriqlarning ahamiyati yoritilgan. Pediatriya fanini o‘qitishda interfaol metodlar, klinik holatlar tahlili, muammoli ta’lim, simulyatsion mashg‘ulotlar va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning klinik fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda vaziyatli topshiriqlarning o‘rni ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: pediatriya, tibbiy ta’lim, tibbiy OTM, o‘qitish metodlari, interfaol ta’lim, vaziyatli topshiriqlar, klinik fikrlash, pedagogik texnologiyalar, simulyatsion ta’lim, kasbiy kompetensiya, muammoli ta’lim.

Норматов Жасур Жавли угли
Независимый исследователь
Ташкентского химического университета

МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ И СИТУАЦИОННЫЕ УЧЕБНЫЕ ЗАДАНИЯ В ПЕДИАТРИЧЕСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЯХ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы обучения, применяемые в образовательных направлениях педиатрии медицинских высших учебных заведений, а также значение ситуационных учебных заданий. Анализируется эффективность педагогических подходов, направленных на формирование практических навыков при обучении педиатрии, включая интерактивные методы, анализ клинических случаев, проблемное обучение и симуляционные занятия. Также показана роль ситуационных заданий в развитии клинического мышления, навыков самостоятельного принятия решений и профессиональных компетенций студентов. Результаты исследования способствуют повышению качества педиатрического образования, интеграции теоретических знаний с практикой и совершенствованию профессиональной подготовки будущих врачей.

Ключевые слова: педиатрия, медицинское образование, медицинский вуз, методы обучения, интерактивное обучение, ситуационные задания, клиническое мышление, педагогические технологии, симуляционное обучение, профессиональная компетентность, проблемное обучение.

Normatov Jasur Javli ugli
Independent Researcher of
Tashkent Chemical University

TEACHING METHODS AND SITUATIONAL LEARNING TASKS IN PEDIATRIC EDUCATIONAL PROGRAMS OF MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article discusses modern teaching methods used in pediatric educational programs of medical higher education institutions, as well as the importance of situational learning

tasks. The effectiveness of pedagogical approaches aimed at developing practical skills in teaching pediatrics, including interactive methods, clinical case analysis, problem-based learning, and simulation training, is analyzed. The article also highlights the role of situational tasks in developing students' clinical thinking, independent decision-making skills, and professional competencies. The results of the study contribute to improving the quality of pediatric education, integrating theoretical knowledge with practice, and enhancing the professional training of future physicians.

Keywords: pediatrics, medical education, medical higher education institution, teaching methods, interactive learning, situational tasks, clinical thinking, pedagogical technologies, simulation-based learning, professional competence, problem-based learning.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida tibbiyotni o‘qitish jahon tibbiy ta’lim standartlari darajasiga ko‘tarish, yangilash, tibbiy ta’limga oid islohotlar davrining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tibbbiy OTMga tayyorlashda mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma’lumotini ta’limning tegishli turi bo‘yicha Davlat ta’lim standarti (Davlat talablari) mazmunida belgilangan o‘quv-tarbiya jarayonining sifat samaradorligini ta’minlaydigan darajada tibbiy kasbiy faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo‘lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy islohotlar bevosita uzluksiz ta’lim tizimi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida yuqori malakali, madaniyatli, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan kadrlar tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Ta’lim-tarbiyaning milliy- ma’naviy asosi hisoblangan “Ta’lim to‘g’risidagi Qonun” 2020.23.09. hozirgi zamonga xos ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy taraqqiyot, yangicha tafakkurga ega, Sharq va G’arb mutafakkir va olimlarning benazir merosi va umuminsoniy qadriyatlariga tayanadigan, ma’naviy boy va ahloqan pok, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalashni maqsad qiladi.

Asosiy qism. Respublika olimlari tomonidan ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol metodlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, tibbiyot fanlarini o‘qitishda ta’lim oluvchilar o‘quv bilish faoliyatini faolligini ta’minlash bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, tibbiy ta’lim jarayonida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga yetarlicha ahamiyat berilmaganligi, o‘qitish texnologiyalari va baholash tizimi ta’lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mos kelmasligi, faol ta’lim metodlaridan keng foydalanishga e’tibor pastligi, shuningdek o‘quv materialini faollashtirish muammo bo‘lib turibdi. Ushbu maqola Respublikasi Prezidentining 2017 yil7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari va Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tayorlangan bo‘lib tibbiy OTM shuningdek ularni tibbiy sikl fanlarga oid bilimlarni, tibbiyot mutaxassislariga qo‘yiladigan davlat talablarini bilishi, zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning turlarini bilishi hamda amalda qo‘llay olishi, talaba shaxsi va uning xususiyatlarini hisobga olgan xolda ta’limda individuallik va differensial yondashuvga erishishi, ta’lim tizimida muammoli ta’lim, hamkorlik texnologiyasi va ta’limning innovatsion hamda interfaol metodlarini qo‘llay olishi, axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmalarini

shakllantirishni maqsad qiladi. Tibbiy OTM klinik fanlarni o‘qitishda ta’lim texnologiyasini loyihalash va ishlab chiqish, talabalar bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari, shakllari, vositalari, pedagogik jarayonda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, mustaqil ta’lim va mustaqil ishlarni tashkil etish, o‘quv amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish, talabalar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi masalalari keng yoritilgan.

Vaziyatga doir topshiriqlarni bajarish bor bilimlardan foydalanishga, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga imkon beradi, talabalarning ijodiy faoliyatiga yo‘l ochadi. Vaziyatga doir topshiriqlar aqliy faoliyatni talab qiladigan va malakalar doirasida samarali aqliy faoliyatni talab qilmaydigan xillargabo‘linadi. Vaziyatga doir muammoli, klinik topshiriqlar diqqatga sazovordir, chunki u talabalarda klinika nuqtai nazaridan fikrlash layoqati shakllanib borishiga yordam beradi. Vaziyatga doir topshiriqlar bilimlarni va konkret klinika vaziyatida ularni tatbiq eta olish ko‘nikmalarini tekshirib ko‘rishda keng qo‘llaniladi. Vaziyatga doir topshiriqlar tuzishning muhim tamoyili ularning tabiatan turli fanlarga oid bo‘lishidir.

O‘quv topshiriq - bu muayyan sharoitlarda ko‘zda tutilgan maqsaddir. O‘quv topshiriqlar asosida ta’riflab berilgan sharoitlarga qarab bosqichma- bosqich xal etib boriladigan muammoli tibbiy vaziyat yotadi. Vaziyatga doir muammoli o‘quv topshiriqlarning metodik xususiyatlari. Hal qilish uchun dastlabki axborot yetishmaydigan, kasallik anamnezidan, asboblar yordamida va laboratoriyalarda o‘tkaziladigan tekshirish natijalari va boshqalardan qo‘shimcha ma’lumot olish kerak bo‘lgan topshiriqlar. Talabalar mustaqil holda qo‘lga kiritadigan ana shunday ma’lumotlar yordami bilangina diagnostika o‘tkazish va davo buyurishmumkin. Kasallikning diagnostikasi va davosi uchun zarur asoslar bermaydigan ortiqcha, ma’lumotlarni o‘ziga jo qilgan topshiriqlar. Bunday topshiriqlarda bir nav “axborot shovqini” bo‘ladiki, talabalarning tug‘ri javob topish yo‘lidagi fikrlash faoliyatidan shuni chiqarib tashlamoq kerak. O‘rtaga qo‘yilgan masala noaniq bo‘lib, sabab va oqibatlarni, bayon qilingan fikrlar va keltirilgan dalillarni, kasallik o‘tishining turli davrlaridagi hodisa va alomatlarni identifikatsiyalash uchun qo‘shimcha mulohaza yuritib ko‘rishni talab qiladigan topshiriqlar. Shartlarida bir-biriga zid (qisman noto‘g‘ri) axborotlar bo‘lgan, jumladan turli metodikalar bo‘yicha o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari; kasallikning turli davrlarida olingan ko‘rsatkichlar, o‘xshash kasalliklarga doir ma’lumotlar va boshqalar keltirilgan topshiriqlar. Ana shunday topshiriqlarni xal qilishda talabalarning faoliyati ziddiyatlarni istisno qilish, bemorning ahvoliga mos keladigan ma’lumotlarni aniqlab olish va shularga asoslanib, tug‘ri javob topishga qaratilgan bo‘ladi. Faqat ehtimol yechimga yo‘l qo‘yadigan topshiriqlar, to‘la-to‘kis aniq fanlar jumlasiga kirmaydigan tibbiyot uchun shu narsa ancha xarakterlidir. Bu holda talabalar bir qancha mulohazalar yuritib, asoslarni tasdiqlashga imkon beradigan va ularning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatadigan mantiqiy bog‘lanishlarni belgilaboladilar. Hal qilish vaqti cheklangan, favquloddagi tibbiy vaziyatga aloqador bo‘lib, zudlik bilan diagnoz qo‘yish va davo choralarini ko‘rishga karatilgan topshiriqlar. Bunday topshiriqlar mojaro metodi bilan bir xildagi maqsadlarni ko‘zdatutadi. Narsalardan ular uchun odatdan tashqari ishlarda foydalanishni (tomoqni ko‘zdan kechirishda qoshikdan, shina qo‘yishda tayoqdan foydalanish va

hokazolarni) talab etadigan topshiriqlar, bularni bajarish “vrachlik idroki”ni shakllantirishga yordam beradi. Vaziyatga doir odatdan tashqari topshiriqlar talabaning zarur taktikani tanlab olishida ayniqsa kimmatlidir. Bularni hal qilish klinik fikrlash strukturasiga mantiqan juda ham yaqin turadi. Bunday topshiriqlar, odatda, tabiatan turli fanlarga oid buladi.

Vaziyatga doir topshiriqlarga talablar:

- faqat muhim tushunchalargatayanish;
- javob variantlariga qaramay javob berishga imkonberish;
- faqat muhim faktlarni hisobgaolish;
- topshiriq shartlarini juda hammurakkablashtirmaslik;
- inkor etuvchi jumlalarni muqaddima (kirish) savollarga kiritmaslik (“istisno, emas” singari so‘zlardan boshqalarni).

Tibbiy ta’lim jaratyonida klinik o‘yin metodlarining asosiy vazifasi tibbiyot kasbi yuzasidan amaliyotda va muloqat olib borishda zarur bo‘ladigan faoliyat ko‘nikmalarini hosilqilishdir. O‘qib-o‘rganishning bunday shakli murakkab vaziyatlarni modellash- konkret ob’ektlarni gavdalantirib, ularga taqlid qilish yo‘li bilan talabalarning bilimlarini juda samarali ravishda malakalarga aylantirishga yordam beradi. Har xil vaziyatlarni ob’ekt (bemor) ning o‘zi bilan emas balki uni gavdalantiradigan model bilan dinamik ravishda ishlab chiqish imkoni paydo bo‘ladi. Uyin sharoitida talaba nainki ixtisoslikka oid bilimlarni, balki ijtimoiy bilimlarni, ya’ni turli ixtisoslikdagi vrachlar bilan birgalikda ishlash, bemorlar, ularning qarindoshlari bilan muloqat qilish malakalarini qo‘lga kiritadi. Bunda talabada o‘quv ishining motivatsion ta’minotiga doir qiyinchiliklar yo‘qoladi, chunki talaba hosil qilgan bilimlarini real jarayonlarga yaqin holatlarda tatbiq etadi, bu - uning qiziqishlarini kuchaytiradi. Yakuniy mashg‘ulot shu bilan ta’riflanadiki, uyin qatnashchilari yakka o‘zi ish olib boradigan bo‘lsa, maqsadiga erishaolmay qoladi. Ish tariqasidagi klinik uyinlarning muhim afzalligi shundaki, ular juda kup hollarda qarorlarni jamoa bo‘lib qabul qilish tajribasini beradi. Klinik o‘yinlarni ishlab chikishning eng muhim sharti voqelik asos qilib olinadigan ssenariy rejasini tuzishdir. Ssenariy rejasi -bu bir vaqt oralig‘ida ketma-ket sodir bo‘ladigan hodisalarning mantiqiy va haqiqiyga o‘xshash majmuasidir. Ssenariy rejasi tafakkurning «qotib», bir qolipga tushib qolganligini kamaytiradigan eng samarali vositalarning biriki, buni uning kattagina afzalligi deb hisoblamoq kerak. Uyin qatnashchilari o‘zlariga notanish vaziyatga tushib qolishga majbur bo‘lishadi, shu narsa ularni ancha epchillik bilan turlicha fikrlash va ish tutishgaundaydi.

- Interfaol o‘yinlarning vazifalari: kasbga aloqador vaziyatda aniq mo‘ljal olish, tezlik bilan va to‘g‘ri qarorlar qabul kilish ko‘nikmasinishakllantirish;
- kelgusi kasb faoliyatida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan real xatolarning oldini olish;
- o‘z bilim va ko‘nikmalarini aniqlabolish.

Interfaol o‘yinlarning metodik xususiyatlari: talabalarga vrach faoliyatini ilmiy tashkil etishni o‘rganishga yordam beradigan boshqaruv o‘yinlari (masalan, jamiyat salomatligi va sog‘liqni saqlashkafedrasida);

- rolli trening, buning mantiqida talabalar vrach yoki o‘rta ma’lumotli tibbiy xodimning amaliy malaka va ko‘nikmalariin ishlabchiqishadi;

- hayotga yaqin turgan ishlab chiqarish vaziyatini yaratishga imkon beradigan ish tariqasidagi klinik o‘yinlar.

Turlari:

- boshqaruv o‘yinlari;
- rolli trening;
- ish tariqasidagi klinik o‘yinlar.

Inrefaol mettodlar asosida o‘yinlarni o‘tkazish bosqichlari.

Tayyorlanish bosqichi.

Kurs va mavzuni tanlash. Ish tariqasidagi uyinlarni yuqori kurslarda va magistrlar bilan o‘tkazgan ma’qulroq. Bu o‘yinlarning mavzui qilib, yaxshisi, tabiatan odatdan tashqari, favqulodda va kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rishni, shuningdek ko‘pgina mutaxassislik vrachlarini jalb etishni (konsiliumni) talab qiladigan vaziyatlarni olishkerak.

O‘yin maqsadlarini belgilash: o‘yinda kanday bilim va malakalar namoyish qilinishi va shaklantirilishi lozimligini aniqlash.

Interfaol o‘yinni tayyorlashda ssenariy rejasini tuzish: a) kasb faoliyatiga oid (real, dolzarb, tipik) vaziyatni tanlash; b) uyinni utkazish uchun zarur rollarni belgilash va mutaxassislik hamda lavozimlar nomi ko‘rsatilgan kartochkalarni tayyorlash; v) voqea bo‘lib o‘tadigan joyni belgilash (bemorning uyi, tez yordam ma- shinasi, qabul bo‘limi vaboshqalarni); g) amalda yuritilayotgan tibbiy hujjatlarni (analizlar, rentgenogrammalar, EKG va boshqalarni) tayyorlash, o‘yinli asboblar, fantomlar, mulyajlar, jadval va boshqalar bilan ta’minlash markaziy o‘rinda turadi. Oldin o‘tilgan va hozir o‘tilayotgan fanlarning asosiy bo‘limlarini takrorlash. Takrorlash uchun talabalarga adabiyotlar ro‘yxati: darsliklar, ma’ruzalar, monografiyalar, maqolalar. ma’lumotnomalar va boshqalar taklif etiladi.

Interfaol metodlar asosida o‘yinning borishi

Yetakchi-o‘qituvchi o‘yinni dastlabki bolalar shifokori vaziyatidan boshlaydi va, masalan, bemorning onasi roliga birinchi talabani tayinlaydi, bu talaba UAShni - boshqa talabani chaqiradi, u esa, o‘z navbatida, tez yordam vrachini tanlaydi va hokazo. Shu narsa. O‘qituvchiga talabalarni o‘yindagi ma’lum rollarga kirishtirishdan tashqari ijtimoiy rollarning jamoadagi haqiqiy o‘rnini, do‘stona va ishga aloqador munosabatlarni ham ko‘rishga imkon beradi va hokazo. Mutaxassislar tomonidan qabul qilinadigan barcha qarorlarni maqsadga muvofikligi albatta hamma eshitadigan qilib asoslabberiladi. Interfaol o‘yin davomida o‘qituvchi yoki eng yaxshi ekspert-talaba vaziyatni murakkablashtiradigan turli qo‘shimcha axborotni kiritishi mumkin (bemorning ahvoli o‘zgargani, dori preparatlarining yo‘qligi, ularni mos keladiganlariga almashtirish kerakligi to‘g‘risidagi axborotni). Qo‘shimcha axborot tabiatan fe’l-atvorga aloqador bo‘lishi ham mumkin - bemorning kasalxonaga yotishdan bosh tortishi, bemor yoki qarindoshlarining shikoyat qilishi va boshqalar shular jumlasidandir. Ana shunday hollarda bu o‘yin turli vaziyatlarda odamning o‘zini qanday tutishini sinab ko‘rishiga va o‘zi xamda guruhdagi sheriklariga baho berishiga imkon tug‘diradi. O‘qituvchi aynan shu uyinda talabalarning deontologik tayyorgarligi

darajasini bilib oladi va zarur bo‘lsa, uni maromiga keltiradi. Ish tariqasidagi uyin deontologiya tamoyillariga asoslangan aloqa bog‘lash, muloqat kilish malakalarini mukammallashtiruvchi go‘yokibir “polygon”dir. Turli rollarning ijro etilishiga qarab ma’naviy fazilatlarning konkret namoyon bo‘lish shakllari rollardagi uzaro ta’sirlarga yarasha moslanib boradi.

O‘yinni tashil etish.

Ekspertlar barcha o‘yin qatnashchilarinish muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz karorlari va ish-xarakatlarini tahlil kilib chiqishadi. Talabalarning har biri ham uyinda bulib o‘tgan hodisalar xususida o‘z nuqtai nazarini bayon qilishi mumkin. Ekspertlar guruhi konsultatsiyani bir necha bosqichlari bo‘yicha baholab chiqishi lozim: axborot – anamnez to‘plash; vrach - bemor o‘rtasidagi munosabat. Vrach bemorning ahvolini kay tarzda tushuntirib bera oldi, muhokama kilish va bemorni ko‘zdan kechirib, tekshirish davomida unga bo‘lgan e’tibor kanday namoyon qilindi; bemorni ko‘zdan kechirib tekshirish, qanchalik samaradorbo‘ldi; bemorning o‘zini tutishi. Vrachning keyingi taktikasini muhokama qilishga bemorning jalb etilishi, qiyinchiliklarni yengish, davo strategiyasini bemor bilan kelishib olish; ayni vaqtda nomzod davoning har xil variantlarini taklifetadi.

Shunday qilib, tibbiy OTMda talabalarni klinik o‘yinlar asosida ularning kasbiga doir mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, insonparvarligi, xushmuomilaligi, qarorlar kabul qilishga ijodiy yondashishi singari fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi va hokazo. Talabalarning deontologik ko‘nikmalar, aloqa bog‘lab, muloqot qilish, tashkilotchilik ko‘nikmalarini mashq qilishlarini ta’kidlab o‘tish ayniksa muhim. Vrachning etika bobidagi xatolari aksari deontologiya tamoyillarini bilmaslikdan ko‘ra ko‘proq bu tamoyillarni konkret bemor xususida, uning psixologik, emotsional, ijtimoiy ahvolini hisobga olib tatbik etishga tayyorgarligi yo‘qligiga bog‘liq bo‘ladi.

Klinik tashxis, interfaol metodlar asosida o‘yin orqali bemorga yo‘l-yo‘riqlar: 7 yoshli bola 3 kundan beri qayt qiladi. Ilgari salomatligida bunday muammo yo‘q edi. So‘nggi 3 kun davomida sababini tushuntirib bo‘lmaydigan va hozir tinch turilganda ham zo‘rayib boradigan hansirash paydo bo‘ldi. Avvaliga u quruq yo‘tal bilan birga davom etib bordi. Lekin keyingi kunlarda bolada yo‘tal bo‘lib, qon aralashmagan, chamasi, 100 ml cha yiringli (ko‘m-ko‘k) balg‘am tushdi. Shu kasallik tufayli badani qizib, titroq bosayotganini, kechda esa bola juda qattiq qaltiragani navbatchi vrach haroratini o‘lchaganda 39,50 S bo‘lgani va qayd qilgani, ertalab esa, bolani kasalxonaga olib kelishgan. Bundan tashqari, so‘nggi 2 kun davomida ko‘krak qafasning o‘ng yarmida bir qadar noxushlik borligini, yo‘tal vaqtida uning kuchayishini ko‘rsatib o‘tdi bola.

Shifokorga yo‘l-yo‘riqlar: Siz - kasalxona qabul bo‘limining vrachisiz. Sizga hansirab, yo‘talib turgan bemor bolani olib kelishdi. Bemordan surab- surishtirish ishlarini 6 minut ichida to‘la bajaring.

Ekspertga yo‘l-yo‘riqlar: Shifokorning so‘rab-surishtirish vaqtidagi ishlarini baholang va uning necha ball olganini qayd qilib boring.

1. Vrach o‘zini tanishtirdimi.	1 ball	0 ball
2. Simptomlar qancha vaqt davom etadi.	1 ball	0 ball
3. Balg‘am:		

A. Paydo bo‘lishi	1 ball	0 ball
V. Hajmi	1 ball	0 ball
S. Qon bor-yo‘qligi	1 ball	0 ball
4. Hansirash	1 ball	0 ball
A. Jismonon zo‘r kelishga bog‘liqligi	1 ball	0 ball
V. Tinch turilganda	1 ball	0 ball
5. Boshqa simptomlar: qaltirash, isitma, darmonsizlik	1 ball	0 ball
6. Boshqalar bilan muloqatda bo‘lish	1 ball	0 ball
7. Chekish	1 ball	0 ball
8. Kasb-kor	1 ball	0 ball
9. Diagnoz	1 ball	0 ball

Diagnoz: O‘tkir pnevmoniya: Rolli o‘yin tugaganidan keyin ekspert vrachning yo‘l qo‘ygan hamma kamchiliklarini qayd qilgan va ajratilgan vaqt ichida uning ulgurgan-ulgurmaganligini hisobga olgan holda unga baho beradi. Eng yuqori ball-Eslatma: ushbu rolli uyin davolash fakultetining 6-7 kurs talabalari uchun taklif etiladi va konsultatsiyalar o‘tkazish malakalarini mukammallashtirishga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, ekspert rolidagi talaba o‘z o‘rtog‘ining ishlarini tanqidiy nuqtai nazardan baholay olishi va xatolarini topa bilishi kerak, chunki ular kelgusidagi real hayotda ana shuday vaziyatga duch kelishlari mumkin va konsultatsiya vaqtida hamma muammolarni zudlik bilan aniq-ravshan qilib hal eta olishlari lozim. Zamonaviy tibbbiy ta’lim sharoitida bo‘lajak bolalar shifokori mutaxassislarida kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda bilimlarni mustaqil egallash va muammoni mustaqil ravishda hal etishga ijodiy yondashish qobiliyatlari ham rivojlanishi kerak. Shuning uchun ham bugungi kunda tibbiyotda ta’lim oluvchilarning o‘quv- bilish faoliyatlarini ta’minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta’lim metodlarini o‘quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova L.A. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali kadrlar tayyorlashda innovatsion va simulyatsion ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiyasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2022. – 192 b.

2. Ashurova D.T. va boshq. Bolalar kasalliklari propedevtikasi. – T.: 2018. –123 b.

3. Daminov T.A., Xolmatova B.T., Boboyeva U.R. Bolalar kasalliklari. – T.: 2013. – 277 b.

3. Maxmudova D.I., Axmedov M.N., Tolipova A.L. va boshq. Ko‘krak suti bilan boqish. – T.: Meditsina nashriyoti, 2003.

4. Shadmanov M.A. Tibbiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiyaning tashkil etish metodikasini takomillashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – TTA, T.: 2023. – 197 b.

5. Shigakova Lyusiya Anvarovna. Biologiyani o‘qitishda talabalar tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun virtual dasturlar va didaktik vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari misolida): Pedagogika fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2024. – 35 b.

6. Xalmatova B.T., Bobomuratov T.A. Pediatriyada sindromal diagnostika: o‘quv qo‘llanma. – T.: TTA bosmaxonasi, 2010.

7. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya*:* Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – M.: “Logos” nashriyot korporatsiyasi, 2000. – 384 b.

8. Brown M.R., Higgins K., Hartley K. Teachers and Technology Equity // Teaching Exceptional Children. – 2001. – Vol. 33. – P. 32–39.

9.Nevolina V.V., Garayeva E.A., Bragirov G.B. Raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy pedagogning professional pozitsiyasini amalga oshirish // Sovremennye problemy nauki i obrazovaniya. – 2022. – № 6-1.

10. Kamolovich A.A. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari // Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. – 2022. – B. 358–361.

11. Journell W. The inequities of the digital divide: Is e-learning a solution? // E-Learning and Digital Media. – 2007. – Vol. 4(2). – P. 138–149.

12. Hillier M. Bridging the digital divide with off-line e-learning // Distance Education. – 2018. – Vol. 39. – № 1. – P. 110–121.

Musurmonov Ulug‘bek Amirqulovich
GDPI mustaqil izlanuvchisi
atm@nuu.uz

RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA’LIM, ISH FAOLIYATI VA KUNDALIK HAYOTDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli savodxonlik tushunchasi va uning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida ta’lim, iqtisodiyot va kundalik hayotda raqamli savodxonlikning o‘rni tobora ortib bormoqda. Maqolada informatika fanining raqamli savodxonlikni shakllantirishdagi roli, ushbu fan orqali o‘quvchilarga texnologik ko‘nikmalarni o‘rgatish, axborot xavfsizligi va algoritmik tafakkurni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan.

Kalit so’zlar: *raqamli savodxonlik, global axborot makoni, masofadan xizmat ko‘rsatish, grafik dizayn, yagona axborot tarmog‘i.*

Мусурмонов Улугбек Амиркулович
независимый соискатель ГГПИ
atm@nuu.uz

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ, ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ПОВСЕДНЕВНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: В данной статье анализируется понятие цифровой грамотности и её значение в современном обществе. В результате развития цифровых технологий роль цифровой грамотности в образовании, экономике и повседневной жизни неуклонно возрастает. В статье подробно освещается роль информатики в формировании цифровой грамотности, вопросы обучения учащихся технологическим навыкам посредством данного предмета, обеспечения информационной безопасности и развития алгоритмического мышления.

Ключевые слова: цифровая грамотность, глобальное информационное пространство, дистанционное обслуживание, графический дизайн, единая информационная сеть.

Musurmonov Ulug‘bek Amirqulovich
Independent Researcher of GSPI
atm@nuu.uz

THE ROLE OF DIGITAL LITERACY IN EDUCATION, PROFESSIONAL ACTIVITY, AND DAILY LIFE

Abstract: This article analyzes the concept of digital literacy and its significance in modern society. As digital technologies continue to develop, the role of digital literacy in education, the economy, and everyday life is becoming increasingly important. The article comprehensively discusses the role of computer science in developing digital literacy, teaching students technological skills through this subject, and fostering information security awareness and algorithmic thinking.

Keywords: digital literacy, global information space, remote services, graphic design, unified information network.

XXI asr – raqamli texnologiyalar asri bo‘lib, bugungi kunda inson faoliyatining deyarli barcha jabhalari raqamlashtirilmoqda. Raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiyot, ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalarda innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu sababli, zamonaviy jamiyatning har bir a’zosi raqamli savodxonlikka ega bo‘lishi muhimdir. Raqamli savodxonlik – bu faqat kompyuter va internetdan foydalana olish emas, balki raqamli texnologiyalarni ongli, xavfsiz va samarali qo‘llash qobiliyatini anglatadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan zamonaviy jamiyatda raqamli savodxonlik muhim ko‘nikmalardan biriga aylandi. Raqamli savodxonlik insonning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish va texnologiyalar yordamida muammolarni hal qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayonda informatika fani muhim rol o‘ynaydi, chunki u raqamli texnologiyalarni o‘rganish, ulardan samarali foydalanish va axborot xavfsizligini ta’minlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli savodxonlik ta’lim, ish faoliyati va kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki u insonlarning texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish, axborotni tezkor qabul qilish va tahlil qilish, internetdan samarali va xavfsiz foydalanish hamda zamonaviy kasblarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli savodxonlik kiberxavfsizlikni ta’minlash, onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish va global axborot makonida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababdan yurtimizda ushbu soha davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan va ko’plab qaror va farmoyishlar aynan mazkur sohani o’z ichiga olmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining raqamli savodxonligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan:

- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2020-yil, 5-oktyabr, PQ–4851-sonli Prezident qarori) doirasida mamlakatda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu strategiyada raqamli ta’lim tizimini takomillashtirish va aholi, xususan, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan[1].
- “O‘zbekiston Respublikasida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish bo‘yicha 2020–2023-yillarga mo‘ljallangan strategiya” asosida IT-ta’limni rivojlantirish va yoshlarni dasturlashga o‘rgatish uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Bir million dasturchi” loyihasi orqali yoshlarning IT sohasidagi bilimlarini oshirish yo‘lga qo‘yildi[2].
- 2022-yil 7-martdagi PQ–168-sonli “Raqamli texnologiyalar sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori asosida mamlakatimizda axborot texnologiyalarini chuqur o‘rgatish bo‘yicha maxsus IT-maktablar va universitetlarda yangi yo‘nalishlar ochildi.
- “2020-2022-yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi” doirasida elektron tijorat, moliyaviy texnologiyalar va dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish sohasida fuqarolarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga katta e’tibor qaratildi[3].

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda raqamli savodxonlikni oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda ta’lim tizimining roli beqiyos bo‘lib, ayniqsa, informatika fani orqali o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va kiberxavfsizlik qoidalarini tushuntirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Shunday qilib, informatika fani nafaqat o‘quvchilarga kompyuter va dasturiy ta’minotdan foydalanishni o‘rgatadi, balki ularning tanqidiy va algoritmik fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu sababli, informatika fani raqamli savodxonlikni shakllantirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Tabiiyki, boshqa sohalarda bo'lgani singari kabi paqamli texnologiyalarni soliq ma'murchiligida joriy etish ham uning faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Bu nafaqat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qolmay, balki deklaratsiyalarni taqdim etishdan tortib, to soliqlarni to'lash va ma'lumotlarni saqlash usullarigacha ham yangilikliklar kirityapti. Xususan, tizimda yagona elektron platformani yaratish orqali ma'lumotlarni kiritish, to'plash, shakllantirish, tahlil qilishning zamonaviy uslubi yo'lga qo'yildi. Buning natijasida soliq hisobotlarini topshirish jarayoni 5-7 barobarga qisqardi. Ayni kezda 112 guruh va 1348 tovar va xizmatlar sinfidan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi tovarlar va xizmatlarning yagona elektron tasniflagichi uchun veb-portal joriy qilingan. Mahsulotlar va xizmatlar identifikatsiya kodlari yordamida 900 mingdan ortiq elektron hisob-fakturalar yaratilgan.Axborot bu–biz barcha sezgi a’zolarimiz orqali qabul qila oladigan ma’lumotlar to‘plamidir. Axborot atrofimizdagi har xil voqea hodisalar haqidagi ma’lumotlar yig‘indisidir. Axborotlar ustida biror kerakli amallarni bajarish uchun tashkil qilingan jarayon axborot texnologiyasi deb ataladi. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, xarbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta’sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ham ega bo‘lib bormoqda[4].

Bugungi globallashuv jarayoni mehnat bozoridagi ishchi kuchining raqamli savodxonligini oshirishni talab etmoqda. Jumladan, masofadan xizmat ko‘rsatish va aqlli elektron qurilmalardan foydalanish ko‘payishi bilan korporatsiyalar va kompaniyalarning ishchi kuchi tubdan va tez o‘zgarib bormoqda. Bu, albatta, ShHTga a’zo mamlakatlar o‘rtasida ham mehnat bozorini mo‘’tadillashtirib, ishchi kuchi migratsiyasida uchraydigan to‘siqlarni raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali bartaraf etadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, hozirgi kunda IT sohasida dunyo bo‘yicha 1,2 million nafar mutaxassisga talab mavjud. Ushbu ko‘rsatkich 2030 yilga borib 4,3 millionni tashkil etishi kutilmoqda. Hindiston masofadan xizmat ko‘rsatish bo‘ yicha dunyodagi eng yirik bozorga ega. Mamlakatda tarmoq, mobil ilovalarni ishlab chiqish, veb dizayn, internet tadqiqotlari va ma’lumotlarni kiritish yo‘nalishlarida masofadan xizmat ko‘rsatish rivojlangan. So‘nggi paytlarda buxgalteriya hisobi, grafik dizayn va konsalting sohalarida ham bosqichma-bosqich o‘sish kuzatilmoqda. Chunki mamlakatda har oyda 500 mingdan ortiq yangi biznes tashkil etiladi. Hindistondagi BPO bozori 2025 yilga borib, 20–30 milliard dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning axborot savodxonligi ko‘nikmalarini mustahkamlash va raqamli texnologiylarni joriy etishning asosiy elementlarini belgilashning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarin shakllantrish, o‘quv jarayonida kompetensivalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarini shaklantriga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallamrini keng joriy etish" ustuvor vazifalar etib belgilandi[5]. Bu esa, o‘quvchilarda axborot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida Internet xalqaro axborot tarmog‘idan va elektron pochta xizmatidan foydalanuvchilar soni toboraoshib bormoqda. Navbatdagi dolzarb vazifalar sifatida dunyoda mavjudbulgan ilg‘or va zamonaviy informatsion-pedagogik texnologiyalarni o‘rganish, ularni o‘quv jarayoniga tadbiqetish, muassasalar o‘rtasida yagona axborot tarmog‘ini tashkil etish, o‘quv jarayoniga qo‘llash uchun dasturiy maxsulotlar ishlabchiqish, virtual kutubxonalar tashkil etish va ularni uzluksiz tarzda jaxonda mavjud va Respublika ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron darsliklar bilan boyitish kabilar belgilangan. Shu bilan birgalikda talabalarning kompyuter savodxonligini oshirish uchun bir qator ishlar qilinmoqda. Kompyuter xonalarida talabalarning o‘rganishlari uchun zarur bo‘lgan dasturlar mavjud. Talabalar internet tarmog‘i orqali o‘zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olish bilan bir qatorda, elektron darsliklardan, audio kitoblardan foydalanishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Informatika fani raqamli savodxonlikni shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Bu fan orqali o‘quvchilar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganadi, axborot xavfsizligini ta’minlaydi va raqamli dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilimlarga ega bo‘ladi. Bugungi kunda texnologik taraqqiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir sharoitda ta’lim tizimida informatika fanining o‘rni yanada kuchaytirilishi zarur. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Raqamli savodxonlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- **Informatika fanini yanada takomillashtirish:**
  - ✓ O‘quv dasturlariga zamonaviy dasturlash tillari, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va kiberxavfsizlik kabi yangi yo‘nalishlarni kiritish.
  - ✓ Informatika darslarini nazariyadan ko‘ra amaliy mashg‘ulotlar shaklida tashkil etish va loyihalarga asoslangan ta’lim metodikasini keng joriy etish.
  - ✓ O‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalar, jumladan, bulutli texnologiyalar va IoT (Internet of Things) haqida tushuncha berish.
- **O‘qituvchilar malakasini oshirish:**
  - ✓ Informatika o‘qituvchilari uchun muntazam ravishda zamonaviy IT-trendlar bo‘yicha treninglar va seminarlar tashkil etish.

- ✓ Dasturlash va axborot texnologiyalarini chuqur o‘rgangan mutaxassislarni maktab ta’limiga jalb qilish.
- ✓ Raqamli pedagogika metodlarini o‘qituvchilar orasida keng targ‘ib qilish.

➢ **Zamonaviy o‘quv resurslarini yaratish**

- ✓ O‘quvchilar uchun interaktiv platformalar, onlayn kurslar va virtual laboratoriyalarni yaratish.
- ✓ Milliy ta’lim tizimi uchun raqamli ta’lim resurslari, masalan, o‘zbek tilida IT-ma’ruzalar va darsliklar ishlab chiqish.
- ✓ Dars jarayonlarida zamonaviy texnologiyalardan (AR/VR, simulyatorlar, kodlash o‘yinlari) keng foydalanish.

➢ **Raqamli savodxonlikni keng ommaga yetkazish**

- ✓ Maktablardan tashqari, aholi uchun ham bepul raqamli savodxonlik kurslarini tashkil etish.
- ✓ Talabalar va yosh mutaxassislar uchun IT-loyihalar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar va startap inkubatorlarini yo‘lga qo‘yish.
- ✓ Katta yoshdagi aholiga ham raqamli texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha treninglar berish.

➢ **Kiberxavfsizlikni mustahkamlash**

- ✓ O‘quvchilarga internet xavfsizligi qoidalarini o‘rgatish va ushbu yo‘nalishda amaliy mashg‘ulotlarni yo‘lga qo‘yish.
- ✓ Maxsus kiberxavfsizlik dasturlarini ishlab chiqish va yoshlarni ushbu sohada faol ishtirok etishga rag‘batlantirish.
- ✓ Maktablarda axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus kurslarni joriy qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida**gi PQ–4851-sonli qarori. (2020-yil 5-oktyabr).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Raqamli texnologiyalar sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ–168-sonli qarori. (2022-yil 7-mart).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2020-2022-yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”**.

4. Xaydarov A., Jo‘rayev I. **“Informatika va axborot texnologiyalari”**. O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

5. Rasulov U., Xolboyev A. **"Dasturlash asoslari va algoritmik tafakkur"**, Toshkent, 2022.

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi
O‘qituvchi
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
Navoiy davlat universiteti

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENSIYASINI METODIK RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini metodik rivojlantirish strategiyalari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o‘rni, ularning pedagogik faoliyatda qo‘llanish imkoniyatlari hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishga ko‘rsatadigan ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar, raqamli platformalar va didaktik vositalardan foydalanishning metodik yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari raqamli ta’lim muhitida pedagoglarning kreativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik strategiyalarni aniqlashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiyalar, kreativ kompetensiya, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, innovatsion metodlar, pedagogik strategiyalar, raqamli ta’lim muhiti, interaktiv texnologiyalar.

Омонбоева Меруерт Эркин кызы
Преподаватель
Кафедры начального образования
Навоинского государственного университета

СТРАТЕГИИ МЕТОДИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются стратегии методического развития креативной компетенции будущих учителей начальных классов на основе цифровых технологий. С научно-педагогической точки зрения анализируется роль цифровых технологий в современной образовательной системе, их возможности применения в педагогической деятельности, а также влияние на развитие креативного мышления. Кроме того, рассматриваются методические пути использования инновационных методов, интерактивных технологий, цифровых платформ и дидактических средств, способствующих формированию креативной компетенции у будущих учителей. Результаты исследования позволяют определить эффективные методические стратегии развития творческого потенциала педагогов в условиях цифровой образовательной среды.

Ключевые слова: цифровые технологии, креативная компетенция, будущий учитель начальных классов, инновационные методы, педагогические стратегии, цифровая образовательная среда, интерактивные технологии.

Omonboyeva Meruyert Erkin qizi
Teacher of the Department of Primary Education
Navoi State University

STRATEGIES FOR THE METHODOLOGICAL DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

Abstract. This article analyzes the strategies for the methodological development of creative competence of future primary school teachers based on digital technologies from a scientific and pedagogical perspective. The study highlights the role of digital technologies in the modern education system, their possibilities for application in pedagogical activities, and their impact on the development of creative thinking. In addition, the methodological approaches to the use of innovative methods, interactive technologies, digital platforms, and didactic tools that contribute to the formation of creative competence in future teachers are considered. The results of the research make it possible to identify effective methodological strategies for developing the creative potential of teachers in a digital educational environment.

Keywords: digital technologies, creative competence, future primary school teacher, innovative methods, pedagogical strategies, digital learning environment, interactive technologies.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, ayniqsa raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo‘lish, balki kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv asosida dars jarayonini tashkil eta olish, raqamli vositalardan samarali foydalanish kabi kompetensiyalarni egallash ham talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqib, o‘qitishning samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli tashkil etish hamda talabalar ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Turli raqamli platformalar, multimedia vositalari, onlayn ta’lim resurslari, virtual va interaktiv muhitlar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuvni shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashi va innovatsion g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qituvchining kreativ kompetensiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi, ularning tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalar asosida kreativ kompetensiyani metodik jihatdan rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi pedagogik faoliyat mazmuni va metodikasini tubdan o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning kreativ kompetensiyasini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Kreativ kompetensiya o‘qituvchining yangi pedagogik g‘oyalarni ilgari surishi, innovatsion yondashuvlardan foydalanishi, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topa olishi hamda o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantira olish qobiliyatini ifodalaydi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, o‘qitish metodlarini diversifikatsiya qilish hamda kreativ

faoliyatni rag‘batlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Xususan, elektron ta’lim platformalari, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari, onlayn ta’lim muhitlari va virtual laboratoriyalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiyalar yordamida talabalarda muammoli fikrlash, ijodiy yondashuv, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalari shakllanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ kompetensiyasini rivojlantirishda metodik strategiyalar muhim rol o‘ynaydi. Bunday strategiyalar qatoriga interaktiv ta’lim metodlari, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, keys-stadi texnologiyasi, raqamli kontent yaratish hamda refleksiv tahlil metodlari kiradi. Masalan, loyiha asosida o‘qitish jarayonida talabalar muayyan pedagogik muammoni hal etish uchun mustaqil izlanish olib boradilar, turli raqamli vositalardan foydalanib innovatsion mahsulot yaratadilar. Bu jarayon esa ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Raqamli texnologiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, ularning samaradorligi yuzaga chiqadigan yangiliklar tahlil qilinadi.

1. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim sohasining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun interaktiv metodlar, multimediali resurslar, sun’iy intellekt yordamida tuzilgan mashqlar va virtual laboratoriyalar ta’lim sifati va natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, bu metodikani yangilash va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2. Kasbiy kompetentlik mazmuni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyidagi elementlardan iborat: Pedagogik-psixologik tayyorgarlik axborotkommunikatsion texnologiyalarni bilish va qo‘llay olish. Didaktik yondashuvlar orqali darsni loyihalash ijodiy va tanqidiy fikrlash Innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmasi

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish metodikasi Takomillashtirilgan metodika quyidagilarga asoslanadi: Blended learning (aralash o‘qitish) modelidan foydalanish

Google Workspace, ClassDojo, Kahoot, Quizizz kabi vositalardan foydalanish Elektron portfoliolar, raqamli laboratoriyalarni joriy qilish

4. Kasbiy kompetentlik va uning zamonaviy talqini Kasbiy kompetentlik – bu nafaqat kasbga oid bilim va ko‘nikmalarga egalik qilish, balki ulardan real o‘quv muhitida samarali foydalanish qobiliyatidir. Raqamli asrda bu kompetentlikka quyidagilar kiradi: raqamli savodxonlik, innovatsion fikrlash, interaktiv vositalardan foydalanish, masofaviy o‘qitish usullariga moslashuv va boshqalar.

Raqamli texnologiyalarning o‘qituvchi tayyorlashdagi roli

Interaktiv taqdimotlar, onlayn sinflar, QR kodli topshiriqlar, AR/VR texnologiyalar, video darslar – bularning barchasi o‘qituvchini zamonaviy muhitda samarali ishlashga tayyorlaydi. Raqamli vositalardan to‘g‘ri va metodik jihatdan asoslangan foydalanish bo‘lajak pedagoglarning ishonchini oshiradi.

№	Strategiya nomi	Mazmuni	Raqamli vositalar	Kutilayotgan natija
1	Interaktiv ta’lim strategiyasi	Talabalarni faol o‘quv jarayoniga jalb qilish, muammoli vaziyatlar orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish	Interaktiv platformalar, onlayn testlar, virtual doskalar	Talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash rivojlanadi
2	Loyihaviy ta’lim strategiyasi	Talabalar tomonidan raqamli loyihalar ishlab chiqish va taqdim etish orqali ijodkorlikni oshirish	Prezentatsiya dasturlari, video tahrirlash vositalari, taqdimot platformalari	Amaliy ko‘nikma va kreativ yondashuv shakllanadi
3	Muammoli ta’lim strategiyasi	Pedagogik muammolarni raqamli muhitda tahlil qilish va yechim topish	Onlayn forumlar, muhokama platformalari, ta’lim portallari	Tahliliy va innovatsion fikrlash rivojlanadi
4	Raqamli hamkorlik strategiyasi	Talabalar o‘rtasida jamoaviy ijodiy faoliyatni tashkil etish	Bulutli texnologiyalar, hamkorlik platformalari	Jamoada ishlash va kreativ g‘oyalar almashinuvi kuchayadi
5	Multimediali ta’lim strategiyasi	Matn, audio, video va animatsiyalar orqali dars jarayonini boyitish	Multimedia dasturlari, animatsiya va grafik vositalar	O‘quv jarayoni qiziqarli va samarali bo‘ladi
6	Refleksiv ta’lim strategiyasi	Talabalarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash jarayonini tashkil etish	Elektron portfolio, blog va raqamli kundaliklar	O‘zini rivojlantirish va kreativ yondashuv kuchayadi

Mamlakatimizda pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, tabaqalashtirish, variativ o‘quv rejalari, fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni hayotga tayyorlash tamoyillarini keng joriy qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Pedagogika sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari uchun zamonaviy o‘quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni qo‘llash nazariyasi va metodologiyasini joriy etish” vazifalari belgilanib, talabaning aqliy, intellektual va jismoniy kuchlarini raqamli texnologiyalar orqali ma'lum bir maqsadga yo‘naltirish, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirish, bilimlarni, dizaynni, kommunikativ-nutq hamda tashkiliy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda nazariy bilim, amaliy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar asosida fanlararo integratsiyaning samarali mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida”gi PF-60-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonlari, 2018- yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g'risida”gi PQ-3775-son, 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g'risida”gi PQ-289-son Qarorlari va ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni tayyorlashda zamonaviy o‘quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik shart-shartlari, boshlang'ich sinflarda qo‘llashning alohida ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Raqamli texnologiyalar bizning davrimizda tez va shiddat bilan bilan rivojlanayotgan, hozirgi kunning dolzarb, lekin juda samarali usullaridan biri sifatida rivojlanayotgan vositalar tizimidir. Zamonaviy o‘quv jarayoni vositasi sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli texnologiyalarini ta'lim texnologiyalarida foydalanishni amalga oshirishda o‘qituvchilar jamoasi qat’iy sa’y-harakatlar olib borishmoqda.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Raqamli ta’lim muhiti o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini, ayniqsa kreativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida innovatsion metodlar, interaktiv texnologiyalar hamda raqamli platformalardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, keys-stadi, refleksiya hamda raqamli didaktik vositalardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari va innovatsion yondashuvlarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu metodik strategiyalar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini mustahkamlash, balki ularning pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvni qo‘llash qobiliyatini ham shakllantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda axborot bilan ishlash, yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi oshadi hamda ular zamonaviy ta’lim talablariga mos ravishda faoliyat yurita oladigan mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Kelgusida mazkur yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar raqamli ta’lim texnologiyalarining yangi imkoniyatlarini o‘rganish, kreativ kompetensiyani

rivojlantirishning innovatsion metodik modellarini ishlab chiqish hamda ularni pedagogik amaliyotga keng joriy etishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g'risida”gi PF-60-son

2. 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risida”gi PF-5847-son

3. 2022-yil 6-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026- yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g'risida”gi PF-60-son Farmonlari

4. Ruzimatov, J. (2024). THE ROLE OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN METHODICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. Евразийский журнал академических исследований, 4(3 Part 2), 109-113.

5. Rozimatov, J. (2023). ENHANCING THE METHODOLOGY FOR UTILIZING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS (USING NATURAL SCIENCE AS AN EXAMPLE). Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 11-13.

Tavsiya: Professional ustaxonalarda "bir kunlik usta yordamchisi" yoki "shogirdlik kuni" kabi interaktiv amaliyotlarni tashkil etish. Bunda yoshlar kasbning nafaqat natijasini, balki ijodiy jarayonini ham his qiladilar.

3. Pedagoglar uchun kreativ ish shakllari. Uyushmagan yoshlar bilan ishlashda quyidagi innovatsion shakllarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

Kasbiy kvestlar (Career Quests): Shahar yoki tuman bo‘ylab turli korxonalarga tashrif buyurish va u yerda kichik topshiriqlarni bajarish orqali ballar to‘plash.

Muvaffaqiyatli tengdoshlar bilan uchrashuv: O‘z vaqtida uyushmagan yoshlar toifasida bo‘lgan, ammo hozirda o‘z biznesiga yoki kasbiga ega bo‘lgan yoshlar bilan "filtrlarsiz muloqot".

Debat va muhokama klublari: "Qaysi kasb egasi kelajakda robotlar bilan raqobatlasha oladi?" kabi mavzularda bahslar tashkil etish orqali ularni fikrlashga undash.

4. Kutiladigan natijalarda shuni ko‘rish munkunki. Pedagogik ijodkorlik asosida olib borilgan ishlar natijasida:

Yoshlarning o‘z qobiliyatlariga bo‘lgan ishonchi ortadi;

Kasbiy tanlov "majburiyat"dan "qiziqish"ga aylanadi;

Mehnat bozorida nafaqat ishchi, balki kreativ fikrlovchi mutaxassislar ko‘payadi.

Uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoni shunchaki bandlikni ta’minlash emas, balki inson kapitalini rivojlantirishdir. Pedagogning ijodiy qobiliyati yoshlarning qalbiga yo‘l topishda ko‘prik vazifasini o‘taydi. Agar pedagog har bir yoshga individual loyiha sifatida yondashsa va zamonaviy texnologiyalarni kreativ metodlar bilan uyg‘unlashtirsa, uyushmagan yoshlar qatlami jamiyatning eng faol va bunyodkor qismiga aylanishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

I. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PF-6079-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-92-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida" gi Qonuni. – Toshkent: 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

II. Ilmiy asarlar va darsliklar:

5. Aripov M. va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: Noshir, 2020.

6. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishning nazariy-metodik asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

7. Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.

8. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2010.

9. Robert I.V. Informatizatsiya obrazovaniya: teoriya i metodika obucheniya. – Moskva: Shkola-Press, 2014.

III. Davriy nashrlar va ilmiy maqolalar:

10. Abdullaeva Q.N. "Raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasi". // Pedagogika jurnali, 2022, 3-son.

11. Xaydarov B.Z. "Uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda innovatsion yondashuvlar". // Kasb-hunar ta’limi ilmiy-uslubiy jurnali, 2023, 1-son.

12. Gulyamov S.S. "Raqamli iqtisodiyotda kadrlar tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021.

IV. Internet resurslari va elektron manbalar:

www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

www.yoshlar.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi rasmiy portali.

www.ziyonet.uz – Axborot-ta’lim tarmog‘i resurslari.

www.unesco.org – UNESCOning raqamli ta’lim va savodxonlik bo‘yicha hisobotlari.

www.coursera.org – Global onlayn ta’lim platformasi materiallari.

Muratova Saboxat Choriyevna
“Pedagogika” kafedrasi mudiri
P.f.f.d. (PhD), dotsent
Toshkent amaliy fanlar universiteti

PEDAGOGLARNING SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagoglarning sun’iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish muammolari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayoniga sun’iy intellektning kirib kelishi pedagoglardan yangi bilim, ko‘nikma va yondashuvlarni talab etmoqda. Tadqiqotda pedagoglarning raqamli kompetensiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi, metodik ta’minotning kamligi, texnik infratuzilma muammolari hamda psixologik to‘siqlar asosiy muammo sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, mazkur muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, pedagog kompetensiyasi, raqamli kompetensiya, ta’lim sifati, innovatsion texnologiyalar, kasbiy rivojlanish, metodika.

Муратова Сабохат Чориевна
Заведующая кафедрой «Педагогика»
Кандидат наук, доцент
Ташкентский университет прикладных наук

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы развития компетенций педагогов в эффективном использовании технологий искусственного интеллекта. Внедрение искусственного интеллекта в образовательный процесс требует от педагогов новых знаний, навыков и подходов. В исследовании выявлены основные проблемы: недостаточная подготовка педагогов в области цифровых компетенций, отсутствие методической поддержки, проблемы с технической инфраструктурой и психологические барьеры. Также разработаны практические рекомендации по устранению этих проблем.

Ключевые слова: искусственный интеллект, педагогическая компетентность, цифровая компетентность, качество образования, инновационные технологии, профессиональное развитие, методология.

Sabohat Chorievna Muratova
Head of the Department of Pedagogy
PhD, Associate Professor
Tashkent University of Applied Sciences

CHALLENGES AND SOLUTIONS IN DEVELOPING TEACHER COMPETENCE IN THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abstract. This article analyzes the challenges of developing teachers' competencies in the effective use of artificial intelligence technologies. The introduction of artificial intelligence into the educational process requires teachers to acquire new knowledge, skills, and approaches. The study

identifies key challenges: insufficient teacher training in digital competencies, a lack of methodological support, problems with technical infrastructure, and psychological barriers. Practical recommendations for addressing these issues are also developed.

Keywords: artificial intelligence, pedagogical competence, digital competence, quality of education, innovative technologies, professional development, methodology.

XXI asr boshidan boshlab raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi insoniyat taraqqiyotining barcha sohalarida chuqur o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari bugungi kunda sanoat, tibbiyot, transport va moliya sohalari bilan bir qatorda ta’lim tizimiga ham faol kirib bormoqda [1]. Xalqaro tahlillarga ko‘ra, yaqin yillarda ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish hajmi keskin oshib, raqamli ta’lim muhitining kengayishiga xizmat qiladi. Bu holat ta’lim tizimining texnologik jihatdan yangilanib borayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga samarali joriy etish o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarni qo‘ymoqda [2]. Zamonaviy pedagog endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki raqamli texnologiyalarni tushunadigan, ulardan amaliyotda foydalana oladigan va innovatsion yondashuvlarni qo‘llay biladigan mutaxassis sifatida namoyon bo‘lishi zarur. Bu esa, ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolaning maqsadi pedagoglarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Global miqyosda olib borilgan tadqiqotlar natijalari pedagoglarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni muhim ekanligini tasdiqlaydi [3]. Tahlillarga ko‘ra, yaqin istiqbolda ko‘plab kasblar sun’iy intellekt texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qoladi, bu esa o‘qituvchilik kasbiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, pedagoglardan doimiy ravishda bilim va ko‘nikmalarini yangilab borishni talab etadi. Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan samarali foydalanish pedagoglarning kasbiy kompetensiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu yo‘nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi [4]. Yevropa tajribasida ishlab chiqilgan raqamli kompetensiya modellari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda sun’iy intellektdan foydalanish ko‘nikmalari kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi va pedagoglarni nafaqat texnologiyani bilishga, balki uni samarali qo‘llashga ham yo‘naltiradi [5]. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib, sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish va sun’iy intellekt asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan.

Pedagoglarning mazkur texnologiyalarni chuqur anglashi, ulardan samarali foydalanishi hamda o‘quv jarayoniga integratsiya qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [6]. Bu esa ularning zamonaviy ta’lim muhiti talablariga to‘liq javob bera olmasligiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, pedagoglarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida bir qator dolzarb muammolar mavjudligi kuzatiladi [5].

Raqamli kompetensiyaning yetarli emasligi – bugungi kunda ko‘plab pedagoglar sun’iy intellekt texnologiyalari va ularning ta’limdagi imkoniyatlari bo‘yicha yetarli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega emas. Natijada, raqamli vositalardan faqat yuzaki foydalanish holatlari kuzatiladi, bu esa sun’iy intellektning ta’limdagi samaradorligini cheklaydi. Ayniqsa, algoritmik fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va adaptiv ta’lim tizimlaridan foydalanish ko‘nikmalarining yetishmasligi innovatsion faoliyatni susaytiradi.

Metodik ta’minotning yetishmasligi – sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha aniq va tizimli metodik qo‘llanmalar yetarli emas. Mavjud materiallarning umumiy xarakterga ega bo‘lishi ularni fanlar va ta’lim bosqichlariga moslashtirishni qiyinlashtiradi, bu esa pedagogik innovatsiyalarni joriy etishni cheklaydi.

Texnik infratuzilma muammolari – ayrim ta’lim muassasalarida zamonaviy texnika, barqaror internet va sun’iy intellektga asoslangan dasturiy ta’minot yetarli emas. Bu holat raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish va AI vositalarini amaliyotga joriy etishga to‘sqinlik qiladi.

Psixologik to‘siqlar – pedagoglar orasida yangi texnologiyalarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik holatlari mavjud bo‘lib, bu ularning innovatsion yondashuvlarni qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi hamda motivatsiyani pasaytiradi.

Malaka oshirish tizimining yetarli emasligi – mavjud kurslar ko‘proq nazariy xarakterga ega bo‘lib, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmaydi. Natijada pedagoglar sun’iy intellekt vositalarini real ta’lim jarayoniga samarali tatbiq eta olmaydi.

Mavjud kurslar ko‘pincha nazariy bo‘lib, amaliy ko‘nikmalarni yetarli darajada shakllantirmaydi [7].

Yuqorida qayd etilgan muammolarni samarali hal etish hamda pedagoglarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirish uchun kompleks va tizimli yondashuvni amalga oshirish zarur [7]. Bu jarayonda quyidagi chora-tadbirlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalo, pedagoglar uchun amaliy yo‘naltirilgan treninglar, seminarlar va workshoplar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashg‘ulotlar faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki real sun’iy intellekt platformalari, adaptiv ta’lim tizimlari va raqamli vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha tizimli va amaliy metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish zarur. Ushbu qo‘llanmalar turli ta’lim bosqichlari, fan yo‘nalishlari hamda dars jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tayyorlanishi pedagoglarning amaliy faoliyatini yengillashtiradi.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarini zamonaviy raqamli texnika, yuqori tezlikdagi internet va sun’iy intellekt asosidagi dasturiy ta’minotlar bilan to‘liq jihozlash muhim hisoblanadi. Bu esa raqamli ta’lim muhitini shakllantirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish imkonini beradi.

Shuningdek, pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshirish va ularni moddiy-ma’naviy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish ham muhim omillardan biridir. Innovatsion texnologiyalarni faol qo‘llayotgan o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash ularning ijodiy yondashuvini kuchaytiradi.

Eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida esa uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda pedagoglarning raqamli kompetensiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilimlarini doimiy ravishda yangilab borish, xalqaro tajriba almashinuvi va sertifikatlash tizimlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga jadal kirib kelishi pedagogik faoliyat mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirmoqda [8]. Bu jarayon nafaqat o‘qitish va o‘qish metodlarini modernizatsiya qiladi, balki pedagoglardan yangi turdagi kasbiy kompetensiyalarni ya’ni, raqamli savodxonlik, texnologik moslashuvchanlik, tahliliy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni egallashni talab etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagoglarning sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishda mavjud muammolar raqamli tayyorgarlikning yetarli emasligi, metodik ta’minotdagi bo‘shliqlar, texnik infratuzilma cheklovlari hamda psixologik to‘siqlar ta’lim jarayonining to‘liq raqamlashtirilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mazkur muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ilgari surilgan chora-tadbirlar pedagogik tizimni yangi sifat bosqichiga olib chiqish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga samarali integratsiyasi ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, pedagoglar ish samaradorligini kuchaytirish hamda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning rolini qayta ko‘rib chiqishni va uni raqamli transformatsiya sharoitiga mos ravishda yangi kompetensiyalar bilan boyitishni taqozo etadi.

Umuman olganda, sun’iy intellektdan foydalanish kompetensiyasiga ega pedagog kadrlarni tayyorlash nafaqat ta’lim sifatini oshirish omili, balki jamiyatning raqamli taraqqiyotini ta’minlovchi strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish va amaliy mexanizmlarni takomillashtirish kelajak ta’limi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xaytaliyevich K. A. Bo‘lajak pedagoglarda texnologik kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari // Pedagogical Sciences and Teaching Methods. – 2024. – T. 3. – No. 34. – S. 205–210.

2. Saidova N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning loyihaviy tafakkurini rivojlantirish // Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2025. – T. 2. – No. 4. – S. 83–86.

3. Kalandarova S. M. Sun’iy intellekt va bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kreativlik // Inter education & global study. – 2024. – No. 8. – S. 259–267.

4. Munisa M., Shohbozbek E. Uzluksiz ta’lim jarayonlarini tashkil qilishda sun’iy intellekt vositalarining qo‘llanilishi // Global Science Review. – 2025. – T. 3. – No. 3. – S. 224–230.

5. Jahongir M. va boshq. Sun’iy intellektni pedagogik amaliyotga tatbiq etishdagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – T. 44. – No. 2. – S. 41–48.

6. Saxobiddinovna Y. N. Raqamlashtirish sharoitida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning zarurati // Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 49. – S. 1176–1179.

7. Gulnoza S., Shohbozbek E. Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish // Global Science Review. – 2025. – T. 3. – No. 3. – S. 91–98.

8. Murodova M. M. Sun’iy intellekt vositalarining ta’lim jarayonidagi afzalliklari // Inter education & global study. – 2025. – No. 2. – S. 346–354.

Alimova Gulrux Farhod qizi
Katta o‘qituvchi
“Pedagogika” kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

MADANIY-GUMANISTIK TA’LIMNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Madaniy-gumanistik ta’limning nazariy asoslarida ta’lim jarayonida talabalarning shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari madaniy-gumanistik yondashuv asosida tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ madaniyati, refleksiv tafakkuri va ma’naviy mas’uliyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan.. Shuningdek, zamonaviy oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning jamoadagi hamkorlik faoliyati, tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Tayanch iboralar: ijtimoiylashuv, madaniy-gumanistik yondashuv, ijtimoiy faollik, kommunikativ madaniyat, refleksiv tafakkur, kasbiy kompetentlik, ma’naviy mas’uliyat.

Алимова Гулрух Фарход кизи
Старший преподаватель
Кафедра “Педагогика”
Ташкентского университета прикладных наук

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КУЛЬТУРНО-ГУМАНИСТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье проанализированы механизмы развития личностной и профессиональной социализации студентов в образовательном процессе на основе культурно-гуманистического подхода в контексте теоретических основ культурно-гуманистического образования. Освещены педагогические возможности развития социальной активности студентов, их коммуникативной культуры, рефлексивного мышления и нравственной ответственности. Кроме того, раскрыто социально-педагогическое значение развития у будущих специалистов в системе современного высшего образования навыков командного взаимодействия, инициативности и самостоятельного принятия решений.

Ключевые слова: социализация, культурно-гуманистический подход, социальная активность, коммуникативная культура, рефлексивное мышление, профессиональная компетентность, нравственная ответственность.

Alimova Gulrukh Farkhod Kizi
Senior Lecturer
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

THEORETICAL FOUNDATIONS OF CULTURAL-HUMANISTIC EDUCATION

Abstract. This article analyzes the mechanisms for developing students’ personal and professional socialization within the educational process based on the cultural-humanistic approach in the context of the theoretical foundations of cultural-humanistic education. It highlights the pedagogical opportunities for fostering students’ social activity, communicative culture, reflective thinking, and moral responsibility. Furthermore, the study reveals the socio-pedagogical significance of developing future specialists’ skills in teamwork, initiative, and independent decision-making within the modern higher education system.

Keywords: socialization, cultural-humanistic approach, social activity, communicative culture, reflective thinking, professional competence, moral responsibility.

Ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va uni madaniy qadriyatlar asosida tashkil etish bugungi globallashuv hamda ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida muhim pedagogik zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy, kasbiy va ijtimoiy jihatdan barkamol rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan ta’limga madaniy-gumanistik yondashuv shaxsning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi ustuvor pedagogik konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvda madaniyat va gumanistik tamoyillari o‘zaro uyg‘unlashib, ta’lim jarayonining mazmuni hamda maqsadini belgilovchi muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Madaniy-gumanistik ta’lim mohiyatini to‘laqonli anglash uchun, avvalo, “madaniyat”, “madaniylik”, “gumanistik”, “gumanizm” kabi tushunchalarning ilmiy mazmunini aniqlashtirish talab etiladi. Chunki ushbu tushunchalar shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviy shakllanishi va kasbiy kamolotida muhim nazariy tayanch sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy manbalarda “madaniyat” tushunchasi insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmui sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, u insonning borliqni o‘zlashtirish, uni takomillashtirish va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan ijodiy faoliyat mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Madaniyat insoniyatning tarixiy taraqqiyot tajribasini, jamiyatning ma’naviy darajasini, qadriyatlar tizimini va axloqiy mezonlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois madaniyat tushunchasi faqat san’at yoki ma’naviyat doirasi bilan cheklanib qolmay, balki ta’lim, tarbiya, ilm-fan, mehnat, ijtimoiy munosabatlar va turmush tarzini ham qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi.

“Madaniyat” atamasi tarixiy jihatdan turli ma’nolarda qo‘llanib kelgan. Yevropa ilmiy tafakkurida ushbu tushuncha lotincha “cultura” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab “ishlov berish”, “parvarish qilish” ma’nolarini anglatgan. Keyinchalik esa insonning ma’rifatli, bilimli va tarbiyali bo‘lishini ifodalovchi tushunchaga aylangan. Sharq tafakkurida esa “madaniyat” tushunchasi arabcha “madaniy” — ya’ni “shaharlik”, “tamaddunli” degan ma’nolar bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Bu esa madaniyatning insonning ijtimoiy taraqqiyoti va ma’naviy yetukligi bilan chambarchas aloqador ekanligini ko‘rsatadi.

Madaniyat fenomeniga oid ilmiy qarashlarning rang-barangligi mazkur tushunchaning murakkab va ko‘p qirrali ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar tomonidan unga yuzlab ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning aksariyatida madaniyat inson faoliyati, qadriyatlar tizimi va jamiyat taraqqiyotining ko‘rsatkichi sifatida baholanadi. Ayniqsa, madaniyatning ijodkorlik bilan bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inson aynan ijodiy faoliyat orqali o‘z salohiyatini namoyon qiladi, jamiyat rivojiga hissa qo‘shadi hamda ma’naviy kamolotga erishadi. Shu ma’noda madaniyat insonning ruhiy dunyosi, tafakkuri va faoliyatini birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Madaniy-gumanistik ta’lim shaxsning ma’naviy, ijtimoiy va kasbiy kamolotini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois mazkur tushunchalarning ilmiy mohiyatini aniqlashtirish zarur hisoblanadi.

Madaniy-gumanistik ta’lim mohiyatini to‘laqonli anglash uchun, avvalo, “madaniyat”, “madaniylik”, “gumanistik”, “gumanizm” kabi tushunchalarning ilmiy mazmunini aniqlashtirish talab etiladi. Chunki ushbu tushunchalar shaxsning ijtimoiylashuvi, ma’naviy shakllanishi va kasbiy kamolotida muhim nazariy tayanch sifatida xizmat qiladi.

Sharq xalqlari ma’naviy merosining eng qadimiy namunalaridan biri hisoblangan “Avesto” ham madaniy-gumanistik qarashlarning dastlabki manbalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbada ezgulik, haqiqat, tinchlik va komillik g‘oyalari ilgari surilib, insonning axloqiy pokligi hamda ma’naviy barkamolligi ulug‘langan . “Avesto”da inson va tabiat uyg‘unligi, ruhiy poklanish, ezgulikka intilish kabi masalalarning keng yoritilgani bugungi madaniy-gumanistik ta’lim tamoyillari bilan hamohangdir.

Zardushtiylik ta’limotida insoniyat tarixida ilk bor ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash g‘oyasi falsafiy jihatdan asoslangan bo‘lib, bu qarash keyingi davrlardagi axloqiy va pedagogik konsepsiyalarning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [96,30]. Ayniqsa, “Avesto”da ma’naviy barkamollikning jismoniy kuchdan ustun qo‘yilishi, insonning ezgulik yo‘lida kurashishga da’vat etilishi muhim gumanistik qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi .

Pedagogik tadqiqotlarda madaniyat ko‘pincha shaxsning ma’naviy shakllanishi va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Jumladan, madaniyat shaxsning jamiyat bilan munosabatini belgilovchi, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari hamda hayotiy pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu bois ta’lim jarayonida madaniy qadriyatlarni singdirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifa sanaladi.

Madaniy-gumanistik yondashuvning nazariy asoslari Sharq va G‘arb mutafakkirlarining inson, jamiyat va tarbiya haqidagi qarashlarida ham o‘z aksini topgan. Sharq allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar komil inson tarbiyasi, ma’naviy yetuklik, axloqiy poklik va ilm-ma’rifatning inson kamolotidagi o‘rni haqida qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida gumanistik, ezgulik va ma’rifat ustuvor qadriyat sifatida talqin etiladi. G‘arb pedagogik tafakkurida esa Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotssi, K.D.Ushinskiy kabi pedagoglar ta’limning gumanistik mohiyatini asoslab berganlar. Ular bolaning tabiiy rivojlanishi, individual xususiyatlarini hisobga olish hamda shaxs erkinligini qo‘llab-quvvatlash g‘oyalarini ilgari surganlar.

Ta’limga madaniy-gumanistik yondashuv shaxsni faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrlovchi, ma’naviy barkamol, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv talabaning individual imkoniyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy munosabatlarga moslashuvini ta’minlash hamda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida muhim pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida talabalarning

shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirishda madaniy-gumanistik yondashuvning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki zamonaviy mutaxassis nafaqat yuqori kasbiy bilim va ko‘nikmalarga, balki yuksak madaniyat, ma’naviyat, kommunikativlik va insoniy fazilatlarga ham ega bo‘lishi zarur.

Zardusht tomonidan ilgari surilgan ezgulik, haqiqat va komillik tamoyillari keyingi davrlarda ham insoniyat taraqqiyotining muhim ma’naviy mezoniga aylangan. Mazkur g‘oyalar jamiyat rivojining turli bosqichlarida kishilarni ma’naviy yetuklikka, adolat va ezgulikka undovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan [96,97]. Ayniqsa, ushbu qarashlarda insonning ichki kamoloti, ruhiy poklanishi va jamiyat oldidagi mas’uliyati alohida ahamiyat kasb etgan bo‘lib, ular bugungi madaniy-gumanistik ta’limning metodologik ildizlari sifatida ham e’tirof etiladi.

Markaziy Osiyo hududida yozma adabiyot shakllanishidan ancha avval vujudga kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham gumanistik, erkinlik va ijtimoiy adolat g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, orzu-intilishlari va dunyoqarashi og‘zaki ijod orqali avloddan avlodga o‘tib kelgan. Mazkur folklor namunalari xalq tafakkuri, estetik qarashlari hamda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning badiiy ifodasi sifatida qadrlanadi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida ilg‘or falsafiy, axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy ta’limotlarning xalq hayoti bilan uyg‘unlashuvi muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodida real hayotni anglash, empirik kuzatuvlar, xalqona tafakkur va donishmandlik mujassamlashgan bo‘lib, unda insonning borliqqa munosabati va jamiyat haqidagi tasavvurlari aks etgan. Shu bois xalq og‘zaki ijodi nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki muhim ma’naviy-tarbiyaviy manba sifatida ham baholanadi.

Asrlar davomida shakllangan va xalq xotirasida saqlanib kelayotgan og‘zaki poetik asarlar yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarlarda xalqning ezgu ideallari, qahramonlik ruhiyati, vatanparvarlik, sadoqat, matonat va insoniy fazilatlari badiiy talqin etiladi. Ayniqsa, doston va rivoyatlarning ommaviy tarzda kuylanishi ularning xalq ma’naviy hayoti bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari og‘zaki ijodining yirik namunalari bo‘lgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam”, “Manas” kabi dostonlarda inson hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash, fidoyilik, mardlik va adolat kabi umuminsoniy g‘oyalar keng yoritilgan. Ushbu asarlarda xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy qarashlari hamda ma’naviy qadriyatlari mujassam bo‘lib, ular yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik manba vazifasini bajaradi.

Xususan, “Alpomish” dostoni xalqimizning milliy o‘zligini, qahramonlik ruhi va ma’naviy qudratini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho badiiy meros hisoblanadi. Mazkur dostonda xalqning bag‘rikenglik, matonat, sadoqat, vafodorlik va oliyjanoblik kabi yuksak fazilatlari badiiy ifodasini topgan bo‘lib, u milliy qadriyatlarni shakllantirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega .

Xalqimizning boy ma’naviy merosida turkiy toshbitiklar ham alohida o‘rin egallaydi. “O‘g‘uznoma”, “Kultegin”, “To‘nyuquq”, “Bilga xoqon” bitiklari

ajdodlarimizning siyosiy tafakkuri, ma’naviy dunyosi, davlat boshqaruvi va milliy birlik haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi nodir tarixiy manbalardir. Ushbu bitiklarda Vatan ravnaqi, xalq birligi, mustaqillik va adolatli boshqaruv g‘oyalari ustuvor mavzu sifatida ilgari surilgan .

Turkiy bitiklarda nafaqat davlat boshqaruvi va qahramonlik masalalari, balki millatlararo munosabatlar va muloqot madaniyatiga oid qarashlar ham o‘z aksini topgan. Bitik mualliflari boshqa xalqlarning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda, o‘z xalqining ham ana shunday fazilatlarga ega bo‘lishini orzu qilganlar [95,55]. Bu esa qadimgi turkiy tafakkurda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va madaniy muloqot tamoyillari mavjud bo‘lganidan dalolat beradi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda islom madaniyati keng yoyila boshladi. Islom dini va madaniyatining mintaqa hayotiga kirib kelishi uzoq tarixiy jarayon natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, u turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy va ma’naviy integratsiyani kuchaytirdi. Ayniqsa, arab, fors va turkiy xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida ilm-fan, falsafa, adabiyot va san’at taraqqiyoti uchun qulay muhit shakllandi.

Islom madaniyatining asosiy g‘oyalaridan biri insonlarning tengligi, ilm-ma’rifatga intilishi va axloqiy poklikni ulug‘lashdan iborat edi. Shu bois islom madaniyati Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy hayotiga chuqur singib, ularning tafakkuri va dunyoqarashida muhim o‘rin egalladi. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, xalqimiz azaldan islom dini va madaniyati rivojiga munosib hissa qo‘shib kelgan bo‘lib, bu holat jahon hamjamiyati tomonidan ham e’tirof etilgan .

Arablar istilosidan keyingi davrda turli madaniyat va dunyoqarashlarning o‘zaro ta’siri natijasida ilmiy tafakkur rivojlanib, ma’naviy madaniyat yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yuzaga keldi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mutafakkirlari qadimgi yunon falsafasi, ilm-fani va madaniy merosini chuqur o‘rganishga kirishdilar. Antik davr mutafakkirlarining ilmiy qarashlari Sharqda ilm-fan va falsafaning ravnaq topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada Sharq uyg‘onish davri vujudga kelib, gumanistik, ilmiy tafakkur va komil inson g‘oyalari yanada rivojlandi.

Markaziy Osiyoda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotida yuz bergan ulkan yuksalishlar Sharq Uyg‘onish davrining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mazkur davrda ilm-fan, falsafa, adabiyot, san’at, tibbiyot va huquqshunoslik sohalarida mislsiz taraqqiyot kuzatildi. Eng muhimi, inson muammosi, uning ma’naviy kamoloti va ijodiy salohiyati ilk bor falsafiy tafakkurning markaziga olib chiqildi. Bu esa madaniy-gumanistik yondashuvning tarixiy ildizlari aynan Sharq uyg‘onish tafakkuri bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Chunki ushbu davrda yaratilgan ilmiy va badiiy meros insonni ulug‘lash, uning tafakkurini rivojlantirish hamda ma’naviy barkamollikka erishtirishga xizmat qilgan.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari nafaqat musulmon Sharqi, balki Yevropa uyg‘onish tafakkuriga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ayniqsa, Ibn Sino, Ibn Rushd va Ibn Xaldun kabi allomalarning ilmiy merosi G‘arb falsafiy tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Ibn Sinoning inson tabiatiga, aql va ma’naviyat uyg‘unligiga doir qarashlari keyingi davrlarda gumanistik g‘oyalarining rivojlanishiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan Sharq uyg‘onish davri nafaqat

mintaqaviy, balki umumbashariy sivilizatsiya rivojining muhim bosqichi sifatida baholanadi.

Markaziy Osiyo zaminida yetishib chiqqan Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk allomalar yaratgan ilmiy hamda badiiy meros milliy madaniyatimizning yuksak namunasi hisoblanadi. Ularning asarlarida ilm-ma’rifat, komil inson, axloqiy poklik, adolat va gumanistik masalalari markaziy o‘rin egallaydi. Mazkur g‘oyalar bugungi kunda talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirishda muhim ma’naviy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida insonni ma’naviy yetuklikka erishtirish, uni jamiyatning faol va komil a’zosi sifatida shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Imom al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asari insonni halollik, poklik, adolat va diyonat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi bebaho ma’naviy manba hisoblanadi. Ushbu asar asrlar davomida millionlab insonlarning ma’naviy kamolotiga ta’sir ko‘rsatib, ularni ezgulik va komillik sari yetaklab kelmoqda.

Ayni shu jihatlar Abu Iso Muhammad at-Termiziyning ilmiy merosida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida gumanistik, adolat, insof, mehr-oqibat va axloqiy poklik g‘oyalari ilgari surilgan bo‘lib, bu qarashlar bugungi murakkab ijtimoiy sharoitda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Mazkur g‘oyalar yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularda ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy-gumanistik yondashuvning shakllanishida tasavvuf ta’limoti ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Ahmad Yassaviy asos solgan yassaviya tariqati insonning ruhiy poklanishi, qalb tarbiyasi, ma’naviy kamoloti va ezgulikka intilishi g‘oyalariga asoslangan. Ahmad Yassaviy hikmatlarida inson eng oliy qadriyat sifatida talqin etilib, uning qalb pokligi va axloqiy yetukligi ulug‘lanadi. Shu jihatdan Yassaviy ta’limoti zamonaviy madaniy-gumanistik pedagogikaning ma’naviy ildizlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi .

Markaziy Osiyoda keng tarqalgan naqshbandiya tariqati ham gumanistik va mehnatsevarlik g‘oyalariga asoslangan ta’limot sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan “Dil ba yor-u, dast ba kor” tamoyili insonning ma’naviy kamoloti bilan bir qatorda uning mehnatga munosabati, jamiyat oldidagi mas’uliyati va fidoyiligini ham ifodalaydi. Mazkur qarashlarda insonning ruhiy va amaliy faoliyati o‘zaro uyg‘un holda talqin qilinadi. Bu esa talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonida mas’uliyat, halollik, mehnatsevarlik va insoniylik fazilatlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

IX–XII asrlarda yuz bergan Sharq Renessansi keyingi davrlarda ham ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-ma’rifat, san’at va ma’naviyat rivojiga katta e’tibor qaratildi. Sohibqiron Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatning barpo etilishi, tinchlik va barqarorlikning ta’minlanishi ilm-fan hamda madaniyat taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratdi. Shu bilan birga, Bahouddin Naqshband tariqati g‘oyalarining davlat mafkurasi darajasiga ko‘tarilishi ma’naviy hayotning yuksalishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi .

Temuriylar davrida shakllangan ilm-fan va madaniyat maktablari Sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotining yuksak bosqichini ifodalaydi. Mirzo Ulug‘bek rahbarligidagi ilmiy maktab, Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiy muhit, Kamoliddin Behzod asos solgan tasviriy san’at maktabi hamda Abdulkodir Marog‘iy faoliyati bilan bog‘liq musiqa san’ati taraqqiyoti o‘sha davr ma’naviy hayotining yuksak namunalaridir. Mazkur ilmiy va madaniy maktablar inson tafakkurini rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va komil inson g‘oyasini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Shunday qilib, Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari, tasavvuf ta’limoti namoyandalari va temuriylar davri madaniy merosi madaniy-gumanistik yondashuvning tarixiy hamda nazariy asoslarini tashkil etadi. Ushbu ma’naviy meros talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirishda, ularda milliy qadriyatlarga hurmat, ma’naviy yetuklik, kasbiy mas’uliyat va gumanistik sifatlarini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi.

Temuriylar davrida ma’naviy hayotning yuksalishi, ayniqsa, badiiy adabiyot, tasviriy san’at va musiqa sohalarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu davrda yaratilgan adabiy va san’at asarlarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy olami, estetik tafakkuri hamda ma’naviy kamoloti chuqur badiiy talqin qilindi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi gumanistik, komillik, mehr-oqibat va ezgulik g‘oyalarini ulug‘lovchi yuksak ma’naviy maktab sifatida shakllandi. Uning asarlarida insonning ma’naviy barkamolligi, jamiyat oldidagi burchi, ilm va axloq uyg‘unligi kabi masalalar markaziy o‘rin egallaydi. Shu jihatdan Navoiy merosi talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirishda muhim ma’naviy-pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi.

Temuriylar davrida tasviriy san’at va miniatura maktabining taraqqiy etishi ham madaniy tafakkurning yuksalganidan dalolat beradi. Samarqand, Hirot va Buxoro miniatyura maktablarida yaratilgan asarlarda inson va tabiat uyg‘unligi, estetik did, go‘zallikni anglash hamda hayotni haqqoniy tasvirlash tamoyillari ustuvor bo‘lgan. Bu esa san’atning inson tafakkuri va ma’naviy olamini boyituvchi kuch sifatida qadrlanganini ko‘rsatadi. Mazkur davrda faoliyat yuritgan musavvirlarning ijodi yosh avlodni estetik tarbiyalash va ularda badiiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davrida musiqa san’ati ham keng rivojlangan bo‘lib, saroylar yirik madaniy markazlarga aylangan. Musiqa inson qalbini tarbiyalovchi, uning ruhiy dunyosini boyituvchi vosita sifatida e’tirof etilgan. Shu sababli ushbu davrda yaratilgan musiqa maktablari va ijodiy an’analar milliy ma’naviyat taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayonlar talabalarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish, ularda milliy madaniyatga hurmat va ijodiy tafakkurni shakllantirish nuqtayi nazaridan muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Keyingi tarixiy bosqichlarda ham milliy madaniyat va ma’naviyatni asrab-avaylash hamda uni avlodlarga yetkazish jarayoni davom etdi. Garchi ayrim davrlarda diniy mutaassiblik yoki siyosiy bosimlar tufayli ilmiy va ijodiy tafakkur rivojiga to‘siqlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, xalqimiz o‘zining boy madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Ayniqsa, XIX–XX asrlarda milliy

madaniyatning yangi tarixiy sharoitlarga mos ravishda rivojlanishi xalqning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida esa milliy va ma’naviy qadriyatlarni tiklash, ularni yoshlar ongiga singdirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniy merosni qayta tiklash, tarixiy obidalarni asrash, milliy urf-odat va an’analarni rivojlantirish, buyuk mutafakkirlar merosini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi . Bu esa yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratdi.

Bugungi kunda “Ma’naviyat va ma’rifat”, “O‘zbekkino”, “O‘zbekteatr”, “O‘zbekmuzey” kabi ma’naviy-ma’rifiy markazlar, xalqaro festival va tanlovlar, san’at va madaniyat yo‘nalishidagi ta’lim muassasalari yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, teatr, musiqa, tasviriy san’at va milliy hunarmandchilik sohalaridagi ko‘rik-tanlovlar yoshlarning estetik didini yuksaltirish, ularda milliy o‘zlikni anglash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, ta’limga madaniy-gumanistik yondashuvning tarixiy va ilmiy-nazariy manbalari xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy merosi, Sharq mutafakkirlari qarashlari, tasavvuf ta’limoti, milliy san’at va madaniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu boy tarixiy-madaniy tajriba talabalarning shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuvini rivojlantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Chunki madaniy-gumanistik yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda ma’naviy yetuklik, kasbiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik, milliy qadriyatlarga hurmat va gumanistik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada bunday yondashuv zamonaviy oliy ta’lim tizimida barkamol, raqobatbardosh va ijtimoiy faol mutaxassislarni tayyorlashning muhim metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayni paytda jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan yangi ijtimoiy talablar talabalarning pedagogik faoliyatga nafaqat kasbiy, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham puxta tayyorlangan bo‘lishini taqozo etmoqda. Chunki bugungi globallashuv, axborot almashinuvi tezlashuvi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida bo‘lajak pedagoglardan yuksak kasbiy kompetentlik bilan bir qatorda, kommunikativ madaniyat, ijtimoiy moslashuvchanlik, gumanistik va ma’naviy barqarorlik kabi sifatlar ham talab etilmoqda. Shu jihatdan talabalarning pedagogik faoliyatga ijtimoiy-kasbiy tayyorgarligining mavjud holatini o‘rganish, bu boradagi muammo va ziddiyatlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 672 b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2000. – 128 b.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.

6. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 192 b.
7. G‘oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 336 b.
8. Raxmanova M. Madaniy-gumanistik yondashuv asosida talabalarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent, 2025.
9. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. – Toshkent: O‘qituvchi, 1975. – 287 b.
10. Russo J.J. Emil yoki tarbiya haqida. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – 356 b.
11. Maslou A. Motivatsiya va shaxs. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019. – 400 b.
12. Rodjers K. Shaxsning shakllanishiga nazar. – Moskva: Progress, 1994. – 480 b.
13. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
14. Alimova G.F. Pedagogik mahoratni shakllantiruvchi omillar. “Знанио -образовательный научный портал российской федерации: МП-2945017 http://znanio.ru/p/МП-2945017 (65-67-b)
15. Alimova G.F. “Oliy ta’lim muassalarida pedagogika fanini o‘qitishning zamonaviy modeli” “Педагогик ва психологик тадкикотлар” OAK jurnali (29.12.2024) 31-39bet ISSN:2181-4066

Smetova Jumabiyke Hamidullayevna
Katta o‘qituvchi
Pedagogika kafedrasi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mustaqil ta’limni samarali tashkil etishda maqsadli o‘qitish, muammoli yondashuv, kredit-modul tizimi, raqamli ta’lim vositalari, refleksiya va individual yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda oliy ta’lim sharoitida talabalarning o‘quv mustaqilligini kuchaytirish uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik mexanizmlar aniqlanadi. Natijalar mustaqil ta’limning faollik, o‘zini boshqarish, motivatsiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi rolini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, didaktik imkoniyatlar, oliy ta’lim, kredit-modul tizimi, raqamli texnologiyalar, refleksiya, o‘quv mustaqilligi.

Сметова Джумабийке Хамидуллаевна
Кафедра «Педагогика»
Старший преподаватель
Ташкентского университета прикладных наук

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье теоретически анализируются дидактические возможности развития самостоятельной учебной деятельности студентов. Подчеркивается важность целевого обучения, проблемно-ориентированного подхода, кредитно-модульной системы, цифровых инструментов обучения, рефлексии и индивидуального подхода в эффективной организации самостоятельного обучения. В исследовании определены педагогические условия и дидактические механизмы укрепления самостоятельности студентов в высшем образовании. Результаты показывают роль самостоятельного обучения в развитии активности, самоорганизации, мотивации и критического мышления.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, дидактические возможности, высшее образование, кредитно-модульная система, цифровые технологии, рефлексия, самостоятельность в обучении.

Smetova Jumabiyke Hamidullaevna
Senior Lecturer
Department of Pedagogy
Tashkent University of Applied Sciences

DIDACTIC POSSIBILITIES OF DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITY

Abstract: This article theoretically analyzes the didactic possibilities for developing students' independent learning activities. The importance of targeted learning, a problem-based approach, a credit-module system, digital learning tools, reflection, and an individual approach in the effective

organization of independent learning is highlighted. The study identifies pedagogical conditions and didactic mechanisms for strengthening students' learning independence in higher education. The results show the role of independent learning in developing activity, self-management, motivation, and critical thinking.

Keywords: independent learning, didactic opportunities, higher education, credit-module system, digital technologies, reflection, learning independence

Kirish. Zamonaviy oliy ta’limda talabaning mustaqil ta’lim faoliyati alohida pedagogik qiymatga ega. Bilimlar tez yangilanayotgan, axborot manbalari ko‘payayotgan va kasbiy kompetensiyalar doimiy o‘zgarayotgan sharoitda talaba faqat tayyor ma’lumotni o‘zlashtiruvchi emas, balki uni mustaqil izlovchi, saralovchi va amaliyotga tatbiq etuvchi shaxs bo‘lishi kerak. Shu bois mustaqil ta’limni tashkil etish masalasi nafaqat metodik, balki didaktik va strategik ahamiyatga ham ega.

Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyati ularning shaxsiy mas’uliyati, o‘zini boshqarish ko‘nikmasi va o‘quv jarayoniga ongli munosabatini rivojlantiradi. Mustaqil o‘rganish jarayonida talaba maqsad qo‘yish, reja tuzish, axborotni tahlil qilish, xulosa chiqarish va natijani baholash kabi murakkab aqliy faoliyatlarni bajaradi. Bu esa ta’limning rivojlantiruvchi vazifasini kuchaytiradi.

Hozirgi davrda kredit-modul tizimi, aralash ta’lim, elektron platformalar, masofaviy resurslar va interaktiv metodlar mustaqil o‘rganishga keng imkoniyat yaratmoqda. Biroq ushbu imkoniyatlar faqat tizimli didaktik tashkil etilgandagina samarali bo‘ladi. Shu sababli maqolaning maqsadi mustaqil ta’limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik imkoniyatlarni tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Metodlar. Tadqiqotda nazariy-uslubiy yondashuv qo‘llanildi. Mavzuga oid ilmiy maqolalar, metodik materiallar va zamonaviy tadqiqotlar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi.

Tahlil jarayonida quyidagi yo‘nalishlar ko‘rib chiqildi:

mustaqil ta’limning nazariy asoslari;

didaktik imkoniyatlarning mazmuni;

kredit-modul tizimining ta’siri;

raqamli va interaktiv vositalarning roli;

baholash va refleksiya mexanizmlari.

Shuningdek, mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga asoslangan ta’lim va konstruktivistik didaktika tashkil etdi.

Natijalar. Tahlillar natijasida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishda quyidagi didaktik imkoniyatlar asosiy o‘rin tutishi aniqlandi.

O‘quv maqsadlari. Aniq belgilangan o‘quv maqsadlari mustaqil ta’limning boshlang‘ich shartidir. Talaba nimani o‘rganishi, qaysi natijaga erishishi va qanday mezonlar asosida baholanishini bilsa, u o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtira oladi.

Maqsadlarning kompetensiyaviy ifodalanishi o‘quv jarayonini amaliy natijaga yo‘naltiradi.

Muammoli topshiriqlar

Muammoli vaziyatlar talabaning aqliy faolligini oshiradi. Tayyor ma’lumotni qayta aytib berishdan ko‘ra, muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlar mustaqil fikrlashni, qiyoslashni va dalillashni rivojlantiradi. Bunday topshiriqlar talabaning izlanishiga, manbalarni taqqoslashiga va xulosa chiqarishiga imkon beradi.

Interaktiv metodlar

Munozara, loyiha, keys-stadi, aqliy hujum, portfel, “flipped classroom” kabi metodlar talaba mustaqilligini kuchaytiradi. Ushbu metodlarda talaba o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, darsga tayyorgarlik ko‘rishga majbur bo‘ladi va o‘z fikrini asoslashni o‘rganadi. Interaktiv yondashuv mustaqil ta’limni auditoriyadan tashqariga olib chiqadi.

Raqamli vositalar

Elektron platformalar, LMS tizimlari, video ma’ruzalar, test banklari va raqamli kutubxonalar mustaqil o‘qishni osonlashtiradi. Ular talabaning o‘z sur’atida o‘rganishiga, kerakli materialni qayta ko‘rishiga va o‘z bilimini mustaqil tekshirishiga imkon yaratadi. Raqamli muhit shuningdek individual o‘quv yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Refleksiya va baholash

Mustaqil ta’limda refleksiya muhim didaktik omildir. Talaba o‘z faoliyatini tahlil qilar ekan, u kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, keyingi bosqich uchun xulosa chiqaradi. O‘zini baholash, o‘zaro baholash va mezonli baholash vositalari esa o‘quv natijasining shaffofligini ta’minlaydi.

Individual yondashuv

Har bir talabaning tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va o‘quv sur’ati turlicha bo‘ladi. Shu sababli differensial topshiriqlar, moslashtirilgan materiallar va maslahatlar mustaqil ta’limni samaraliroq qiladi. Individual yondashuv talabaning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi va ortiqcha stressni kamaytiradi.

1. Didaktik imkoniyatlar va ularning natijasi

Didaktik imkoniyat	Asosiy ta’sir	Amaliy shakli
Maqsadlarning aniqligi	Yo‘nalish va mas’uliyatni kuchaytiradi	Kompetensiyaviy topshiriqlar
Muammoli yondashuv	Tahliliy fikrlashni rivojlantiradi	Keys, muammo, loyiha
Interaktiv metodlar	Faollikni oshiradi	Munozara, flipped classroom
Raqamli platformalar	Mustaqillikni qo‘llab-quvvatlaydi	LMS, video, test
Refleksiya	O‘zini tahlil qilishni shakllantiradi	Portfel, kundalik, rubrika
Individual yondashuv	Motivatsiyani kuchaytiradi	Differensial topshiriq

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’limni rivojlantirish faqat qo‘shimcha topshiriqlar berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon maqsadli didaktik tizim bo‘lib, unda o‘qituvchi, talaba, mazmun, metod va vosita o‘zaro uyg‘unlikda ishlashi kerak. Agar mustaqil ish nazoratsiz qolsa, u formal xarakter kasb etadi; agar u aniq yo‘naltirilsa, talaba shaxsining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mustaqil o‘qish bilan bog‘liq eng muhim omillar sifatida motivatsiya, o‘zini boshqarish, institutsional qo‘llab-quvvatlash va texnologiyadan samarali foydalanish ko‘rsatiladi. Bu holat mustaqil ta’limni tashkil etishda faqat metodika emas, balki ta’lim muhiti ham muhim ekanini anglatadi. Talaba uchun ochiq resurslar, moslashuvchan topshiriqlar va qayta aloqa tizimi yaratilsa, u ta’lim jarayoniga ko‘proq jalb qilinadi.

Kredit-modul tizimi mustaqil ta’limni tizimlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda talaba o‘z vaqtini mustaqil boshqaradi, modul bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi va nazorat topshiriqlari orqali o‘z natijasini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich tashkil qilish, yuklamani me’yorlashtirish va natijani o‘lchash imkonini beradi.

Shuningdek, mustaqil ta’limning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog‘liq. O‘qituvchi vazifani shunchaki beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, tahlil qiluvchi va teskari aloqa beruvchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bu ayniqsa talabalarning akademik mustaqilligi endigina shakllanayotgan bosqichlarda juda muhimdir.

Talabalarda mustaqil ta’lim madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi amaliy yondashuvlar tavsiya etiladi:

- topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab tuzish;
- har bir mavzu uchun aniq natija mezonini belgilash;
- manba bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;
- darsdan tashqari ishlarni refleksiya bilan yakunlash;
- baholashda jarayon va natijani birgalikda hisobga olish.

Bunday yondashuvlar talabalarda o‘qishni o‘rganish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy o‘sishga tayyorlikni rivojlantiradi. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi.

Xulosa.

Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari juda keng va ko‘p qirrali. Ular o‘quv maqsadlarini aniq belgilash, muammoli topshiriqlar berish, interaktiv metodlardan foydalanish, raqamli platformalarni joriy etish, refleksiya va baholashni kuchaytirish hamda individual yondashuvni ta’minlash orqali amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta’lim talabaning shaxsiy faolligini, mas’uliyatini, tanqidiy fikrlashini va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Oliy ta’lim muassasalarida ushbu jarayonni didaktik jihatdan puxta tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2017). Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2017). Mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma.
3. Smetova J.H. “Pedagogik mahorat” O‘quv qo‘llanma Tashkent 2023y.
4. Axmedova M.E., Ismoilova M., Smetova J.H., va b. “Milliy tarbiya asoslari” Darslik. Tashkent A2024y
5. Dilemmas and Breakthrough Paths in Cultivating Undergraduates’ Independent Learning Ability.
6. Mastering Autonomy: The Power of Self-Regulated Learning in Higher Education.
7. Independent Learning in Higher Education: Pedagogical Potential of the Credit-Modular System.
8. Modern educational technologies to arrange students’ independent work at the university.

Askarova Madinaxon Anvar qizi

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot Universiteti tayanch doktoranti

LOYIHALASH METODIKASI ASOSIDA BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Kompetensiyaviy yondashuv va loyiha asosida o‘qitish texnologiyasining shakllanish bosqichlari, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari hamda mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalari o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omillari tizimlashtirilgan va texnika oliy ta’lim muassasalari uchun dolzarb bo‘lgan ilmiy muammolar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, loyihalash metodikasi, loyiha asosida o‘qitish, texnika oliy ta’lim muassasasi, pedagogik texnologiyalar.

Аскарова Мадинахон Анвар кизи

Базовый докторант Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются научно-теоретические основы развития профессиональных компетенций будущих специалистов в высших технических учебных заведениях. Изучены этапы становления компетентностного подхода и технологии проектного обучения, научные взгляды зарубежных и отечественных ученых, а также результаты существующих научных исследований. На основе анализа литературы систематизированы основные факторы развития профессиональных компетенций и представлен анализ научных проблем, актуальных для технических вузов.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, компетентностный подход, проектная методика, проектное обучение, технический вуз, педагогические технологии.

Askarova Madinakhon Anvar kizi

Basic doctoral student at the National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers"

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE SPECIALISTS BASED ON THE DESIGN METHODOLOGY

Annotation. The article analyzes the scientific and theoretical foundations of the development of professional competencies of future specialists in higher technical educational institutions. The stages of formation of the competence-based approach and technology of project-based learning, scientific views of foreign and domestic scientists, as well as the results of existing scientific research are studied. Based on the analysis of the literature, the main factors of the development of professional competencies are systematized and an analysis of scientific problems relevant to technical universities is presented.

Keywords: professional competence, competence approach, project methodology, project training, technical university, pedagogical technologies.

Kirish. Jahon miqyosida oliy ta’lim tizimining rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va mehnat bozori talablarining o‘zgarishi natijasida mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan yondashuvlar tubdan yangilanmoqda. Zamonaviy mutaxassisdan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lish, balki amaliy faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish, muammolarni hal etish va jamoada ishlash kompetensiyalariga ega bo‘lish talab etilmoqda [1].

Shu munosabat bilan kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish hamda loyiha faoliyatini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, texnika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda loyihalash metodikasining pedagogik imkoniyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning shakllanishi va rivojlanishi. Kompetensiya tushunchasi ilk bor XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy muomalaga kiritilgan. 1973-yilda D.McClelland tomonidan chop etilgan tadqiqotlarda kasbiy muvaffaqiyatni aniqlovchi asosiy omillar sifatida kompetensiyalar nazariyasi ilgari surilgan. Olim an’anaviy bilim va IQ ko‘rsatkichlari mutaxassis faoliyatining haqiqiy samaradorligini to‘liq aks ettirmasligini ta’kidlagan. 1982-yilda R. Boyatzis tomonidan kompetensiyalar modeli ishlab chiqilib, mutaxassisning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy sifatlar tizimi asoslab berildi.


2000-yillardan boshlab kompetensiyaviy yondashuv Yevropa oliy ta’lim makonida keng qo‘llanila boshlandi. Xususan, Bologna jarayoni doirasida ta’lim natijalarini kompetensiyalar asosida baholash amaliyoti joriy etildi. Rossiyalik olim I.A. Zimnyaya kompetensiyani bilim, ko‘nikma va tajribaning integratsiyalashgan natijasi sifatida tavsiflaydi [2]. Uning fikricha, kompetensiyalar shaxsning real faoliyatda namoyon bo‘ladigan sifatlari hisoblanadi. A.V. Xutorskoy kompetensiyalarni kalit, umumkasbiy va maxsus kompetensiyalarga ajratib, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini asoslab bergan [3].

Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar tahlili. Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasining ilmiy asoslari amerikalik pedagoglar J.

Dewey va W. Kilpatrick tomonidan yaratilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko‘ra, ta’lim real hayotiy muammolarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. 2000-yilda J. Thomas loyiha asosida o‘qitish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirib, mazkur metod talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini asoslab berdi

2015-yilda J. Larmer va J. Mergendoller tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda loyiha faoliyati talabalarning kommunikativ, ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib berilgan [5]. AQSh, Kanada, Germaniya va Finlyandiya universitetlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashning samarali vositasi ekanligini tasdiqlagan [4,5].

Muhandislik ta’limida kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar. Muhandislik ta’limida kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy izlanishlar asosan praktik ko'nikmalar, masala yechish va jamoada ishlash kabi mahoratlar ustida e'tibor qaratadi. Bu jarayonda interfaol o'quv usullari, proekt asosidagi o'qish va raqamli texnologiyalardan foydalanish keng qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqotlar muhandislik mutaxassislari uchun zamonaviy talablarga mos keladigan boshqa hamda xavfsizlik, ekologiya va etika jihatlari hamda integratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan kompleks kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.



1-rasm. Adabiyotlar tahlili asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli

Muhandislik ta’limi sohasida kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) konsepsiyasi asosida o‘rganilgan. E. Crawley va uning hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan ushbu model talabalarni

muhandislik faoliyatining barcha bosqichlariga tayyorlashga qaratilgan [6,7]. CDIO modeli bugungi kunda dunyoning 40 dan ortiq davlatidagi 150 dan ortiq universitetlarda joriy etilgan bo‘lib, talabalarning amaliy tayyorgarligini oshirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilgan.

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda asosiy ilmiy yondashuvlar — bu kompetensiya asosli ta'lim, interaktiv o'quv usullari va real vazifalarga asoslangan o'qish. Bu yondashuvlar talabalarning amaliy ko'nikmalarini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va professional o'zgarishlarga moslashuvchanligini shakllantiradi.

Rasmda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi aks ettirilgan.

Xususan, Vygotskiyning yaqin tarmoq teoriyasiga asoslanib, ijtimoiy aloqadorlik orqali kompetensiyalar rivojlanadi. Shuningdek, self-regulated learning (o'zini boshqarish) modeli ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, ish beruvchilarning talablari bilan moslashtirish va ijodkorlikni rag'batlantirish uchun samarali hisoblanadi.

Mutaxassislik bo‘yicha bilimlar. Bularga nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy atamalar va tushunchalarni bilish kiradi.

Axborotni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari. Murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va muammoli masalalarni yechish qobiliyati.

Kommunikativ ko‘nikmalar. Xodimlar, mijozlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati.

Shaxsiy sifatlar. Mas’uliyatlilik, tashkilotchilik, stressga chidamlilik, moslashuvchanlik va doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishni o‘z ichiga oladi

Quyidagi 1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tadqiqotlarning aksariyati kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy faoliyat va loyiha texnologiyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etadi. Ushbu jadvalda kasbiy kompetensiya asoslari to‘g‘risida olimlar va ularning ilgari surgan g‘oyalari hamda tadqiqot yo‘nalishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Kompetensiyaviy yondashuv ularning kasbiy muvaffaqiyat omili, Bilim va tajriba integratsiyasi hamda ularning rivojlantirishdagi o‘rni haqida tadqiqot olib borilgan.

1-jadval

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tahlili

Olimlar	*Tadqiqot yo’nalishi*	*Asosiy g’oya*
D.McClelland	Kompetensiyaviy yondashuv	Kompetensiyalar kasbiy muvaffaqiyat omili
I.A.Zimnyaya	Kompetensiya nazariyasi	Bilim va tajriba integratsiyasi
A.V.Xutorskoy	Ta’lim kompetensiyalari	Kompetensiyalar ta’lim natijasi
J.Thomas	Project-Based Learning	Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi
J.Larmer	Loyiha asosida o’qitish	Amaliy kompetensiyalarni rivojlantiradi
E.Crawley	CDIO modeli	Muhandislik kompetensiyalarni shakllantiradi

Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosiy g‘oyalar tadqiqotning yo‘nalishi va uning ta’minotiga to‘liq mos kelishi kerak. Jumladan, Kompetensiyaviy yondashuv yo‘nalishining aosiy g‘oyasi Kompetensiyalar kasbiy muvaffaqiyat omili bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Ta’lim kompetensiyalari yo‘nalishida kompetensiyalar ta’lim natijasi, Loyiha asosida o’qitishda esa asosiy g‘oya sifatida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish yotadi.

Mahalliy tadqiqotlar tahlili O‘zbekiston olimlari tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv va pedagogik texnologiyalar masalalari keng tadqiq etilgan. N. Sayidahmedov pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo‘lsa, Sh.S. Sharipov kasbiy pedagogika doirasida mutaxassis tayyorlashning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq qilgan [8,9]. Shunga qaramasdan, texnika oliy ta’lim muassasalarida aynan loyihalash metodikasi asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning yaxlit metodik modeli, baholash mezonlari va monitoring tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili natijasida kompetensiyaviy yondashuv va loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili texnika oliy ta’lim muassasalarida loyihalash metodikasidan foydalanish kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Biroq texnika OTMlari uchun moslashtirilgan pedagogik model, kompetensiyalarni baholash mezonlari va metodik ta’minotning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda keyingi ilmiy izlanishlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Abduraxmonov, Q. Injenerlik ta’limida loyihalash faoliyatini tashkil etish. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Зимняя И.А. Компетентностный подход в образовании. – Москва, 2014.
4. Хуторский А.В. Компетентностый подход в образовании. – Москва, 2017.
5. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – California, 2000.
6. Larmer J., Mergendoller J. Project Based Learning Handbook. – New York, 2015.
7. Crawley E. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – Springer, 2020.
8. Sayidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
9. Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika. – Toshkent, 2021.
10. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchining loyihalash faoliyati // Uslubiy qo‘llanma – T.: TDPU. 2024.– 6 – 5 b.
11. Ismailova Z.K., Mustafoyeva D.A., Komilova M.O., Raxmonova M.K., Sadikova F.M. Kasbiy pedagogika // Darslik “O‘zkitob savdo” nashriyoti, -2023.
12. D.A.Mustafoyeva, Yu.O‘.Sayfiyeva, M.I.Mamataliyeva Ta’lim texnologiyalari fanidan amaliy mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma // Uslubiy qo‘llanma. “TIQXMMI” MTU nashriyoti. -2024. 65 B.

Тиллаев Алишер Хасанович

Директор академического лицея
“International House-Tashkent” при Национальном
исследовательском университете
«Ташкентский институт инженеров ирригации и
механизации сельского хозяйства»
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)
тел. +998910022222 alitillaev@tiiame.com

ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы управления образовательным процессом в высших образовательных учреждениях, их эффективность, существующие проблемы и перспективы развития. Управление образовательной организацией играет ключевую роль в формировании качества обучения и воспитания, поэтому важно изучить новые подходы и стратегии, применяемые в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: педагогический менеджмент, управленческая деятельность, образовательный процесс, мониторинг, мотивация, ответственность, стратегическое планирование.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarishning zamonaviy usullari, ularning samaradorligi, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari muhokama qilinadi. Ta’lim va tarbiya sifatini shakllantirishda ta’lim tashkilotini boshqarish muhim rol o‘ynaydi, shuning uchun oliy o‘quv yurtlarida qo‘llaniladigan yangi yondashuvlar va strategiyalarni o‘rganish muhimdir.

Kalit so‘zlar: pedagogik menejment, boshqaruv faoliyati, o‘quv jarayoni, monitoring, motivatsiya, javobgarlik, strategik rejalashtirish.

FUNDAMENTALS OF FORMATION OF MANAGERIAL ACTIVITY OF HEADS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation. This article discusses modern methods of managing the educational process in higher education institutions, their effectiveness, existing problems and development prospects. The management of an educational organization plays a key role in shaping the quality of education and upbringing, so it is important to explore new approaches and strategies used in higher education institutions.

Keywords: pedagogical management, managerial activity, educational process, monitoring, motivation, responsibility, strategic planning.

Кириш (Introduction). Основные инструменты управления в педагогическом менеджменте представляют собой набор методов, приемов и

стратегий, направленных на эффективную организацию образовательного процесса и достижение поставленных образовательных целей. Рассмотрим подробнее основные инструменты управления в педагогическом менеджменте:

Качество образования и управление результатами: Для оценки качества образования и управления результатами обучения используются различные методы и инструменты, такие как аттестация педагогических кадров, внутренний и внешний мониторинг качества образования, а также оценка результатов обучения и достижений учащихся.

Анализ литературы по теме исследования (Literature review).

Хилько А.А. и др. выделяют три основных позиции в трактовке понятия «управление». Согласно первой позиции, управление определяется как деятельность. В качестве признаков этой специфической деятельности применительно к управлению образовательным процессом выделяют: функциональный состав (планирование, организация, контроль и руководство); целевое назначение (организованность совместной деятельности участников образовательного процесса и направленность на достижение образовательных целей); наличие субъектов образовательной деятельности.

Иванов, Т.Н., Г. Каспржак [1, 2] представляющие вторую позицию рассматривают управление как «воздействие одной системы на другую, одного человека на другого или группу и т.п.». Управление - комплекс необходимых мер влияния на группу, общество или на его отдельные звенья с целью их упорядочивания, усовершенствования и развития. Оно осуществляется но общим законам сложных динамических систем управления (социальных, психологических, технических, административных) и основано на получении, обработке и передаче информации.

Согласно третьей позиции, управление - взаимодействие субъектов. Под взаимодействием понимается сложный многообразный процесс, в котором изменение субъектов происходит взаимообусловлено», процесс «взаимного влияния, в результате которого происходит взаиморазвитие и саморазвитие. Такое понимание взаимодействия представляет суть управления и в большей степени соответствует реальной управленческой практике. Т. Н. Шамова, [3] Т. М. Давыденко [4], представители адаптивного подхода в образовании, считают, что «проявлениями взаимодействия являются общение и деятельность, оно содержит в себе указание на необходимость реализации как субъект - объектных отношений (отражает специфику предметной деятельности), так и субъект - субъектных отношений».

Методология исследования (Research methodology). Стратегическое планирование: Этот инструмент позволяет определить долгосрочные цели и приоритеты образовательного учреждения, разработать стратегии и тактику их достижения. Стратегическое планирование включает анализ внешней и внутренней среды учебного заведения, определение конкурентных преимуществ и уязвимостей, а также выбор оптимальных стратегий развития.

Организационное управление: Этот инструмент включает разработку организационной структуры учебного заведения, распределение полномочий и ответственности между сотрудниками, установление процедур и правил внутреннего управления, а также создание системы контроля и отчетности.

Мотивация преподавателей и студентов: Для обеспечения эффективного функционирования образовательного учреждения необходимо мотивировать педагогический и административный персонал. Это может включать в себя различные методы мотивации, такие как материальное вознаграждение, профессиональное развитие, поощрение достижений и т.д.

Финансовое управление: Этот инструмент включает планирование бюджета образовательного учреждения, контроль расходов и доходов, а также эффективное использование финансовых ресурсов. Финансовое управление позволяет обеспечить финансовую устойчивость и достаточное финансирование для реализации образовательных программ и проектов.

Использование указанных инструментов управления позволяет обеспечить эффективное функционирование образовательного учреждения, повысить качество образования и достичь поставленных образовательных целей. Каждый из этих инструментов имеет свои особенности и требует комплексного подхода при их использовании в педагогическом менеджменте [5].

Влияние инструментов управления на результаты в педагогическом процессе. Стратегическое планирование: *Выбор образовательной программы*: Предположим, что учебное заведение стремится к развитию инновационных навыков студентов. В результате стратегического планирования было принято решение внедрить программу STEM (наука, технологии, инженерия, математика) для стимулирования технического и научного мышления. Реализация данной программы позволила студентам приобрести практические навыки в области робототехники, программирования и инженерии, что способствовало улучшению их образовательных результатов и готовности к будущей карьере в технических областях.

Разработка индивидуализированных образовательных планов: Учитывая разнообразие потребностей и способностей учащихся, школа разработала программу индивидуализированных образовательных планов для каждого ученика. Путем анализа результатов тестирования, обратной связи от учителей и родителей были определены индивидуальные потребности каждого ученика. Результатом было более эффективное использование учебного времени, более глубокое понимание материала и повышение успеваемости учащихся.

Анализ и результаты (Analysis and result). **Организационное управление**: *Распределение обязанностей и ответственностей*: система распределения обязанностей и ответственностей между административным и педагогическим персоналом. Административный персонал отвечает за организационные

аспекты, такие как планирование расписания, закупка оборудования и управление ресурсами, в то время как педагогический персонал фокусируется на образовательных процессах и поддержке учащихся.

Внедрение системы мониторинга и оценки: Учебное заведение внедрило систему мониторинга и оценки качества образования, которая включает в себя регулярные проверки знаний, анализ успеваемости учащихся и оценку эффективности образовательных программ. Благодаря этой системе управления можно оперативно выявлять проблемы и корректировать учебный процесс для достижения лучших результатов [6, 8].

Мотивация педагогического персонала: П*рограмма профессионального развития*: ВОУ предоставляет своему персоналу возможности для профессионального развития, включая участие в тренингах, семинарах и курсах повышения квалификации. Эти мероприятия мотивируют педагогов развивать свои навыки и знания, что положительно сказывается на качестве образования.

Система поощрений: ВОУ разработала систему поощрений для педагогического персонала, включающую в себя премии за достижения в обучении учащихся, признание за выдающиеся достижения и возможности профессионального роста. Это способствует повышению мотивации персонала и улучшению результатов обучения.

Финансовое управление: *Эффективное распределение бюджета*: Администрация учебного заведения эффективно распределяет бюджетные средства на приоритетные направления, такие как закупка современного оборудования, обновление учебников и организацию дополнительных образовательных мероприятий.

Программа стипендий и грантов: учебное заведение создала программу стипендий и грантов для поддержки талантливых и мотивированных студентов. Эти дополнительные финансовые возможности помогают привлечь и удержать выдающихся студентов, что в конечном итоге способствует улучшению образовательных результатов.

Качество образования и управление результатами: *Система оценки образовательных результатов*: разработка систему оценки образовательных результатов, которая включает в себя не только оценки по предметам, но и оценку учащихся по развитию ключевых навыков и компетенций, таких как критическое мышление, коммуникативные способности и самостоятельность. Например, ученики не только сдают экзамены по математике, но и участвуют в проектах, где имеют возможность применить полученные знания на практике и продемонстрировать свои навыки в реальной жизни.

Современное управление образовательным процессом требует комплексного подхода, сочетающего традиционные и инновационные методы. В условиях стремительных изменений в сфере образования руководители школ должны внедрять эффективные управленческие стратегии, способствующие созданию благоприятной образовательной среды. Цифровизация,

стратегическое планирование, проектное управление и коучинг являются важными инструментами, позволяющими повысить качество обучения и развивать профессиональные компетенции педагогов. Внедрение лучших мировых практик, адаптация успешных моделей управления и постоянное совершенствование образовательного процесса позволят создать современную школу, отвечающую вызовам XXI века. Таким образом, процессы самоорганизации в образовательной системе неизбежны всегда.

С одной стороны, они стихийно «посягают» на разрушение целостности системы, а с другой стороны, спонтанно «сообщают» о появлении новых источников развития. Количественные и качественные характеристики этих процессов определяются внутренними условиями системы, в том числе ресурсными, а также мерой воздействия на систему извне. Отношение общества и государства к этому разное. В обществе все больше формируется потребность в многообразии содержания образования, что явно стимулирует процессы самоорганизации.

Однако система, управляющая образованием, пытается сохранить свою целостность при этом не учитывает перспективные запросы общества, не учитывает, что образование как «сложное эволюционное целое» включает в себя большое количество структур и подсистем, темпы развития которых могут и не совпадать с темпами развития целого

Таким образом, применение инструментов управления в педагогическом процессе существенно влияет на результаты образования, качество обучения и развитие учащихся. Правильное применение инструментов управления способствует повышению эффективности образовательного процесса и достижению образовательных целей учебного заведения.

Для повышения эффективности управления образовательным процессом необходимо внедрение комплексного подхода, включающего развитие цифровых компетенций педагогов, использование адаптивных образовательных технологий, совершенствование системы мотивации преподавателей и студентов [8].

Важно активное взаимодействие школы с внешними партнерами, такими как высшие учебные заведения, бизнес-структуры и научные организации, что позволит расширить образовательные возможности студентов и создать условия для практико-ориентированного обучения. Автоматизация административных процессов поможет снизить бюрократическую нагрузку на управленческий персонал, обеспечивая оперативное принятие решений и повышение эффективности образовательного учреждения.

Чтобы правильно выстроить систему управления необходимо проанализировать внешние условия, приоритетные направления развития, обозначенные Министерством высшего образования. После этого провести анализ необходимых ресурсов, которые понадобятся для того, чтобы продвинуть организацию.

Выводы и рекомендации (Conclusion / Recommendations). Продуктивен будет и SWOT-анализ, который позволит выявить сильные и слабые стороны, возможные угрозы на основе изучения действительного и потенциального рынков образовательных услуг. Это даст возможность не просто проанализировать, но и позволит обозначить перспективные траектории в развитии образовательной организации.

Таким образом, нужно обратить внимания на то, что модели управления высших образовательных учреждений, принадлежащих каждому из кластеров, не делятся на «хороших» или «плохих», так как не бывает плохих или хороших управленческих моделей. Потому что качество управления образовательной организации определяется результативностью, которая, в свою очередь, должна быть адекватна ситуации, в которой школа находится, ее ресурсами и т.д., а также задачам, которые стоят перед руководством ВОУ. То есть, хороший управленец выбирает такую стратегию изменений и модель управления, которая позволит, согласовав интересы всех субъектов образовательного процесса, достичь поставленные перед школой задачи.

Если полученные результаты будут дополнены кейсами успешных управленческих практик высших образовательных учреждений, то управленческие решения могут приниматься пользователями с учетом их опыта, что должно помочь начинающим руководителям школ, находящимся в сходных условиях. Кейсы помогут определить приоритеты в программе развития организации.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА (References)

1. Иванов И.И. Современные подходы к управлению образовательными учреждениями. — Москва: Просвещение, 2020.

2. Г. Анатолий, Г. Каспржак, А. Анна, А. Кобцева, А. Марина, М. Цатрян Модели управления образовательным процессом в современной школе // Education and Self Development. Volume 17, № 2, 2022. - https://eandsdjournal.kpfu.ru/ru/wp-content/uploads/sites/3/2022/07/17_2-14.pdf (дата обращения: 20.12.2023)

3. Т. Н. Шамова 100 ключевых моделей и концепций управления. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2019. – 900 с.

4. Т. М. Давыденко. Директора школ в мегаполисах. Как они управляют образовательным процессом // Образовательная политика. – 2020. – Т. 82. – № 2. – С. 70-85.

5. Кузнецов О.Н. Коучинг в образовательной среде: теория и практика. — Екатеринбург: Уральский университет, 2022.

6. Васильев Д.Г. Бенчмаркинг в управлении школой. — Казань: Казанский университет, 2023.

7. Морозова Л.И. Подготовка управленческих кадров в условиях цифровой трансформации. — Омск: Омский педагогический университет, 2021.

8. Федоров Н.М. Финансирование образовательных учреждений: современные проблемы и пути их решения. — Владивосток: Дальневосточный университет, 2020.

BELARUS-UZBEK ILMIY-METODIK JURNAL

Tahririyat kengashi
Bosh muharrir:
Begimqulov U. Sh.
Bosh muharrir o'rinbosari:
Ismadiyarov Y. U.
Mas'ul kotib:
Umaraliyeva M. A.,
Tahririyat kengashi a'zolari:
Mardonov Sh.K., Milan P., Narzikulova F.B., Yuzlikayev F.R., Kodirov A.S., Soliyeva Z.T., Isyanov R.G., Kodirov G.U., Avazboyev A.I., Mullaxmetov R.G., Nabiulina L.M., Raximmirzayev S.B., Matnazarova M.B., Yusupova E.F.Djanpeisova G.E., Begatov J.M, Adashboyev Sh.M., Parpiyeva M.M., Choriyev I.R., Abdullaxodjayev G. T., Asanova S.A., Abdullayeva N. J., Umirzakova N. A., Agzamova YE.Y., Obidov A. E., Djurayev A.S.

Редакционная коллегия
Главный редактор:
Бегимкулов У.Ш.
Заместитель главного редактора:
Исмадияров Я.У.
Ответственный секретарь:
Умаралиева М.А.
Члены редакционной коллегии:
Мардонов Ш.К., Milan P., Нарзикулова Ф.Б., Юзликаев Ф.Р., Кодиров А.С., Солиева З.Т., Исянов Р.Г., Кодиров Г.У., Авазбоев А.И., Муллахметов Р.Г., Набиулина Л.М., Рахиммирзаев С.Б., Матназарова М.Б., Юсупова Э.Ф.Джанпеисова Г.Э., Бегатов Ж.М, Адашбоев Ш.М., Парпиева М.М., Чориев И.Р., Абдуллаходжаев Г. Т., Асанова С.А., Абдуллаева Н. Ж., Умирзакова Н. А., Агзамова Е.Ю., Обидов А. Э., Джураев А.С.

Editorial Board
Editor-in-chief:
Begimkulov U.S.
Deputy Editor-in-chief:
Ismadiyarov Ya.U.
Executive Secretary:
Umaralieva M.A.
Members of the Editorial Board:
Mardonov Sh.K., Milan P., Narzikulova F.B., Yuzlikayev F.R., Kodirov A.S., Soliyeva Z.T., Isyanov R.G., Kodirov G.U., Avazboyev A.I., Mullaxmetov R.G., Nabiulina L.M., Raximmirzayev S.B., Matnazarova M.B., Yusupova E.F.Djanpeisova G.E., Begatov J.M, Adashboyev Sh.M., Parpiyeva M.M., Choriyev I.R., Abdullaxodjayev G. T., Asanova S.A., Abdullayeva N. J., Umirzakova N. A., Agzamova YE.Y., Obidov A. E., Djurayev A.S.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Novoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: info@miptk.uz Tel: +998951448805, Faks: +998951448805
Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ’’**BELARUS-O‘ZBEK ILMIY-METODIK JURNAL**I’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.
Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir

“SAHHOF” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: 5.03.2026-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi 50 nusxa. 5-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

© BELARUS-O‘ZBEK ilmiy-metodologik jurnal, 2026.